Rey Bredberi
MARSGA HUJUM
Roman

SHOUT
SHARE
IT

Annotation

Amerikaning mashhur fantast yozuvchisi Rey Bredberining nomi va asarlari o‘zbek o‘quvchilariga ham yaxshi tanish. Endi adibning shoh asari “Marsga hujum”ni siz aziz fantastika ixlosmandlariga havola etmoqdamiz. Oltmish yoshida ilk marta uchoqqa chiqqan, uyida eski yozuv mashinkasidan boshqa bironta zamonaviy texnika uskunasi bo‘lmagan Rey Bredberi favqulodda quvvai zehni bilan olis-olis galaktikalarga xuddi fazogirlarday “sayohat” qiladi va mo“jizaviy taassurotlarini jahon ahli bilan baham ko‘radi.

Muallifning fantastika vositasida bunday g‘aroyib “sayohat”lari zamirida ulkan majoziy ma’no yotadi — u Yerdagi hayot, xususan ona tabiatga munosabat allaqachon izdan chiqqanligini alam, o‘kinch va zaharxandalik bilan ifoda etadi. Hatto biz shaffof marsliklar istiqomat qiladi deb tasavvur etganimiz Mars sayyorasini ham mana shu odamlar allaqachon boshiga yetib bo‘lganini alohida uqtiradi. Bu esa Yerdagi har bir odamni chuqurroq o‘ylashga, hushyor bo‘lishga da’vat etadi.

“Jahon adabiyoti” jurnalidan

- Rey Bredberi
- Yanvar 1999
- Fevral 1999
- Avgust 1999
- Avgust 1999
- Mart 2000
- Aprel 2000
- Iyun 2001
- Avgust 2001
- Dekabr 2001
- Fevral 2002
- Avgust 2002
- Oktabr 2002
- Fevral 2003
- Aprel 2003
- Iyun 2003
- 2004–2005
- Aprel 2005
- Avgust 2005
- Sentabr 2005
- Noyabr 2005
- Noyabr 2005
- Noyabr 2005

- Dekabr 2005
- Aprel 2026
- Avgust 2026
- Oktyabr 2026

Rey Bredberi
Marsga hujum

“Hayratga tushish qobiliyati buyuk ishdir,
— dedi faylasuf. — Kosmik parvozlar
bizlarni yana bolalarga aylantirib qo‘ydi”.

Roman

Yanvar 1999
RAKETA YOZI

Hozirgina Ogayo qishi hukmron edi: eshik va derazalar taqa-taq yopilgan, oynalarni qalin qirov bosgan; tomlarning qirralaridan nayzasimon sumalaklar osilib turar, bolalar tepaliklardan chang‘ilarda o‘qdek uchar, qora ayiq mo‘ynasidan tikilgan po‘stinli ayollar sirpanchiq ko‘chalarda kezinar edilar.

To‘satdan issiq havo to‘lqini shahar bo‘ylab yoyildi, xuddi tasodifan ochiq qolgan novvoyxona eshigidan chiqqan hovur singari hammayoqni issiq havo qopladi. Uylardan shovullab suvlar oqdi.

Butalar va bolalarning egnilari ho‘l bo‘ldi. Tomlardan sumalaklar uzilib tushar, yerga tushib mayda-mayda bo‘lar va erib ketar edi. Eshiklar lang ochildi. Osmonda bulutning choki so‘kildi. Bolalar egnilaridan sviterlarini yechib otdilar. Onajonlar ham ayiq mo‘yna po‘stinlarini yelkalaridan tashladilar.

Qor erib, o‘tloqzorda bulturgi maysalar mung‘ayib ko‘rindi.

Raketa yozi. Og‘izdan-og‘izga, uydan-uyga shu ikki so‘z ko‘chib yurar edi: Raketa yozi. Xuddi cho‘l nafasidek qaynoq havo derazalardagi muz naqshlarni eritib yubordi, ular o‘rnida nafis kashtalar suzilib ko‘rindi. Chang‘i va konkilar birdan kerak bo‘lmay qoldi. Ayozli osmondan tepalik ustiga qo‘nayotgan qor yergacha kelmay, havodayoq qaynoq yomg‘irga aylanmoqda edi.

Raketa yozi. Odamlar yomg‘ir tomchilari pitraday to‘kilayotgan ayvondan boshlarini chiqarib, qizara boshlagan osmonga qarar edilar.

Pushtirang olov va cho‘g‘dek hovur ufurib turgan kosmodromda raketa qaddini g‘oz tutib turar edi.

Ayozli qish tongida raketa o‘zining qudratli otash nafasi bilan atrofni yoz qilib yuborayotgandi. Raketa ob-havo yaratmoqda va bir necha lahzadan buyon chor atrofda yoz hukm surmoqda edi…

Fevral 1999
ILLA

Ular Mars sayyorasida, billur ustunli uyda qurib qolgan dengiz sohilida yashar edilar va har kuni erta bilan missis K.ning billur devorlardan yetilib chiqqan oltin mevalarni yeyayotganini yoki qaynoq shamol axlatlar bilan birgalikda uchirib kelgan ohanrabo changini hovuchlab sochgancha o‘sha yerlarni tozalayotganini ko‘rish mumkin edi. Kechga yaqin qadimiy dengiz harakatsiz va qaynoq holga kelgan bir paytda hovlidagi anjir daraxtlari qilt etmay qolar edi va ko‘hna Mars shaharchasi yop-yolg‘iz so‘ppayib turar edi, hech kim ko‘chaga chiqmas, mister K.ni esa o‘z xonasida bo‘rtiq ierogliflarni arfa torlari kabi barmoqlari bilan chertgancha ma’dan kitobni o‘qiyotganini ko‘rish mumkin edi. Uning qo‘l ostida kitob qo‘shiq kuylardi, kuylovchi qadimiy tovush dengiz o‘zining qirmizi tumani bilan sohillarni qoplab olgan va qadimiy odamlar ma’dan nayza va elektr to‘rlari bilan qurollanib, jangga ketayotgan odamlar haqida rivoyat qilardi.

Mister va missis K. yigirma yil o‘lik dengiz sohilida yashashdi va ularning otalari va bobolari ham, mana, o‘n asrdirki, gulga o‘xshab quyosh tomonga yuz burib aylanib turgan mana shu uyda istiqomat qilib kelgan edilar.

Mister va missis K. hali unchalik keksa emas edilar. Ularning yuzlari chinakam marsliklardek toza, qorachadan kelgan edi. Ko‘zlari oltin tangalardek sap-sariq, ovozlari mayin va yoqimli. Ilgari ular kimyoviy olov bilan suratlar chizishni yaxshi ko‘rar edilar, sharob daraxtlari limmo-lim to‘lib oqqan anhorlarda suzishni yoqtirishardi, keyin esa tonggacha xilvatgina xonada moviy nur taratib turgan portretlar tagida suhbat qurar edilar.

Endi ular unchalik baxtli emas edilar.

O’sha kuni ertalab missis K. xuddi sariq mumdan chaplab yasalgandek, hosilsiz qumlarning uzoq-uzoqlarga taralayotgan jazirama hovuriga quloq tutgancha ustunlar o‘rtasida tik turar edi.

Nimadir sodir bo‘lishi kerak edi.

Ayol kutar edi.

U ana-mana qum ustiga chaqnovchi mo‘‘jizani keltirib bosmoqchi, siqmoqchi va ezib yanchmoqchi bo‘lgan moviy Mars osmonidan ko‘z uzmay qarab turardi.

Ammo hamma narsa o‘sha-o‘sha edi.

Kutaverish joniga tekkach, ayol tumanli ustunlar oralig‘ida u yoqdan-bu yoqqa yura boshladi.

Bo‘g‘otdagi tarnovlardan yomg‘ir jilg‘alanib oqardi, bundan

tandirdek qizigan havo biroz salqin tortgandek, uning badanini silagandek bo‘lardi. Jazirama kunlarda bu daryoga tushib cho‘milish bilan baravar edi. Salqin jilg‘alar yerni ho‘l qildi. Erining kitobni tinmay chalayotgani qulog‘iga chalinib turardi; qadimgi ohanglar uning barmoqlariga zarracha ta’sir qilmayotgandek edi.

Ayol xayajonsiz o‘ylardi: qachonlardir xuddi anavi o‘zining kishi aqli yetmas kitoblariga mo‘‘jaz arfaga yopishgandek mahkam yopishib olgan, xuddi ilgari bo‘lganidek, vaqt-soati kelib eri uni ham bag‘riga bosishiga, yuz-ko‘zlarini silab erkalashga vaqt topa olishiga imoni komil edi.

Afsus! Ayol boshini chayqadi, hafsalasi pir bo‘lgandek bilinar-bilinmas yelkalarini uchirib qo‘ydi, oltinrang kiprikli ko‘zlarini asta berkitdi. Nikoh hattoki ilgaridan tanish bo‘lgan yosh yigit-qizlarni ham keksa qilib qo‘yadi…

Ayol o‘rindiqqa cho‘kdi, o‘rindiq bamisoli uning butun vujudini bag‘riga oldi. U asabiy qoshlarini chimirdi va ko‘zlarini yumdi. Ayol tush ko‘ra boshladi. Qoracha barmoqlari titrab ketdi, beixtiyor havoda o‘ynay boshladi. Lahza o‘tib, ayol o‘rindiqda cho‘chib qaddini rostladi va og‘ir-og‘ir nafas ola boshladi.

U xuddi birovni ko‘rmoqchi bo‘lgandek shosha-pisha xonaga razm solib chiqdi. Taajjub: ustunlar oralig‘i bo‘m-bo‘sh edi.

Uchburchak eshikda eri ko‘rindi.

— Sen meni chaqirdingmi? — g‘ijinib so‘radi eri.

— Yo‘q! — deyarli qichqirib javob berdi ayol.

— Menga xuddi qichqirgandek bo‘lib tuyulding.

— Rostdanmi? Men mizg‘ib tush ko‘rayotgan edim.

— Kunduziya? Senda ilgari hech bunaqa bo‘lmasdi-ku.

Ayolning ko‘zlaridan uning o‘zi ham tush ko‘rganidan taajjublangani shundoq ko‘rinib turardi.

— Qiziq, judayam qiziq, — g‘udrandi ayol. — Bu tush…

— Xo‘sh? — eri kitobga qaytib borishga toqatsizlanayotgan edi.

— Tushimga bir erkak kiribdiki…

— Erkak?

— Baland bir erkak. Bo‘yi olti fut bir dyuym1 keladi.

— Bu qanaqasi: butun boshli bir dev, alvasti-ku!

— Nimagadir, — ayol dona-dona qilib so‘zlay boshladi, — u alvastiga o‘xshamasdi. To‘g‘ri, bo‘yi juda baland edi. Uning — eh, bilaman, bu gaplar senga alahsirashga o‘xshaydi — uning ko‘zlari ko‘m-ko‘k edi!

— Ko‘zlari ko‘m-ko‘k edi, — takrorladi mister K. — Ey xudoyim, keyingi gal qanaqa tush ko‘rar ekansan-a?! Hali qop-qora sochli odam ham ko‘rdim dersan.

— Buni qanday bilding? — dedi ayol.

— Shunchaki to‘g‘ri kelgan rangni aytdim-qo‘ydim-da, —

quruqqina javob berdi er.

— Ha, sochlari qop-qora! — qichqirib dedi ayol. — Badani esa oppoq. Judayam g‘alati odam!

Egnidagi kiyimlari ham g‘alati, u osmondan inib tushdi-da, men bilan muloyim gaplasha ketdi.

Ayol jilmaydi.

— Osmondan emish. Shu ham gap bo‘ldi-yu.

— U quyoshda charaqlab turgan ma’dan mashinada uchib keldi, — eslay boshladi missis K. U ko‘rganlarini ko‘z oldiga keltirish uchun ko‘zlarini yumdi. — Tushimga osmon kirdi. Shunda bir narsa yalt etdi. Xuddi havoga otilgan tangadek. Keyin u kattalasha boshladi. Kattalashib-kattalashib yerga ravon tushib keldi, — bu uzun kumushrang dumaloq kema, begona kema edi. So‘ng biqindagi eshik ochildi-da, undan baland bo‘yli bir erkak chiqib keldi.

— Ko‘proq ishlaganingda bunday ahmoqona tushlar ko‘rmas eding.

— Menga esa bu juda yoqdi, — javob berdi ayol o‘rindiqqa o‘zini tashlab. — Shunday narsalarni tasavvur qilaman deb hech xayolimga kelmagandi. Qop-qora sochlar, ko‘m-ko‘k ko‘zlar, oppoq badan!

Qanday ajoyib erkak, buning ustiga, juda chiroyli ham.

— Senga shunaqa tuyulgan.

— Voy ichi qora-ey. Men shunday bo‘lishini xohlaganmidim, pinakka ketganimda u o‘zi paydo bo‘lib qoldi. Hatto bu tushga ham o‘xshamaydi. Birdan kutilmaganda, g‘ayri oddiy bir tarzda… U menga qaradi-da: shunday dedi: “Men bu kemada uchinchi sayyoradan uchib keldim. Mening ismim Nataniel Yor…”

— Bema’ni ism, — e’tiroz bildirdi eri. — Bunaqa bo‘lishi mumkin emas.

— Albatta, bema’ni-da, axir bu tush edi-ku, — itoatkorona qo‘shildi ayol. — U yana: «Bu koinot orqali birinchi parvozimiz. Kemada biz ikki kishi edik, men va do‘stim Berg», — dedi.

— Bunisi undan ham bema’niroq ism ekan.

— U shunday dedi: «Biz yerdagi shahardan keldik, sayyoramizning nomi shunaqa», — davom etdi missis K. — Bu uning so‘zlari. Ha, shunday dedi — Yer. Keyin u bizning tilimizda gapirmadi. Lekin men bir amallab uni tushundim. Zehnim-da. Bu telepatiya, albatta.

Mister K. orqasiga o‘girilib, keta boshladi. Biroq xotinining ovozidan u yana to‘xtadi.

— Ill! — asta chaqirdi ayol. — Sen hech uchinchi sayyorada odam bor-yo‘qligi haqida o‘ylab ko‘rganmisan?

— Uchinchi sayyorada hayot bo‘lishi mumkin emas. — Bosiqlik bilan tushuntira boshladi eri. — Olimlarimiz shuni aniqlaganlarki, u

yerda havoda kislorod haddan tashqari koʻp. U yerda odamlar yashaganida qanday zoʻr boʻlar edi-ya! Qanaqadir gʻalati kemalarda koinotda sayohat qila olishganda nur ustiga nur boʻlardi.

— Menga qara, Ill, oʻzing yaxshi bilasan, men bunaqa safsatalarni jinimdan yomon koʻraman.

Undan koʻra ishdan gapir.

Ayol yomgʻir tomchilib turgan ustunlar oraligʻida odimlab yurganida kech kirib qolgan edi. Oʼsha-oʻsha kuy, oʻsha-oʻsha ohang.

— Shu ham qoʻshiq boʻldi-yu. — Chidayolmay toʻngʻilladi eri, olov stolga borar ekan.

— Bilmadim.

Ayol beixtiyor goʻsht boʻlaklarini qaynab turgan olovga tashladi.

— Bilmayman. — Ikkinchi lahzada goʻsht pishib tayyor boʻlgan edi. Ayol uni olov ichidan oldi-da, likopchaga solib eriga tutdi. — Eh, balki bu koʻnglimga oʻz-oʻzidan kelib qolgan safsatadan boshqa hech narsa emasdir, nimagaligini oʻzim ham bilmayman.

Eri boshqa hech nima demadi. Xotinining goʻshtni vishillab turgan olov halqobi ichiga qanday tashlayotganini tomosha qilib turardi. Quyosh ufq ortiga yashirindi.

Xonaga asta-sekin tun kirib kela boshladi, u ustun va er-xotinni yamlagancha oʻzining tundek qora sharobi bilan xona shiftigacha limmo-lim toʻldi. Faqat kumushrang olov ularning yuzlarini gʻira-shira yoritib turardi.

Ayol yana gʻalati qoʻshiqni kuylay boshladi.

Er oʻrnidan sapchib turdi-da, gʻazab bilan eshik tomon yoʻnaldi.

Bir ozdan soʻng er kechlik ovqatni oʻzi tanovul qildi.

Stoldan turdi-da, kerishdi, xotiniga qaradi va esnab turib taklif kiritdi:

— Olov qushlarga minib shaharda bir chigilyozdi qilib kelmaymizmi?

— Jiddiy aytayapsanmi? — soʻradi xotin, — isitmang yoʻqmi?

— Buning nimasiga ajablanasan?

— Axir biz yarim yildan beri hech qayoqqa borganimiz yoʻq-ku?

— Bu ham chakki fikr emas.

Oʼzidan hayron boʻlganicha ayol eriga qaradi. Ensasi qotib, qoʻlini ogʻziga olib bordi. Quyosh botmoqda edi. Atrofni qorongʻilik qoplagan sayin xuddi ulkan gul kabi uy yopilib borar edi. Ustunlar oraligʻida shabada esdi, olov stolda bir mittigina kumushrang olov koʻlchasi qaynar edi. Shamol missis K.ning qizgʻish sochlarini taragancha, uning qulogʻiga nimalaridir shivirlar edi. Oltinrang xira nigohini ufqqa, dengizning oqish-sargʻish yuziga tikkancha u jimgina turar edi. Shunda xotirasida qandaydir qoʻshiq satrlari jonlandi:

Nigohimda qadah sunarman,

Ishqingga shul erur javobim,

— deya ayol past va mayin ovozda xirgoyi qila boshladi.

Lablarimdan may simir, jonim,
O’zga maydan gapirma zinhor.

Missis K. takror xirgoyi qildi. Biroq endi so‘zlarsiz, ko‘zlarini yumib kuyladi, qo‘llari esa bamisoli havoda raqs tushar edi. Oxiri u jim bo‘lib qoldi.

Kuy chindan ham ajoyib edi.

— Bu qo‘shiqni endi eshitayapman. Sen o‘zing to‘qidingmi? — jiddiy ohangda so‘radi eri undan, sinovchan boqib.

— Yo‘q… Ha… To‘g‘risi, bilmayman! — Ayol sarosimada edi. — Men so‘zlarini ham bilmayman — allaqanday begona tildagi qo‘shiq edi.

— Qanaqa tilda?

— Bugun quyosh qayoqdan chiqdi?

— Kel endi, — qo‘l siltab dedi er. — Borasanmi-yo‘qmi, shuni ayt.

Ayol oqishtob cho‘lga razm soldi. Ikki oppoq oy ufq ortidan ko‘tarilib chiqdi. Muzdek suv oyoq panjalarini silar edi. Uning badani yengil jimirlab ketdi. Hammadan ham ayol shu yerda qolishni, churq etmay bir joyda jim o‘tirishni xohlar edi, u kuni bilan o‘ylagan narsasining, — sodir bo‘lishi lozim va sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan narsaning amalga oshishini kutmoqda edi… Qo‘shiqning nafis ohangidan yuragi hapriqib ketdi.

— Men…

— Senga yaxshi bo‘ladi, — dedi eri. — Qani, ketdik.

— Men charchadim, — javob berdi xotini, — boshqa safar boramiz.

— Mana bu sharfing, — er unga shisha idishchani tutdi. — Necha oydirki, ikkalamiz hech yerga chiqqanimiz yo‘q.

— Sening haftasiga ikki martadan Ksi-Sitiga qilgan safarlaringni hisobga olmaganda, — dedi u eriga, undan ko‘zini olib qochgancha.

— Ish bor, — dedi eri.

— Ish bor, — shivirladi ayol.

Shisha idishchadan suyuqlik otilib chiqdi. Moviy zulmatga aylandi-da, ayolning bo‘yni atrofidan vishillab aylanib doira yasadi.

Tep-tekis, muzdek qum uzra, xuddi laqqa cho‘g‘dek charaqlab, olov qushlar muntazir edi.

Qushlarga ko‘plab yashil tasmalar bilan bog‘lab qo‘yilgan oppoq chodir tungi shamol epkinidan qappayib hilpirardi.

Illa chodir ostida yotardi, erining buyrug‘i bilan olov ufurgan

qushlar tim qora osmonga ko‘tarildi.

Tasmalar taranglashdi, chodir havoda suzib borardi. Qumlar shuvullagancha pastga to‘kildi. Moviy tepaliklar ularning uyini yomg‘irli ustunlarni, qafasdagi gullarni, kuylovchi kitoblarni, yerdagi unsiz, irmoqlarni orqada qoldirgancha shundoq yonginalaridan bir-bir o‘tib borar edi. Ayol eriga qaramasdi.

Erining qushlarga qarab qichqirishlarini eshitib turardi. Qushlar esa tobora ko‘tarilib borar, shu parvozda ular bamisoli laqqa cho‘g‘lardek qip-qizil mushaklarga o‘xshab krinar edi.

Ayol pastda miltirab ko‘rinib turgan qadimgi o‘lik shaharlarga, xuddi suyakdan yasalgan shatranj donalari kabi uylarga qaramasdi, bo‘shliq va ermaklarga limmo-lim qadimgi anhorlar ham uning uchun bir pul edi. Bamisoli oy nuriday porloq mash’al kabi ular qurib qolgan daryolar va suvsiz ko‘llar ustidan uchib o‘tmoqda edilar.

Ayol faqat osmonga qarar edi.

Er nimadir dedi.

Ayolning ko‘zi osmonda.

— Nima deganini eshitdingmi?

— Nimani?

Er qattiq xo‘rsindi.

— Sal hushingni yig‘sang bo‘larmidi…

— O’yga cho‘mib qolibman.

— Tabiatga bunchalik shaydoligingni bilmas ekanman. Bugun ko‘zingni osmondan sira ololmayapsan.

— Osmon juda ham chiroyli.

— Bilasanmi, men nima haqda o‘yladim, — asta davom etdi er, — bugun Xallga telefon qilmaymizmi? Bir haftaga kelyapmiz deb aytamiz. Undan ko‘p emas. To‘g‘rim sizlarnikiga. Moviy tog‘larga borayapmiz, deymiz. Qalay, zo‘r fikrmi?

— Moviy tog‘larga! — Ayol bir qo‘li bilan chodir chekkasidan tutdi-da, eri tomon keskin o‘girildi.

— Bu taklif, xolos.

— Xo‘sh, qachon bormoqchisan? — asabiy so‘radi ayol.

— Yo‘q demasang, ertaga ertalaboq jo‘naymiz, — shoshib javob berdi er. — O’zing bilasan, qancha tez boshlasang, shuncha…

— Axir biz hech qachon bunday erta chiqib ketmagandik-ku?

— Bu yil shu istisno bo‘ladi, — er jilmaydi. — Holatni o‘zgartirib turganga nima yetsin. Osuda, tinch yashash qanday yaxshi. Xullas, o‘zingdan qolar gap yo‘q. Yanglishmasam boshqa rejalaring yo‘qdir, a? Qalay, boramizmi?

Ayol xo‘rsindi, chaynaldi, so‘ng dedi:

— Yo‘q.

— Nima?! — erning ovozidan qushlar cho‘chib tushdi, chodir bir

silkindi.

— Yo‘q, — qat’iy dedi ayol, — men bormayman.

Er ayolga qaradi. Masala hal bo‘lgan edi. Ayol orqaga o‘girildi. Qushlar uchishda davom etdi.

Shamol quvgan o‘n ming burchak tezligida. Tongda quyosh billur ustunlar orasidan o‘z nurlarini sochgancha uxlab yotgan Illa ustidagi tumanni haydab yubordi. Tun bo‘yi ayol yumshoq bulut to‘shagi uzra suzgandek yerda parvoz qilib chiqdi. Tuman esa Illa yostiqqa bosh qo‘ygan zahoti devorlardan oqib tushgan edi. Tun bo‘yi ayol mana shu harakatsiz daryo uzra dong qotib uxladi. Endi bulut g‘oyib bo‘lmoqda va nihoyat daryo Illani bedorlik sohilida qoldirgancha uyquni urardi.

Ayol ko‘zini ochdi.

Uning boshida eri turardi. Eri bu yerda bir necha soatdan beri turgandek bo‘lib ko‘rinmoqda edi.

Nimagadir Illa erining ko‘ziga qarashga botinolmayotgandi.

— Yana shu tushni ko‘rdingmi? — dedi u. — Tinmay uyqingda gapiraverib, meni mijja qoqtirmading. Vrachga ko‘rinmasang bo‘lmaydi.

— Menga hech narsa bo‘lgani yo‘q.

— Uyqingda rosa alahsiraganing-chi,

— Shunaqami? — Ayol shoshib turib o‘tirdi.

Xona ichi sovuq edi. Tonggi g‘ira-shira yorug‘likda Illaning qomati namoyon bo‘ldi.

— Nima tush ko‘rding?

Ayol eslashga harakat qilib sukut saqladi.

— Kema. U yana osmondan tushdi, undan baland bo‘yli odam chiqib keldi va men bilan gaplasha boshladi. U bir gapirib o‘n kular, bu esa menga yoqardi.

Mister K. qo‘li bilan ustunni turtdi. Hovur qoplagan iliq suv jilg‘alari xonadagi sovuqni haydab chiqarmoqda edi. Mister K.ning chehrasi ma’nosiz edi.

— Keyin esa, — davom etdi ayol, — Nataniel York ismli bu g‘alati erkak, siz go‘zalsiz dedi va meni o‘pib oldi.

— Xah! — qichqirdi er va orqaga o‘girildi.

— Bu bor-yo‘g‘i tush-ku, — dedi ayol o‘zicha xursand bo‘lib.

— Ahmoqona ayolcha tushlarni so‘zlashni qachon bas qilasan?

— Xuddi bolaga o‘xshaysan-a! — U so‘nggi bir parcha kimyoviy tumanga o‘zini tashladi. Zum o‘tmay ayol asta kulib qo‘ydi.

— Men yana nimanidir eslay boshladim, — Iqror bo‘ldi ayol.

— Xo‘sh, xo‘sh, nima ekan? — qichqirdi er.

— Ill, shunaqangi injiqsanki…

— Bo‘l, gapir, — talab qildi er. — Sen mendan hech narsani sir tutishing mumkin emas.

Er ayolning boshi uzra o‘zining sovuq, tund chehrasi bilan unga qarab turardi.

— Men seni hech qachon bunday holda ko‘rmagandim, — javob berdi Illa, uni ham qo‘rqinch, ham zavq tuyg‘usi qamrab olgandi. — Hech bunaqasi bo‘lmagandi, o‘sha Nataniel York aytdiki… Xullas, u menga aytdiki, meni o‘zining sayyorasiga olib borar ekan. Albatta, bu bo‘lmagan gap.

— Hamma gap shunda-da, bo‘lmagan gap. — Deyarli ovozi boricha qichqirib dedi er. — O’zingni sal naridan turib bir eshitib ko‘rganingda edi: u bilan birga o‘ynaganingni, u bilan gaplashganingni, u bilan qo‘shiq aytganingni, tun bo‘yi shunday qilganingni, ey xudoyim, bir o‘zingga razm solib qaraganingda bormi?

— Ill!

— U qachon qo‘nadi? La’nati kemasida qachon pastga tushib keladi?

— Ill, ovozingni ko‘tarmasang-chi.

— Padariga la’nat bu ovozning! — er g‘azab ichida ayol uzra engashdi. — Manovi sening tushingda… — u ayolning panjasini siqdi. — Kema yashil vodiyga qo‘ngandir-a? Javob ber!

— Ha, vodiyga…

— Bugun kechga yaqin ko‘ngandir-da? — tinib-tinchimayotgandi er.

— Ha, ha, shunaqa bo‘lsa kerak. Lekin bu faqat tush edi, xolos.

— Bo‘pti. — Er jahl bilan uning qo‘lini siltadi. — Yaxshiyamki aldamaysan, tushingda aytgan hamma gaplaringni eshitdim. Har bir so‘zigacha, vodiyni ham, vaqtni ham o‘zing aytding.

Og‘ir-og‘ir nafas olgancha er chaqmoqdan ko‘zi qamashgandek ustunlar oralab yurib ketdi. Asta-sekin uning nafas olishi ravonlashdi. Ayol eridan ko‘z uzmas edi — ishqilib jinni-pinni bo‘lib qolmadimikan? Oxiri ayol o‘rnidan turdi-da, uning oldiga bordi.

— Ill, — shivirladi ayol.

— Hechqisi yo‘q, hechqisi yo‘q…

— Sen kasalsan.

— Yo‘q, — er horg‘in, zo‘r-bazo‘r jilmaydi. — Bolalikdan boshqa hech narsa emas. Meni kechir, azizam. — U ayolni qo‘polgina silab qo‘ydi. — O’zimdan o‘tdi, kechir. Bo‘pti, men borib yotay…

— Juda o‘zingni urintirib qo‘yding.

— Endi hammasi joyida. O’tib ketdi. — Er uh tortib qo‘ydi. — Kel, bularni unutaylik. Ha, men kecha Uell haqida bir latifa eshitgandim. Shuni senga aytib bermoqchi edim. Sen nonushta tayyorlayver, men senga latifani aytib beraman, mana bu haqda esa boshqa gaplashmaymiz.

— Bu bor-yo‘g‘i tush edi, xolos.

— Bo‘lmasa-chi. — Er beixtiyor uning yuzidan o‘pdi. — Bor-yo‘g‘i

tush edi, xolos.

Tushga kelib oftob battar kuydira boshladi, tog‘lar bamisoli uning hovurida suzmoqda edi.

— Shaharga bormaysanmi? — so‘radi Illa.

— Shaharga? — er qoshini xiyol ko‘tardi.

— Sen har doim shu kuni ketasan, — ayol taglik ustidagi gullarni to‘g‘riladi. Gullar harakatga kelib, katta-katta sariq og‘izlarini ochdi.

Er kitobni yopdi.

— Yo‘q, haddan tashqari issiq. Buning ustiga, kech bo‘ldi.

— Shunaqa de, — ayol ishni tugatdi-da, eshik tomonga bordi, — men darrov qaytaman.

— To‘xta, qayoqqa?

Ayol eshikka yetib bo‘lgan edi.

— Paoning oldiga. U meni taklif qilgan edi.

— Bugunmi?

— Uni ko‘rmaganimga yuz yil bo‘ldi.

— Uzoq emas-ku. Yashil vodiyda, agar yanglishmasam, shundaymi?

— Ha, qo‘l uzatsa yetadi. Shunday bir… — Ayol toqatsiz edi.

— Meni kechir, — dedi er uning ortidan juda tashvishli qaragancha, — butunlay esimdan chiqibdi: men bugun doktor Nlleni taklif qilgan edim-ku.

— Doktor Nlleni? — ayol eshik tomon yo‘naldi.

Er uni tirsagidan tutdi-da, shahd bilan xonaga qaytarib olib kirdi.

— Ha.

— Pao nima bo‘ladi?

— Pao qochib ketmaydi. Biz Nlleni kutib olishimiz kerak.

— Boramanu, qaytaman.

Er yo‘q degandek boshini chayqadi.

— Ha, yo‘q. Buning ustiga, ularning uyigacha ancha yurish kerak bo‘ladi. Butun yashil vodiydan o‘tib, katta anhor ortida-ya. So‘ng yana pastga qarab ketiladi… Havoniyam ko‘rmaysanmi, yondiraman deydi. Doktor Nlle seni ko‘rib rosa xursand bo‘lardi. Eshitdingmi?

Ayol hech nima deb javob bermadi. U faqat bir balo qilib chiqib ketsa-yu, bu yerdan qochib qolsa — shuni o‘ylardi. Ovozining boricha qichqirishni istardi. Lekin u tuzoqqa tushgandek o‘rindiqda o‘tirar, asta-asta qimirlatayotgan barmoqlaridan ko‘zlarini uzmasdi.

— Illa, — to‘ng‘illadi er. — Hech qaerga ketmaysan, shundaymi?

— Ha, — dedi ayol uzoq sukunatdan so‘ng. — Ketmayman.

— Kun bo‘yi uyda bo‘lasanmi?

Ayol bo‘g‘iq ovozda javob berdi:

— Ha, kun bo‘yi.

Bir necha soat o‘tsa hamki, doktor Nlledan dom-darak yo‘q edi.

Aftidan, Illaning eri bundan u qadar taajjubga tushmayotgandi. Kechga yaqin u g‘udrangancha shkaf oldiga bordi-da, undan mudhish qurolni — burma charmli va uchida tepkisi bo‘lgan uzun sarg‘ish naychani oldi. U bu tomonga yuzlandi — uning yuzida kumush ma’dandan yasalgan niqob ifodasi yo‘q edi. Holbuki u o‘z tuyg‘ularini yashirish uchun shu niqobni kiyib olardi. Bu niqob uning ozg‘in yuzi, iyagi, manglayidagi barcha o‘ydim-chuqurlarga judayam mos kelardi. Niqobni kiyib olib, u o‘zining dahshatli qurolini qo‘lida ushlagancha aylantirib tomosha qilardi. Qurol to‘xtovsiz g‘o‘ng‘illardi. Go‘yo u bir daf’ada butun bir oltin asalarilarni sochishga qodir edi. Bu asalarilar o‘zlarining dahshatli nishlari bilan chaqar, zaharlarini solib o‘ldirar, so‘ng go‘yo qum ustiga tushgan urug‘lardek chala o‘lik holda yerga qular edilar.

— Yo‘l bo‘lsin? — so‘radi xotin.

— Nima? — Illa charmlarga, dahshatli g‘o‘ng‘illashga quloq tutdi. — Doktor Nlle shunchalik xayallayaptiki, uni kutgani ortiq toqatim qolmadi. Ov ovlab kelaman. Darrov qaytaman. Sen esa shu yerda bo‘lgin, hech qaerga ketma. Xo‘pmi? — Kumushrang niqob charaqlab ketdi.

— Ha.

— Doktor Nllega aytib qo‘y, men darrov qaytaman. Bor-yo‘g‘i ov qilgim kelib qoldi.

Uchburchak eshik yopildi. Qiyalikdan uning uzoqlayotgan odimlari tovushi eshitilib turdi.

Eri quyosh tomon ketib borar ekan, to u ko‘zdan g‘oyib bo‘lguncha ayol uning ortidan qarab turdi.

So‘ng o‘z yumushlariga unnab ketdi: ohanrabo changlarini tozalash, billur devorlardan yangi mevalarni uzish kerak edi. U tirishqoqlik va shoshqaloqlik bilan ishlar, biroq vaqti-vaqti bilan uni qandaydir jazava chulg‘ar edi. Shunda u o‘zining mana bu g‘alati, sira shuurini tark etmayotgan qo‘shiqni kuylayotgan holda ko‘rar, ko‘zlari esa billur ustunlar ortidan turib osmonga razm solayotgan bo‘lardi.

Ayol nafasini ichiga yutgancha jim kutar edi.

— Ana, kelib qolishdi…

— Hozir boshlanadi.

Shunday kunlar bo‘ladiki, momaqaldiroq yaqinlashib kelayapti, chor atrofda esa chuqur sukunat hukmron. Shu tob bosim sezilar-sezilmas o‘zgaradi — bu sayyora uzra uchib borayotgan yomon ob-havoning nafasi, uning soyasi, shamoli, pardasi. Havo quloqlariga bosim beradi, sen esa yaqinlashib kelayotgan bo‘ronni kutgancha tordek tarang tortilasan. Vujudingni titroq qoplaydi. Osmon rangin, bulutlar quyuqlashadi, tog‘lar cho‘yan rangiga kiradi. Katak-katak gullar ogohlantirgan kuyi asta xo‘rsinadilar. Boshdagi sochlar xiyol qimirlaydi. Uyning allaqaeridagi soat tinimsiz bong uradi: “Vaqt, vaqt,

vaqt, vaqt…” Soat ovozi shu qadar mayin eshitiladiki, go‘yo baxmal ustiga tushgan suv tomchisidek.

To‘satdan, momoqaldiroq! Elektr yalt-yult qiladi va osmon uzra qora to‘lqin va momoqaldiroqli bulutning hamma narsani yamlab yuboruvchi mavjlari ustma-ust yopirilib tusha boshlaydi.

Hozir ham shunday bo‘ldi. Garchi osmon ochiq bo‘lsa-da, bo‘ron yaqinlashib kelardi. Garchi bulut bo‘lmasa-da, chaqmoq chaqishi aniq edi.

Illa sukunat hukmron yozgi xonadon xonalari bo‘ylab kezinardi. Har daqiqa osmondan chaqmoq kelib tushishi, havoni gumburlagan ovoz bilan larzaga solishi, to‘p-to‘p bulutlar bosishi mumkin edi.

Jimjitlik, yo‘lakdagi odimlar, billur eshikning qoqilishi — barchasi uni ta’qib etardi va u o‘qday otilgancha ularga peshvoz chiqardi…

“Jinni Illa! — xayolan kinoyali jilmayib qo‘ydi ayol, — sening bu tentak xayolingga nimalar kelmaydi.

Shu tob o‘sha narsa yuz berdi. Jazirama issiq havo xuddi ulkan alanga singari yonidan uchib o‘tdi.

Shiddatli tovush quloqni teshdi. Osmon yorishib, ma’danlar chaqnadi.

Illa beixtiyor qichqirib yubordi.

U ustunlar orasidan yugurib o‘tdi-da, eshikni lang ochib yubordi. Ayol tog‘larga tikildi. Lekin u yerda hech narsa yo‘q edi…

Qiyalikdan pastga otilmoqchi bo‘ldi, biroq va’dasi esiga tushib qoldi. U shu yerda bo‘lishi, hech qayoqqa ketmasligi kerak. Doktor har daqiqada kelib qolishi kerak, agar u bu yerdan ketib qolsa, erining jahli chiqadi.

U tez-tez nafas olgancha va bir qo‘lini oldinga cho‘zgancha eshik oldida to‘xtab qoldi.

Yashil vodiy yastangan joyda nimanidir ko‘rishga harakat qildi, lekin hech narsani ko‘rmadi.

“Jinni! — u xonaga qaytib keldi — bular hammasi bo‘lmag‘ur xayollar, hech narsa bo‘lmagan. Faqat shunchaki qush varaq, shamol yoki anhordagi baliq. O’tirgin-da, o‘zingga kelib ol”.

Ayol o‘tirdi.

O’q tovushi yangradi.

Aniq, baland ayanchli ovoz.

Ayol titrab ketdi.

O’q ovozi uzoqdan kelgan edi. Bir martagina otildi. Tezuchar asalarilarning uzoqdan kelayotgan g‘o‘ng‘illashiga o‘xshash birgina o‘q ovozi. Undan keyin esa yanada aniqroq, sovuqroq, uzoqroqdan kelgan ikkinchi o‘q ovozi yangradi.

Ayol yana titrab ketdi va nimagadir qichqirgancha va bu qichqiriqni bo‘lmaslikka harakat qilgancha sakrab oyoqqa turdi.

Xonama-xona o‘qday uchib, eshikka yaqinlashdi va uni yana lang ochib yubordi.

O’q ovozining aks sadosi tobora uzoqlashib borardi…

Oxiri tindi ham.

Ayol bir necha lahza bo‘zday oqargancha hovlida turib qoldi.

Nihoyat, bitta-bitta bosgancha boshini solintirib, u atrofini ustunlar o‘rab olgan xobgohlar aro yurib ketdi. Birma-bir o‘tib borar ekan, uning qo‘llari beixtiyor tarzda narsalarga tegar, lablari titrar edi.

Zulmat quyuqlashib borayotgan sharobxonada u bir o‘zi o‘tirgisi keldi. U kutar edi. Keyin yoqut qadahni oldi-da, uni sharfining uchi bilan ishqalay boshladi.

Bir vaqt uzoqdan qadamlar tovushi, oyoqlar ostida ezilgan mayda qamishlarning chirs-chirs singani qulog‘iga chalindi.

Ayol o‘rnidan turdi. Jimjit xonaning o‘rtasiga borib turib oldi. Qo‘lidagi qadah yerga tushib chil-chil bo‘ldi.

Qadamlar uy oldida jur’atsiz sekinlasha boshladi.

Gapirsinmi? “Kir, kira qolsang-chi”, desinmi?

Ayol oldinga qarab yurdi.

Odimlar endi dahlizdan eshitildi. Qo‘l lo‘kidonni surdi.

Ayol eshikka jilmaydi.

Eshik ochildi. Ayolning yuzidagi tabassum g‘oyib bo‘ldi.

Bu uning eri edi. Kumushrang niqob xira yaraqlardi.

Eri ichkariga kirdi-da, xotiniga birrovgina nazar tashlab qo‘ydi. Keskin harakat bilan g‘ilofni ochdi, ikkita o‘lik asalarini siltab tashladi. Ularning yerga to‘p-to‘p tushganini eshitib, oyog‘i bilan bosib ezg‘iladi va o‘qdan bo‘shagan qurolni xona burchagiga qo‘yib qo‘ydi, Illa engashgancha singan qadah parchalarini to‘plashga behuda urinardi.

— Nima qilding? — so‘radi ayol.

— Hech narsa, — javob berdi er unga orqa o‘girib turarkan. U yuzidan niqobni oldi.

— Miltiqni… qanday otganingni eshitdim. Ikki marta.

— Ov ovladim. Bo‘ldi, shu. Goh-goh xumor qilib turadi. Doktor Nlle kelmadimi?

— Yo‘q.

— Shoshma, shoshmay tur. — U nafrat bilan barmog‘ini qirsillatib qo‘ydi. — E-ha, endi esimga keldi, biz u bilan ertaga kelishib qo‘ygandik-ku. Sira esimda yo‘g‘-a.

Ular stolga o‘tirishdi. Ayol o‘z likopchasiga qarab turardi, biroq ovqatga qo‘l uray demasdi.

— Nima gap? — so‘radi u ko‘zini ko‘tarmasdan, go‘sht bo‘laklarini gurillagan olovga tashlarkan.

— Bilmadim. Ishtaham yo‘q, — javob berdi ayol.

— Nimaga?

— Bilmasam. Shunchaki ishtaham yo‘q.

Shamol bulutlarni hayday boshladi; quyosh botib bo‘lgandi. Xona birdaniga tor, muzdek bo‘lib qoldi.

— Men eslashga harakat qilayapman, — dedi ayol xonadagi jimlikni buzib va erining sovuq chehrasi, oltin ko‘zlariga qarab qo‘ydi.

— Nimani eslamoqchi bo‘lding? — u sharob xo‘plardi.

— Qo‘shiqni. Haligi chiroyli, ajoyib qo‘shiqni. — Ayol ko‘zlarini yumdi va qo‘shiq ayta boshladi, biroq qo‘shiq yaxshi chiqmadi. — Unutibman. Lekin men nimagadir uni unutgim kelmaydi. Uni umrbod esda saqlab qolsam deyman. Go‘yo harakatlar maromi unga yordam berishi mumkin bo‘lgandek, qo‘llarini ravon havoda o‘ynatib qo‘ydi. So‘ng o‘rindiqqa o‘zini tashladi. — Yo‘q, eslolmayapman.

Ayol yig‘lab yubordi.

— Nega yig‘layapsan? — so‘radi er.

— Bilmayman, bilmayman. Hech o‘zimni qo‘lga ololmayapman. Yuragim g‘ash. Negaligini o‘zim ham bilmayman, yig‘layman-u, negaligini bilmayman, lekin yig‘layveraman.

U kaftlari bilan boshini g‘ijimladi, yelkalari titradi.

— Ertagacha hech narsa ko‘rmagandek bo‘lib ketasan, — dedi er.

U eriga qaramadi. Uning nigohlari faqat yaydoq cho‘lga va tim qora osmonga sochilgan yorqin yulduzlarga qadalgandi, uzoqdan esa sovuq shamol va uzun anhorlardagi muzdek suvning shaloplashlari quloqqa chalinardi. Ayol butun vujudi qalt-qalt titragancha ko‘zlarini yumdi.

— Ha, — takrorladi u, — ertagacha hech narsa ko‘rmagandek bo‘lib ketaman.

Avgust 1999
YOZ TUNI

Odamlar tosh ayvonlarda to‘da-to‘da bo‘lib turar edilar, moviy tepaliklar orasidan ularni ilg‘ash ham qiyin edi. Marmar amfiteatr ortida qop-qora zulmat ichidan yastangan shaharcha va muhtasham uylarning ko‘lkalari ko‘zga chalinardi, sokin ko‘llar kumush rang berib jimirlar, ufqdan ufqqacha cho‘zilgan anhorlar yalt-yult qilar edi. Beg‘amlik va sokinlik hukmron Mars sayyorasida yoz oqshomi.

Anhorlarning yam-yashil sathi bo‘ylab bamisoli nafis brinch gullardek qayiqlar u yoqdan-bu yoqqa qarab suzadi. Yonbag‘ir bo‘ylab ilang-bilang saf tortgan uylardagi salqin tun to‘shaklarida yotgancha oshiq-ma’shuqlar erinchoqlik bilan bir-biriga shivirlashar edi. Xiyobonlardagi mash’alalar tagida qo‘llarida oltin o‘rgimchak to‘rlarini tutgan yosh bolalar u yoqdan-bu yoqqa chopib o‘ynashardi.

Unda-bunda kumushrang olov biqirlab qaynagan stollarda kechki ovqat tayyorlanmoqda. Marsning tungi qismidagi yuzlab shaharlarning amfiteatrida oftobda qoraygan marsliklar tillarang ko‘zlarini chaqnatgancha estrada atrofidagi go‘shalarda to‘plangan, u yoqdan mashshoqlarning mohir qo‘llariga itoatkorona bo‘ysungan sozlar bamisoli gullarning atri kabi sokin havoda ravon kuy taratar edi.

Sahnalardan birida bir ayol qo‘shiq aytmoqda.

Tinglovchilar safi bo‘ylab shivirlar to‘lqini suzib o‘tadi.

Qo‘shiq uzildi. Xonanda ayol qo‘lini tomog‘iga olib bordi. So‘ng mashshoqlarga qarab im qoqdi, ular kuyni yangidan boshlab chala ketdi.

Mashshoqlar zavq bilan kuy chalar, ayol ilhom bilan qo‘shiq aytardi, bu safar tomoshabinlar oh deb yubordi, o‘zlarini oldinga tashlashdi, kimdir oyoqqa turdi — amfiteatr uzra bamisoli qish qirovi qo‘ngandek bo‘ldi. Chunki ayol kuylayotgan qo‘shiq g‘alati, qo‘rqinchli, g‘ayrioddiy edi. U kuylashdan to‘xtashga qanchalik urinmasin, baribir so‘zlar uning lablaridan beixtiyor uchib chiqmoqda edi: Yulduzlar chaqnagan tungi osmonda,

Porlaydi olamni nurga ko‘mib oy.

Nur bilan zulmatning kurashi aro Yanada ko‘rk ochar samoviy chiroy.

Qo‘shiqchi ayolning qo‘llari og‘zini yopdi. U butunlay karaxt va sarosima ichida qolgan edi.

— Bu qanaqa so‘zlar bo‘ldi? — hayron bo‘ldi mashshoqlar.

— Shu ham qo‘shiqmi?

— Kimning tilida aytilayapti?

Ular o‘zlarining oltin trubalariga yana puflay ketdilar, yana shu g‘aroyib musiqa yangray boshladi va asta-sekin endi ovozlarini baralla qo‘yib gaplashayotgan va oyoqqa turgan tomoshabinlar uzra suzib ketdi.

— Senga nima bo‘ldi? — so‘rar edi bir-birlaridan mashshoqlar.

— Qanaqa kuy chalgan eding o‘zi?

— O’zing qanaqa kuy chalgan eding?

Ayol yig‘lab yubordi va sahnadan chopib tushib ketdi. Tomoshabinlar amfiteatrni tark etdilar.

Junbushga kelgan barcha Mars shaharchalarida xuddi mana shu hol sodir bo‘lgan edi. Osmonda oppoq qor yoqqan kabi hamma sovuq domiga giriftor bo‘lgan edi. Zim-ziyo xiyobonlardagi mash’alalar tagida bolalar qo‘shiq aytar edilar:

Kelib qarasam javonim bo‘m-bo‘sh,

O’tiribdi yolg‘iz ko‘ppagim nochor.

— Bolalar! — ovozlar yangradi. — Bu qanaqa qo‘shiq bo‘ldi? Qaerdan o‘rgandingiz uni?

— Ular miyamizga o‘zidan-o‘zi kelib qoldi. Hatto so‘zlarini o‘zimiz ham tushunmaymiz!

Eshiklar yopildi. Ko‘cha huvillab qoldi. Moviy qirlar uzra yashil yulduz ko‘rindi.

Marsning butun tungi tomonida erkaklar zulmat qo‘ynida yonlarida yotgan ma’shuqalarining qo‘shiq kuylashlaridan uyg‘onib ketishdi.

— Bu qanaqa kuy bo‘ldi?

Qoq tunda minglab uylardagi ayollar ko‘zlaridan duv-duv yosh to‘kkancha uyg‘onib ketdilar va erlari ularga tasalli bera boshladilar.

— Tinchlan, tinchlansang-chi, uxla. Nima bo‘ldi o‘zi senga? Yomon tush ko‘rdingmi?

— Ertaga bir yomon voqea sodir bo‘ladi.

— Hech narsa bo‘lmaydi, ishimiz joyida-ku!

Ayol titrab-qaqshab yig‘laydi.

— Yuragim sezib turibdi. O’sha balo tobora yaqin kelayapti, yaqin, yaqin, yaqin!..

— Bizga hech narsa bo‘lmaydi, bas qil, uxla, uxla.

Marsda sokin tong otmoqda. Xuddi qop-qorong‘i va muzdek quduqdagidek sokin tong. Anhor suvlari sathida yulduzlarning aksi jimirlaydi, har bir xonada mushtumida oltin o‘rgimchak uyasini changallagancha yotgan bolalarning ma’sum nafaslari eshitiladi, qo‘llarini bir-biriga chalishtirgancha oshiq-ma’shuqlar uxlamoqda, oylar botgan, mash’alalar o‘chirilgan, tosh amfiteatrlarda zog‘ uchmaydi.

Tong oldida yakkayu-yagona tovush quloqqa chalinadi:

huvillagan ko‘chaning huv oxirida yolg‘iz tungi qorovul hech kimga tanish bo‘lmagan g‘alati qo‘shiqni xirgoyi qilgancha qorong‘ilik qo‘ynida kezinadi…

— Juda yopishib olishdi-ku, taqillatishgani-taqillatishgan-a!

Missis Ttt jahl bilan eshikni ochdi.

— Xo‘sh, nima gap?

— Inglizcha gapirayapsizmi? — ostonada turgan odam hayron bo‘ldi.

— Qo‘ldan kelgancha, — javob berdi ayol.

— Sof ingliz tilida-ya!

Kelgan odam qandaydir maxsus libosda edi. Uning ortida yana uch kishi turardi; ularning barchasi xiyol hayajonda edi — yuzlari yal-yal yonar, boshidan-oyog‘igacha moy yuqi.

— Sizlarga nima kerak o‘zi? — keskin ohangda so‘radi missis Ttt.

— Siz marsliksiz! — kelgan kishi kuldi, — bu so‘z sizga, albatta, notanish. Bizda, yerliklarda, shunaqa deyishadi. — U hamrohlariga boshi bilan imlab, ishora qildi. — Biz Yerdan keldik. Men kapitan Uilyams. Biz bir soatgina oldin Marsga kelib qo‘ndik. Biz kelib qo‘ngan ikkinchi ekspeditsiyamiz! Bizgacha Birinchi ekspeditsiya kelgan edi, ammo ularning taqdiri bizga ayon emas.

Nima bo‘lganda ham biz yetib keldik. Siz esa biz uchratgan birinchi marslik bo‘lasiz.

— Marslik? — ayolning qoshlari kerildi.

— Sizga Quyoshdan to‘rtinchi Sayyorada yashayotganingizni aytmoqchiman! Shu aniqmi?

— Oddiy haqiqat, — ularga razm solgancha burnini jiyirib dedi ayol.

— Biz esa, — kishi o‘zining do‘mboq qizg‘ish qo‘lini ko‘ksiga bosdi, — Yerdan keldik. To‘g‘rimi, yigitlar?

— Xuddi shunday, kapitan, — baravariga javob berdi hamrohlar.

— Bu Tirr sayyorasi bo‘ladi, — dedi ayol, — agar uning haqiqiy nomini bilmoqchi bo‘lsangiz.

— Tirr, Tirr, — kapitan horg‘in kulib qo‘ydi. — G’alati nom ekan! Ammo, ayting-chi, muhtarama xonim, Sizning ingliz tilida bunday burro gapirishingizni qanday tushunsa bo‘ladi?

— Men gapirmayapman, — javob berdi ayol, — men o‘ylayapman. Telepatiya. Yaxshi boringlar! — shunday deya u eshikni qarsillatib yopdi.

Hayal o‘tmay, bu qo‘rqinchli odam yana eshikni taqillata boshladi.

Ayol eshikni ochdi.

— Tag‘in nima kerak? — so‘radi u.

Kishi o‘sha joyda turar va jilmayishga harakat qilardi, ammo undagi avvalgi dadillik ko‘rinmasdi. U ayolga qo‘lini uzatdi.

— Nazarimda, siz meni yaxshi tushunmadingiz…

— Nimani? — shartta dedi ayol.

Erkak hayratdan ko‘zlarini katta-katta ochdi.

— Biz yerdan uchib keldik!

— Vaqtim yo‘q, — dedi ayol. — Ishim boshimdan oshib-toshib yotibdi — tushlik, uyni yig‘ishtirish, tikish, ming xil mayda-chuyda ishlar… Sizga, ehtimol, mister Ttt kerakdir. U tepada o‘zining xonasida o‘tiribdi.

— Ha, ha, — bir narsani anglagandek ko‘zlarini pirpiratib dedi Yerdan kelgan odam. — Xudo haqqi, mister Tttni chaqiring.

— U band. — Shunday deya ayol yana eshikni qarsillatib yopdi.

Bu gal mehmon eshikni odatdagidan qo‘polroq tarzda taqillata boshladi.

— Bilasizmi nima? — qichqirib dedi mehmon eshik ochilar-ochilmas. U go‘yo mezbonni hang-mang qilib qo‘ymoqchidek dahlizga bostirib kirdi. — Mehmon deganni bunday kutmaydilar-da!

— Polni yog‘ tushsa yalagudek qilib qo‘yganman! — Qovog‘ini uyib dedi ayol. — Aft-angoringizni qarang, hammayog‘ingiz iflos, yo‘qolinglar ko‘zimdan! Agar uyimga kirmoqchi bo‘lsangiz, avval oyog‘ingizni tozalab keling!

Mehmon vahima bilan o‘zining iflos oyoq kiyimiga qarab qo‘ydi.

— Hozir adi-badi aytishib o‘tiradigan payt emas, — qat’iy ohangda dedi kishi. — Vaziyat shunaqa.

Buni nishonlashimiz kerak!

Ularning ko‘ngillaridagini so‘zsiz anglashi uchun mehmon ayolga qattiq tikilib qaradi.

— Agar mening billur kulchalarim kuyib ketgan bo‘lsa, — dedi qichqirib ayol, — sizlarni kaltak bilan!..

Shunday deya ayol vishillab turgan mo‘‘jazgina pechka tomon yugurdi. So‘ng terga botgan, bo‘g‘riqqan holda qaytib keldi. Uning ko‘zlari sap-sariq, badani qoracha, o‘zi ozg‘in va chaqqon, xuddi hasharot deysiz… Ovozi chinnidek jaranglardi.

— Shu yerda kutib turinglar. Men borib qaray-chi, balki biron daqiqadan keyin mister Tttning huzuriga kirishingiz mumkin bo‘lar, — unda nima ishingiz bor edi o‘zi?

— Unga ayting, biz Yerdan birinchi marta bu yerga uchib keldik!

— Nima birinchi marta? — Ayol oftobda kuygan qo‘lini balandga ko‘tardi. — Bo‘pti, bunisi muhim emas, men hozir kelaman.

Tosh uynig yo‘laklaridan uning qadam tovushlari quloqqa chalinib turdi.

Tepada esa haddan tashqari ko‘k, jazirama mars osmoni — xuddi

chuqur issiq dengiz qotib qolgandek. Bamisoli ulkan qaynoq qozon ustida turgandek Mars cho‘li uzra parda yoyilib kela boshladi. Sal naridagi tepaning cho‘qqisida uchini osmonga qadagancha uncha katta bo‘lmagan samoviy kema turardi. Undan tosh uy eshigi tomonga yirik-yirik oyoq izlari tizilib kelgan edi.

Tepadagi ikkinchi qavatda baqiriq-chaqiriq ovozlari eshitilardi. Eshik tagidagi odamlar bir-biriga qarar, og‘irliklarini goh u oyoqlariga goh bu oyoqlariga solar, kamarlarini to‘g‘rilar edilar. Tepada qandaydir erkak ovozining o‘shqirgani eshitildi. Unga ayol ovozi javob aytdi: chorak soatdan keyin yerliklar nima qilishini bilmay, oshxonada u yoqdan-bu yoqqa borib kela boshladilar.

— Chekamizmi? — dedi ulardan biri.

Ikkinchisi sigareta oldi — ular cheka boshlashdi. Barchalari shoshmaygina oppoq tutunni ichga tortar edilar. Kurtkalarining g‘ijimlarini yoyishdi, yoqalarini to‘g‘rilashdi, tepadagi ovozlar hamon guvillar, shang‘illar edi. Komandir soatiga qaradi.

— Yigirma besh daqiqa, — dedi u. — U yoqda nima bo‘layotgan ekan-a?

U deraza oldiga keldi-da, tashqariga qaradi.

— Kun yonayapti, — dedi fazogirlardan biri.

— Gapirmang, — erinchoqlik bilan qo‘lini so‘rdi, tushki oftobdan holsizlangan ikkinchisi.

Tepadagilarning ovozlari bo‘g‘iq g‘o‘ldirashga aylandi, so‘ng butunlay tinchib qoldi. Butun uyda tiq etgan tovush eshitilmaydi. Har kim faqat o‘zining nafasinigina eshitadi, xolos.

Shu alpozda bir soat o‘tdi.

— Biz tufayli biror kor-hol ro‘y bermadimikan? — dedi komandir mehmonxona eshigi yoniga yaqinlasharkan va o‘sha tomonga qaradi.

Missis Ttt gullariga suv quyib xona o‘rtasida turardi.

— Men bo‘lsam bunaqasini unutib yuborganman deb yuribman… — dedi ayol kapitanni ko‘rib. U oshxonaga chiqdi. — Kechirasiz. — Ayol unga bir parcha qog‘ozni uzatdi. — Mister Ttt juda band. — U o‘zining idish-tovoqlariga o‘girildi. — Baribir sizga u emas, balki Mister Aaa kerakdir. Mana bu qog‘ozni olib, moviy anhor yonidagi qo‘shni qo‘rg‘onga boring-da, u yerda mister Aaa siz bilmoqchi bo‘lgan hamma narsani aytib beradi.

— Biz hech narsani bilishimiz kerak emas, — e’tiroz bildirdi komandir do‘rdoq lablarini shishirib. — Busiz ham biz hamma narsani bilamiz.

— Qog‘ozni oldingiz, sizga tag‘in nima kerak? — keskin ohangda so‘radi ayol. Ular ayoldan shundan boshqa narsa ola olmas edilar.

— Bo‘pti, — dedi komandir. Uning hamon ketgisi yo‘q edi. U go‘yo bir narsani kutayotgandek joyidan qimir etmasdi. Xuddi yangi

yil archasini tomosha qilayotgan go‘dakdek angrayib qarab turardi. — Bo‘pti, — takrorladi u. — Qani ketdik yigitlar.

Shunday qilib to‘rtovlon yerlik uydan chiqishdi-da, diqqinafas jimjit yoz kuni qo‘yniga sho‘ng‘ib ketishdi.

Yarim soatdan keyin o‘zining kutubxonasida savlat to‘kib o‘tirgan mister Aaa temir piyolasidan elektr alangasini ho‘plagancha tosh terilgan yo‘lakdan ovozlar kelayotganini eshitdi. U gavdasini derazadan chiqarib, bir xil kiyingan to‘rttala odamga ko‘zlarini qisib qaray boshladi.

— Mister Aaa sizmisiz? — so‘rashdi ular.

— Men.

— Bizni sizga mister Ttt yubordi, — qichqirdi komandir.

— Nima sababdan? — so‘radi Aaa.

— U band ekan!

— Hm, bilasizmi, bu… — g‘ijinib dedi mister Aaa. — Allaqaerdagi bekorchixo‘jalarning ko‘ngillarini olishdan mening boshqa tashvishim yo‘q deb o‘yladimikan?

— Hozir buning ahamiyati yo‘q, ser! — qichqirdi komandir.

— Menga esa ahamiyati bor. Bir dunyo kitob yig‘ilib qolgan, ularni o‘qib chiqishim kerak. Mister Ttt hech kim bilan hisoblashmay qo‘ygan. U menga birinchi marta bunday surbetlarcha muomala qilayotgani yo‘q. Iltimos, qo‘lingizni silkitmang, janob! Meni tinch qo‘ying! Siz bularni e’tiborga olmasangiz bo‘lmaydi. Men gapirayotganimda odamlar quloq solishiga o‘rganib qolganman. Iltimos, gapimni oxirigacha eshiting! Aks holda men siz bilan umuman gaplashmayman.

To‘rttala kishi pastda og‘izlarini ochgancha sarosima ichida depsinar edilar. Kapitanning peshonasidagi tomirlar bo‘rtib chiqdi. Hatto ko‘zlarida yosh yiltilladi.

— Ana shunaqa, — nasihat qilishda davom etdi mister Aaa. — Xo‘sh, o‘ylab qarang-a, mister Tttning meni shunday pisand qilmasligi yaxshi ishmi?

To‘rttala kelgindi jazirama kuni hovuri orasidan unga hayrat bilan qarab turardi. Kapitanning toqati toq bo‘ldi:

— Biz Yerdan uchib keldik!

— Menimcha, u juda ham odobsizlikni haddidan oshirib yubordi, — ming‘irladi mister Aaa.

— Samoviy kema. Biz raketada uchib keldik. Ana u!

— Koshki u birinchi marta menga nisbatan shunday nopisandlik qilayotgan bo‘lsa?

— Tushunayapsizmi — Yerdan!

— U mendan ko‘radi hali, men unga qo‘ng‘iroq qilaman-da, boplab tuzlayman, ha, ha!

— Biz to‘rttamiz — men va mana bu uchalasi. Kemam ekipaji.

— Mana hozir trubkani olaman-u, qo‘ng‘iroq qilaman.

— Yer. Raketa. Odamlar. Parvoz. Samo.

— Qo‘ng‘iroq qilaman-da, boplab ta’zirini beraman. — Qichqirdi mister Aaa va xuddi teatrdagi qo‘g‘irchoqdek derazadan g‘oyib bo‘ldi.

Qandaydir noma’lum apparatda ikki kishining qattiq aytishayotgani baralla eshitilib turardi. Kapitan va uning komandasi o‘zlarining nafis sarvqomat va jonajon raketalariga mungli qaragancha hovlida tik turishardi.

Mister Aaa derazadan gavdasini chiqarib, tantanavor e’lon qildi:

— Men uni duelga chaqirdim. Vijdonim haqqi. Eshitdingizmi, duelga.

— Mister Aaa, — bosiqlik bilan gap boshladi kapitan.

— Shartta otib tashlayman, mana meni aytdi dersiz!

— Mister Aaa, iltimos, gapimga quloq soling. Biz oltmish million millik yo‘lni bosib kelayapmiz.

Mister Aaa birinchi marta kapitanga e’tibor qildi.

— Shoshmang, nima dedingiz? Ie, qaerdan keldik dedingiz?

Kapitan oppoq tishlarini ko‘rsatib jilmaydi. U o‘zicha shivirladi:

— Hayriyat-ey, endi o‘ziga keldi! — so‘ng baland ovozda dedi: — Oltmish million millik naridagi Yer sayyorasidan keldik!

Mister Aaa esnadi.

Yilning shu faslida — zo‘rg‘a ellik million, undan ortiq emas. U qo‘liga qandaydir dahshatli qurolni oldi.

— Bo‘pti, men ketdim. Mana bu ahmoqona xatingizni oling. Bilmadim, bu xat sizga nima karomat ko‘rsatadi, keyin anovi tepalikdan shaharchaga o‘tib boring. U Iopr deb ataladi. U yerda dardingizni mister Iiiga aytasiz. U aynan sizga kerak odam. Sizga anovi mister Tttning keragi yo‘q edi. Tomi ketgan, uni narigi dunyoga, albatta, jo‘natmay qo‘ymayman. Lekin buni men qilmayman. Bu mening vazifamga kirmaydi.

— Vazifa, vazifa! — ermak qilib dedi komandir. — Yerdan kelgan odamlarni qabul qilish kerak bo‘lganda allaqanday vazifaga balo bormi?

— Bunaqa bema’ni gaplaringizni qo‘ying! Buni hamma biladi. — Mister Aaa zinadan pastga qarab chopdi. Yaxshi qoling!

Shunday deya u it quvlagan soqovdek pildirab ketdi.

Fazogirlar mutlaqo hangumang bo‘lib qolishdi. Oxiri kapitan dedi:

— Yo‘q, baribir, gapimizga quloq soladigan odamni topmay qo‘ymaymiz.

— Hozircha ketib, keyin qaytib kelsak-chi? — mungli holda dedi o‘rtoqlaridan biri. — Uchib ketib yana qo‘nsak, uchib ketib yana qo‘nsak. Bungacha ularning aqli kirib, bizlarni kutib olishga taraddud ko‘risharmidi.

— Ha, shunday qilmasa bo‘lmaydiganga o‘xshaydi, — to‘ng‘illab dedi g‘amgin kapitan.

Shaharcha jiz-biz edi. Marsliklar uylariga goh kirib, goh chiqar, bir-biri bilan salomlashardilar, ular yuzlariga yoqimli xilma-xillik uchun oltin, moviy, qizil rangdagi niqoblar kiyib olgan edilar, bundan tashqari, kumush labli va brinch qoshli, kulib turgan va tumshaygan niqoblar ham bor edi. Xullas, har bir niqob o‘z egasining axloqini namoyish etib turardi. Uzoq yo‘l bosib, qora terga botgan yerliklar to‘xtadilar va yoshgina qizaloqdan mister Iiining qaerda yashashini so‘radilar.

— Hov, ana u yerda, — boshi bilan imlab ko‘rsatdi qizaloq.

Kapitan toqatsizlik bilan, ehtiyotkorona bir tizzasiga cho‘kdi-da, qizaloqning ma’sumgina chehrasiga qaradi.

— Hoy qizaloq, bilasanmi, senga bir narsa aytmoqchiman.

U qizaloqni tizzasiga o‘tqazdi-da, keng kaftlari bilan uning qoracha qo‘lchalarini siqdi, go‘yo tun bo‘yi unga ertak so‘zlamoqchidek, go‘yo bir-biridan qiziq voqea va tafsilotlarni shoshmasdan qizaloqning yosh shuuriga erinmay joylamoqchi bo‘lgandek.

— Bilasanmi, jajjiginam, yarim yil muqaddam Marsga boshqa bir raketa uchib kelar edi. Unda York ismli bir odam o‘z yordamchisi bilan bo‘lardi. Biz unga nima bo‘lganini bilmaymiz. Balki ular halokatga uchragandir, ular raketada uchib kelar edilar, biz ham raketada uchib keldik. Ishonmasang, ana, bir ko‘rib qo‘y-a, qara, qanday katta raketa! Shuning uchun biz ikkinchi ekspeditsiyamiz, bizdan oldin esa birinchi bo‘lgan edi. Biz Yerning o‘zidan uzoq uchib keldik…

Qizaloq beixtiyor bir qo‘lini bo‘shatdi-da, yuziga loqaydlikni ifoda etuvchi oltin niqobni tushirib oldi.

So‘ng o‘yinchoq oltin o‘rgimchak uyasini olib, uni yerga tushirib yubordi, kapitan esa hamon unga uqdirardi. O’yinchoq o‘rgimchak itoatkorona qizaloqning tizzasiga o‘rmalab chiqdi, qizaloq esa loqayd bir tarzda haligi niqobining tirqishchasidan uni kuzatib turardi: kapitan beozorgina o‘rgimchakni itqitib yubordi-da, o‘z sarguzashtlarini hikoya qilishda davom etdi.

— Biz — yerliklarmiz, dedi u. — Gapimga ishonasanmi?

— Ha. — Qizaloq oyoqlarining barmoqlari qumda nimalar chizayotganiga ko‘zining qiri bilan qarab turardi.

— Juda aqlli qizaloq ekansan. — Komandir uni o‘ziga qaratish uchun qizaloqning qo‘lini yarim hazil-yarim chin bilan chimchilab qo‘ydi. — Biz o‘zimizga raketa qurib oldik, bunga ishonasanmi?

Qizaloq barmog‘ini burniga tiqdi.

— A-ha.

— Va… yo‘q, yo‘q, donoginam. Barmog‘ingni burningdan ol… Va men samoviy kema komandiri, va…

— Bunday raketada tarixda hali hech kim hech qachon koinotga chiqqan emas, — dona-dona qilib dedi ko‘zlarini qisgancha qizaloq.

— Qoyil! Buni qanday bilasan?

— Telepatiya. — U barmog‘ini naridan-beri tizzasiga surtdi.

— Xo‘sh? Nahotki bu seni ozgina bo‘lsa-da, qiziqtirmasa? — deyarli qichqirib dedi komandir. — Nahotki, bundan xursand emassan?

— Undan ko‘ra siz mister Iiining oldiga borsangiz, yaxshi bo‘lardi. — Qizaloq o‘yinchoqni yerga tushirib yubordi. — U sizlar bilan jon-jon deb gaplashadi.

Shunday deya qizaloq izma-iz o‘zi bilan yugurib ketayotgan o‘yinchoq-o‘rgimchak hamrohligida qochib ketdi.

Komandir qizga qo‘lini uzatgancha va orqasidan qaragancha joyida o‘tirib qolaverdi. U ko‘zlariga yosh qalqib chiqqanini his qildi. Nochor ahvolda og‘zini ochib, bo‘m-bo‘sh qo‘llariga qarab qo‘ydi. O’z soyalaridan ko‘z uzmay, o‘rtoqlari uning yonida turardi. Ular yo‘ldagi toshlarga tupurishdi…

Mister Iiining o‘zi eshikni ochdi. U ma’ruzaga shoshardi, biroq agar tezroq ichkariga kirib muddaoga ko‘chib qolishsa, ular uchun bir necha daqiqa vaqtini ajratishga tayyor edi…

— Ko‘p vaqtingizni olmaymiz, — dedi kapitan shishgan qovoqlarini horg‘in ko‘tarib. — Biz YErdan kelganmiz, anavi yerda raketamiz turibdi, biz to‘rttamiz — uch fazogir va komandir. Biz butunlay holdan toyganmiz, qornimiz och. Uxlashga qulay joy qidirayapmiz. Kimdir bizga shaharcha kalitini topshirsa yoki shunga o‘xshagan biror yordam bersa yaxshi bo‘lardi, qo‘llarimizni qisib, urra deb qichqirishsa, “tabriklaymiz, chol bobolar!” deyishsa boshimiz ko‘kka yetar edi. Bor-yo‘q iltimosimiz shu!

Mister Iii daroz gavdali, qalin ko‘k shishali ko‘zoynak ortiga yashiringan sarg‘ish ko‘zli odam edi.

YOzuv stoli uzra engashib, u qandaydir qog‘ozlarni o‘ychan varaqlardi, ora-chora sinchkov nigohlari bilan mehmonlarga qarab qo‘yardi.

— Bu ish qog‘ozlari qaysi go‘rga ketdi ekan-a. — U stolning barcha tortmalarini titib chiqdi. —

Qaerga qo‘ydim-a? — U qovog‘ini uydi. — Qaerdadir, mana bu yerdamidi-ey… Ey, ha, mana ular!

Marhamat! — u shiddat bilan kapitanga qog‘ozni uzatdi. — Siz bularga imzo chekishingiz kerak. — Mana bu dahmazalarni o‘qib chiqishimiz kerakmi?

Ko‘zoynakning qalin shishalari kapitanga qadaldi.

— Axir o‘zingiz aytmadingizmi, Yerdan keldik deb? Shunday ekan, bunga imzo cheking, vassalom.

Kapitan imzo chekdi.

— Komanda ham imzo chekishi kerakmi?

Mister Iii unga qaradi, qolgan uchalasiga ham qaradi va masxaraomuz qah-qah urib kulib yubordi.

— Bular ham imzo chekishi kerakmi?! Vah-hah-ha! Ey, qoyil-ey! Ular… ular… — uning ko‘zlaridan yosh oqa ketdi. U tizzasiga shap etib urdi-da, kulgidan ikki bukilib qoldi. U og‘zini karrakdek ochib kular edi. U stolga yopishib oldi. — Ular ham imzo cheksin emish!..

Fazogirlar xo‘mrayishdi.

— Buning nima kuladigan joyi bor ekan?

— Ular ham imzo cheksin emish! — Azbaroyi ko‘p kulganidan charchab, uh tortib dedi mister Iii. — Tag‘in kulgili emasmish! Men bularni albatta mister Yyyga aytaman! — u kulgidan o‘zini to‘xtatolmay, imzo chekilgan ish qog‘ozlariga ko‘z yugurtirdi. — Hammasi joyidaga o‘xshaydi. — U bosh irg‘ab qo‘ydi. — Axir oxir-oqibatda zarur bo‘lib qolsa, hatto evtaniziyaga ham rozi ular. — U yana uzoq hingirlab kuldi.

— Nimaga rozi!

— Bo‘pti, qo‘yavering, mening sizga asragan bir narsam bor. Mana. Manavi kalitni oling.

Kapitanning yuzi kunday yorishib ketdi.

— O, bu qanday buyuk sharaf!

— Bu shahar kaliti emas, to‘nka! — to‘ng‘illadi mister Iii.

— Uyning kaliti. Yo‘lakdan to‘g‘ri boringlar-da, katta eshikni oching, ichkariga kiring-da, uni zichlab yopib qo‘ying. O’sha yerda tunashingiz mumkin. Ertalab esa men huzuringizga mister Yyyni yuboraman.

Kapitan jur’atsizgina kalitni oldi. U boshini xam qilib turardi. O’rtoqlari joyidan qilt etmasdi. Go‘yo badanlaridagi hamma qon so‘rib olingandek, ular tamoman holdan toygan edilar.

— Xo‘sh, tag‘in nima? Nima gap o‘zi? — so‘radi mister Iii. — Nimani kutayapsiz? Nima xohlaysiz? — U kapitanga yaqinroq bordi-da, boshini egib pastdan uning yuziga qaradi. — Gapiring, axir!

— Siz hatto… — deb gap boshladi kapitan. — Yana aytmoqchimanki… o‘ylashga ham… — u chaynaldi. — Biz qattiq mehnat qildik, uzoq yo‘l bosib keldik, balki, haligi, nima edi, qo‘limizni siqarsiz va… hech bo‘lmaganda “barakalla!” dersiz… — U jim bo‘lib qoldi.

Mister Iii istamaygina unga qo‘lini tutdi.

— Tabriklayman! — Uning lablarida sovuq tabassum jilvalandi. — Tabriklayman. — U orqa o‘girdi.

— Endi men boray. Kalitni esingizdan chiqarmang.

Shunday deya u go‘yo mehmonlar havoda erib ketgandek, ularga ortiq e’tibor ham qilmay, mister Iii xona bo‘ylab yurar ekan, ixchamgina portfeliga qandaydir qog‘ozlarni tiqdi. Bu nari borsa besh daqiqacha davom etdi va bu vaqt ichida u biror marta ham qovog‘ini uyib turgan to‘rttala mehmonga churq etib og‘iz ochmadi. Mehmonlar esa boshlarini eggancha horg‘in ko‘zlarini yerga tikib, burunlaridan tortsa yiqilgudek bir holda zo‘rg‘a oyoqda turishardi.

Chiqib keta turib, mister Iii tirnoqlariga sinchkovlik bilan razm soldi.

Kechqurungi g‘ira-shiralikda yo‘lak bo‘ylab ketib borishardi. Ular katta yaltillagan kumushrang eshik oldida to‘xtashdi va kumush kalit bilan uni ochishdi. Ichkariga kirib eshikni zichlab yopishdi-da, atrofga razm solib qarashdi.

Ular keng, charog‘on zalda turishardi. Erkaklar va ayollar stollarda o‘tirishar, to‘p-to‘p bo‘lib turishar, suhbatlashishar edi. Qulfning shiqirlaganini eshitib, ular qayrilib qarashdi va maxsus libos kiygan to‘rttala odamga tikilib qolishdi.

Marsliklardan bittasi ular oldiga borib ta’zim qildi.

— Men mister Uuuman, — tanishtirdi u o‘zini.

— Men esa Nyu-Yorkdan, Yerdan kelgan kapitan Jonatan Uilyamsman, — javob berdi kapitan pinagini ham buzmay.

Birdan zalda gulduros qarsaklar yangradi.

Qiyqiriq va hayqiriqlardan shift larzaga keldi. Qo‘llarini silkitgan, hayqirib qichqirgan, stollarni ag‘dar-to‘ntar qilgan, bir-birini turtgancha marsliklar zalning barcha tomonidan o‘zlarini yerliklar tomon otishdi, ularni mahkam quchoqlab to‘rttalasini ham qo‘llariga ko‘tarib olishdi. Olti marta ular mehmonlarni yelkalarida ko‘tarib butun zalni aylanib chiqishdi. Olti marta yugurib faxriy doira yasashdi, ular to‘xtovsiz sakrar, irg‘ishlar, raqs tushar, baland ovozda qo‘shiq aytar edilar. Yerliklar shu qadar hang-mang bo‘lib qolishdiki, butun bir daqiqa davomida ularni ko‘tarib turgan yelkalar uzra minib yurishdi, shundan keyingina o‘zlariga kelib, kula boshlashdi va bir-birlariga qarab:

— Ana, xolos, mana bu boshqa gap! — deya qichqira boshlashdi.

— Zo‘r! Allaqachon shunday qilish kerak edi! E-ha, u-ha-ha, voh-voh!

Ular tantanali suratda bir-birlarigi im qoqar, kaftlarini bir-birlariga urib qattiq-qattiq chapak chalar edilar.

— E-he!!!

— Urra! — hayqirardi olomon. Marsliklar yerlikni stol ustiga qo‘yishdi. Qiyqiriqlar tindi, kapitan sal bo‘lmasa ho‘ngrab yuborayozdi.

— Rahmat sizlarga, katta, rahmat. Bu ish zo‘r bo‘ldi…

— O’zingiz haqingizda so‘zlab bering, — taklif qildi mister Uuu.

Xaloyiq hayajon ichida oh va uh deb xo‘rsinar edi. Kapitan o‘z o‘rtoqlarini bir-bir tanishtirib chiqdi.

Ularning har biri qisqa-qisqa nutq irod qildi, har birining nutqi guldiros qarsaklar va hayqiriqlar bilan bo‘linib turdi.

Mister Uuu kapitanning yelkasiga shapatilab qo‘ydi.

— Hamyurtingni bu yerda uchratishdan zo‘r narsa bor ekanmi! Axir men ham yerdan kelganman-da.

— Ie, qanday qilib?

— Shunday qilib. Biz YErdan kelganlar anchaginamiz.

— Siz-a? Yerdan kelganmisiz? — kapitan ko‘zlarini chaqchaytirdi. — Bunday bo‘lishi mumkin emas!

Sizlar ham raketada kelganmisizlar? Fazoviy parvozlar qaysi asrdan boshlangan edi? — Uning ovozida tushkunlik sezilib turardi. — Darvoqe, qaerdansizlar, qaysi mamlakatdansizlar?

— Tuiereoldan. Men bu yerga ruh kuchi bilan ko‘p yillar ilgari kelganman.

— Tuierol… — asta takrorladi kapitan. — Bunday mamlakatni bilmayman. Ruh kuchi degani nima degani o‘zi?..

— Mana missis Rrr, u ham Yerdan kelgan, to‘g‘rimi, mister Rrr?

Mister Rrr bosh irg‘adi va g‘alati jilmayib qo‘ydi.

— Mister Yuyuyu ham, mister Shshsh ham, mister Vvv ham!

— Men esa Yupiterdan kelganman, — o‘zini tanishtirdi bir erkak g‘o‘dayib.

— Men esa Saturndan kelganman. — Uning gapini ilib ketdi ko‘zlarini ayyorona yiltillatib boshqa biri.

— Yupiter, Saturn… — bidirladi kapitan ko‘zlarini pirpiratib.

Zim-ziyo qorong‘ulik tushgan edi. Marsliklar fazogirlar atrfida ivirsir, stollarda o‘tirardilar, biroq stollar bo‘m-bo‘sh bo‘lib, ziyofatdan nom-nishon yo‘q edi. Sariq ko‘zlar chaqnar, yonoqlarining tagida chuqur-chuqur soyalar o‘ynardi, shunda kapitan zalda derazalar yo‘qligini, yorug‘ to‘g‘ri devorlar orasidan o‘tib kelayotganini payqab qoldi. Eshik ham bor-yo‘g‘i bittagina edi. Kapitan lunjini osiltirdi.

— Bir tiyinga qimmat narsalar! Tuiereol degani qaerda ekan-a? Amerikadan uzoqmi?

— Amerika nima degani?

— Amerika haqida eshitmaganmisiz?! O’zingiz Yerdanman deb aytasiz-u, tag‘in Amerikani bilmaysiz-a?

Mister Uuu jahl bilan boshini siltadi.

— Yer boshdan-oyoq dengiz, dengizdan boshqa hech narsa yo‘q. U yerda hech qanday quruqlik yo‘q. O’zim o‘sha yerdanman, men bilmay, kim bilsin.

— Shoshmang, — kapitan orqaga bir odim tisarildi, — siz g‘irt marslik ekansiz! Ko‘zlaringiz sap-sariq, badaningiz qoracha…

— Yer nuqul junglilar bilan qoplangan, — mag‘rur gap qo‘shdi mister Rrr. — Men Orridanman, kumush madaniyati mamlakatidanman!

Kapitan nigohini bir chehradan boshqa chehraga, mister Uuudan mister Yuyuyuga, mister Yuyuyudan mister Zzzga, mister Zzzdan mister Nnnga, mister Xxxdan mister Bbbga oldi. U marsliklarning ko‘zlari bir qorayib, bir kengayayotganini, bir chaqchayib, bir xiralashganini ko‘rib turardi. Uning vujudini titroq bosdi. Nihoyat, u o‘z hamrohlari tomon o‘girildi-da, ma’yus dedi:

— Buning nima ekanini tushundilaringmi?

— Nimani, kapitan?

— Bu hech ham tantanali uchrashuv emas, — horg‘in dedi u, — shoshilinch qabul ham emas.

Ziyofat ham emas. Biz bu yerda hurmatli mehmonlar ham emasmiz. Ular esa Mars hukumatining vakillari ham emas. Ularning ko‘zlariga bir qarang-a, nutqlariga yaxshilab quloq solib ko‘ring-a!

Fazogirlar nafaslarini ichlariga yutishdi. Ko‘zlarini ola-kula qilgancha ular asta-sekin g‘alati zalga nigoh yugurtira boshlashdi.

— Endi bildim. — Kapitanning ovozi go‘yo uzoqdan kelayotgandek edi. — Bildim, ular bekorga bizga yangi manzillarini berishmabdi va biz to mister Iiini uchratguncha boshqa birovning oldiga jo‘natishmabdi… Ular bekorga bizga aniq manzil bilan kalitni berib, eshikni ochib kirib, ichkaridan qattiq yopib olishimizni tayinlashmagan ekan. Biz qo‘lga tushdik…

— Qo‘lga tushdik deysizmi, komandir? Kimning qo‘liga?

Kapitan shalvirab qoldi.

— Jinnixonaga tushibmiz.

Tun cho‘kdi. Shaffof devorlarning orasiga yashiringan chiroqlardan taralayotgan g‘ira-shira nurga to‘lgan keng tanobiy uyda sukunat hukmron edi. To‘rttala yerlik yog‘och stol atrofida o‘tirgancha boshlarini xam qilib, shivirlashar edilar. Yerda ayqash-uyqash bo‘lib erkak va ayollar uxlar edilar. Qop-qorong‘i burchaklarda nimalardir g‘imirlar, yakkam-dukkam ko‘lankalar qo‘llarini g‘alati-g‘alati silkir edilar. Har yarim soatda fazogirlardan biron kishi kumush eshik oldiga borardi-da, stol oldiga qaytib kelardi.

— Foydasi yo‘q, kapitan. Biz bu yerdan endi chiqib ketolmaymiz.

— Kapitan, nahotki bizni jinni deb o‘ylashgan bo‘lsa?!

— Bo‘lmasa-chi?! Aks holda nega bizning kelishimizni tantanali kutib olishmadi? Biz ular uchun shunchaki ruhiy kasallarmiz, bizdaqalar bu yerda to‘lib-toshib yotibdi. — U uxlab yotgan odamlarga ishora qildi. — Bular axir paronoidlar-ku, bittasi ham sog‘ emas! Lekin ular bizni qanday kutib olishdi!

Menga hatto, — uning ko‘zlarida uchqun sachradi va o‘sha zahoti o‘chdi, — oxiri tantanali uchrashuv ustidan chiqqandek tuyuldi. Mana

bu hayqiriqlar, qo‘shiqlar, nutqlar… Axir bari zo‘r bo‘lgan edi-ku…

— Bizni bu yerda qancha ushlab turishar ekan, a?

— Biz o‘zimizning jinni emasligimizni isbotlagunimizcha.

— Ha, bu qiyin emas ekan-ku.

— Men ham shunday deb o‘ylayman…

— Siz, aftidan, nimadandir cho‘chiyapsiz, shekilli, kapitan?

— Hm… Hov anovi burchakka bir qarang.

Qorong‘ida bir erkak cho‘nqayib o‘tirardi. Uning og‘zidan mittigina yalang‘och ayol shaklidagi moviy olov otilib turardi. Ayol havoda ko‘kishtob tutun ichida mayin uchardi va nimalarnidir shivirlab xo‘rsinar edi.

Kapitan boshi bilan boshqa tomonni ko‘rsatdi. U yerda bir ayol turar, turgan joyida hayratomuz shakllarga kirar edi. Avvaliga u billur ustunlar ichida tutqun holida ko‘rindi, so‘ng oltin haykalga aylandi, so‘ng kedr hassasi shaklini oldi va nihoyat yana o‘zining avvalgi qiyofasiga qaytdi.

Hamma joyda erkaklar va ayollar binafsharang olovning ingichka tillarini o‘ynar, tinimsiz bir shakldan boshqasiga kirar edilar, zero tun g‘am-anduh va sarguzashtlar pallasi hisoblanadi.

— Afsungarlik, qora jodugar, — shivirladi yerliklardan biri.

— Yo‘q, alahsirashlar bu. Ular bizga alahsirashlarini namoyish etishayapti, biz ko‘rib turgan bu narsalar ularning alahsirashlaridir. Telepatiya. O’z-o‘zini ishontirish va telepatiya.

— Siz shundan tashvishdamidingiz, kapitan?

— Ha. Agar alahsirashlar bizga — nafaqat, nafaqat, bizlarga shunday aniq bo‘lib ko‘rinar ekan, modomiki alahsirashlar shunday ishonchli va rostdek bo‘lib tuyular ekan, ular bizni jinni deb o‘ylashlari hech gap emas-da. Anovi erkak moviy olovdan mitti ayollar yasay oladi, anovi ayol esa haykalga aylanishga qodir; marsliklarning raketa kemasi bemor xayolotimiz samarasi deb o‘ylashlari uchun bemalol kifoya qiladi.

Qorong‘ilik ichidan kimningdir ayanchli xo‘rsingani eshitildi.

Chor atrofda goh chaqnab, goh o‘chib, moviy olovlar raqs tushar edi. Uxlab yotgan erkaklarning oldidan qizil qumdan yasalgan shaytonvachchalar uchib chiqar edi. Ayollar lorsillagan ilonlarga aylanar edilar. Turli hayvon va yirtqichlarning hidi anqirdi.

Tong otgach, hamma risoladagidek, quvnoq va sog‘lom ko‘rinar edi. Haligi alahsirashlar-u, g‘alati olovlardan nom-nishon yo‘q edi. Kapitan o‘z jamoadoshlari bilan hali-veri ochilib qolar degan umidda kumush eshik oldida turar edi.

Mister Iii rosa to‘rt soatdan keyin paydo bo‘ldi. Ular uning eshik ortidan ichkariga kirishidan avval bitta-bitta chaqirib, o‘zining mo‘‘jazgina xonasigi olib kirish uchun rosa uch soat eshik ortida turganiga shak-shubha qilmas edilar.

Agar uning niqobiga ishonadigan bo‘lsak, bu ochiqko‘ngil, yuzidan tabassum arimaydigan bir erkak edi, uning niqobida bir emas, uchta kulib turgan qiyofa tasvirlangan edi. Darvoqe, niqob ostidan chiqayotgan tovush tabassumli psixiatrga unchalik yarashmayotgan edi.

— Xo‘sh, sizni nima bezovta qilayapti?

— Siz bizni jinni deb o‘ylayapsiz, lekin bu to‘g‘ri emas, — dedi kapitan.

— Aksincha, men sizlarni barchalaringizni jinni deyayotganim yo‘q, — psixiatr kichikkina ko‘rsatkich tayog‘ini kapitanga niqtadi. — Faqat sizni, hurmatli janob. Barcha qolganlar — ikkilamchi jinni.

Kapitan tizzasiga shap etib urib qo‘ydi.

— Ha, gap bu yoqda deng! O’rtoqlarimning ham ish qog‘oziga imzo chekishlari shartmi, deb so‘raganimda mister Iiining qah-qah urib kulishi shundan ekan-da!

— Ha, mister Iii menga hammasini aytib berdi. — Psixiatr niqobidagi og‘zini qiyshaytirib, xoxolab kuldi. — Zo‘r hazil bo‘ldi-da. Xo‘sh, men nima deyayotgan edim? Ha, ikkilamchi jinnilar. Mening oldimga quloqlaridan ilonlar chiqib turadigan ayollar kelishadi. Mening muolajamdan keyin ilonlar g‘oyib bo‘ladi.

— Biz jon-jon deb davolanishga tayyormiz. Boshlang muolajangizni.

Mister Iii sarosimalanib qoldi.

— Vo ajab, hech kim muolajaga rozi bo‘lmaydi. Bu muolaja juda ham boshqacha bo‘lsa kerak-da.

— Hechqisi yo‘q. Muolajani boshlang dedikmi, boshlang. Bizning sog‘ ekanimizga keyin amin bo‘lasiz.

— Iltimos, avval qog‘ozlaringizni bir ko‘rib chiqsam. Muolaja uchun hammasi to‘g‘ri rasmiylashtirilganmi? — U papkani varaqlab ketdi. — Xo‘sh… Qarang-a, sizga o‘xshagan bemorlarga alohida uslublar kerak ekan. Siz ko‘rgan jinnixonadagi bemorlar muolajasi ancha jo‘nroq ekan…

Ammo siznikiga o‘xshagan birlamchi, ikkilamchi, eshituv, hidlov va ta’m biluv jinnilarini qo‘shib hisoblaganda sezuv va ko‘ruv sezgilari bilan birgalikda men sizga aytsam, ish nihoyatda yomon. Biz evtanaziyani qo‘llashga majbur bo‘lamiz.

Kapitan hayqirgancha oyoqqa turdi.

— Nimalar deyapsiz o‘zi, boshimizni qotirmang! Qani, boshlang! Bizni tekshiring, tizzamizga bolg‘acha bilan uring. Yuragimizni eshiting, o‘tirib-turishga majbur qiling, savollar bering!

— Bosh ustiga.

Kapitan bir soatcha jo‘shib, qaynab gapirdi, psixiatr jim quloq solib turdi.

— Hech ishonib bo‘lmaydi, — o‘ychan g‘udranib dedi u. — Hayotimda bunaqa aql bovar qilmas alahsirashni eshitmagan edim.

— Jin ursin! Biz ko‘rsatamiz sizga hali samoviy kemamizni! — bo‘kirdi kapitan.

— Jon deb ko‘raman. Siz uni shu yerda xonada ko‘rsata olasizmi?

— Albatta, u sizning kartotekangizda turibdi. “K” harfida.

Mister Iii diqqat bilan kartotekani qarab chiqdi, hafsalasi pir bo‘lgandek tilini chaqillatib qo‘ydi-da, shoshmaygina tortmani ichkariga surib qo‘ydi.

— Meni ahmoq qilishingizga nima hojat bor edi, bu yerda hech qanday samoviy kema yo‘q-ku.

— Qayoqdan ham bo‘lsin, jinnivoy! Men hazillashgan edim. Endi ayt-chi, jinnilar haddidan oshayaptimi?

— Ba’zan juda qiziq-qiziq gaplar bo‘lib turadi. Bo‘pti, meni raketangiz oldiga olib boring. Men uni ko‘rmoqchiman.

Ular raketa oldiga kelishganida, jazirama tush payti bo‘lib qolgan edi.

— Xo‘sh, — psixiatr kemaga yaqin bordi-da, uning qorniga chertdi. Chertki ovozi mayin, guvullagan edi. — Ichkariga kirsak maylimi? — So‘radi u mug‘ambirona.

— Kiring.

— Mister Yyy kema ichiga kirdi-da, taxta bo‘lib qoldi.

— Osiy umrimda ko‘p narsalar bo‘lgan edi, ammo bunaqasi… — Kapitan sigarani chaynagancha kutardi. — Hammadan ham men uyga uchib, bu Mars deganini yelkamning chuquri ko‘rsin, deyishni juda-juda xohlab ketayapman. Shu ham sayyora bo‘ldi-yu!..

— Mening nazarimda, bu yerdagi har ikkitaning bittasi jinni. Odam degani ham shunchalik bema’ni bo‘ladimi?

— Nima bo‘lganda ham mening jinnimni chiqarib yuborishdi.

Yarim soatcha psixiatr nimalarnidir titkiladi, paypasladi, chertib ko‘rdi, quloq soldi, hidlab ko‘rdi, tilini tekkizib ko‘rdi, oxiri kema ichidan chiqib keldi.

— Xo‘sh, endi amin bo‘lgandirsiz? — Qichqirdi kapitan quloqlari hech narsani eshitmaganday.

Psixiatr ko‘zlarini yumdi-da, burnini qashidi.

— Bu ilgari men hech qachon uchratmagan oddiy alahsirash va xayolparastlikning yorqin namunasi ekan-ku! Men sizning “Raketa” degan narsangizni ko‘rib chiqdim. — U raketaga barmog‘i bilan chertib qo‘ydi. — Eshitib turibman. Sarobiy tovush. — U havoni burni bilan hidlab ko‘rdi. — Men uni hididan bilayapman. Tuyg‘ularning telepatik uzatishlaridan hosil bo‘lgan hidlash gallyutsinatsiyasi. — U raketa chokini o‘pib qo‘ydi. — Men uning ta’mini his qilayapman. Ta’m biluv illyuziyasi!

U kapitanning qo‘lini siqib qo‘ydi.

— Sizni tabriklashimga ruxsat bering! Siz ruhshunoslik dahosi ekansiz! Bu har qanday barkamollikdan oliydir! Sizning o‘z ruhiy xayolotingizni idrok etish kuchini to‘la saqlangani holda boshqa sub’ektlarni anglashga telepatik yo‘l bilan solishtirish qobiliyatingiz bag‘oyat ajoyib va tahsinga sazovordir. Bizning boshqa bemorlarimiz, odatda, ko‘ruv gallyutsinatsiyalariga mo‘ljallanadilar. Juda nari borganda, eshituv gallyutsinatsiyasi bilan qo‘shilib ketadilar. Siz bo‘lsangiz barchasi bilan bab-baravar muomala qilsangiz! Sizning jinniligingiz hayratomuz darajada mukammaldir!

— Mening jinniligim… — kapitanning rangi bo‘zdek oqardi.

— Ha, ha, ajoyib jinnilik! Ma’dan, rezina, graviatorlar, oziq-ovqat, kiyim-kechak, yonilg‘i, qurol-yaroq, zinalar, gaykalar, boltlar, qoshiqlar — men ko‘plab narsalarni tekshirib ko‘rdim. Umrimda bunaqa murakkab manzarani sira ko‘rmaganman. Hattoki karavotim tagidagi sharpalar ham qolmagan! Iroda degani ham shunchalik bo‘ladi-da! Bo‘ldi, men qanchalik tekshirmay, yana ularni istagancha paypaslab, hidlab, tinglab, til tekkizib ta’mini bilib olishingiz mumkin! Sizni quchishimga ruxsat bering!

Nihoyat, u kapitandan o‘zini chetga oldi.

— Men bu haqda risola yozaman. U ilmiy ishlarim ichidagi eng yaxshisi bo‘ladi! Kelasi oyda Mars Fanlar akademiyasida ma’ruza o‘qiyman! Birgina tashqi ko‘rinishingizni o‘zi nihoyatda qimmat turadi.

Siz hatto ko‘zingiz rangini almashtirmoqchi ham bo‘ldingiz — sariq o‘rniga ko‘kni, badaningiz qorachadan kelgan emas, bilki qizg‘ish! Mana bu kostyumingizni qarang, qo‘lingizda esa, oltita o‘rniga beshta barmoq bor! Nima ham derdik, ruhiyotdagi og‘ishlar ta’siri ostida mutlaqo biologik metamarfozadan boshqa hech narsa emas! Buning ustiga, anavi uchta oshnangizni aytmaysizmi…

U mo‘‘jazgina to‘pponchasini oldi.

— Sizni, albatta, davolab bo‘lmaydi. Baxtiqarosiz, g‘aroyib odamsiz! Sizni faqat o‘lim qutqaradi.

Bitta-yarimta aytadigan so‘nggi so‘zingiz bormi?

— Shoshmang, xudo haqqi, otmang!

— Sho‘rlik! Sizni bunday va mana bunaqa uchala odamni tasavvur etishga majbur etgan azoblardan qutqarmoqchiman. Sizni oldinda go‘zal kelajak kutib turibdi: men sizni o‘ldiraman-u, ko‘z ochib-yumguncha do‘stlaringiz ham, raketangiz ham gumdon bo‘ladi. Eh, bugungi kuzatishlarim bo‘yicha shunday bir maqola yozamanki — “Nerotik” saroblarining tarqalishi”!

— Men Yerdan kelganman! Mening ismim Jonatan Uilyams. Mana bular esa…

— Bilaman, bilaman, — quvnoq ohangda dedi mister Yyy va o‘q uzdi.

Kapitan yuragida o‘q bilan qulab tushdi. Uning do‘stlari qichqirib yuborishdi.

Mister Yyyning ko‘zlari kosasidan chiqib ketdi.

— Siz haliyam yashayapsizmi? Hecham bo‘lmagan gap! Zamon va makondagi persistensiyali gallyutsinatsiya! — u to‘pponchasini ularga o‘qtaldi. — Hechqisi yo‘q, men sizlarni g‘oyib bo‘lishga majbur etaman.

— Yo‘q, — qichqirishdi fazogirlar.

— Hattoki bemorning o‘limidan keyingi eshituv illyuziyasi, — ishchan bir ohangda dedi mister Yyy haligi uchalasini bittama-bitta o‘ldirar ekan.

Ular hech qancha o‘zgarmagan holda qum ustida qimir etmay yotar edilar.

U yotganlarni oyog‘i bilan turtdi, so‘ng raketa qorniga dukillatib urdi.

— Raketaga jin ham urmagan! Bular hali ham g‘oyib bo‘lgani yo‘q! — U yana va yana jonsiz jasadlarga qarata o‘q uzdi. Keyin bir qadam orqaga tisarildi. Tirjaygan qiyofadagi niqob uning oyog‘i ostiga qulab tushdi.

Psixiatrning yuz ifodasi asta-sekin o‘zgara boshladi. Pastki jag‘i osilib qoldi. Holsiz qo‘lidan to‘pponcha tushib ketdi. Nigohi bo‘m-bo‘sh, befarq boqardi. U qo‘llarini yuqoriga ko‘tarib siltadi va xuddi ko‘r odamdek joyida bir aylandi. U dam-badam so‘lagini yutgancha o‘lik jismlarni paypaslar edi.

— Gallyutsinatsiyalar, — jazava ichida g‘udranardi u. — Ta’m. Ko‘lankalar. Hid. Tovush. Sezgi.

U ko‘zlarining paxtasini chiqarib, qo‘llarini siltar edi. Lablarida ko‘pik paydo bo‘ldi.

— Chiringlar! — bo‘kirdi mister Yyy, o‘liklarga murojaat qilgancha. — Chiri! — Qichqirdi u raketaga.

U o‘zining titroq qo‘llariga qaradi.

— Menga yuqdi, — shivirladi u g‘azab ichida. — Endi menga o‘tdi. Telepatiya, gipnoz. Endi men jinniman. Jinnilarning barcha alomatlari menda. — Bir soniya u tosh qotib qoldi, so‘ng karaxt barmoqlari bilan to‘pponchani qidira boshladi. — Birgina vosita qoldi. Ularni chirib, yo‘q bo‘lib ketishiga birgina usul kor qiladi, xolos.

O’q ovozi yangradi. Mister Yyy qulab tushdi.

Quyosh nurlari ostida to‘rtta jasad yotardi. Ularning yonginasida mister Yyy ham yotardi.

Quyosh nurlariga cho‘mgan tepalik ustida tumshug‘ini osmonga qadagancha hech qayoqqa g‘oyib bo‘lmay, raketa qaddini tik tutib turardi. Shaharliklar ufqdagi raketani uchratib, buning nima ekanligiga aqllari yetmay, rosa boshlari qotdi. Uning nima ekanligini hech kim bilolmadi. Raketani eskichiga sotib yuborishdi, u uni olib

ketdi-da, maydalab pullab yubordi.

Tun bo‘yi yomg‘ir tinmadi. Ertasiga osmon charaqlagan va havo iliq edi.

Mart 2000
SOLIQ TO‘LOVCHI

U raketada Marsga uchib ketmoqchi edi. Erta bilan u kosmodromga keldi-da, tikonli sim devor ortida turib, “Men Marsga uchmoqchiman” deya mundirli odamlarga qarata qichqira boshladi. U soliqni bexato to‘lab keladi, familiyasi Prichard va u Marsga uchish uchun to‘la haqli. Axir u shu yerda, Ogayoda tug‘ilmaganmidi? Nahotki u yomon fuqaro bo‘lsa?! Unda o‘zi nima gap, nima uchun Marsga uchishi mumkin emas ekan? Mushtumlarini do‘laytirib, ularga qarab yerda ortiq qolishni istamayman, miyasi bor odam Yerdan qorasini o‘chirish orzusida yuradi, deya tinmay qichqirar edi. Ko‘pi bilan ikki yildan keyin yerda jahon atom urushi boshlanadi. Lekin u bu mudhish pallani kutib o‘tiradigan ahmoq emas. U va miyasi bor har qanday minglab odamlar Marsga uchib ketishni istayapti. Ishonmasalaring, ularning o‘zlaridan so‘ranglar! Urushlar va tsenzuradan, to‘rachilik va harbiy tobelikdan, hukumatdan nari bo‘lgan ming marta afzal, bular maxsus ruxsatnomasiz bir qadam ham qimirlagani qo‘ymaydi, bular fanni ham, san’atni ham oyoqlari ostida yanchib tashlashdi! Agar xohlasangiz yerda qolaverishingiz mumkin. U o‘ng qo‘lini, boshini, yuragini qurbon qilishga tayyor-u, faqat Marsga uchib ketsa bo‘lgani! Raketaga tushish uchun nima, qilish kerak, qaerga imzo chekish kerak, kim bilan tanish-bilish ortdirish kerak?

Tikonli sim ortidan javob o‘rniga mundirli odamlar kulib qo‘ydilar, xolos. Uning Marsga hecham uchib ketgisi yo‘q, der edi ular. Axir u Birinchi va Ikkinchi ekspeditsiyalar yo‘q bo‘lib ketishganini, yo‘qlik qa’riga mahv bo‘lganlarini, ularning barcha ishtirokchilari, ochig‘ini aytganda, o‘lib ketganlarini nahotki u bilmasa?!

— Lekin buni isbotlash kerak, buni hali hech kim aniq bilmaydi-ku, — deb qichqirardi u tikonli simga yopishgancha. Balki u yerda sut daryosi oqib, sharbat dengizi mavj urib turgandir, balki kapitan York va Uilyams qaytib kelishni o‘zlari xohlashmagandir. Xullas, gap shu — darvozani ochinglar-da, yaxshilikcha meni Uchinchi ekspeditsiyaga — raketaga qo‘yib yuboringlar yoki men o‘zim kuch bilan kirib olaymi?

Naryoqdagilar unga og‘zini yopishni maslahat berdilar.

U fazogirlarning raketa tomon borayotganlarini ko‘rdi.

— Meni kutib turinglar! Meni bu dahshatli dunyoda qoldirmanglar, men bu yerdan uchib ketishni istayman, tez orada atom urushi boshlanadi! Meni yerda qoldirmanglar!

Ular kuch bilan devordan nariga sudrab ketishdi. Ular politsiya mashinasi eshigini qarsillatib yopdilar-da, mana shu tonggi soatda uni

olib ketishdi, u bo‘lsa, orqa darchaga mahkam yopishib oldida, mashina vahimali chinqirgancha tepalikdan oshib o‘tishidan bir lahza oldin qip-qizil alangani ko‘rdi va qudratli guvullashni eshitdi, miyasiga qattiq zarba kelib tushgandek bo‘ldi — bu uni mana shu fayzsiz tongda hech narsa bilan maftun etolmaydigan yer sayyorasida qoldirib, osmonga ko‘tarilgan kumushrang raketaning to‘lqini edi.

Aprel 2000
UCHINCHI EKSPEDISIYA

Kema koinotdan keldi. Yulduzlar, aql bovar qilmas tezliklar, charaqlagan harakat va soqov samoviy tubsizlik ortda qoldi. Kema yap-yangi edi; uning vujudi o‘t bo‘lib yonardi, uning temir uyachalarida odamlar o‘tirardi; olov ufurgan, qaynoq nafas olgancha u mutlaqo ovozsiz parvoz qilardi. Uning bo‘lmalarida komandir bilan qo‘shib hisoblaganda o‘n yettita odam bor edi. Ogayo kosmodromidagi xaloyiq qichqirar, qo‘llarini siltar edi, raketa tagidan ulkan yaproqli qip-qizil olov gul kabi ochildi-yu, u fazoga otildi — Mars sari Uchinchi ekspeditsiya boshlandi!

Endi kema temir aniqligi bilan Mars havosining yuqori qatlamlarida harakatni sekinlashtirdi. U hamon go‘zallik va qudrat tajassumi edi. Koinotning tim qora qo‘ynini yorib, u bamisoli tiniq dengiz darrandasi singari suzib borar edi; u Oymomo yonida shitob bilan o‘tdi-da, birin-ketin bo‘shliqlar bag‘rini tilgancha olg‘a intildi. Uning qornidagi odamlar o‘zlarini har tomonga tashlar, o‘mbaloq oshar, dumalar edilar, biri olib, biri qo‘yib jag‘ urardilar. Ulardan biri o‘ldi, biroq qolgan o‘n oltitasi illyuminatorning qalin shishasiga yopishib olib, taglarida Mars sayyorasining qanchalik shiddat bilan aylanishini va kattalashib borayotganini ko‘zlari kosasidan chiqqudek bo‘lib qarab turar edilar.

— Mars! — qichqirdi shturman Lyustig.

— Chol bobo Mars! — dedi qadimshunos Semyul Xinkston.

— Zo‘r! — dedi kapitan Jon Blek.

Raketa yam-yashil dalaga kelib qo‘ndi. Sal naridagi xuddi shunday dalada cho‘yandan quyilgan ohu turardi. Undan ham narida oftobshuvoqda Viktorian uslubidagi, sanoqsiz va rang-barang shokilali oynalari moviy, pushti, sariq, yashil derazali baland bo‘yli uy qad ko‘tarib turardi. Ayvonda paxmoq yorongul o‘sib turar, ilmoqlarda yengil shabadadan eski arg‘imchoqlar goh u tomonga, goh bu tomonga chayqalar edi. Uyning uchli tomoni uzra rombsimon billur shishali minora charaqlab ko‘rinardi. Birinchi qavatdagi keng derazadan “Ajoyib Ogayo” sarlavhali notalar yozilgan musiqa kitobchasini ko‘rish mumkin edi.

Raketa atrofidan Mars bahoridan chiroy ochgan ko‘m-ko‘k va harakatsiz shaharcha har tomonga qarab yoyilib ketgan. Oq va qizil g‘ishtdan qurilgan uylar saf tortgan, baland dublar shamoldan egilib-egilib chayqalar, qudratli qayrag‘ochlar va kashtan daraxtlari ham tinimsiz shovullardi. Unsiz oltin qo‘ng‘iroqli qo‘ng‘iroqxonalar savlat to‘kib turardi.

Bularning barchasini fazogirlar illyuminatordan koʻrib turar edilar. Keyin ular bir-birlariga qarashdi.

Soʻng yana illyuminatorga yuzlanishdi. Keyin goʻyo birdaniga nafas olish qiyinlashgandek har kim yonidagi qoʻshnisining tirsagiga yopishdi. Ularning yuzlari boʻzdek oqarib ketdi.

— Jin ursin meni, — shivirladi Lyustig, yuzini uvishib qolgan barmoqlari bilan artarkan. — Meni nima jin urdi oʻzi!

— Hech ham bunaqa boʻlishi mumkin emas, — dedi Semyul Xinkston.

— Yo alhazar! — dedi komandir Jon Blek.

Kimyogar oʻzining xonasidan turib axborot berdi:

— Kapitan, havo kam, lekin kislorod yetarli, hech qanday xatar yoʻq.

— Demak, chiqamiz, shundaymi? — soʻradi Lyustig.

— Shoshmanglar, — dedi kapitan Jon Blek. — Buning nima ekanini avval yaxshilab bilib olish kerak.

— Bumi? Kichkina shaharcha, kapitan, havo kam boʻlsa-da, lekin nafas olsa boʻladi.

— Yerdagi shaharlarga oʻxshagan moʻʻjazgina shaharcha, — qoʻshib qoʻydi qadimshunos Xinkston.

— G'oyatda gʻaroyib. Hech ham bunday boʻlishi mumkin emas, ammo nachora, ana u, oldimizda turibdi…

Kapitan Jon Blek pirishon holda unga qarab qoʻydi.

— Xoʻsh, Xinkston, sizningcha, tamaddun ikki turli sayyorada bir xil sur'atda va bitta yoʻnalishda taraqqiy qilishi mumkinmi?

— Menimcha, unchalikmasdir-ov!

Kapitan Blek illyuminator yonida turardi.

— Hov anovi yorongullarga qarang-a. Mutlaqo yangi turi. U yerga bor-yoʻgʻi ellik yilgina avval olib chiqilgan edi. Endi-chi, oʻzingiz oʻylab koʻring, u yoki bu turdagi oʻsimlik evolyutsiyasi uchun necha ming yillar talab etilmaydimi?! Kezi kelganda shuni ayting-chi, menga marsliklarda, birinchilardan, aynan shunday deraza romlari, ikkinchidan minorachalar, uchinchidan, ayvonchadagi argʻimchoqlar, toʻrtinchidan pianinoga oʻxshagan cholgʻu asbobi, beshinchidan, teleskopga diqqat bilan qarang-a, mana shunday boʻlishi mantiqqa toʻgʻri kelarmikan? Marslik bastakor oʻz asarini kelib-kelib aynan “Ajoyib Ogayo” deb atashi ham mantiqqa toʻgʻri kelarmikan? Axir bu bir narsanigina anglatishi mumkin: Marsda ham Ogayo daryosi bor ekan!

— Kapitan Uilyams boʻlmasa-chi, — qichqirib yubordi Xinkston.

— Nima?

— Kapitan Uilyams va uning uch hamrohi! Yoki Nataniel York oʻz juftligi bilan bular hammasini aytib turibdi!

— Bu hech narsani aytib turgani yoʻq. Bizning aniqlashimizga

qaraganda, Yorkning raketasi Marsga qo‘nar-qo‘nmas portlab ketgan va har ikkala fazogir halok bo‘lgan. Uilyams va uning uchala hamrohiga kelsak, ularning kemasi yetib kelgandan keyin ikkinchi kuni portlab ketgan. Nima bo‘lganda ham ayni shu vaqtda uzatgichlar ishdan to‘xtab qolgan. Ular tirik bo‘lganida biz bilan aloqa bog‘lashga uringan bo‘lar edilar. York ekspeditsiyasi vaqtidan buyon atigi bir yil o‘tganini, kapitan Uilyams ekipaji esa bu yerga avgustda uchib kelganini aytib o‘tirmasa ham bo‘ladi. Faraz qilaylik-chi, ular tirik hamdirlar — garchand eng mohir marsliklar yordamida shunday qisqa vaqt butun bir shaharni qurish va uning sharti ketib, parti qolgan bir holga kelishi aqlga sig‘adigan ishmi? Siz yaxshilab qarang, axir bu shahar kam deganda yetmish yil oldin qurilgan. Eshik oldidagi panjaralarni qarang, daraxtlarga qarang — yuz yoshli dublar-ku! Yo‘q, York ham, Uilyams ham bu yerda hech qanday ahamiyatga ega emas. Bu yerda butunlay boshqa gap bor. Menga unchalik yoqmayapti. Toki gap nimadaligini bilmagunimcha kema ichidan chiqmayman.

— Buning ustiga, — qo‘shimcha qildi Lyustig, — Uilyams va odamlari, York ham Marsning narigi tomoniga qo‘nganlar. Biz esa bu tomonni ataylab tanladik.

— Xuddi shunday! Agar York va Uilyamsni marslik qabilalar qasddan o‘ldirgan bo‘lsalar, demak, bizga ikkinchi yarim sharda qo‘nishga ataylab buyruq berilgan bo‘lib chiqadi. Halokat takrorlanmasligining oldini olishgan bo‘lishsa kerak. Demak, biz shunday bir puchmoqda turibmizki, uni, bizga ma’lum bo‘lishicha, na Uilyams, na York ko‘zlari bilan ko‘rishgan.

— Jin ursin, — dedi Xinkston, — baribir men sizni ruxsatingiz bilan bu shaharga boraman, kapitan.

Axir Quyosh tizimimizdagi barcha sayyoralarda tafakkur va tamaddun bir-biriga o‘xshash yo‘llar bilan taraqqiy etgan bo‘lishi mumkin-ku. Kim bilsin, ehtimol, biz davrimizning eng buyuk psixologik va falsafiy kashfiyoti bo‘sag‘asida turibmiz!

— Men bir oz kutib turishni ma’qul deb bilaman, — dedi kapitan Jon Blek.

— Komandir, balki ro‘parangizda xudoning borligini birinchi marta isbot qilgan hodisa turgandir!

— Bunday isbotlarsiz ham dindorlarni xudo urib yotibdi, mister Xinkston…

— Ha, men ham o‘shalarning sirasiga kiraman, kapitan. Ammo bir narsa kundek ravshan. — Bunday shahar ilohiy qudratning aralashuvisiz paydo bo‘lishi mumkin emas. Mana bu mayda-chuyda narsalar, qismlar… Vujudimda shunday qarama-qarshi tuyg‘ular kurashi ketayaptiki, kulishimni ham, yig‘lashimni ham bilmayman.

— Unda biz nimaga duch kelganimizni aniqlagunimizcha unisidan ham, bunisidan ham tiyilib turing.

— Nimaga duch kelibmiz? — gap qo‘shdi Lyustig. — Hech narsaga duch kelganimiz yo‘q-ku. Oddiy, jim-jit, ko‘rkam, yam-yashil shaharcha, xuddi men tug‘ilgan o‘sha daqqiyunusdan qolgan puchmoqning o‘zginasi. U menga ham yoqayapti.

— Qachon tug‘ilgansiz, Lyustig?

— 1950 da, ser.

— Siz-chi, Xinkston?

— 1955 da, kapitan. Grinnell, Ayova shtati. Bundoq qarasam, go‘yo o‘z jonajon vatanimga qaytib kelgandekman.

— Xinkston, Lyustig, men sizga ota bo‘lishim mumkin, men rosa saksondaman. 1920 yilda Illinoysda tug‘ilganman. Biroq, xudoning marhamati va so‘nggi ellik yilda ba’zi chollarni yigitga aylantirib qo‘ygan fan sharofati bilan Marsga uchib keldim. Sizdan kam charchagan emasman, ammo mana bu ishonmaslik dardi tushmagur sizlardan bir necha barobar ko‘pdir menda. Bu shunday tinch, shunday jozibador shaharcha ekanki, o‘xshashini ko‘rib, hatto qo‘rqib ketayapman. U Grin-Blaffga haddan tashqari qattiq o‘xshaydi. — Komandir radistga o‘girildi. — Meni Yer bilan ulang.

Qo‘nganimizni ayting. Ortiq hech nima demang. Qolgan barcha gaplarni ertaga yuboramiz, deb ayting.

— Xo‘p bo‘ladi, kapitan.

Kapitan Blek illyuminatorga qaradi. Uning basharasiga qarab hech kim sakson yashar demasdi.

Nari borsa, qirq yoshga kirgan, derdi.

— Endi quloq soling, Lyustig. Siz, men, Xinkston, boramiz-da, shaharni aylanib chiqamiz. Qolganlar raketada kutib o‘tirishadi. Bir nima bo‘lib qolgudek bo‘lsa, ular jon saqlab qola oladilar. Butun kema halokatga uchrashidan ko‘ra, uch kishini yo‘qotish durustroqdir. Musibat sodir bo‘lgudek bo‘lsa, ekipajimiz boshqa raketaga xabar berishga ulguradi. U raketani, yanglishmasam, dekabrning oxirida kapitan Uaylder boshqaradi. Agar Marsda qandaydir dushman kuchlari bo‘lsa, yangi ekspeditsiya yaxshilab qurollangan bo‘lishi kerak.

— Ammo biz ham qurollanganmiz. Tish-tirnog‘imiz bilan qurollanganmiz.

— Bo‘pti, odamlarga xabar qiling. Qurollarni shay holatga keltirib qo‘yishsin. Ketdik, Lyustig, ketdik, Xinkston.

Uchala fazogir kema bo‘lmasi orqali pastga tushishdi.

Ajoyib bahor kuni edi. Qiyg‘os gullagan olma shoxida chittak tinimsiz sayraydi. Shamol yam-yashil shoxlarni silkitganda oppoq gullar bulutdek yerga to‘kiladi. CHor atrofni gullarning muattar hidi tutgan. Shaharchada kimdir pianino chalar edi va musiqa tovushi bir ko‘tarilib, bir pasayib nafis, allalagandek havoda suzardi. “Ajoyib

xayolparast” kuyini ijro etmoqda edilar. Boshqa tomonda esa grammofondan Garri Loder ijrosidagi “Shomdagi sayr” kuyi hirqiroq, bo‘g‘iq ohangda taralardi. Uchala fazogir raketa tagida turishardi. Ular siyrak havoni og‘izlari bilan yutoqib yutinar edilar. So‘ng kuchlarini avaylagancha asta yurib ketishdi.

Endi boshqa plastinka aylanardi.

Yoz oqshomi bo‘lsa bas menga,
Oydin tunda yetishsam senga…

Lyustigning tizzalari qaltirab ketdi, Semyuel Xinkstonda ham xuddi shunday bo‘ldi.

Osmon tip-tiniq va tinch edi, allaqaerda, jarlik tubida, ko‘m-ko‘k shoxlarning salqin soyasida daryo jildirardi. Ot tuyoqlari dupirlar, arava g‘ildiraklari do‘qirlardi.

— Kapitan, — dedi Semyuel Xinkston. — Istaysizmi-istamaysizmi, ammo hech ham o‘xshamaydi, aks holda bunday bo‘lishi mumkin emas-ku, — Marsga parvozlar birinchi jahon urushigacha boshlangan bo‘lar edi.

— Yo‘q.

— Ammo mana bu uylarni, mana bu cho‘yan ohuni, pianino musiqasini qanday izohlaysiz? — Xinkston zo‘r berib kapitanning tirsagini qisdi, uning yuziga qaradi. — Faraz qilingki, deylik 1905 yilda urushni yomon ko‘rgan odamlar bor edi. Ular olimlar bilan zimdan til biriktirishgan-da, raketa yasaganlar va bu yerga, Marsga kelib olganlar…

— Bu mumkin emas, Xinkston.

— Nima uchunmi? 1905 yilda dunyo butunlay boshqacha edi. U paytlarda buni maxfiy saqlash ancha oson edi.

— Ammo mana bu raketaga o‘xshagan murakkab narsani emas-da! Yo‘q, yo‘q…

— Ular bu yerga butunlay ko‘chib kelishgan, tabiiyki, xuddi Yerdagidek uylar qurishgan, axir o‘zlari bilan yerdagi madaniyatni ham olib kelishgan-da.

— Shuncha yillar shu yerda yashagan deb o‘ylaysizmi? — deb so‘radi komandir.

— Xuddi shunday, tinch va ahil yashashgan. Ehtimol, ular yerga bir necha marta borib ham kelganlar. Keragicha odamlarni olib ham kelganlar, deylik mana bunaqa shaharchalarga joylashtirish uchun, keyin esa ularni bilib qolmasliklari uchun parvozlarni to‘xtatishgan. Shaharning eski uslubdaligining siri shunda. Shaxsan men hozircha 1972 yildan keyin yasalgan bironta buyumni hali ko‘rganim yo‘q. Xo‘sh, siz-chi, kapitan? Darvoqe, samoviy sayohatlar, umuman, biz o‘ylagandan ham oldinroq bo‘lishi mumkin. Yerning qaysidir uzoq

burchagida, yuz yillar muqaddam. Odamlar Marsga allaqachonlar kelib olganlar-u, bu haqda hech kim bilmagan bo‘lsa, ne ajab? Ularning o‘zlari esa ahyon-ahyonda yerga borib-kelib turishgan.

— Shunday gapirayapsizki, xuddi haqiqatga o‘xshaydi.

— Haqiqat bo‘lganda qandoq!

— Isboti ko‘z oldimizda turibdi-ku. Endi odamlarni topsak bas, taxminimiz tasdig‘ini topadi-qo‘yadi.

Qalin ko‘m-ko‘k o‘tlar ularning qadam tovushlarini yutib yubormoqda edi. Yangi o‘rilgan pichan hidi dimoqqa urardi. Kapitan Jon Blek ularning irodasiga qarshi o‘laroq, vujudlarini sokin bir farog‘at chulg‘ab olganini his etdi. U mana bu mo‘‘jaz shaharchada so‘nggi marta bo‘lganiga ham oz emas, ko‘p emas, rosa o‘ttiz yil bo‘libdi; bahorgi asalarilarning g‘o‘ng‘illashlari uning ruhiga taskin berar va allalar edi, uyg‘onib kelayotgan tabiat tarovati qalbiga orom bag‘ishlar edi.

Ular to‘r tortilgan eshik tomon yo‘nalgancha ayvonga chiqdilar va polga urilgan odimlari bo‘g‘iq aks sado berar edi. To‘r orasidan ular yo‘lakni to‘sib turgan jimjimador pardani, billur qandilni va devordagi Marksfil Parrish qalamiga mansub suvratni ko‘rdilar. Uyda eski buyumlar, chortoq va yana nimaningdir hidi dimoqqa yoqimli urilar edi. Limonadli ko‘zaga muzning mayin urilib tushgan ovozi quloqqa chalindi. Uyning narigi burchagidagi oshxonada jazirama kun munosabati bilan kimdir yaxna tushlik tayyorlar edi. Baland ayol ovozi qaysidir kuyni bosiq va yoqimli xirgoyi qilardi.

Kapitan Jon Blek qo‘ng‘iroq dastachasini tortdi.

Yo‘lak bo‘ylab yengil qadamlar ship-ship qildi, to‘rning nariyog‘idan qirq yoshlardagi, xushro‘ygina ayol ko‘rindi, egnidagi kiyim ehtimol 1909 yildagi liboslardan edi.

— Buyursinlar, ne xizmat? — so‘radi u.

— Kechiring, — jur’atsizgina gap boshladi kapitan Blek, — bizlar bilasizmi… ya’ni, ehtimol, siz…

U duduqlanib qoldi. Ayol unga tim qora ko‘zlari bilan hayron qarab turardi.

— Biron narsa sotmoqchi bo‘lsalaringiz… — gap boshladi ayol.

— Yo‘q, yo‘q, shoshmang! — qichqirdi kapitan. — Bu qaysi shahar?

Ayol unga sinchkov nazar soldi.

— Nima demoqchisiz bu bilan: qaysi shahar deysizmi? Shaharning o‘zida bo‘la turib, uning nomini bilmaslik mumkinmi?

Kapitanning yuzidan uning tezroq biron olma daraxti tagiga borib o‘tirsa-yu, soyasida orom olsa — shuni anglash mumkin edi.

— Bizlar bu yerlik emasmiz. Qaysi shaharga kelib qolganimizni va qanday kelib qolganimizni bilishimiz kerak edi.

— Sizlar aholini ro‘yxatga olish byurosidanmisizlar?

— Yo‘q.

— Barchaga ma’lumki, — davom etdi ayol, — shahar 1868 yilda qurilgan. Shoshmang-shoshmang, tag‘in meni laqillatayotgan bo‘lmanglar.

— Yo‘g‘-e, nima deyapsiz! — shoshib dedi kapitan, — biz Yerdanmiz.

— Yerning tagidan demoqchimisiz? — hayron bo‘ldi ayol.

— He, yo‘q, biz Uchinchi sayyora — Yerdan uchib kelganmiz. Samoviy kemada. Biz bu yerga — To‘rtinchi sayyora — Marsga uchib kelganmiz…

— Bilasizmi, qaerdasizlar? — xuddi bolaga gapirgan ohangda tushuntira ketdi ayol, — Grinblavdasiz. Illinoys shtati, Amerika deb ataladigan ikkita okean, Atlantika va Tinch okeanlari yuvib turadigan qit’adasizlar, bu ham Yer deb ataladigan dunyodasizlar. Endi tuyog‘ingizni shiqillatib qoling, xayr.

Ayol yo‘l-yo‘lakay marjonli pardani sura-sura yo‘lakdan mayda odimlab ketdi.

Uchala o‘rtoq bir-biriga qaradi.

— Eshik qurib olamiz, — taklif qildi Lyustig.

— Mumkin emas. Xususiy mulkchilik. Ey xudoyim-a.

Ular zinadan pastga tushishdi-da, pastki pillapoyaga o‘tirib olishdi.

— Bizlar yo‘ldan adashib, yura-yura orqaga, Yerga adashib qaytib kelib qolmadikmikan, deb hech xayolingizga keldimi, Xinkston?

— Qanday qilib?

— Bilmadim, bilmadim. Yo tavba, iltimos, fikrlarimni to‘plab olay.

— Axir biz har bir millik yo‘lni nazorat qilib kelgan edik-ku, — davom etdi Xinkston. — Xronometrlarimiz qancha yo‘l bosib o‘tganimizni aniq hisolab berishdi. Biz oyning yonidan o‘tdik, Katta koinotga chiqdik va bu yerga uchib keldik. Marsda ekanimizga men zarracha shubha qilmayman.

Gapga Lyustig aralashdi.

— Balki makonga, zamonga bir nima bo‘lgandir? Bilasizlarmi, biz to‘rtinchi o‘lchamda adashib qolganmiz va yerga 30 yoki 40 yil oldin qaytib kelganmiz.

— Qo‘ysangiz-chi, Lyustig!

— Lyustig eshik yoniga keldi-da, qo‘ng‘iroqni tortdi va muzdek, qop-qorong‘i xonaga qarab qichqirdi:

— Hozir qaysi yil?

— 1926 yil, qaysi yil bo‘lardi, — javob berdi ayol arg‘imchoqda o‘tirgan va limonaddan simirgan ko‘yi.

— Ana, eshitdingizmi? — Lyustig shiddat bilan orqaga o‘girildi. — 1926 yil! Biz o‘tmishga uchib ketganmiz! Bu — Yer!

Lyustig o‘tirdi. Endi u hammaning xayolini band etgan hayratomuz va dahshatli xayollarga qarshilik ko‘rsatmasdi. Tizzalarida yotgan qo‘llari asabiy uchar edi.

— Men shuning uchun parvoz qilganmidim? — gap sotdi kapitan, — Men dahshatga tushib ketyapman, dahshatga! Nahotki shunday bo‘lishi mumkin? Eynshteynni chaqirish kerak bu yerga…

— Bu shaharda bizga kim ishonardi? — nido soldi Xinkston. — Uf, o‘t bilan o‘ynashayapmiz! — Axir bu vaqt, to‘rtinchi o‘lcham, yaxshisi, raketaga qaytib borib, uyga uchmaylikmi-a?

— Yo‘q, hech bo‘lmaganda yana bitta uyga qarab olaylik.

Ular uchta uyning yonidan o‘tishdi va qudratli daraxt tagida turgan mo‘‘jazgina oppoq kottej oldida to‘xtashdi.

— Men har doim har bir gapning tagiga yetib o‘rganganman, — dedi komandir. — Hozircha biz hali gapning mag‘zini yaxshilab chaqmagan ko‘rinamiz. Faraz qilaylik, Xinkston, samoviy sayohatimiz juda qadim paytda boshlangan degan taxminingiz to‘g‘ri. Ko‘p yillar oldin bu yerga uchib kelgan yerliklar Yerni sog‘ina boshlashgan. Avvaliga bu sog‘inch bir oz g‘ijinishdan nariga o‘tmagan, keyin chinakamiga asabiylashish boshlangan, jinni bo‘lish darajasigacha borib yetgan. Psixiatr sifatida siz shunday holda nimani tavsiya etgan bo‘lardingiz?

Xinkston o‘ylanib qoldi.

— Nima qilardim, ehtimol Mars tamaddunini har kuni Yerdagiga tobora o‘xshab borishi uchun oz-ozdan qayta tiklar edim. Agar Yerdagi o‘simliklarni, yo‘llarni, ko‘llarni, hattoki okeanni qayta tiklash usuli bo‘lsa, men, albatta, shunday qilgan bo‘lardim. Keyin ommaviy gipnoz vositalari bilan mana shunday shaharning barcha aholisiga, bu yer hech qanday Mars emas, bu yer chinakam Yer sayyorasidir, deya miyasiga quygan bo‘lardim.

— A’lo, Xinkston. Nazarimda, biz to‘g‘ri ketayapmiz, anovi uyda biz ko‘rgan ayol o‘zini Yerda yashayapman, deb o‘ylayapti, vassalom. Shu uning xayolini ushlab turibdi. Bu ayol va bu shaharchaning boshqa yashovchilari kelajakda sizlarga duch kelishi mumkin bo‘lgan eng buyuk ko‘chuv va avrash tajribalarining manbalari bo‘lib xizmat qiladi.

— Juda nishonga urdingiz, kapitan! — ovozini ko‘tarib dedi Lyustig.

— Aniq urdingiz! — qo‘shib qo‘ydi Xinkston.

— Yaxshi. — Kapitan xo‘rsinib qo‘ydi. — Ishlar sal jo‘nashgandek bo‘ldi, ko‘ngil ham xotirjamroq.

Qandaydir mantiq borga o‘xshayapti. Bo‘lmasa sayohatlar haqida zamondagi oldinga va orqaga qarab qilingan mana bu barcha safsatalardan miyam achib ketgandi. Agar mening taklifim to‘g‘ri bo‘lsa… — u jilmaydi. — Nima ham derdim, unda mahalliy aholi

orasida ozmuncha shov-shuv kutilmayotibdi!

— Ishonchingiz komilmi? — dedi Lyustig. — Nima bo‘lganda ham bu odamlar o‘zlariga yarasha ziyoratchilardir. — Ular Yerni bilib turib tashlab kelishgan. Balki ular bizning kelganimizdan hech ham xursand emasdirlar. Balki ular bizni quvib yuborishga, hatto o‘ldirishga ham tayyordirlar.

— Bizning qurolimiz durustroq. Qani, keyingi uyga kiraylik-chi.

Ammo ular maysazordan o‘tishga ham ulgurmagan edilarki, Lyustig turgan joyida qotib qoldi. Ikki ko‘zi sokin, mudroq ko‘chaning narigi uchida edi.

— Kapitan, — dedi u.

— Nima gap, Lyustig?

— Kapitan… Yo‘q, siz anovi… Nimalarni ko‘rayapman-a!

Lyustigning yanoqlaridan yoshlar dumalay ketdi. Ko‘tarilgan qo‘llarining qabargan barmoqlari titrar, yuzida hayrat, quvonch, shubha aks etardi. Yana bir oz o‘tgach, sevinchdan o‘zini yo‘qotishi tayin edi.

O’sha nuqtaga qarab turar ekan, u to‘satdan chopib ketdi. Qoqilib tushdi-da, yerga yiqildi. Oyoqqa turib, yana chopib ketar ekan:

— Hoy, menga qaranglar! — deya qichqirdi.

— To‘xtating uni! — Kapitan uning orqasidan yugurdi.

Lyustig kuchining boricha chopar, qichqirar edi. Soyador ko‘chaning o‘rtasiga yetgach, u bir hovliga qarab burildi-da, bir sakrab tomida temir xo‘roz turgan katta yashil uyning ayvonchasida paydo bo‘ldi. Xinkston va kapitan Lyustigga yetib olganlarida, u qattiq qichqirgancha eshikni mushtlar edi. Uchalalari ham Marsning og‘ir havosidan sillalari qurib, og‘ir-og‘ir nafas olar, tomoqlari hushtak chalar edi.

— Buvi, bobo! — chaqirdi Lyustig.

Ostonada ikkita qariya paydo bo‘ldi.

— Devid! — qariyalar baravariga qichqirishdi. Ular o‘zlarini bir-birlarining bag‘rilariga otib, quchoqlasha ketdilar, yelkalarini silar edilar. — Devid, oh Devid, qancha yillar o‘tib ketdi-ya!.. Yosh bolagina eding. Devdek odam bo‘libsan. Devid, bolaginam, ahvollaring qalay?

— Buvi! Bobo! — piq-piq yig‘lar edi Devid.

— Sizlar shunday ajoyib ko‘rinasizlarki!

U qariyalarni o‘zidan nari surib, aylantirib, razm solar, o‘par, quchoqlar, yig‘lar va yana razm solardi, ko‘zlaridan oqayotgan yoshni sidirib tashlardi. Osmonda quyosh charaqlab turardi, shamol esib o‘tlarni tebratar, eshik esa lang ochiq edi.

— Qani, ichkariga kir, bolaginam. Senga yaxnagina choy muntazir turibdi. Ichib bir huzur qil!

— Mening do‘stlarim bor. — Lyustig orqasiga o‘girildi-da,

kulgancha shosha-pisha kapitan va Xinkstonni qo‘li bilan imlab chaqirdi. — Kapitan, bu yoqqa kelinglar.

— Assalomu alaykum, — qarshi oldi ularni qariyalar. — Marhamat, marhamat, ichkariga marhamat. — Devidning do‘stlari bizning do‘stimiz. Tortinmanglar!

Ko‘hna uyning mehmonxonasi muzdek edi; bir burchakda tillarang, baland, almisoqdan qolgan soat bir maromda chiq-chiq qilardi. Keng kushetkalarda parqu yostiqlar, devor bo‘ylab kitoblar terilgan, shapaloq gulli gilam yerga to‘shalgan, qariyalar qo‘llarida muzdan terlagan yaxna choyli stakanlarni tutib turishar, bunday choyning bir qultimiyoq odamga jon kiritib yuborishi aniq edi.

— Iching, joningiz kiradi. — Buvining stakani uning chinni tishlariga tegib, yoqimli jingirlab ketdi.

— Bu yerda anchadan beri turibsizmi, buvi? — so‘radi Lyustig.

— O’lganimizdan beri, — kinoya bilan javob berdi ayol.

— Qachondan… beri? — Kapitan Blek stakanini stolga qo‘ydi.

— Ha-da, — bosh irg‘adi Lyustig. — Ularning o‘lganiga o‘ttiz yil bo‘ldi, axir.

— Sizlar esa, hech narsa bo‘lmagandek, beg‘am o‘tiribsizlar! — dedi kapitan.

— Bo‘ldi, taqsir! — kampir mug‘ambirona ko‘z qisib qo‘ydi. — Bunaqa ishlarning mag‘zini chaqishga siz kim bo‘libsiz? Bizlar esa shu yerning odamimiz. Bu ahvolda dunyoga kelding nima-yu, kelmading nima? Mana bu “Nima uchun” va “Nega?” degan savollar kimga kerak? Biz yana tirikmiz, tamom. Biz faqat shuni bilamiz, ortiqcha savol kimga kerak? Men sizga aytsam, — bu ikkinchi urinish. — Kampir sudrala-sudrala kapitanning oldiga bordi-da, o‘zining ingichka qoqshol qo‘lini cho‘zdi. — Ushlab ko‘ring.

Kapitan asta turtib ko‘rdi.

— Xo‘sh, haqiqiy qo‘lmikan?

Kapitan bosh irg‘adi.

— Sizga tag‘in nima kerak? — tantanavor so‘radi kampir. — Ortiqcha savolga ne hojat?

— Bilasizmi, — javob berdi kapitan, — biz Marsda shunaqa narsaga duch kelib qolamiz deb o‘ylamagan edik.

— Demak, duch kelibsiz. Men sizga aytsam, har bir sayyorada tangrining tazarru yo‘llari nechog‘li ko‘p ekanligi xayolingizga ham kelmaydi.

— Ie, unda bu Yer arshi a’lomi? — so‘radi Xinkston.

— Bo‘lmag‘ur gap, bu yerda ham o‘sha dunyo, faqat bizga ikkinchi urinish nasib etgan. Nima uchun? Bu haqda bizga bir og‘iz gap aytmagan. Axir Yerda ham bu yerda nima uchun paydo bo‘lib qolishimizni hech kim tushuntirib bermagandi-ku! Ho‘v, o‘sha Yerda.

Biz uchib kelgan Yerda. Ungacha yana bitta Yer borligini biz tush koʻrib oʻtiribmizmi?

— Yaxshi savol, — dedi kapitan.

Lyustigning chehrasida hamon shodiyona tabassum jilva qilib turardi.

— Jin ursin, sizlarni koʻrib shunchalik suyunib ketayapmanki, asti qoʻyavering!

Kapitan stuldan turdi-da, beixtiyor soniga shapatiladi.

— Xoʻsh, endi boraylik. Mehmondorchilik uchun rahmat.

— Sizlar yana kelasizlar-ku? — taraddudlanishdi qariyalar. — Biz sizlarni kechki ovqatga kutayapmiz.

— Katta rahmat, kelishga harakat qilamiz. Ishimiz juda ham koʻp. Odamlarim meni raketada kutib turishibdi… — va u ochiq eshikka sarosimali qaragancha jim boʻlib qoldi.

Uzoq-uzoqlardan quyosh nurlari borliqni toʻldirib turgan kenglikdan turli ovozlar, qichqiriqlar, doʻstona xitoblar quloqqa chalinardi.

— Bu nima? — soʻradi Xinkston.

— Hozir bilamiz-da. — Shunday deya kapitan Jon Blek eshik ortiga shamolday uchib oʻtdi-da, yam-yashil maysazordan Mars shaharchasi koʻchasi tomonga yugurib ketdi.

U raketaga qaragancha taqqa toʻxtab qoldi. Barcha lyuklar ochiq va qoʻllarini quvnoq silkitgancha shosha-pisha ekipaj yerga tushmoqda edi. Atrofda tumanot odam yigʻilgan, fazogirlar ular orasiga qoʻshilib, suhbatlashgan, kulgan, qoʻl qisishgancha ular orasini yorib borar edilar. Olomon sevinchdan raqsga tushar, Yerliklar atrofida tobora zichlashib borar edilar. Raketa hammaning esidan chiqqancha bir chetda mungʻayib turar edi.

Charogʻon quyosh nurlari ostida orkestr yangradi, havoni cholgʻularning yurakni larzaga soluvchi tantanavor sadosi tutdi. Nogʻoralar gumburlar, naylar yurakni teshgudek chiyillar edi. Zarkokil qizaloqlar sevinchdan sakrar edilar. Bolakaylar “Ura-a!” deb qichqirar edilar. Qorindor kishilar tanish va notanish mehmonlarni oʻn tsentlik sigara bilan siylar edilar. Shahar meri nutq soʻzladi. Soʻngra ekipajning barcha a’zolarini birin-ketin qoʻltiqlaridan tutishdi-da, bir tomondan — onasi, boshqa tomondan — otasi yoki singlisi — koʻchadan moʻʻjazgina kottejlarga va dangʻillama uylarga yetaklab ketishdi.

— Toʻxta! — qichqirdi kapitan Blek.

Birin-ketin eshiklar gup-gup etib yopildi.

Quyoshning jazirama harorati bahor osmoni boʻylab yuqoriga oʻrlar edi, shaharcha uzra sukunat choʻkdi. Karnay va nogʻoralar burchak ortida gʻoyib boʻldi. Tashlandiq raketa bitta oʻzi charaqlab

turar, quyosh nurlari bilan o‘ynashmachoq o‘ynayotgandek edi.

— Qochoqlar! — baqirdi komandir. — Ular kemani shundoq qoldirib ketishibdi! Hali mendan ko‘radi ular! Ularga buyruq berilgan edi!..

— Kapitan, — dedi Lyustig, — bunchalik qattiq ketmang. Qarindosh-urug‘laringiz bilan ko‘rishgancha…

— Bu bahona bo‘lolmaydi!

— Axir kema oldida tanish chehralarni ko‘rganlarida ular o‘zlarini qanday his qilishlarini ko‘z oldingizga keltirsangiz-chi!

— Ularga buyruq berilgan edi, jin ursin!

— Siz nima qilgan bo‘lardingiz, kapitan?

— Men buyruqni bajargan bo‘lardim… — Shunday deya u og‘zini ochgancha qotib qoldi.

Trotuardan Mars quyoshi nurlari ostida 26 yoshlardagi, ko‘zlari haddan tashqari moviy, novcha bir yigit jilmaygancha ular tomon yaqinlashib kelardi.

— Jon! — qichqirdi u va ular tomon otildi.

— Nima? — dedi kapitan Blek shoshib.

— Jon, keksa kazzob!

Yugurib kelib, haligi erkak kapitanning qo‘lini qisdi-da, yelkasidan qoqib qo‘ydi.

— Senmisan?.. — dovdirab qoldi Blek.

— Bo‘lmasam-chi, mendan boshqa kim bo‘lardi!

— Edvard! — kapitan Lyustig va Xinkston tomonga o‘girildi, — notanish kishining qo‘lini hamon qo‘yib yubormayotgan edi. — Bu mening akam Edvard. Ed, mening do‘stlarim bilan tanish: Lyustig, Xinkston! Mening akam!

Ular bir-birlarining qo‘llarini siqishdi-da, so‘ng quchoqlashishdi.

— Ed!

— Jon, dangasa!

— Ko‘rinishing chakki emas, Ed! Shoshma-shoshma, bu qanaqasi? Shuncha yillar o‘tib sira o‘zgarmabsan-ku? Axir o‘lganingda… o‘lganingda sen ham 26 yoshda, men esa 19 da edim. Ey, xudoyim-ey, shuncha yillar o‘tib, shuncha suvlar oqibdiki, to‘satdan bu yerda ko‘rishib qolganimizni-ey! Buni qanday tushunsa bo‘ladi?

— Oyim kutib turibdilar, — dedi Edvard Blek jilmaygancha.

— Oyim?!

— Otam ham.

— Otam?!

Kapitan qattiq zarba yegandek bir chayqalib tushdi va itoatsiz oyoqlari bilan bir-ikki qadam olg‘a tashladi. — Otang va onang tiriklarmi? Qaerda ular?

— Eski uyimizda, Dub ko‘chasida.

— Eski uyimizda… — Kapitanning ko‘zlari hayajon va hayratdan

chaqnab ketdi. — Eshitdingizmi, Lyustig, Xinkston?

Biroq Xinkston ularning yonida yo‘q edi. Ko‘chaning narigi uchida o‘zining uyiga ko‘zi tushib, o‘sha tomonga ketib qolgan edi. Lyustig kulib yubordi.

— Odamlarimizga nima bo‘lganini endi tushungandirsiz, kapitan? Ularni hech narsada ayblab bo‘lmaydi.

— Ha, ha… — kapitan ko‘zlarini qisdi. — Hozir ko‘zlarimni ochaman-da, sen ham yo‘q bo‘lasan. — U kiprik qoqdi. — Sen shu yerdasan! Yopiray, Ed, ko‘rinishing shunaqangi zo‘rki!

— Ketdik, tushlik qilamiz. Men oyimga aytib qo‘ygan edim.

— Kapitan, — dedi Lyustig, — agar kerak bo‘lib qolsam men qariyalarimning huzurida bo‘laman.

— Nima? Ha, bo‘lmasam-chi, Lyustig. Bora qol.

Edvard akasining qo‘lidan tutdi-da, yetaklab ketdi.

— Mena, bizning uyimiz. Esingdami?

— Bo‘lmasam-chi! Ishonmasang, men eshikkacha birinchi bo‘lib yetib boraman!

Ular shu zahoti yugurib ketishdi. Kapitan Blekning boshi uzra daraxtlar shovullar, oyoqlari ostidagi yer guvullar edi. Bu g‘aroyib tushida u Edvard Blekning uni quvib o‘tayotganini, qadrdon uyi shiddat bilan unga yaqinlashayotganini va eshikni lang ochayotganini ko‘rib turardi.

— Men birinchi bo‘lib keldim! — qichqirdi Edvard.

— Bo‘lmasam-chi, — hansirab dedi kapitan, — men cholman, sen bo‘lsang navqiron yigitsan. Sen o‘zi har doim tutqich bermas eding! Yo meni esidan chiqargan deb o‘ylayapsanmi?

Ostonada to‘ladan kelgan, yuzlari qip-qizil, ko‘zlari chaqnagan onasi turardi. Uning ortida sochlariga oq oralagan, qo‘lida trubkasini tutgancha otasi turardi.

— Oyi, dada!

U bola singari zinalardan yuqoriga otildi.

Ajoyib va uzun yoz kuni. Tushlikdan keyin ular mehmonxona bo‘lmasiga o‘tishdi. U qariyalarga o‘zining raketasi haqida so‘zlab berdi, ular esa bosh irg‘ar va jilmayar edilar, onasi xuddi avval qanday bo‘lsa, shunday ko‘rinardi, otasi sigara uchini tishlagancha o‘ychan ichiga tortar edi — xuddi o‘sha vaqtlardagidek. Kechlikka quling o‘rgilsin kurka go‘shti pishirilgan edi, vaqt ham sezilmay o‘tib borardi. Likopchalar obdon tozalangan kurka suyaklari uyumiga to‘lgach, kapitan o‘zini stul suyanchig‘iga tashladi va chuqur qanoat hosil qilganini bildirib, pishillab nafasini chiqardi. Kech tushib, daraxt yaproqlari qilt etmay qoldi. Osmonni shafaq yog‘dusi chulg‘adi, shinam ko‘hna uydagi chiroqlar qizg‘ish nur taratib turardi. Ko‘chadagi boshqa barcha uylardan musiqa, pianino ovozlarining

gurillab ochilib-yopilishlari eshitilib turardi.

Onasi plastinkani qo‘ydi-da, kapitan Jon Blek bilan gir aylanib raqs tusha ketdi. Undan o‘sha atirlar anqir edi, otasi va onasi poezd halokatida o‘lganlarida ham ulardan xuddi shunday atir anqib turardi.

Hozir bo‘lsa ular bir tekis raqs tushar, uning qo‘llari haqiqiy, jonli onasini quchib turardi…

— Odamga ikkinchi urinish har doim ham nasib etavermaydi, — dedi onasi.

— Ertaga ertalab uyg‘onaman, — dedi kapitan, — va mening o‘z raketamda, koinotda ekanligimdan nom-nishon ham qolmaydi.

— Bunaqa gaplar kimga kerak! — dedi onasi muloyimlik bilan. — O’zingni urintirma. Xudo o‘zi mehribon. Xudo o‘zi yarlaqaydi.

— Uzr, oyijon.

Qo‘shiq tugab, plastinka vishillagancha bir chiziqda aylanar edi.

— Charchading, bolam. — Otasi trubka uchi bilan ishora qildi. — Kirib yotishing mumkin.

Odatdagidek, eski jez zo‘ldirli karavoting senga muntazir.

— Lekin men odamlarimni to‘plashim kerak.

— Nega?

— Nega? Hm… bilmadim, darvoqe, nega to‘plar ekanman-a? Hech narsaga, albatta. Ular ovqatlanayotgan yoki uxlayotgan bo‘lsalar kerak. Mayli, uyquga to‘yib olsinlar, dam olish ularga zarar qilmaydi.

— Yaxshi yotib tur, o‘g‘lim. — Onasi uning yuzidan o‘pib qo‘ydi. — Qanday yaxshi. Sen yana uydasan.

— Ha, uyda bo‘lganingga nima yetsin.

Sigara tutuniga to‘lgan uyni, ruhlarni, kitoblarni, mayin nurni tark etib, u zinapoyadan yuqori ko‘tarildi va Edvard bilan to‘xtovsiz gaplashar edi. Edvard eshikni itardi va Jon Blek o‘zining sariq jez karavotini, kollejning tanish bayroqchalarini va rosa unniqqan olakuzan po‘stinsini ko‘rdi, po‘stinni u alohida mehr bilan silab qo‘ydi.

— Hammasini birdaniga ko‘tara olarmikinman? — dedi kapitan. — Charchoqdan jonim chiqqudek bo‘lib turibdi. Bir kunda shuncha voqea! Xuddi jala ostida soyabonsiz va yomg‘irpo‘shsiz ikki kecha-kunduz turgandek sillam qurigan. Taassurotlarim suyak-suyagimgacha singib ketgan…

Edvard qo‘llarini har tomonga keng yoygancha katta va oppoq choyshabni to‘shadi va urib shishirdi. So‘ng derazani ochdi. Xonaga yosumanning tungi xushbo‘y hidi oqib kirdi. Oy pirpirab turardi, uzoq-uzoqlardan raqs musiqalari va bosiq ovozlar quloqqa chalinardi.

— Mana, ko‘rdingmi, Mars qanaqa! — dedi kapitan yechinar ekan.

— Ha, shunaqa. — Edvard sekin yechindi, qo‘ylagini boshidan shoshmaygina tortib oldi, oftobda qizargan keng yelkalari, mushakdor

bo‘yni ko‘rindi. Chiroq o‘chirildi. Ana, ular 30 yilmi, 40 yilmi oldingidek yana karavotda yonma-yon yotishibdi. Kapitan yosuman hidi tutgan havoni huzur qilib ichiga tortgancha, tirsagiga suyanib turib o‘tirdi. Daraxtlar orasidagi maysazorda kimdir patefon qo‘ydi. Undan “Har doim” degan kuy yangray boshladi.

Blek Merlinni esladi.

— Merlin ham shu yerdami?

Akasi derazadan tushib turgan to‘rtburchak oy nurida chalqancha tushib yotar edi. U hadeganda javob bermadi.

— Ha, — bir oz taraddudlanib qo‘shib qo‘ydi. — Hozir shaharda emas, u ertaga ertalab bo‘ladi.

Kapitan ko‘zlarini yumdi.

— Men Merlinni juda ham ko‘rgim kelayapti.

Jimjit xonada ularning nafaslarigina eshitilib turardi.

— Yaxshi yotib tur, Ed.

Jimlik.

— Yaxshi yotib tur, Jon.

Kapitan fikrlariga erk berib huzur qilib yastandi. Shundagina bugungi zo‘riqish uning vujudidan sitilib chiqib ketdi va u nihoyat odamlardek mushohada qilish imkoniga ega bo‘ldi. Qayoqqa qaramasin, asabiylashgan odamlar. Quloqni qomatga keltirgan orkestr ovozi. Qarindosh-urug‘larning tanish basharalari… Ammo endi…

“Qanday qilib? — ajablanardi u. — Bularning bari qanday qilib bo‘ldi ekan? Nima uchun? Kim uchun? Bu nima? — ilohiy ro‘yoning so‘z bilan ifodalab bo‘lmas farog‘atimi? Nahotki xudo rostdan ham o‘z bandalari deb shunchalar kuyib-pishsa? Qanday qilib, nima uchun, kim uchun?”

Xinkston va Lyustig kunduzi, dastlabki taassurotlar ta’siri ostida unga taklif qilgan nazariyalarni tarozuga solib ko‘rdi. So‘ng erinchoqlik bilan turli yangi taxminlarni o‘zining teran farosati qa’riga toshchalar kabi bir-bir tashlagancha, obdon fikr elagidan o‘tkazdi, shunda uning shuurida allaqanday yorqin tushunchalar miltillab ko‘zga chalina boshladi. Oyisi. Otasi. Edvard. Mars. Yer. Mars. Marsliklar.

Qiziq, ming yil oldin Marsda kim yashagan ekan? Marsliklarmi yoki har doim bugungidek bo‘lganmi?

Marsliklar. U past ovozda o‘zicha shu so‘zni bir necha bor takrorladi.

To‘satdan u qah-qah urib kulib yuborayozdi. Kutilmaganda miyasiga o‘taketgan bema’ni fikr kelib qoldi. Badanidan sovuq ter chiqib ketdi. He-yo‘q, bu bo‘lmag‘ur narsa, albatta. Hech ham bo‘lishi mumkin emas. Puch gap. Miyangdan chiqarib tashla bu gaplarni, g‘irt kulgili.

Baribir ham… Agar taxmin qilsang! Ha, Marsda faqat marsliklar

yashashini taxmin qilsagina.

Ularning kemamiz yaqinlashib kelayotganini, uning ichida bizning o‘tirganimizni ko‘rishganini tasavvur qilsa… Yana deylik — shunchaki qiziq uchun — chaqirilgan mehmonlarni bosqinchilar sifatida yo‘q qilib yuborishga ahd qilishganini, buni ham juda ustamonlik bilan, chaqqonlik bilan, bizning xushyorligimizni bir pulga chiqarib, uddalashlarini tasavvur qilsa. Ko‘rdingizmi, atom quroli bilan qurollangan yerliklarga qarshi marsliklar qanaqa vositalarni ishga solishmaydi.

Buning javobi savolidan ham qiziq edi. Telepatiya, gipnoz, esdaliklar, tasavvurlar.

Faraz qilaylik, bu uylar hech ham haqiqiy emas, karavot ham haqiqiy emas, bular barchasi mening o‘z tasavvurlarim mahsullari, Mars telepatiyasi va gipnozi yordamida moddiylashtirilgan tasavvurlar, — xayol surishda davom etdi kapitan Jon Blek, — aslida uyda hamma narsa boshqacha, marsliklar didiga qarab tuzilgan, biroq mening orzularim va xohishlarimga qarab ish tutgan marsliklar shunday nayrang ishlatishganki, go‘yo men o‘z jonajon shahrimni, o‘z uyimni ko‘rib turgandekman. Agar odamning ko‘ngliga shubha urug‘ini sepib, uni tuzoqqa ilintirmoqchi bo‘lsang, uning o‘z otasi va onasidan ham yaxshiroq ilmoqni topib bo‘lar ekanmi?

Hali mening ekipajimdan birontasi ham dunyoga kelmagan 1926 yildagi eski ko‘hna bir shaharcha!

Men 6 yoshda ekanligimda, darhaqiqat Garri Loder qo‘shiqlari yozilgan plastinkalar urf bo‘lgan edi, uylarda Maksfil Parrish suratlari osilib turardi, munchoqli pardalar bo‘lardi, “Ajoyib Ogayo” qo‘shig‘i aytilardi va XX asr boshlari me’morchilik binolari qad ko‘tarib turardi. Bordi-yu, marsliklar shahar haqidagi barcha tasavvurlarni mening shuurimdan sug‘urib olgan bo‘lsalar-chi? Axir aytadilar-ku, bolalik tasavvurlar hech qachon eskirmaydi, deb. Mening tasavvurlarim bilan shahar qurib, ular bu shaharni raketa ekipajining barcha a’zolari xotirasida yashovchi qarindosh-urug‘lari va yaqinlari bilan to‘ldirib qo‘yishgan!

Faraz qilaylik, qo‘shni xonada uxlab yotgan ikki odam hech ham mening otam va onam emaslar, marsliklar esa shunchalik zehndor bo‘lishadiki, meni gipnoz ortida har doim tutib turishga ularning tob-toqatlari chidamaydi, axir…

Mana bu duxovoy orkestr-chi! Qanday g‘aroyib, hayratomuz reja! Avval Lyustigning, orqasidan Xinkstonning boshini qotirib, keyin xaloyiqni haydab kelish; fazogirlar o‘n, yigirma yil avval o‘lgan otalarini, onalarini, xolalarini, qayliqlarini ko‘rganlarida ularning dunyodagi hamma narsani unutib yuborishlari, buyruqni unutib yuborishlari, kemadan otilib chiqib, uni tashlab ketishlari ajablanarli emasmi? Bu yerda nima tabiiyroq bo‘lishi mumkin? Bu yerda qanday

shubhalar bo‘lishi mumkin?

Barchasi juda oddiy: kimki kavlashtira boshlasa, qarshisida tirilgan onasini ko‘rib, savollar bera boshlasa, — axir baxtdan lol, karaxt bo‘lib qolishi hech gap emas-da. Mana sizga natijasi: hammamiz turli uylarga tarqab ketdik, karavotlarda yotibmiz, qurollarimiz yo‘q, hech narsa bilan o‘zimizni himoya qilolmaymiz, raketa ham oydinda tashlandiq holda turibdi. Agar bizlarni bir-birimizdan ajratib bitta qo‘ymay qirib tashlashni o‘ylagan bo‘lsalar, marsliklarning bu riyokorona rejalarini tasavvurga keltirishning o‘ziyoq odamni har narsa qilib qo‘ymasmikan? Balki qoq yarim tunda men bilan yonma-yon yotgan mana bu akam birdan o‘zgarib qolsa, qiyofasi butun borlig‘i boshqacha shaklga kirsa va adovatli, qo‘rqinchli yovvoyi bir maxluqqa aylanib qolsa, bu uning marslik bo‘lib qolganini bildiradimi, axir bundan battarroq narsa bo‘lishi mumkinmi? Yotgan joyida men tomon burilib, qoq yuragimga pichoq sanchish uning uchun gap bo‘libdimi? Qolgan boshqa barcha uylardagi o‘n-o‘n beshta aka-uka va otalar ham ana shunday o‘zgarib, qo‘llariga pichoq olib hech narsadan tap tortmay uxlab yotgan yerliklarni ana shunday so‘yib tashlashsa…

Jon Blekning qo‘llari adyol ostida titrab ketdi. Uning eti junjikdi. To‘satdan bu haqiqatga aylandi-yu, uning vujudini dahshatli qo‘rquv qamradi.

U turib o‘tirdi-da, quloq sola boshladi. Atrofda tiq etgan tovush yo‘q. musiqa tingan. Shamol tindi.

Yonida akasi dong qotib uxlab yotibdi.

U ohista adyolni ustidan oldi. Sirg‘alib pastga tushdi va tovush chiqarmaygina eshik tomon yurdi.

Shu payt akasining ovozi qulog‘iga chalindi:

— Qayoqqa?

— Nima?

Akasining ovozi badanni teshib o‘tgudek bo‘ldi.

— Biron uzoqroq yoqqa bormoqchimisan?

— Suvga.

— Suvsaganing yo‘q.

— Suvsadim, nega suvsamas ekanman.

— Yo‘q, suvsaganing yo‘q.

Katta Jon Blek shiddat bilan yugurib ketdi. U qichqirdi. U ikki marta qichqirdi.

U eshikkacha yetolmadi.

Kallai saharda orkestr mungli motam kuyini chalar edi. Ko‘chadagi har bir uydan mo‘‘jazgina tobutchalarni ko‘tarib, odamlar chiqar edilar; chiqib tosh yo‘l ustida o‘tirardilar-da, ko‘z yoshlarini artar edilar. Xotinlar, onalar, opa-singillar, aka-ukalar, amaki-tog‘alar,

otalar. Ular yangi qabr kavlab qo‘yilgan va yangigina qabr toshlari kutib turgan qabristonga yo‘l oladilar. O’n oltita qabr, o‘n oltita qabr tosh.

Mer qisqagina motam nutqi so‘zladi. Uning yuzi o‘zgarib ketganidan bu mermi yo boshqa bir odammi, bilib bo‘lmas edi.

Jon Blekning otasi va onasi qabristonga keldi, akasi Edvard ham keldi. Ular yig‘lar, oh-voh qilar edilar, chehralari esa avvalgi tanish alomatlarini yo‘qotib, asta-sekin o‘zgarib borar edi.

Lyustigning bobosi va buvisi ham o‘sha yerda edi va ho‘ngrab yig‘lashar edi, ularning ham yuzlari mumday erib, cho‘zilib borar, xuddi jazirama kunga bardosh bermayotgandek tuyulmoqda edi.

Tobutlarni qabrga tushirishdi. Kimdir “Bir tunning o‘zida o‘n oltita odamni ajal to‘satdan va bevaqt olib ketgani” xususida o‘zicha g‘udranardi.

Kesaklar qabr qopqog‘i ustiga do‘pirlab tusha boshladi.

Orkestr “Okean durdonasi Kolumbiya” kuyini chalgancha gulduragan mis karnaylar ohangiga monand ravishda shahar tomon yo‘l oldi. Shu kuni hamma dam oldi.

Iyun 2001
OY AVVALGIDEK KUMUSH NURLARINI SOCHADI

Ular raketada tun qo‘ynida chiqib kelishganida havo shunchalar sovuq ediki, Spender darhol gulxan uchun Mars shox-shabbalarini terishga tutindi. Marsga uchib kelganlarini nishonlash borasida u churq etib og‘iz ochmadi, shox-shabbalarni terib keldi-da, olov yoqib yubordi va uning qanday yonishini tomosha qildi.

Keyin qurib qolgan Mars dengizi uzra qontalash tong havosiga yelkasi osha ularni — kapitan Uaylder, Cherok, Xeteuey, Sem Parkxill va uning o‘zini unsiz qop-qorong‘i yulduzli kengliklar orqali olib o‘tgan va hayotsiz beg‘am olamga olib kelib qo‘ygan raketaga qarab qo‘ydi.

Jeff Spender qiy-chuv boshlanishini kutib turardi. U do‘stlariga qarar ekan, hozir ularning sakrashlarini, qichqirishlarini kutardi… Faqat Marsda ular “birinchi” odamlar ekani haqidagi hayajonli fikrdan o‘zlariga kelib olishini kutish kerak. Hech kim bu haqda ovoz chiqarib bir narsa demasdi, lekin yuraklarida ko‘plab, aftidan, ularning o‘tmishdoshlari marragacha yetib kela olmaganiga va birinchilik bayrog‘i bularga, “To‘rtinchi” ekspeditsiyaga nasib etishiga umid qilar edilar. Yo‘q, ular hech kimga yomonlik tilamasdilar, shunchaki ular birinchi bo‘lishni xohlar edilar va o‘pkalari og‘ir havoga ko‘nikkuncha shon-shuhrat haqida orzu qilar edilar. Darhaqiqat, ozgina keskinroq harakat qilinsa, xuddi Mars odamidek boshlari aylanib ketar edi.

Gibbs gurillab yonayotgan gulxan oldiga keldi-da, so‘radi:

— Shox-shabba nega kerak, axir raketada kimyoviy yonilg‘i bor-ku?

— Hechqisi yo‘q, — javob berdi Spender boshini ko‘tarmay.

Birinchi tundayoq Marsda shovqin-suron ko‘tarish va raketa ichida bu yerga to‘g‘ri kelmaydigan qo‘pol buyumni — ko‘z olgudek charaqlovchi pechkani ko‘tarib tushish aqlga to‘g‘ri kelmaydigan, to‘g‘risi, noma’qul gap edi. Bu mahalliy sharoitga haqorat ham bo‘ladi-ku. Hali quyultirilgan sutli bankalarni mag‘rur Mars kanallariga uloqtirishga ulgurishadi, o‘shanday vaqt albatta keladi, Mars dengizlarining oppoq yaydoq tubida “Nyu-York Tayms”ning shaldiragan sahifalari erinibgina sirg‘aladigan, dumalaydigan paytlar, albatta, keladi, qadimgi Mars shaharlarining nafis shaklli xarobalari orasida banan po‘stloqlari va yog‘ yuqi qog‘ozlar to‘lib-toshgan payt ham uzoq emas.

Hammasi oldinda kutib turibdi, hammasi bo‘ladi. Bu fikrdan u

hatto seskanib ketdi.

Spender go‘yo o‘lik pahlavonga qurbonliq keltirayotgandek olov og‘ziga paydar-pay shoxlar tashlar edi. Ular kelib qo‘ngan sayyora ulkan qabriston ekan. Bu yerda butun bir tamaddun halokatga uchragan. Oddiygina izzat-ikrom u yerda loaqal birinchi kunda o‘zini odobli tutishni talab etar edi.

— Yo‘q, bunaqasi ketmaydi! Kelib qo‘nganimizni nishonlamasak bo‘lmaydi! — Gibbs kapitan Uaylderga yuzlandi. — Xo‘jayin, bir nechta jin bankasi va go‘sht konservasini ochib, ozgina tamaddi qilib olsak yomon bo‘lmasdi.

Kapitan Uaylder ulardan bir milcha narida yastanib yotgan o‘lik shaharga qaradi.

— Hammamiz charchaganmiz, — dedi u parishonxotir, go‘yo shaharning o‘tmishi qa’riga cho‘mib, o‘z odamlari haqida butunlay unutib yuborgandek. — Yaxshisi, ertaga kechqurun nishonlaymiz.

Buguncha mana bu la’nati kenglikdan bu yergacha yetib kelganimiz va hammamizning to‘rt muchalimiz sog‘ligi, raketa badanida esa meteoritdan bitta ham teshik tushmaganligi o‘zi yetarli.

Fazogirlar gulxan atrofida depsinar edilar. Ular o‘n ikkita edilar, kim o‘rtog‘ining yelkasiga qo‘lini qo‘yib turar, kim kamarini to‘g‘rilar edi. Spender ularni jim kuzatib turardi. Ular norozi edilar, ular buyuk ishga hayotlarini garov qo‘ygan edilar. Endi ular bo‘kib ichishni, vadavang qo‘shiq aytishni, o‘zlarining qanchalik abjir yigitlar ekanini — kosmosni teshib o‘tib, raketani Marsga haydab kelganlarini bildirib qo‘yish uchun dunyoni boshlariga ko‘tarib shovqin solishni istar edilar. Marsga-ya!

Lekin hozircha hamma sukut saqlardi.

Kapitan past ovozda buyruq berdi. Fazogirlardan biri yugurib borib, raketadan konservalar olib keldi va ularni ochib, ortiqcha shovqin-suronsiz tarqatishdi. Asta-sekin odamlar gapga kirisha boshladi. Kapitan o‘tirdi va parvoz haqida qisqacha tushuntirish berdi. Ular hamma narsani bilar edilar, ammo hammasi orqada qolganini, ish muvaffaqiyatli nihoyasiga yetganini eshitish va idrok etish yoqimli edi. Qaytib ketish yo‘li haqida hech kim gapirishni istamasdi. Kimdir bu haqda og‘iz ochmoqchi ham bo‘ldi, ammo o‘sha zahoti uning unini o‘chirishdi. Oydinda qoshiqlar yalt-yult qilardi; taom g‘oyat mazali tuyulardi, musallas esa undan ham mazaliroq edi. Osmonda alanga yilt etdi va zum o‘tmay ularning qo‘nalg‘asidan sal nariga yordamchi raketa kelib qo‘ndi. Spender kichikkina lyuk ochilganini va undan Xeteuey, vrach va geolog tushganini ko‘rdi; — raketadagi joyni tejash maqsadida ekspeditsiyaning har bir ishtirokchisi ikkitadan mutaxassislikka ega edi. Xeteuey shoshmasdangina kapitanning oldiga keldi.

— Xo‘sh, u yerda nima gaplar? — so‘radi kapitan Uaylder.

Xeteuey yulduzlar yog‘dusida miltillayotgan uzoqdagi shaharlarga qaradi. So‘ng tomog‘iga kelib tiqilgan narsani yutdi-da, Uaylderga nigohini oldi:

— Hov anovi shahar o‘lik, kapitan, necha ming yillardan beri o‘lik. Tog‘lardagi uchta shahar kabi.

Lekin bu yerdan ikki yuz mil naridagi beshinchi shahar…

— Xo‘sh?

— O’tgan haftada u yerda odamlar yashar edilar.

Spender o‘rnidan turdi.

— Marsliklar, — qo‘shib qo‘ydi Xeteuey.

— Hozir ular qaerda?

— O’lgan, — dedi Xeteuey. — Men bir uyga kirgan edim. Bu ham shahardagi boshqa uylar kabi ko‘p asrlar muqaddam tashlab qo‘yilgan deb o‘yladim. Osmoniy kuchlar, u yerdagi murdalarning ko‘pligi! Xuddi kuzgi yaproqlardek taxlanib yotibdi! Xuddi quruq poyalardek va yongan qog‘oz bo‘laklaridek. Ulardan faqat shulargina qolgan, xolos. Ular yaqin-yaqindagina, uzog‘i bilan o‘n kun avval o‘lganlar.

— Boshqa shaharlarda-chi? Bitta-yarimta tirik jonni ko‘rgandirsiz, axir?

— Bitta ham ko‘rganim yo‘q. Shundan keyin men yana bir nechtasini tekshirib ko‘rdim. Beshtadan to‘rtta shahar ko‘p ming yillar avval tashlab qo‘yilgan. Ularning aholisi qaerga ketganini hech tasavvur qilolmayman. Har besh shahardan bittasida ahvol shu. Jasadlar. Minglab jasadlar.

— Nimadan o‘lganlar bular? — Spender yaqinroq keldi.

— Aytsam, ishonmaysiz.

— Ayting-chi, nima ekan?

— Suvchechak, — qisqagina javob berdi Xeteuey.

— Bo‘lishi mumkin emas!

— Xuddi shunday. Men tekshirdim. Suvchechak ekan. Uning ta’siri marsliklarga yerliklardan butunlay boshqacha ekan. Hamma gap moddalar almashinuvida ekan. Ular kuygan g‘o‘ladek qorayib qurib ketgan, mo‘rt laxtaklarga aylangan. Ammo bu suvchechak, bunga shubha bo‘lishi mumkin emas. Bundan shu narsa kelib chiqqadiki, York ham, kapitan Uilyams va kapitan Blek ham — har uchala sayyoh Marsgacha yetib borishgan. Keyin ularga nima bo‘lgani yolg‘iz xudoga ma’lum. Lekin biz shu narsani aniq bilamizki, ular marsliklarni shu ko‘yga solishgan.

— Hech joyda hayot alomati yo‘qmi?

— Ehtimol, bir qancha marsliklar vaqtida bir narsani anglab olganlar va toqqa chiqib ketganlar.

Ammo shunday bo‘lgan taqdirda ham qasam ichib aytamanki,

marsliklardan qo‘rqmasa ham bo‘ladi, ular haddan tashqari oz. Marsliklarning qo‘shig‘i aytib bo‘lingan.

Spender qayrildi-da, yana gulxan oldiga o‘tirib, olovga tikildi. Suvchechak emish, yo tavba, suvchechakka balo bormi! Sayyora aholisi million yillar davomida rivojlanadi, o‘z madaniyatini takomillashtiradi, mana bunaqa shaharlar quradi, go‘zallik haqida orzu va tasavvurlarini har qanday yo‘llar bilan ma’qullatishga urinadi va — oxirida halok bo‘ladi. Bir qismi eramizgacha o‘lib — ularning muddati tugagan va ular jimgina jon berishgan, o‘limni sharaf bilan kutib olishgan. Ammo boshqalar-chi! Ehtimol, qolgan marsliklar dahshatli biron-bir kasallikdan qirilib ketishgandir! Hecham bunaqa emas. Ularning boshiga suvchechak yetgan, bolalar kasalligi. Bu kasallik Yerda hatto bolalarni ham o‘ldirolmaydi! Bu to‘g‘ri emas, adolatdan emas. Bu qadimgi yunonlarning buqoqdan o‘lib ketgan, mag‘rur rimliklarning esa ajoyib tepaliklarda so‘gal qirg‘in keltirgan degan cho‘pchaklarga ishonish bilan baravardir!

Biz asli marsliklarga dafn marosimlarini tayyorlab olishlariga, kerakli qiyofaga kirib olishlariga va o‘lim uchun biron-bir sabab o‘ylab topishlariga vaqt va imkon bersak bo‘lar ekan. Bunday emas-da, — allaqaerdagi sharti ketib, parti qolgan, ahmoqona suvchechak emish! Yo‘q, bunday bo‘lishi mumkin emas! Bu ular me’morchiligining ulug‘vorligiga, ularning butun olamiga aslo mos kelmaydigan gap!

— Bo‘pti, Xeteuey, endi tamaddi qilib oling.

— Rahmat, kapitan.

Bo‘ldi! Hammasi esdan chiqdi. Endi butunlay boshqa narsa haqida gaplashishyapti.

Xayol surishda davom etgancha Spender hamrohlarini kuzatardi. Tizzasidagi likopchada turgan ovqatga qo‘l ham urmadi. Havo yanada sovuqroq bo‘lgan edi. Yulduzlar yaqinroq kelib, yorqinroq charaqlay boshlagan edi. Agar kimdir ovozini haddan tashqari baland ko‘tarib gapira boshlasa, kapitan bosiqqina javob berardi, ular ham beixtiyor kapitanga taqlidan ovozlarini pasaytirar edilar.

Bu yerda havo shu qadar tozaki! Spender uzoq o‘tirdi, toza havodan to‘yib-to‘yib nafas oldi.

Vujudiga turfa bo‘ylar oqib kirdi, u hatto bular qanday bo‘y ekanligini ham anglayolmay qoldi: gulmi, kimyoviy moddami, changmi, shamolmi…

— Yoki bo‘lmasa, anovi Nyu-Yorkdagi voqeani olaylik, men mallasoch qiz bor-ku, — hah, oti nima edi-ya, esimdan chiqibdi… Ha, Ginni! O’shani ilashtirgandim! — Bo‘kirdi Biggs. — Qizmisan qiz edi-da o‘ziyam!

Spender g‘ujanak bo‘lib oldi. Uning qo‘llari titrardi. Ingichka yupqa qovoqlari tagidagi ko‘zlari besaranjom o‘ynardi.

— Ana shu Ginni menga aytadiki… — davom etdi Biggs.

Do‘stona qah-qah ko‘tarildi.

— Man ham uni bopladim! — qichqirdi Biggs shishani qo‘lidan qo‘yib yubormay.

Spender likopchasini bir chetga olib qo‘ydi. Salqin shamol epkiniga quloq tutdi. Oppoq Mars uylarini zavqlanib tomosha qila boshladi. Suvi qurib qolgan dengizdagi muz tog‘larining o‘zginasi…

— Zo‘r qizaloq edi-da, qiyomat! — Biggs shishani keng dahaniga to‘nkardi. — Qanchasini ko‘rdim — bittasi ham unaqa emasdi! Havoni Biggsning badanidan taralayotgan terning qo‘lansa hidi tutdi.

Spender gulxan o‘chguncha boshqa shox-shabba tashlamadi.

— Hoy Spender, uxlab qoldingmi, nima balo, o‘tindan tashlasang-chi! — qichqirdi Biggs va yana shishani so‘ra boshladi. — Ana shunaqa, bir kuni tunda biz Ginni bilan…

— Kosmonavtlardan Shenke ismli biri akkordeonini olib keldi-da, qornini urib qoqqan edi, bir dunyo chang ko‘tarildi.

— E-e, eh! — o‘kirdi u. — O’ynab-kulganing qoladi!

— Oh-hoh-ho! — bo‘shagan likopchalarini itqitib qolganlar unga jo‘r bo‘ldi.

Uchalasi bir qator bo‘lib oldi-da, burlesk qizlariga o‘xshab, lapar aytib qichqirgancha oyoqlarini o‘ynata ketishdi. Yana biror narsa o‘ynab berishni talab qilib, boshqalar chapak chalishdi. Cheroki ko‘ylagini yechib tashladi-da, ter qoplagan badanini yaltiratgancha chir aylana boshladi. Oydinning kumush nurlaridan uning kalta olingan sochi yaltirar, archilgan tuxumdek silliq yuzlari yalt-yalt qilardi.

Shamol qurib qolgan dengiz tubidagi yengil tumanni haydar edi, tog‘lardan ulkan qoyalar kumushrang raketaga va mo‘‘jazgina gulxanga ko‘z uzmay qarab turardi.

Shovqin-suron tobora avj olmoqda, raqqoslar soni ko‘paymoqda edi, kimdir zo‘r berib sibizg‘a chalar, yana biri papiros qog‘oziga o‘ralgan nayga puflar edi. Yana yigirmatacha shisha ochilib, ichilib ketdi. Biggs atrofda chayqalib aylanar va qo‘llarini silkitib, o‘yinga dirijerlik qilishga urinardi.

— Komandir, davraga! — qichqirdi Cheroki kapitanga va qo‘shiqni ola ketdi.

Kapitanning raqs tushishidan boshqa iloji qolmadi. U istamaygina raqs tusha boshladi. Uning sira chehrasi yorishmayotgandi. Spender unga qarab o‘ylardi: “Sho‘rlik! Bu qanday tun bo‘ldi? Nima qilishayotganini ham bilishmaydi-ya. Parvozdan oldin ularga bir yo‘l-yo‘riq berib qo‘ymasa, o‘zining loaqal dastlabki kunlarida Marsda risoladagidek tutishni tushuntirib qo‘ymasa bo‘lmaydi”.

— Bas, — kapitan davradan chiqdi-da, charchaganini bahona qilib o‘tirib oldi.

Spender kapitanning koʻksiga qaradi. Charchagan odamning koʻkragi koʻtarilib tushmas edimi.

Yuzida ham terdan asar yoʻq.

Akkordeon, garmon, musallas, qiyqiriqlar, raqs, hayqiriqlar, gʻala-gʻovur, idishlarning jangir-jungiri, qah-qah urib kulishlar.

Biggs chayqala-chayqala Mars kanali sohiliga bordi. U oʻzi bilan oltita boʻshagan shishani olib olgan edi va bittama-bitta ularni chuqur moviy suvga irgʻita boshladi. Choʻkib ketayotib, shishalar qulq-qulq qilgan ovoz chiqarar edi.

— Men seni la'natlayman, la'natlayman, la'natlayman… — Chuldirab dedi Biggs. — Biggs, Biggs nomi bilan la'natlayman, ey Biggs kanali…

Kimdir qimirlashga ulgurishdan avval Spender shartta oyoqqa turdi-da, gulxan ustidan sakrab oʻtib, Biggs tomonga chopib ketdi. U avval Biggsning ogʻziga, keyin esa qulogʻiga zarba tushirdi. Biggs chayqalib ketdi-da, toʻgʻri borib suvga quladi. Suv shaloplab ketdi. Biggsning tirmashib qaytib chiqishini kutgancha Spender jim qarab turdi. Biroq bu paytda boshqalar ham yetib kelib, — Biggsning qoʻlidan tortib chiqara boshlashgan edi.

— Hoy Spender, senga nima boʻldi oʻzi? Nega unday qilasan? — Gapning tagiga yetmoqchi boʻlar edi ular.

Biggs qirgʻoqqa chiqib oldi-da, oyoqqa turdi, suv egnidan shildirab oqib, tosh plita ustiga tusha boshladi. U Spenderni ushlab turganlarini darhol payqadi.

— Xoʻsh, — dedi u va oldinga bir qadam tashladi.

— Bas qil! — oʻshqirdi kapitan Uaylder.

Spenderni qoʻyib yuborishdi. Biggs kapitanga qaragancha qimir etmay turardi.

— Boʻpti, Biggs. Kiyimlaringni almashtirib ol. Sizlar esa, yigitlar, oʻyin-kulgini davom ettirishlaring mumkin! Spender, yur men bilan!

Xursandchilik yana boshlanib ketdi. Uaylder bir chetga oʻtdi-da, Spenderga burildi.

— Gap nimadaligini balki siz tushuntirib berarsiz? — dedi u.

Spender kanalga qaradi.

— Bilmadim. Vijdonim chidamadi. Biggsni deb. Barchamizni deb, mana bu gʻala-gʻovurni deb. Ey xudo, bu qanday bedodlik!

— Sayohat choʻzilib ketdi. Ular bir dillarini yozib olmasa boʻlmasdi.

— Lekin ularning hurmati qani, komandir? Odob tuygʻusi qani?

— Siz charchabsiz, Spender, endi narsalarga sal boshqacha qaraydigan boʻlib qolibsiz. Ellik dollar jarima toʻlab qoʻying.

— Xoʻp boʻladi, komandir. Ammo biz ahmoqlarni qirib tashlayotganimizni Ularning koʻrib turganini oʻylasam, oʻzimni tutolmay qolaman.

— Ular deganingiz kimlar?

— Marsliklar, ho tirik, ho o‘lik bo‘lsin, baribir emasmi?

— Shubhasiz, o‘liklar, — javob berdi kapitan. — Bizning bu yerdaligimizni Ular bilishadi deb o‘ylaysizmi?

— Yangining paydo bo‘lishi haqida eski har doim hech narsa bilmaydi deysizmi?

— Qaydam? Siz ruhlarga ishonasiz, chamasi?

— Men mehnat bilan qilingan narsalarga ishonaman. Chor atrofda esa bu yerda qancha narsa qilingani yaqqol ko‘rinib turibdi. Bu yerda ko‘chalar bor, uylar ham bor, kitoblar ham bor, ehtimol, keng kanallar, soatli minoralar, garchi otlar uchun bo‘lmasa-da, suvloqlar ham bordir, ular, qandaydir uy hayvonlari, deylik, o‘n ikki oyoqli bir jonzot bo‘ladimi, biz qayoqdan bilib o‘tiribmiz, o‘shalar uchun.

Qayoqqa qaramang, hamma joyda foydalanilgan narsalar va inshootlar. Ularga teginishgan, ularni ko‘p asrlar davomida iste’mol qilishgan. Mendan so‘rang-a, foydalangan odamlar ularning ichiga qo‘ygan buyumlar qalbiga men ishonamanmi yo yo‘qmi? — men “ha” deb javob bergan bo‘lardim.

Ular bo‘lsa, atrofimizda — har qaysisining o‘z vazifasi bo‘lgan narsalar. O’z nomlari bo‘lgan tog‘lar. Bu narsalardan foydalanib biz o‘zimizni, albatta, noqulay sezamiz. Tog‘larning nomlari ham bizga qanaqadir g‘alati eshitiladi — biz ularni hisobdan o‘chirib tashlaymiz, qadimgi nomlarga bo‘lsa, jin ham urmagan, allaqaerda makon va zamonda mavjud ular, kim uchundir tog‘lar, ular haqidagi tasavvurlar aynan o‘sha nomlar bilan bog‘liq bo‘lgan. Kanallarga, shaharlarga, cho‘qqilarga biz bergan nomlar ulardan goh silkingandagi suvdek to‘zib ketadi. Biz Mars bilan har qancha daxldorlik qilmaylik, baribir haqiqiy munosabat hech qachon qaror topishi mumkin emas. Oxir-oqibat, bu bizni jinni qilib qo‘yadi va bilasizmi, biz Marsni nima qilamiz? Biz uning ichak-chavog‘ini ag‘dar-to‘ntar qilamiz, terisini shilamiz va o‘zimizning didimizga qarab boshqatdan kiyim bichamiz.

— Biz Marsni vayron qilmaymiz, — dedi kapitan. — U haddan tashqari buyuk va ulug‘vor.

— Iymoningiz komilmi? Biz yerliklarda buyuk va go‘zal narsalarni vayron qilish iste’dodi bor. Agar biz Misrda Qarnoq ehromi xarobalari orasida tamaddixona ochmagan bo‘lsak, buning sababi shundaki, xarobalar qiyalikda joylashgan va u yerda tijorat ishlari yurishmaydi. Ammo Misr sayyoramizning bir bo‘lagi, xolos. Bu yerda esa — bu yerda hamma narsa qadimiy, hamma narsa bir-biriga o‘xshamaydi. Biz bu yerda bir joyda turib olamiz-da, bu olamni rasvoi raddi ma’raka qilamiz.

Mana bu kanalni Rokfeller sharafiga nomlaymiz, mana bu toqqa qirol Georg nomini beramiz, dengizni Dyupon dengizi deb atay

boshlaymiz, hov anovi yerda Ruzvelt, Linkoln va Kulij shaharlari bo‘ladi, lekin bularning barchasi noto‘g‘ri bo‘ladi, chunki har bir joyning o‘z xususiy nomi bor.

— Bu endi, siz qadimshunoslarning ishingiz, eski nomlarni kavlab topasizlar, bizlar-chi, biz xo‘p deymiz-da, ulardan foydalanaveramiz.

— Bizga o‘xshagan bir hovuch odamlar — barcha ishbilarmonlar va trestrlarga qarshimi? — Spender ma’dandan quyilgan tog‘larga qaradi. — Ular bu yerda paydo bo‘lganimizni, ularni rasvoi raddi ma’raka qilishimizni biladilar; bizni yomon ko‘rganlaricha ham borda.

Kapitan boshini chayqadi.

— Bu yerda yomon ko‘rish degan narsa yo‘q. — U shamolga qulog‘ini tutdi. — Ularning shaharlariga qarab fikr qiladigan bo‘lsak, ular yaxshi, chiroyli, dono odamlar bo‘lganlar. Ular o‘z taqdirlaridan rozi bo‘lganlar. Binobarin, nom-nishonsiz qirilib ketishlariga ham rozi bo‘lganlar, alam ustida oxirida hech qanday qirg‘inbarot urush ochishni xayollariga keltirmaganlar. O’z shaharlarini nest-nobud qilib o‘tirmaganlar. Biz shu paytgacha ko‘rgan barcha shaharlar to‘la-to‘kis saqlanib qolgan. O’ylashimcha, biz ularga o‘tloqda, maysazorda o‘ynab yurgan bolalarchalik ham xalaqit berayotganimiz yo‘q, — boladan nimani ham talab qilib bo‘lardi? Kim biladi deysiz, balki oxir-oqibatda bizni yaxshi tomonga o‘zgartirib yuborar. Biggs bizga mana bu ko‘ngilxushlikni tiqishtirguncha odamlarimizning odatdan tashqari xulq-atvorlariga hech e’tibor qildingizmi, Spender? Ular o‘zlarini qanchalik odobli, hattoki hadikli tutdilar! Bo‘lmasa-chi, bular bilan yuzma-yuz turib, shu narsani darhol fahmlaysanki, biz u qadar kuchli emasmiz. Biz bor-yo‘g‘i kalta ishton kiygan bolalarmiz, shovqintalab va qo‘nim topmas bolalar, ular o‘z raketachalari va atom qo‘g‘irchoqlari bilan o‘ynashdan boshqani bilmaydilar. Ammo qachondir Yer xuddi hozirgi Marsga o‘xshab qolgusidir. Binobarin, Mars bizni hushyor qilib qo‘yadi. Tamaddun tarixi bo‘yicha tayyor ko‘rgazmali qurol. Foydali saboq. Endi esa — boshingizni g‘oz tuting! Borib kayf-safo qilaylik. Ha. Jarima o‘z kuchida qoladi.

Biroq ko‘ngilxushlik tatimaydi. O’lik dengizdan qattiq shamol esa boshlaydi. U fazogirlar atrofida, kapitan va Jeff Spender atrofida uyur hosil qilar edi, ular sheriklari oldiga qaytib borishayotgan edi.

Shamol changni to‘zitar va charaqlagan raketani siypab o‘tar, akkordeonni chertar edi, chang almisoqdan qolgan sibizg‘ani qopladi. U kishilarning ko‘zlariga kirar va shamoldan havoda baland pardalarda allaqanday kuy sado berar edi. Birdan shamol qanday boshlangan bo‘lsa, shunday tindi.

Ammo ko‘ngilxushlik ham tingan edi.

Odamlar loqayd tim-qora osmon ostida harakatsiz qotib qoldilar.

— Qani yigitlar, bo‘linglar! — Top-toza, quruq kiyimda Biggs

Spender qaramaslikka harakat qilib, raketadan sakrab chiqdi. Uning ovozini go‘yo hech kim eshitmagandek javobsiz qolaverdi. Go‘yo atrofda hech kim yo‘qdek. — Hammalaring bu yoqqa kelinglar!

Hech kim joyidan qimir etmadi.

— Hoy Uayti, sibizg‘ang qani?

Uayti qandaydir kuyni puflab chaldi. Sibizg‘adan soxta va beo‘xshov ovoz chiqdi. Uayti sibizg‘ani siltab, so‘lakni tushirdi-da, uni cho‘ntagiga joyladi.

— Bu qanaqasi, azaga kelganmisizlar? — tinib-tinchimasdi Biggs.

Kimdir akkordeonni mahkam quchoqlab olgan edi. U o‘layotgan jonivorga o‘xshab bo‘g‘iq ovoz chiqardi. Bor-yo‘g‘i shu.

— Bo‘pti, unda biz shisha bilan ikkalamiz ko‘ngilxushlik qilamiz. — Biggs raketaga suyanib o‘tirib oldi-da, cho‘ntak flyajkasini og‘ziga olib bordi.

Spender undan ko‘zini uzmasdi. Uzoq qimir etmay turdi. Keyin uning barmoqlari ohista, sekinlik bilan titrayotgan soni bo‘ylab yuqoriga o‘rladi, to‘pponchani paypasladi va charm g‘ilofni silay boshladi.

— Kim xohlasa, men bilan shaharga borishi mumkin, — e’lon qildi kapitan. — Raketa yonida qo‘riqchi qoldiramiz-da, qurol olib olamiz — har ehtimolga qarshi.

Xohlovchilar safga tizilishdi va tartib bilan o‘zlarini sanab chiqishdi. Safga kelib qo‘shilgan Biggs bilan ular o‘n to‘rtta bo‘lishdi, Biggs hamon xoxolab kular va shishani silkitar edi. Olti odam qoladigan bo‘ldi.

— Qani, ketdik! — bo‘kirdi Biggs.

Dasta indamay sutdek oydin vodiydan odimlab ketdi. Ular bir-birini quvib kelayotgan ikki oy nuridan charog‘on mudroq-o‘lik shahar chekkasiga kelishdi. Ularning oyoqlari ostidan cho‘zilgan soyalar qo‘shaloq edi. Bir necha daqiqagacha fazogirlar nafaslarini ichlariga yutib turdilar. Ana-mana bu hayotsiz shaharda nimadir qimirlashini, qandaydir xira ko‘lka paydo bo‘lishini, hosilsiz dengiz tubidan asl zoti noma’lum bo‘lgan otda zirh va sovutlarga burkangan keksa chavandoz arvohning ot qo‘yib kelishini kutar edilar.

Spenderning tasavvuri huvillagan shahar ko‘chalariga jon kiritmoqda edi. Xiyobonlardan, to‘s bosgan toshlardan odamlarning arvohlari moviy nur taratib yurib kelar, anglab bo‘lmas g‘udranishlar, g‘alati jonivorlar kulrang qizg‘ish qumda o‘qdek uchib chopar edilar. Har bir derazada kimdir turar va deraza rahidan egilgancha, xuddi abadiyat suviga g‘arq bo‘lgandek, asta qo‘lini uzatar, oyning kumush nurlariga cho‘milgan minora tagidagi tubsiz bo‘shliqda harakat qilayotgan qandaydir ko‘lankalarga qo‘l siltar edilar, uning yuragi qandaydir musiqa tovushini eshitgandek bo‘ldi va Spender bunday tovush beruvchi cholg‘u sozi qanaqaligini tasavvur qilishga urinib

ko‘rdi… Shahar arvohlarga limmo-lim edi.

— Hoy, kim bor? — qichqirdi Biggs qaddini g‘oz tutib va kaftlarini og‘ziga karnay qilib. — Hoy, bu shaharda jon zoti bormi, ovoz bering!

— Biggs! — dedi kapitan. Biggs jim bo‘ldi.

Ular tosh taxtalar yotqizilgan ko‘chalarga qadam bosishdi. Endi ular shivirlab gaplashishar edi, chunki ular go‘yo ochiq osmon ostidagi ulkan qiroatxonaga yoki bosh uzra yorqin yulduzlar-u, shabada esib turgan dahmaga kirib qolgandek his etmoqda edilar o‘zlarini. Kapitan ovozini ko‘tarmay gapirardi. U shahar aholisi qayoqqa ketganini, ular qanaqa odamlar bo‘lganini, ularga qanday qurollar hukmronlik qilganini, ular nimadan qirilib ketganini bilishni istardi. U past ovozda savollar berardi: ular bunday asriy shaharni qanday qurishdi ekan? Ular Yerda bo‘lishganmikan? O’n ming yillar muqaddam yerliklarga shular nasl qoldirganmikan? Ular ham bizdek sevib, yomon ko‘rishganmikan? Ular ham ahmoqlikka yo‘l qo‘yishganda bizdek holga tushishganmikan?

Ular tosh qotib qolishdi. Oylar bamisoli ularni sehrlab, muzlatib qo‘ygandek edi; yengil shamol ularni yelpir edi.

— Lord Bayron, — dedi Jeff Spender.

— Qanaqa Lord? — kapitan unga burildi.

Lord Bayron, shoir, XIX asrda yashagan. Juda ilgari u bir she’r yozgan edi. Bu she’r mana bu shaharga juda ham mos keladi va marsliklar his qilishlari kerak bo‘lgan tuyg‘ularni ifoda etar edi. Agar uni his qiladigan bitta-yarimta odam bu yerda qolgan bo‘lsa! Bunday she’rlarni so‘nggi marslik shoir yozishi mumkin edi.

Odamlar qimir etmay turishardi. Ularning soyalari ham qotib qolgan edi.

— Bu qanday she’r ekan? — so‘radi kapitan.

Spender og‘irligini ikkinchi oyog‘iga soldi, qo‘lini ko‘tardi, nimanidir eslagan bo‘ldi, bir lahza ko‘zini qisib turdi, keyin u past ovozda shoshmasdan she’rni o‘qishga tushdi, hamma undan ko‘z uzmay tinglay boshladi:

Tunlari kezmoqlik na hojat endi,
Qalbimiz sevgiga limmo-lim — mana.
Borliqni to‘ldirgan kumush oy nuri,
Sevgi dostonidan so‘ylar rosmana.

Shahar kumushrang tusda, baland, unsiz. Odamlarning nigohi oyga qadaldi.

Qilich qayrar o‘zin pichoqqa,
Yurak yormoq bo‘lar vujudni.

Axir mangu olov qayda bor,
Qalb baxsh etdi ishqqa bor-budni.
Oy intilar Yer sari taqir,
Azbaroyi sevgi zo‘ridan.
Tunlari kezmoqlik na hojat endi,
Oydinning yo‘q farqi qalbim qo‘ridan.

Yerliklar shahar markazida unsiz turar edilar. Tun osmoni ochiq va bulutsiz edi. Shamolning hushtagidan boshqa tiq etgan tovush yo‘q edi. Ularning ro‘parasida maydon yastanib yotardi. Koshin uzra qadimgi jonivorlar va odamlarning suratlari aks ettirilgan. Ular tik turgancha tomosha qilar edilar.

Biggs birdan o‘xchidi. Ko‘zlari xiralaщdi. Qo‘lini og‘ziga bosdi-da, vujudi titrab yutindi, ko‘zlarini qisdi, ikki bukilib qoldi, og‘ziga quyuq bir narsa to‘lib qayd qilib yubordi, qayd qilgan narsasi shalop etib koshin ustiga tushdi-da, suratlarni qoplab oldi. Bu hol ikki marta takrorlandi. Muzdek havoda achchiq musallas hidi anqidi. Hech kim Biggsga yordam bergani joyidan qimirlamadi. U hamon qayt qilardi.

Spender unga bir qarab qo‘ydi-da, orqasiga burilib, u yerdan ketdi. U bir o‘zi oy yoritib turgan shahar ko‘chalari bo‘ylab yurib borar va do‘stlariga qayrilib qaramaslik uchun hech joyda to‘xtamayotgan edi.

Ular tonggi soat to‘rtdagina uxlagani yotishdi. Adyolga cho‘zilishdi-da, ko‘zlarini yumishdi va bir maromda nafas ola boshlashdi. Kapitan Uaylder gulxan yonida o‘tirib, unga shox-shabbalar tashlar edi.

Ikki soat o‘tgach, Mak-Klyur ko‘zlarini ochdi.

— Uxlamayapsizmi, komandir?

— Spenderni kutayapman. — Kapitan zaifgina jilmaydi.

Mak-Klyur o‘ylab qoldi.

— Bilasizmi, komandir, nazarimda u kelmaydigandek. Nimagaligini o‘zim bilmayman-u, ammo ko‘nglim shuni sezib turibdi. U kelmaydi.

Mak-Klyur boshqa yonboshiga ag‘darildi. Olov chirsillab uchqun sachratdi-da, o‘chib qoldi.

Oradan bir hafta o‘tdi, Spenderdan esa dom-darak yo‘q edi. Kapitan uni qidirgani bir qancha dastalar yubordi, lekin ular qaytib kelishdi-da, qayoqqa g‘oyib bo‘lganiga aqlimiz yetmay qoldi, deb aytishdi. Hechqisi yo‘q, sayoqlanib yurib-yurib o‘z oyog‘i bilan qaytib keladi. O’zi sayoq va betayin bir odam edi. Ketsa ketib o‘lmaydimi.

Kapitan indamadi, biroq hammasini kema jurnaliga yozib qo‘ydi…

Bir kuni erta bilan — bu dushanba ham yoki seshanba ham, yoki

Marsning boshqa har qanday kuni bo‘lishi mumkin edi — Biggs yuzini oftobga tutgancha va oyoqlarini muzdek suvda o‘ynatgancha kanal qirg‘og‘ida o‘tirardi.

Kanal bo‘yidan bir odam kelardi. Uning soyasi Biggsga tushdi. Biggs ko‘zlarini ochdi.

— O’, alhazar! — deb yubordi Biggs.

— Men seni o‘ldiraman.

— Qo‘ysang-chi bu ahmoqona hazilingni, Spender.

— O’rningdan tur, erkaklardek o‘l!

— Xudo haqqi, to‘pponchangni ol.

Spender to‘pponcha tepkisini faqat bir marta bosdi. Bir lahza burun kanal qirg‘og‘ida o‘tirgan Biggs asta oldinga egildi-da, suvga qulab tushdi. O’q ovozi xuddi yaproq shitiridek, zaif g‘o‘ng‘illashdek juda past edi. Jasad asta, tanho, tinch oqayotgan kanal suviga tushdi-da, bosiq «bilq» etgan tovush chiqarib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Spender to‘pponchani g‘ilofga soldi-da, tovushsiz odimlab nari ketdi. Mars uzra quyosh charaqlab turardi, uning nurlari Spenderning qo‘llarini kuydirar, qo‘rg‘oshinday yaltiroq yuzini jizillatar edi. U chopmayotgandi, go‘yo o‘tgan galdan buyon hech narsa o‘zgarmagandek, agar hozir kunduz ekanini hisobga olmaganda, bemalol ketib borar edi. U raketa yoniga bordi; bir necha odam bostirma tagida kema oshpazi qo‘yib ketgan nonushtaning changini chiqarmoqda edi.

— Ana, O’lg‘iz Bo‘rimiz kelib qoldi, — dedi kimdir.

— Kel, Spender! Ko‘rishmaganimizga ham ancha bo‘ldi-ya!

Stolda o‘tirgan to‘rtovlon ularga indamay qarab turgan kishiga tikilishdi.

— Senga bu la’nati xarobalarni xudo berib qoldi-da, — kinoyali jilmayib dedi oshpaz, tovoqdagi qop-qora suyuqlikni aralashtirar ekan. — Qaranglar, suyaklari sanalib turgan och ko‘ppakdan farqi qolmabdi.

— Bo‘lsa bordir. Men bir narsani aniqlashim kerak edi. Agar shu atrofda marslikni ko‘rib qoldim, desam, nima degan bo‘lar edilaring?

To‘rttala fazogir sanchqilarini bir chetga qo‘yishdi.

— Marslik? Qaerda?

— Bu muhim emas. Sizlarga bitta savol bersam maylimi? Agar mamlakatingizga begona odamlar kirib kelib, hamma narsani ag‘dar-to‘ntar qila boshlasa, marslikning o‘rnida siz bo‘lganingizda o‘zingizni qanday his etar edingiz?

— Qanday his etishimni men yaxshi bilaman, — dedi Cheroki. — Tomirimda cheroklar qabilasi qoni oqadi. Bobom Oklaxoma tarixidan ko‘p narsalar gapirib bergan edi. Men sizlarga aytsam, agar bu yerda marsliklar qolgan bo‘lsa, men ularni tushunaman.

— Sizlar-chi? — ehtiyotkorlik bilan so‘radi boshqalardan.

Hech kim hech narsa deb javob bermadi. O’rtaga o‘zgacha bir sukunat cho‘kdi. Go‘yo topishmoq aytildi-yu, “topgan topaloqniki” qabilidagi bir holat edi. Topgan olib ketaveradi-yu, qolganlar qulog‘ini ushlab qolaveradi.

— Shunaqa gaplar, — dedi Spender. — Men marslikni uchratib qoldim.

Ular Spenderga ishonqiramay qarab turishardi.

— Hov anavi yerda, o‘lik qishloqlardan birida Uni uchrataman deb sira o‘ylamagandim ham. Aqalli qidirganim ham yo‘q. Bilmadim, u yerda u nima qilayotgan ekan. Shu haftada men bir kichikroq shaharchada yashadim, qadimgi yozuvlarni o‘rganishga harakat qildim, ularning qadimgi san’atlarini tadqiq qildim. Kelib-kelib bir kun bir marslikni ko‘rib qoldim. U bir lahzagina ko‘rinib turdi-da, o‘sha zahoti g‘oyib bo‘ldi. Shundan keyin ikki kungacha ko‘rinmay ketdi. Yanagi kelganida men yozuvlarni tadqiq qilib o‘tirardim. Bu bir necha bor takrorlandi, har gal u yaqinroqda paydo bo‘lar edi. Men mars tilini o‘rganib olgan kunda, — bu haddan tashqari oddiy edi, menga piktogrammalar yordam berar edi — marslik shundoq qarshimda paydo bo‘ldi-da: “Menga boshmoqlaringizni bering”, dedi. Men unga boshmoqlarimni berdim, u esa bunday dedi: “Endi egningizdagi hamma kiyimingizni bering”. Men hamma kiyimimni yechib berdim, u yana: “To‘pponchangizni bering” dedi. To‘pponchamni berdim.

Shunda u: “Endi men bilan yuring-da, nima bo‘lishini tomosha qiling”, dedi. Shunday qilib, marslik lagerga ketdi, xullas, u mana shu yerda.

— Men hech qanaqa marslikni ko‘rmayapman, — e’tiroz bildirdi Cheroki.

— Afsus.

Spender g‘ilofdan to‘pponchani oldi. Past g‘o‘ng‘illash eshitildi. Birinchi o‘q chapdan eng chekkadagi odamga borib tegdi. Ikkinchi va uchinchi o‘q esa o‘ngdan chetdagi va o‘rtada o‘tirgan kishilarga borib tegdi. Oshpaz qo‘rqib gulxandan o‘girildi va to‘rtinchi o‘q unga borib tegdi. U yuztuban olov ichiga qulab tushdi va qimirlamay yotib qoldi, kiyimlari esa gurillab yondi.

Quyosh nuriga cho‘mgancha raketa g‘oz turar edi. Stolda uch kishi o‘tirar, qo‘llari esa allaqachon sovib qolgan nonushtali likopchalar yonida turardi. Omon qolgan birgina Cheroki gap nimadaligini anglayolmay Spenderga qaradi.

— Men bilan yurishing mumkin, — dedi Spender.

Cheroki hech nima deb javob bermadi.

— Quloq sol, men seni o‘z davramga olaman. — Spender kuta boshladi.

Nihoyat Cheroki tilga kirdi.

— Sen ularni o‘ldirding, — dedi u va ro‘parasida o‘tirganlarga bazo‘r qarab qo‘ydi.

— Ular shunga munosib edilar.

— Esingni yebsan!

— Ehtimol. Lekin sen men bilan yurishing mumkin.

— Sen bilan — nimaga? — qichqirdi Cheroki yuzidan rangi qochgan, ko‘zlaridan yosh tirqiragancha.

— Yo‘qol ko‘zimdan!

Spenderning yuzi ko‘kardi.

— Hech bo‘lmaganda sen meni tushunarsan, deb o‘ylagandim.

— Yo‘qol! — Cherokining qo‘li to‘pponchaga cho‘zildi.

Spender oxirgi marta o‘q uzdi. Cheroki boshqa qimir etmay qoldi.

Lekin Spender harakatga keldi. U terlagan yuzini kafti bilan siladi. U raketaga qaradi va shu zahoti badani qalt-qalt titray ketdi. Titragani shunchalik ediki, sal bo‘lmasa qulab tusha yozdi. Uning yuzi gipnozdan keyingi yoki g‘alati tush ko‘rib uyg‘ongan odamning yuziga o‘xshab ketar edi. Titrog‘ini bosish uchun u o‘tirib oldi.

— Bas qil! Hoziroq! — buyurdi o‘z vujudiga.

Har bir hujayrasi qaqshab titrar edi.

— Bas qil dedim!

Eng so‘nggi titroqni ham siqib chiqarib tashlash uchun u a’zoyi-badanini iroda iskanjasi bilan qattiq qisdi. Endi qo‘llari itoatkor tizzalari uzra tinchgina yotar edi.

U o‘rnidan turdi va shoshmaygina ortmoqlangan oziq-ovqatli xaltachasini orqasiga qulayroq joylab oldi. Bir lahzagina uning qo‘llari yana titrab ketdi, biroq Spender juda qat’iy ravishda: “Yo‘q!” deb buyruq berdi va titroq o‘sha zahoti o‘tib ketdi. So‘ng bitta-bitta odimlab cho‘g‘dek qizil qoyalar orasida bir o‘zi ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Olov purkagan quyosh tobora yuqoriga o‘rlab borardi. Bir soatdan keyin kapitan nonushta qilgani raketa ichidan chiqib keldi. U fazogirlar bilan salomlashish uchun og‘iz ochmoqchi ham bo‘lgan ediki, havoda to‘pponcha tutunining yengil hidini payqab, to‘xtab qoldi. Qarasa, oshpaz gavdasi bilan gulxanni qoplab yerda yotibdi. To‘rttala fazogir esa sovib qolgan nonushta oldida o‘tirardi.

Trapdan Parkxill va yana ikki odam tushib keldi. Kapitan ularning yo‘lini to‘sib turar ekan, ko‘zlarini stolda unsiz o‘tirgan odamlardan, ularning gavdalarini g‘alati tutib turishlaridan ololmayotgan edi.

— Hamma odamlarni yig‘ing! — buyruq berdi kapitan.

Parkxill kanal yoqalab yugurib ketdi.

Kapitan qo‘li bilan Cherokini turtdi. Cheroki asta bukildi-da, stuldan yiqilib tushdi. Quyosh nurlaridan uning qattiq sochlari va yuzi yorishib ketdi.

Ekipaj to‘plandi.

— Kim yo‘q?

— Yana o‘sha Spender yo‘q. Biggsni kanaldan topolmadik.

— Spender!

Kapitan uchlari quyoshli osmonga qadalgan tog‘larga qarab qo‘ydi. Quyoshda uning tirjaygan tishlari charaqlab ketdi.

— Jin ursin uni, — horg‘in dedi kapitan. — Nega u mening oldimga kelmadi, u bilan o‘zim gaplashib qo‘yardim.

— Yo‘q, u bilan men gaplashib qo‘yardim! — qichqirdi Parkxill ko‘zlari g‘azabdan chaqnab. — Boshini yorib, miyasining qatig‘ini chiqarardim.

Kapitan Uaylder boshi bilan imlab ikkalasini chaqirdi.

— Belkuraklarni olinglar, — dedi u. Jaziramada yer kavlash o‘limdan qiyin edi. Qurib qolgan dengizdan issiq shamol esar, yuzga changni keltirib urar edi, kapitan bo‘lsa, Injilni varaqlardi. Biroq u kitobni yopdi va belkuraklardan matoga o‘ralgan badanlarga qum ohista shuvullab to‘kila boshladi.

Ular raketa oldiga qaytib borishdi, vintovkalarining zatvorlarini sharaqlatishdi, kamarlariga orqadan granatalar bog‘lab olishdi, to‘pponchaning g‘ilofdan oson sug‘urib olinishini tekshirib ko‘rishdi. Har bir kishiga tog‘ning ma’lum bir joyi ajratilgan edi. Kapitan kim qayoqqa borishini aytib turdi, u ovozini ko‘tarmas, qo‘llari holsiz osilib turardi, qo‘llarini deyarli qimirlatmas edi.

— Ketdik, — dedi u.

Spender vohaning turli chekkalarida chang bulutlari ko‘tarilishini ko‘rib turardi va ta’qib barcha qoidalarga binoan boshlanganini tushundi. U o‘qib turgan yassi kumush kitobini qo‘ydi-da, katta tosh ustiga joylashib o‘tirib oldi. Kitob sahifalari papiros qog‘ozidek nafis, qo‘lda zarhal va qora chiziqlar bilan ishlangan suratli kumush varaqlardan iborat edi. Bu o‘n ming yil ilgarigi, ular uncha katta bo‘lmagan mars qishlog‘ining bir villasida topgan falsafiy risola edi. Spender kitobdan ajralgisi kelmasdi.

U hatto avvaliga: “Arzirmikan? Nima bo‘lsa bo‘ldi, ular kelib meni o‘ldirmagunlaricha o‘tirib, Injil o‘qiyveraman”, deb o‘yladi.

Ertalab u olti odamni otib o‘ldirgandan keyin o‘zini yolg‘iz his etdi, so‘ng ko‘ngli behuzur bo‘ldi va nihoyat vujudini g‘alati xotirjamlik egalladi, ammo bu tuyg‘u ham tez o‘tib ketdi, chunki ta’qibchilarning yo‘lini bildiruvchi changni ko‘rgach, uni yana ayovsiz tuyg‘ular chulg‘adi.

U safar flyagasidan muzdek suv ho‘pladi. Keyin o‘rnidan turdi, kerishdi, esnadi va uni qurshab turgan vohadagi allalovchi sukunatga quloq tutdi. Eh, u va u yoqdan, Yerdan kelgan yana bir necha odam bu yerga kelib o‘rnashib, beg‘am, betashvish yashaganlarida, qandoq yaxshi bo‘lar edi-ya…

Spender bir qo‘liga kitobni oldi, ikkinchisiga esa to‘pponchani.

Ro‘parada tagida oppoq toshchalar ko‘rinib turgan, qirg‘oqlarini yirik-yirik xarsanglar qoplagan tezoqar daryo shovullardi. U toshlar ustida yechindi-da, badanini chaygani suvga tushdi. Shoshmasdan suvda yuvinib-chayinib oldi-da, yana chiqib kiyimlarini kiydi va to‘pponchani qo‘liga oldi.

Dastlabki o‘q ovozlari kunduzgi soat uchlarda yangradi. Bu paytga kelib Spender baland tog‘larga chiqib ketgan edi. Orqadan uni ta’qib qilib kelar edilar. Uch mars tog‘ shaharchasi ortda qoldi.

Ularning tepasida marsliklarning villalari yoyilib yotar edi. Yam-yashil o‘tloqlar va tezoqar daryochalardan zavqlangan qadimgi marsliklar toshtaxtalardan hovuzlar barpo etgan, kutubxonalar qurgan, favvoralari shaldirab turgan bog‘lar bunyod etgan edilar. Spender yarim soatcha yomg‘ir suviga to‘lgan hovuzda ta’qibchilarning yaqinlashishini kutib, cho‘milib oldi.

Villadan chiqib ketar ekan, uning qulog‘iga o‘q ovozi chalindi. Orqa tomonda undan besh metrlar narida g‘isht mayda-mayda bo‘laklarga bo‘linib portladi. Spender yugurib qoya ortiga berkindi, o‘girilib, bir o‘q bilanoq ta’qibchilarning birini yer tishlatdi.

Uni ko‘rib olib, qo‘lga tushirishlarini Spender bilar edi. Chor atrofdan o‘rab olishadi-da, asta-sekin yaqinlashib kelaveradilar va qarabsizki, tamom-da. Ularning hatto shu paytgacha granata irg‘itmaganlari g‘alati. Kapitan Uaylder bir og‘iz aytsa, bo‘ldi edi…

“Meni tolqonga aylantirish uchun juda ham noziklik qilaman, — deya ko‘nglidan o‘tkazdi u. — Kapitanni shu narsa ushlab turibdi. U birgina tirqishcha bilan ishni tugatib qo‘ymoqchi bo‘layotir.

Ajabo… Mening sarishtagina o‘lishimni istayapti. Qonim to‘kilmasin deyapti. Nima uchun? Shuning uchunki, u meni tushunadi. Uning yigitlari jonini garovga qo‘yib, sabr qilayotgani shundan edi, ishqilib, bitta o‘q bilan boshimni nishonga olib, saranjom qilsa go‘rga edi. Shunday emasmi?”

Spenderning atrofidagi toshlarni irg‘itib, birin-ketin to‘qqiz-o‘n marta o‘q uzildi. Unga qarata ustalik bilan o‘q uzishardi, u hatto qo‘lidan qo‘ymay ushlab turgan kumush kitobdan nigohini ham uzmayotgandi.

Kapitan qo‘lida vintovka bilan quyoshning jazirama nurlari ostida panadan sakrab chiqdi. Spender to‘pponchasi bilan uni mo‘ljalga ola boshladi, biroq otishga shoshmayotgandi. Buning o‘rniga u boshqa nishonni tanladi va Uayd yotgan qoyaning cho‘qqisini uchirib yubordi. O’sha yoqdan ayanchli qichqiriq eshitildi.

Birdan kapitan qaddini g‘oz tutdi-da, oq ro‘molcha tutgan qo‘lini osmonga ko‘tardi. U o‘z odamlariga bir narsalar dedi va vintovkasini bir chetga qo‘yib, nishablikdan yuqoriga o‘rlab ketdi.

Spender bir oz kutib turdi, keyin to‘pponchasini shay tutgancha u ham oyoqqa turdi.

Kapitan uning oldiga keldi-da, Spenderga qaramaslikka harakat qilib, issiq toshga o‘tirdi.

Kapitanning qo‘li kurtkasi cho‘ntagiga cho‘zildi. Spender to‘pponchasini mahkamroq qisdi.

— Sigareta chekasanmi? — taklif qildi kapitan.

— Rahmat. — Spender bitta sigareta oldi.

— Gugurting bormi?

— Bor.

Ular chuqur sukunat ichida bir-ikki sigaret tutunini ichiga tortishdi.

— Kun issiq, — dedi kapitan.

— Juda ham.

— Qalay, yaxshi joylashib oldilaringmi?

— Zo‘r.

— Qancha turmoqchisizlar?

— O’n-o‘n beshta odamni yer tishlatishga qancha kerak bo‘lsa, o‘shancha.

— Ertalab qulay payt ekanida sizlar nega biz uchalamizni o‘ldirmadinglar? Bemalol shunday qilsalaring bo‘lar edi-ku?

— Bilaman. Kayfiyat yo‘q edi. Miyangda bir narsa g‘uvillab turganida o‘zingga-o‘zing pand bera boshlaysan. Bitta sen haqsan, boshqalar hammasi nohaq, deb o‘ylaysan. Lekin, men mana bu odamlarni o‘ldira boshlaganimda birdan ularning g‘irt ahmoqligini, ularga qo‘l ko‘tarib bekor qilganimni anglab qoldim. Kech angladim. Shundan keyin davom etishga ko‘nglim bo‘lmadi, o‘zimni yana aldash, g‘azabimni qo‘zg‘atish, kerakli kayfiyatni qayta tiklash uchun bu yerdan ketdim.

— Qayta tikladingizmi?

— Unchalik emas. Lekin shu ham yetarli.

Kapitan sigaretasini aylantirib qaray boshladi.

— Nega shunday qildingiz?

Spender xotirjam to‘pponchani oyoqlari yoniga qo‘ydi.

— Chunki men Marsda ko‘rganlarimni faqat orzu qilish mumkin, xolos. Ular biz yuz yil avval to‘xtatishimiz kerak bo‘lgan joyda to‘xtaganlar. Men ularning shaharlarini aylanib chiqa boshladim, bu xalqni bilib oldim va ularni o‘z ajdodlarim deb atashdan baxtli bo‘lar edim.

— Ha, ularning shaharlariga gap yo‘q. — Kapitan shaharlardan biriga boshi bilan ishora qildi.

— Gap faqat shundagina emas, albatta, ularning shaharlari yaxshi. Marsliklar o‘zlarining turmushlarini san’atkorona ifodalab qo‘ya olishgan. Amerikaliklarda san’at har doim alohida modda hisoblanadi, uning joyi — yuqorida, hardamxayol o‘g‘lining xonasida.

Boshqalar uni yakshanbalik ulushlari, ta’bir joiz bo‘lsa, kimdir din bilan qorishiqda deb biladi. Marsliklarda esa hammasi bor — san’at ham, din ham va boshqalar ham…

— Ular bir narsaning tagiga yeta olishdi, deb o‘ylaysizmi?

— Albatta.

— Shuning uchun ham siz odamlarni o‘ldira boshlagansiz?

— Kichkinaligimda ota-onam meni o‘zlari bilan Mexiko-sitiga olib ketishdi. Otam o‘zini u yerda baqiroq, dimog‘dor tutganini hech esimdan chiqarolmayman. Onamga kelsak, uni u yerdagi odamlar kam yuvinadi, badani qora deb unchalik yoqtirishmasdi. Opam esa ular bilan umuman gaplashmasdi.

Bitta mengina ularga yoqib qolgan edim. Otam bilan onamning Marsga kelib qolsa o‘zlarini xuddi o‘shanday tutishlarini men juda yaxshi tasavvur qilaman. O’rtacha amerikalik har qanday g‘ayrioddiy narsaga burnini jiyirib qaraydi. Chikago tamg‘asi yo‘qmi, demak, bu hech narsaga yaramaydi.

Ko‘rdingizmi qanaqa! Ey xudo, shunaqayam bo‘ladimi! Urush-chi! Parvozimizdan oldin Kongressda yangragan nutqlar esingizdadir! Mabodo sayohat muvaffaqiyatli chiqsa, Marsda uch atom laboratoriyasi va atom bomba omborlari joylashtirishar emish-a! Bundan chiqdi, Mars tamom; barcha mo‘‘jizalar yo‘q bo‘lib ketadi. Xo‘sh, o‘zingiz ayting-chi, agar marslik Oq uy pollarini ho‘l qilib qo‘ysa, siz o‘zingizni qanday his qilgan bo‘lardingiz?

Kapitan churq etmay quloq solib turardi.

Spender gapida davom etdi:

— Qolgan galvarslar-chi? Tog‘ sanoati bosslari, sayohat byurosi… Ispaniyadan Kortes o‘zining yuvosh kompaniyasi bilan kelganida Meksikaga nima bo‘lgani esingizdami? Bu yuho taqvodor — iblislar qanday madaniyatni yo‘q qilib tashlashdi! Tarix Kortesni kechirmaydi.

— Bugun biz bilan odobli muomala qilishdi deb aytib bo‘lmaydi, — dedi kapitan.

— Mening ilojim qancha edi! Siz bilan bahslashaymi? Axir men bir o‘zimman — u yerda, Yerdagi bu ablah, yebto‘ymas butun bir galaga qarshi bir o‘zim-a. Ular bu yerda darhol o‘zlarining maraz atom bombalarini irg‘ita boshlaydilar, yangi urushlar uchun bazalarga yer talashadilar. Bu ham yetmagandek, bir sayyora kamlik qilib, boshqa sayyoralarning rasvosini chiqaradilar. Kallasiz vaysaqilar. Bu yerga kelganimda men o‘zimni faqat madaniyat deb atalmish bu balodan emas, ularning bu axloq-odobi, bu rasm-rusumlaridan ham qutulgandek bo‘lgan edim. Bu yerda endi menga ularning qonun-qoidalari-yu, tuzumlari daxl qilmaydi deb ishongandim. Barchalaringizni asfalasofilinga jo‘natib, o‘zim xon, ko‘lankam maydon bo‘lib yashasam bo‘laverardi.

— Lekin teskari bo‘lib chiqdi.

— Ha. Raketa yonida beshalasini yer tishlatganimda butunlay yangilana olmaganimni, haqiqiy marslik bo‘lolmaganimni angladim. Yerda senga yopishgan balodan osonlikcha qutulib bo‘lmas ekan.

Lekin men endi ikkilanmay qo‘ydim. Men hammangizni bitta qo‘ymay o‘ldiraman. Bu navbatdagi ekspeditsiyani jo‘natishni kam deganda besh yilga surib yuboradi. Bizning raketamiz yagona, boshqa bunaqasidan yo‘q. Yerda bizdan bir yil, bo‘lmasa ikki yil yangiliklar kutishadi va biz haqimizda ular hech narsa bilolmagach, ularga yangi ekspeditsiyani tayyorlash juda qimmatga tushadi. Raketani ikki barobar katta qilib ishlaydilar, yangi omadsizliklardan saqlanish uchun yuzlab ortiqcha omilkor konstruktsiyalar qiladilar.

— Hisob-kitobingiz chakki emas.

— Bordi-yu, siz yaxshi xabarlar bilan qaytib borsangiz, bu Marsga ommaviy bostirib kelishni tezlashtiradi. Shunda, xudo xohlasa, oltmish yoshgacha yashayman-da, har bir yangi ekspeditsiyani qarshi olaveraman. Har gal bittadan ortiq raketa yuborishmaydi — u ham yilda bir marta va ekipaj yigirma kishidan ortiq bo‘lmaydi, men, albatta, ular bilan do‘stlashib olaman, raketamiz to‘satdan portlab ketdi deyman, — men buni sizlarni biryoqlik qilib olgach, shu hafta ichidayoq portlataman, keyin esa ularning o‘zlarini yo‘q qilib yuboraman. Shu bilan yarim asrcha Marsni omon saqlab qolaman; yerliklar, ehtimol, ortiq urinmay qo‘yishadi. Tinmay yonadigan va tushib turadigan tseppelpilar qurilishiga odamlar qanday sovuqqonlik bilan qaragani esingizdadir?

— Hammasini miridan-sirigacha o‘ylabsiz, — iqror bo‘ldi kapitan.

— Xuddi shunday.

— Bir narsadan tashqari: bizlar juda ko‘pmiz. Bir soatdan keyin halqa yopiladi. Bir soatdan keyin siz murdaga aylanasiz.

— Men yerosti yo‘llarini ko‘rdim va shunday mustahkam bombapanalarni ko‘rdimki, siz ularni ikki dunyoda ham topolmaysiz. O’sha yoqqa boraman, bir necha hafta o‘tiraman. Sizning sabr kosangiz to‘ladi. Shunda men chiqaman-da, sizlarni yana bittama-bitta narigi dunyoga jo‘nataveraman.

Kapitan bosh irg‘adi.

— Menga o‘zingizning bu yerdagi tamadduningiz haqida so‘zlab bering, — dedi u qo‘li bilan tog‘ qishloqlari tomonni ko‘rsatib.

— Ular tabiat bilan hamjihatlikda, dorilomon yashashgan. Odam bilan inson o‘rtasida chegara o‘rnatish uchun juda haddilaridan oshib ketmaganlar. Darvin paydo bo‘lganda biz shunday xatoga yo‘l qo‘yganmiz. Bizda keyin nima bo‘lgan edi: avvaliga suyundik, uni ham, Gekslini ham, Freydni ham quchog‘imizga mahkam bosib olmoqchi bo‘ldik. Keyin to‘satdan ma’lum bo‘ldiki, Darvin bizning dinimiz bilan hech ham chiqisholmas ekan. Nima bo‘lganda ham bizga shunaqa tuyulgandi. Lekin bu ahmoqlik-ku, axir! Darvin, Geksli,

Freydning bir oz tanobini tortib qo‘ymoqchi bo‘ldik. Ular osonlikcha bo‘y berishmadi. Shunda biz dinning dabdalasini chiqarishga kirishdik. Bu ishni do‘ndirdik ham.

Iymondan ayrildik va hayot mazmuni ustida bosh qotira boshladik. Agar san’at — bor-yo‘g‘i qoniqmagan ehtiroslar ifodasi, agar din — o‘z-o‘zini aldashgina bo‘lsa, unda biz nega yashaymiz?

Iymon hamma narsaga javob topib bersin! Lekin Darvin va Freyd kelishi bilan u naychaga kirib ketdi.

Inson zoti shu adashganicha qolib ketdi.

— Marsliklar-chi, to‘g‘ri yo‘lni topib olishgandir, hoynahoy? — surishtirdi kapitan.

— Ha. Ular fan bilan dinni shunday uyg‘unlashtirib yubora oldilarki, ular bir-birini inkor etmadilar, balki bir-birlariga yordam berib, boyitdilar.

— Hech aql bovar qilmas hol!

— Xuddi shunday bo‘ldi ham. Buning amalda qanday bo‘lganini sizga juda-juda ko‘rsatgim kelayapti.

— Odamlarim meni kutib turishibdi.

— Yarim soatgina shoshmay turing. Ularga aytib qo‘ying, ser.

Kapitan taysalladi, so‘ng o‘rnidan turdi-da, joyidan qimirlamay turish uchun pastga yotib olgan dastasiga qarab qichqirdi.

Spender uni nuqsonsiz muzdek marmar bilan tiklangan mo‘‘jazgina mars qishlog‘iga olib bordi. Ular ulkan hayvonlar tasviri tushirilgan katta ravoqlarni ko‘rishdi. Tasvirlar ichida oq panjali mushuklar va quyosh ramzini bildiruvchi sariq doiralar bor edi, ho‘kizlarni esga soluvchi hayvon haykalchalari, erkaklar, ayollar va tumshug‘i ulkan bahaybat itlarning siymolari ko‘zga tashlanardi.

— Mana sizga javob, kapitan.

— Ko‘rmayapman.

— Marsliklar hayvonlar hayotining sirini bilib olganlar. Hayvon yashashning ma’nosini bilolmaydi. U yashaydi. Yashash uchun yashaydi. Uning uchun javob hayotning o‘zidan iborat, sevinchi ham, lazzati ham shuning ichida. Mana bu haykalga bir qarang-a: hamma joyda ramziy hayvonlar tasviri.

— Majusiylikka ham o‘xshab ketadi.

— Aksincha, bu xudoning ramzi, hayotning ramzlari. Marsda ham Insonga insondan juda ham ko‘p narsa va hayvondan juda ham oz narsa yuqib qolgan paytlar ham bo‘lgan. Lekin Marsdagi odamlar bir narsani tushunganlar: tirik qolish uchun hayotning ma’nosi nima ekanini kavlashtirishni bas qilish kerak. Hayotning o‘zi tayyor javob. Hayotning maqsadi hayotni qayta tiklash va uni iloji boricha yaxshiroq tashkil etish. Marsliklar, nima uchun yashash kerak, degan savol ularda javob berish mumkin bo‘lmagan ayni qizg‘in urush va

musibatlar paytida tug‘ilganini payqab qolganlar. Tamaddun muvozanat va barqarorlik kasb etdi. Urushlar tindi deguncha bu savol yana bema’ni bo‘lib qoldi, butunlay boshqacha bema’ni. Hayot yaxshi bo‘lganda, u haqda bahs ochishga na hojat!

— Gapingizga qaraganda, marsliklar ancha sodda bo‘lishgan ekan-da?

— Soddalik o‘zini oqlagan joyda, albatta. Ular hamma narsani dabdala qilish, hamma narsani ostin-ustin qilishga intilish kasalligidan forig‘ bo‘lganlar. Ular din, san’at va fanni bir-biri bilan uyg‘unlashtirib yuborganlar: axir fan oxir-oqibatda biz tushuntirib berishdan ojiz bo‘lgan mo‘‘jizani tadqiq etishi, san’at esa, mana shu mo‘‘jizani talqin etishi kerak bo‘lgan. Ular fanning go‘zallikni, nafosatni barbod etishiga yo‘l qo‘ymaganlar. Bular hammasi me’yor masalasidir. Yerliklar shunday mulohaza qiladilar: mana bu suratda rang yaxshi chiqmagan, fan esa rang — bu bor-yo‘g‘i modda zarralarining muayyan joylashuvi, aks etayotgan nurning alohida qiyofasi ekanini isbotlay oladi. Binobarin, rangi mening nigohimga tushgan predmetlarning haqiqiy vositalari hisoblanadi. Undan ko‘ra aqlliroq bo‘lgan marslik shunday degan bo‘lar edi: “Bu ajoyib surat. Uni ilhombaxsh inson qo‘li va miyasi bilan yaratgan.

Uning g‘oyasi va bo‘yoqlariga hayot bergan. A’lo narsa”.

Ular jim qolishdi. Kechki quyosh nurlariga ko‘milib o‘tirishar ekan, kapitan unsiz marmar shaharchani qiziqish bilan tomosha qila boshladi.

— Mana bu yerda jon-jon deb yashagan bo‘lardim, — dedi u.

— Xohlasangiz bo‘ldi.

— Siz menga taklif etayapsizmi?

— Odamlaringiz ichida bularning barchasini kim yaxshi tushuna oladi? Ular o‘zlariga yetguncha dimog‘dor, endi ularni to‘g‘rilab bo‘lmaydi. Ular bilan Yerga qaytishingizga na hojat! Jons bilan pachakilashganimi? Xuddi Smitdagidek vertolyot sotib olganimi? Qalb bilan emas, hamyon bilan musiqa eshitish uchunmi? Bu yerda bir hovlida men bir mars musiqasi yozuvini topib oldim, u kam deganda ellik ming yil oldin yozilgan ekan. U hali ham binoyidek ovoz beradi. Bunaqa musiqani hayotda boshqa hech bir joyda eshitmaysiz. Qolsangiz, siz ham eshitar edingiz. Bu yerda kitoblar bor.

Men ularni bemalol o‘qiy olaman. Siz ham o‘qir edingiz.

— Bari bir-biridan maroqli narsalar.

— Shunday bo‘lsa ham qolmaysizmi?

— Yo‘q. Ammo taklifingiz uchun baribir rahmat aytaman.

— Demak, ma’lum bo‘lishicha, siz meni tinch qo‘yish niyatida emassiz. Men barchangizni o‘ldirishimga to‘g‘ri keladi.

— Siz nekbinsiz.

— Men nima uchun jang qilishni va nima uchun yashashni bilaman, shuning uchun o‘ldirishga kelganda men sizdan ko‘ra chaqqonroqman. Ko‘nglimda, ta’bir joiz bo‘lsa, o‘z dinim paydo bo‘ldi: men yana nafas olishni, oftobda yotishni, quyosh nurlarini o‘zimga singdirib toblanishni, kuy tinglashni va kitob o‘qishni o‘rganaman. Xo‘sh, sizning tamaddungingiz menga nimani taklif qila oladi?

Kapitan og‘irligini bir oyog‘idan boshqa oyog‘iga soldi-da, boshini chayqadi.

— Shunday bo‘lishidan juda afsusdaman. Bularning barchasidan xafaman…

— Men ham. Endi esa hujumingizni boshlashingiz uchun sizni qaytarib olib borib qo‘yish vaqti keldi.

— Mayli.

— Kapitan, men sizni o‘ldirmayman. Hammasi tamom bo‘lganda siz tirik qolasiz.

— Nima?

— Men avval-boshdayoq sizni ayashga qaror qilgan edim.

— Obbo, siz-ey…

— Men sizni anovi boshqalardan qutqaraman. Ular o‘ldirilgandan keyin siz balki boshqatdan o‘ylab ko‘rarsiz.

— Yo‘q, — dedi kapitan. — Mening tomirimda ko‘proq Yer qoni oqadi. Men sizni ketgani qo‘yolmayman.

— Bu yerda qolish imkoniyatingiz bo‘lganida hammi?

— Ha. Shunisi qiziqki, o‘shanda ham. Negaligini bilmayman. Hech o‘zimga shunday savol berib ko‘rmagan ekanman. Mana, yetib ham keldik.

Ular avvalgi joylariga qaytib kelishdi.

— Men bilan o‘zingiz xohlab boraverasizmi, Spender? Oxirgi marta aytayapman.

— Tashakkur. Bormayman. — Spender bir qo‘lini oldinga cho‘zdi. — Yana bir narsa, ketar jafosiga.

Agar siz yengib chiqsangiz, menga bir ish qilib berasiz. Agar kuchingiz yetsa, bu sayyoraning iztirobini hech bo‘lmaganda ellik yilga surib berishga harakat qilib ko‘ring, qadimshunoslar avval bir yaxshilab ter to‘kishsin-da! Rozimisiz?

— Roziman.

— Yana bir gap, agar bundan kimdir yengil tortsa, meni yoz kunida bir aqli suyulgancha qaytib o‘ziga kelmagan ojiz bir jinni deb hisoblayvering. Balki siz yengil tortarsiz…

— O’ylab ko‘raman. Xayr, Spender, yaxshi qoling.

— Siz g‘alati odamsiz, — dedi Spender, kapitan garmselga qarshi yo‘lakdan pastga tomon odimlab ketganda.

Nihoyat kapitan uni sabr-toqat bilan kutib turgan, changga botgan o‘z odamlari oldiga qaytib keldi.

U quyoshdan koʻzlarini chimirib olgan va ogʻir-ogʻir nafas olardi.

— Ichishga kimda suv bor? — deb soʻradi kapitan.

U qoʻliga muzdek flyagani tutqazganlarini his qildi.

— Rahmat.

U bir hoʻplam ichdi. Ogʻzini artdi.

— Xoʻsh, — dedi kapitan. — Hushyor boʻlinglar. Shoshadigan joyimiz yoʻq, vaqtimiz bemalol. Biz tomondan koʻp qurbon boʻlmasligi kerak. Siz uni oʻldirishingizga toʻgʻri keladi. U men bilan borishga unamadi. Uni bir oʻq bilan yer tishlatishga harakat qiling. G'alvir qilib tashlamang. O'ldiring, vassalom.

— Men uning la'nati kallasini qovoqdek yorib tashlayman, — toʻngʻilladi Sem Parkxill.

— Yoʻq, faqat yuragiga, — dedi kapitan. U Spenderning shafqatsiz qat'iy chehrasini aniq-tiniq koʻrib turardi.

— Uning la'nati kallasini, — takrorladi Parkxill.

Kapitan flyagani unga uzatdi.

— Buyrugʻimni eshitdingizmi? Faqat yuragiga.

Parkxill oʻzicha nimadir deb toʻngʻillab qoʻydi.

— Ketdik, — dedi kapitan.

Ular yana har tomonga sochilib ketishdi, odimlashdan yugurishga oʻtishdi, keyin yana odimlab ketishdi, ular goh jazirama yonbagʻirdan yuqoriga oʻrlar, goh muzdek, toʻs hidi anqib turgan magʻoralarga shoʻngʻib ketishar, goh obdon qizigan tosh hovuriga toʻliq charogʻon ochiq maydonda paydo boʻlib qolar edilar.

"Yuragingdan oʻzingni epchil his qilib, unday boʻlishni istamaganingdan keyin, — oʻyladi kapitan, — bu epchillik va jonsaraklik ham koʻzingga balodek koʻrinib ketar ekan. Bildirmay kirib borish, har xil nayranglarni oʻylab topish va oʻzingning makkorliging bilan faxrlanish, yuragimdan oʻzimning haq ekanligimga ishonmaganimdan keyin unday haqgoʻylik tuygʻusini boshimga uramanmi! Xoʻsh, bunday olib qaraganda, biz kimmiz? Koʻpchiligimiz?… Koʻpchilik har doim aybsiz boʻlib kelganligi shunga javob emasmi? Har doim koʻpchilik hatto tariqcha adashishi mumkin emas, shunday emasmi? Hatto oʻn million yilda ham bir marta adashmaydi…"

U xayol surishda davom etdi: "Bu koʻpchilik degani oʻzi nima-yu, unga kimlar kiradi? Ular nima haqda oʻylaydilar, ular nima uchun aynan shunday boʻlib qolganlar, nahotki hech qachon oʻzgarmaydilar? Qolaversa, men bu la'nati koʻpchilik ichiga qanday jin urib kirib qoldim? Hech oʻzimga kelolmayman. Bunga sabab nima: klosstrofobiya, olomondan qoʻrqishmi yoki shunchaki sogʻlom fikrmi? Butun dunyo oʻzining haqligiga amin boʻlib turganida bitta odam haq boʻlib chiqishi mumkinmi? Keling, bu haqda oʻylamaylik. Qornimizda oʻrmalaylik, biqinib olaylik, tepkini bosaylik!

Mana shunday! Shunday!”

Uning odamlari kimo‘zarga chopishar, yiqilishar, yana olg‘a qarab chopishar, soyada bir oz qo‘nim topib, tishlarini tirjaytirishar, og‘izlari bilan nafas olar edilar, chunki havo og‘ir edi, unda chopish beshbattar og‘ir edi; og‘ir havoda, ora-chora besh daqiqa o‘tirib, og‘ir-og‘ir nafas olgancha tin olmasa bo‘lmas edi, — ko‘zlarining oldida o‘t chaqnar edi, — kislorodni shuncha ichga tortgan bilan hech kim to‘ydim demasdi, oxir tishni-tishga bosib, yana oyoqqa turishga va bu og‘ir havoni o‘t va momaqaldiroq bilan parcha-burish qilib tashlash uchun vintovkani ko‘tarishga to‘g‘ri kelardi.

Spender kapitan uni tashlab ketgan yerda yotgancha ta’qibchilarga qarab ahyon-ahyonda o‘q uzib qo‘yar edi.

— Uning la’nati miyasini toshlarda ezg‘ilayman! — bo‘kirdi Parkxill va yonbag‘irdan yuqoriga qarab chopib ketdi.

Kapitan ser Parkxillni nishonga oldi, keyin unga o‘qrayib qaragancha to‘pponchasini bir chetga qo‘ydi.

— Nima qilmoqchi edingiz? — so‘radi u holsizlangan qo‘li va to‘pponchadan ko‘z uzmay.

U sal bo‘lmasa Parkxillning orqasidan otib tashlayozdi.

— Yo alhazar, menga nima bo‘ldi?

U Parkxillning chopib ketayotib yiqilganini, pana joy topib olganini ko‘rdi. Spenderning atrofida siyrak odamlar qatori asta saf tortmoqda edi. U cho‘qqida, ikkita xarsang ortida, havo yetishmasligidan og‘zini horg‘in qiyshaytirib yotardi, qo‘ltiqlari tagida qop-qora ter dog‘lari paydo bo‘ldi. Kapitan bu xarsanglarni aniq ko‘rib turar edi. Ikki xarsangni bir-biridan ajratib turgan o‘n santimetrlarcha oraliqdan Spenderning ko‘ksi ko‘rinib turardi.

— Hoy! — deb qichqirdi Parkxill. — Miyangning qatig‘ini chiqarishga bitta o‘qni g‘amlab qo‘yibman!

Kapitan Uaylder kutardi. “Ha, Spender, bo‘sh kelma, — o‘ylardi u. — O’zing o‘ylaganingdek, tuyog‘ingni shiqillat! Yana bir necha daqiqadan keyin kech bo‘ladi. Ket, keyin yana chiqasan. Xo‘sh!

Ketaman deb aytuvding-ku. O’zing qidirgan mana bu mag‘oralarga gumdon bo‘lsang-chi, kirib ol-da, bir oy, bir yil, ko‘p yillar yotaver. O’zingning g‘aroyib kitoblaringni o‘qi, ehrom hovuzlaringda cho‘mil.

Qani, hoy odamvachcha, fursat g‘animatda quyon bo‘lib qolsang-chi”.

Spender joyidan qimir etmasdi.

“Unga nima bo‘lgan o‘zi?” — so‘radi o‘zidan kapitan.

U to‘pponchasini oldi. Odamlarning bir panadan boshqa panaga chopib o‘tishlarini kuzatib turdi.

Mo‘‘jazgina, shinam mars qishlog‘i minoralariga ko‘z soldi — bamisoli quyosh nuridan charaqlagan kungirador o‘yma shaxmat

donalariga o‘xshardi ular so‘ng. Nigohini xarsanglarga va Spenderning ko‘kragini ko‘rsatib turgan oraliqqa oldi.

G’azabdan o‘kirgancha Parkxill oldinga otilib chiqdi.

— Yo‘q, Parkxill, — dedi kapitan. — Sizning bunday qilishingizga men yo‘l qo‘yolmayman, boshqa birovga ham. Ichingizdan hech biringizga. Men o‘zim.

U to‘pponchasini ko‘tarib nishonga ola boshladi.

“Bundan keyin mening vijdonim sof bo‘larmikan? — so‘radi o‘zidan kapitan. — Buni o‘z zimmamga olib, to‘g‘ri qilayapmanmi? Ha, to‘g‘ri. Bilaman. Nima qilayotganimni va nima uchun qilayotganimni bilaman. Nima qilsam, hammasi to‘g‘ri, axir buni men qilishim kerakligiga imonim komil-ku. Bu qarorimni bir umr oqlab o‘tishimga umid ham qilaman va ishonaman”.

U Spenderga boshini irg‘ab qo‘ydi.

— Ketdik! — qichqirdi u shivirlab; tabiiyki buni o‘zidan boshqa hech kim eshitmadi. — Yana o‘ttiz soniya muhlat beraman senga, o‘ttiz soniya.

Bilagidagi soat chiq-chiq qilar edi. Kapitan milning yugurishini kuzatdi. Uning odamlari chopib oldinga harakat qilishdi. Spender joyidan qimir etmas edi. Soat uzoq va juda qattiq, to‘g‘ri kapitanning qulog‘iga chiqillar edi.

— Ket, Spender, tezroq ket!

O’ttiz soniya o‘tib ketdi.

To‘pponcha hamon nishonda edi. Kapitan chuqur xo‘rsindi.

— Spender, — dedi u uf tortib.

U tepkini bosdi.

Quyosh nurida tosh uzra ixchamgina chang bulutchasi paydo bo‘ldi — bor-yo‘g‘i shu! O’q ovozi aks sado berib yangradi-yu, darrov tindi.

Kapitan o‘rnidan turdi-da, odamlarga qarab qichqirdi:

— U o‘ldi.

Ular ishonishmadi. Ular turgan joyidan xarsanglar o‘rtasidagi ochiq tirqish ko‘rinmasdi. Ular kapitanning yonbag‘irdan yuqoriga qarab bir o‘zi chopib borayotganini ko‘rib turishardi va u yo juda botir, yoki aqldan ozgan degan qarorga kelishdi.

Bir necha daqiqa o‘tgandan keyingina ular kapitanning ketidan chopishdi. Ular jasad atrofiga to‘planishdi, shunda kimdir so‘radi:

— Yuragidan otibdimi?

Kapitan ko‘zini yerga oldi.

— Yuragidan, — dedi u. U Spenderning jasadi ostidagi tosh rangi o‘zgarayotganini payqadi. — U nega kutib turganini bilmoqchiman. U o‘zi o‘ylagandek nima uchun ketmaganini bilmoqchiman. U nega uni o‘ldirishlarini kutib turganini bilmoqchiman.

— Kim biladi? — dedi kimdir.

Spender esa ularning oldida yotardi, uning bir qo‘li to‘pponchani qisib olgan, ikkinchi qo‘lida esa quyoshda charaqlab turgan kumush kitob bor edi.

“Balki bularning barchasi men tufaylidir? — so‘radi kapitan. — Ularga qo‘shilishni rad etgani uchundir? Balki meni o‘ldirishga Spenderning qo‘li bormagandir? Kim bilsin, men ulardan nimam bilandir farq qilaman. Balki, hamma gap shundadir. U, ehtimol, menga ishonsa bo‘ladi, deb o‘ylagandir. Yoki boshqa javob ham bormi?”

Boshqa javob yo‘q edi. U jasad oldida cho‘nqayib o‘tirib oldi.

“Men buni o‘zimning hayotim bilan oqlashim kerak. Endi men uni alday olmayman. Bordi-yu, u men nimam bilandir unga o‘xshaganim uchun meni o‘ldirmagan bo‘lsa, unda men juda ko‘p ishlar qilishim kerak bo‘ladi! Ha, ha, albatta, shunday bo‘ladi. Men — o‘sha Spenderman, u mening vujudimda yashab qoladi, o‘q uzishdan oldin faqat men o‘ylayman. Men umuman o‘q uzmayman, o‘ldirmayman. Men odamlarni boshqaraman. U meni o‘zidan, faqat boshqa sharoitlarda ko‘rgani uchungina meni o‘ldira olmas edi.”

Kapitan boshining orqasini quyosh kuydirayotganini his qildi. Uning qulog‘iga o‘zining ovozi chalindi:

— Eh, o‘q uzishdan oldin men bilan gaplashganda edi, — biron-bir chorasini topgan bo‘larmidik.

— Qanaqa chora? — to‘ng‘illadi Parkxill. — Uning bilan bizning zuvalamiz boshqa-boshqa joydan olingan-ku.

Pasttekislik, qoyalar, moviy osmon — barchasini azbaroyi jazirama issiq qoplab olganidan quloqlar shang‘illab ketar edi.

— Darvoqe, siz haqsiz, — dedi kapitan. Bizlarning hech qachon moshimiz ochilmasdi. Spender bilan meni esa gapirishga ham hojat yo‘q edi. Ammo Spender bilan siz va sizga o‘xshaganlar — ikki dunyoda ham murosa qilolmas edi. Aytadilar-ku: “ekkaningni o‘rasan” deb, shunday bo‘ldi ham.

Flyagani oling, bir qultum yutay.

Spenderni bo‘sh go‘rga dafn qilish taklifi kapitanning o‘zidan chiqdi. Go‘rni qadimgi mars qabristonidan topishdi. Ular Spenderning qo‘llarini ko‘kragiga chalishtirib, kumush tobutga joylashtirishdi va o‘n ming yil avval tayyorlangan sham va musallaslarni ham uning ichiga qo‘yishdi.

Go‘rni yopayotib, ular ko‘rgan oxirgi narsa Spenderning jonsiz chehrasi bo‘ldi.

Ular qadimgi xilxonada turishardi.

— Vaqti-vaqti bilan Spenderni eslab tursangiz yomon bo‘lmasdi, — dedi kapitan.

Ular xilxonadan chiqishdi va marmar eshikni zichlab yopib qo‘yishdi.

Ertasiga Parkxill o‘lik shaharlarning birida nishonga qarab o‘q uzish poygasini o‘tkazishga qaror qildi — u billur derazalarni nishonga olar va nafis minoralarning uchini cho‘rt uchirar edi. Kapitan Parkxillni tutib oldi-da, tishini tutday to‘kdi.

Avgust 2001
O‘ZGA YURTLIKLAR

Yerliklar Marsga uchib kela boshladilar.

Uchib kelishlarining boisi, ular nimadandir qo‘rqar edilar va ayni zamonda hech nimadan qo‘rqmas edilar, chunki ular baxtli va baxtsiz edilar, o‘zlarini ziyoratchilar deb his qilar edilar va ziyoratchilar deb his qilmas edilar. Har birining o‘z sababi bor edi. Ular jonlariga tekkan xotinlarini yoki jonlariga tekkan ishlarini yoki jonlariga tekkan shaharlarini tashlab kelgan edilar; nimanidir topish yoki nimadandir qutulish yoki nimanidir qazib olish, nimanidir kavlab olish, yoki nimanidir yerning tagiga yashirib qo‘yish, yoki nimanidir abadiy unutish uchun uchib kelar edilar. Ular katta umidlar bilan, kichkina umidchalar bilan, butunlay umidsiz uchib kelar edilar. Biroq ko‘plab shaharlarda to‘rt rangli shiorlarda hukmdor barmoq amrona ko‘rsatib turar edi: sen uchun osmonda ish bor — Marsga bor! Shunday qilib, odamlar yo‘lga tushar edilar; to‘g‘ri, avvaliga ular oz-oz edilar, nari borsa, o‘ntadan — aksariyatlari raketa osmonga o‘qdek otilishidan burunroq o‘zlarini yomon his qila boshlagan edilar. Bu kasalning nomi yolg‘izlik edi, chunki u yerda, hov pastda jonajon shahring avval mushtumdek, keyin limon donasidek, keyin to‘g‘nag‘ich boshchasidek, nihoyat kichraya borib, oxiri reaktivning olov oqimi ostida butunlay ko‘rinmay ketganini tasavvur qilishing hamon senda shunday bir tuyg‘u paydo bo‘ladiki, go‘yo sen yorug‘ olamda hech qachon tug‘ilmagansan, hech qaerda hech qanaqa shahar bo‘lmagan, sen ham hech qaerda bo‘lmagansan, chor atrofing bo‘m-bo‘sh koinot, bironta ham tanish odam yo‘q, nuqul begona odamlar. Shtatingni — Illinoys yoki Ayovami, Missuri yoki Montanami, bulutlar qa’riga kirib ko‘zdan yo‘qolganda, butun Qo‘shma Shtatlarni-ku, qo‘yaver, butun yer sayyorasi zulmat qo‘ynida qisilib-qisilib, xuddi noma’lum yoqqa uchib ketayotgan iflos kulrang koptokka aylanadi, — ana shunda o‘zingni koinot kengliklarida mutlaqo yolg‘iz, yakrang, yaknasaq musofir bo‘lasan-qolasan va oldinda seni nelar kutayotganini tasavvuringga ham keltirolmaysan. Dastlabki kelganlar juda ozchilik bo‘lganiga ajablanmasa ham bo‘ladi. Ko‘chib kelganlarning holi Marsga ko‘chib o‘tgan yerliklar miqdoriga mutanosib tarzda o‘sib borardi: bir kishiga qo‘rqinchli, ko‘pchilik bo‘lsa — unchalik emas, ammo Yolg‘izlarga o‘zidan boshqa ishonadigan hech kim bo‘lmaydi.

Dekabr 2001
YASHIL TONG

Quyosh botganda u so‘qmoq yonida o‘tirdi-da, g‘aribgina ovqat tayyorladi; so‘ng paydar-pay og‘ziga luqmalardan solgancha va o‘ychan kavshagancha olovning charsillashiga quloq soldi. Boshqa o‘ttiz kunga o‘xshagan yana bir kun o‘tdi; erta tongdan ko‘plab shinam qazish, so‘ng ularga urug‘ qadash, tip-tiniq kanallardan suv tashib keltirish kerak. Hozir, charchoqdan o‘zini qo‘rg‘oshindek og‘ir his qilgancha u osmonga qarab yotardi, osmon esa rangini o‘zgartirib, kech bo‘lganidan darak bermoqda edi.

Uning ismi Benjamin Driskol edi, yoshi o‘ttiz birda. Uning niyati bitta — qanday qilib bo‘lmasin, Mars yam-yashil libosga burkansa, qalin bargli baland daraxtlarga qoplansa, iloji boricha ko‘proq havo paydo bo‘lsa, kerak bo‘lsa yilning to‘rt faslida ham gurkirab tursa, diqqinafas yozda shaharlarning havosini yangilasa, qishning izg‘irinli shamollarini to‘sib tursa. Daraxt nimalarga qodir emas… U tabiatga rang beradi, soya tashlaydi, yerni mevalari bilan ma’mur qiladi. Yoki bolalar o‘yinlarining saltanatiga aylanadi — sirpanish, o‘yinlar o‘ynash, qo‘lda osilib turish mumkin bo‘lgan butun bir osmoniy olam desangiz-chi… U rizq va sevinch eltuvchi bahaybat inshoot; mana daraxtning qudrati!

Ammo eng avvalo daraxt — bu o‘pka uchun hayotbaxsh muzdek havo va yoqimli shitirlash manbai, u tunda seni allalab, sehrli allalar aytadi, sen esa, qordek oppoq toza to‘shakda yotgancha miriqib tinglaysan.

U yotar va quyoshni, hali-hamon darak bo‘lmagan yomg‘irlarni kutgancha bazo‘r bir joyga to‘planayotgan qop-qora tuproqqa quloq solar edi… Qulog‘ini yerga qo‘yib u kelajak yillar guldurosini eshitar va bugun qadalgan urug‘lar yashil kurtak chiqarib, nish urganini, osmonga o‘rlab borayotganini, qator shoxlar yoyayotganini va butun Mars quyoshli o‘rmonga, chappor urgan boqqa aylanayotganini yaqqol ko‘rib turardi.

Erta tongda mo‘‘jazgina bo‘zargan quyosh qator qirlar ortidan endi-endi suzib chiqqanda u o‘rnidan turadi, bug‘i ko‘tarilib turgan nonushtani tez-tez tushiradi, o‘choqdagi qo‘rlarni tepib o‘chiradi, yuk xaltasini ortmoqlaydi va yana joy tanlash, kavlash, urug‘ yoki ko‘chat qadash, avaylabgina yerni bosib-bosib qo‘yish, sug‘orish va hushtak chalib ochiq osmonga qaragancha yana odimlab ketish uchun yo‘lga tushadi, osmon esa… tush paytiga kelib osmon butunlay yorishib, tobora yorishib va qizib boradi…

— Senga havo kerak, — dedi u gulxanga. Gulxan — barmog‘ini

hazillashib tishlab oladigan yuzi qizil jonli o‘rtog‘ing, salqin tunlarda esa, do‘stona iliqlik bilan uyquli pushti ko‘zlarini qisib qaragancha yonginangda mudroq bosib yotadi… — hammamizga havo kerak. Bu yerda, Marsda havo tansiq. Sal narsaga charchaysan. Xuddi janubiy Amerikadagi And tog‘laridagidek. Havoni yutasan-u, hech nima sezmaysan, sira havoga to‘ymaysan.

U ko‘krak qafasini turtib qo‘ydi. O’ttiz kunda rosa kengayib ketibdi-ku! Ha, bu yerda ko‘proq havo yutish uchun o‘pkani chiniqtirish kerak. Yoki ko‘proq daraxt ekish kerak.

— Nima uchun bu yerdaligimni anglagandirsan? — dedi u. Olov tilini cho‘zib qo‘ydi. — Maktabda bizga Jonni Olma Urug‘i haqida hikoya qilib bergandi. U Amerika bo‘ylab yurib, olma daraxti ekar ekan. Mening ishim esa undan ko‘ra muhimroq. Men dublar, qayrag‘ochlar va klyonlar ekaman, yana terak, kashtan va kedrlar ham. Men faqat oshqozon uchun meva qilmayman, balki o‘pka uchun havo yasayman. O’zing o‘ylab ko‘r-a, bu daraxtlar oxiri o‘sib-o‘sib, ularda qancha qislorod ishlab chiqarilmaydi deysan!

Marsga uchib kelgan kun esiga tushdi. Minglab boshqalar qatori u o‘shanda tinch Mars tongiga mahliyo bo‘lgan va: “Bu yerni qanday o‘zlashtiraman? Nima qilaman? Menga yarasha ish topilarmikan?” — deb o‘ylagan edi.

So‘ng hushidan ketgan edi.

Kimdir nashatir spirtli pufakchani uning burni tagiga tiqqan, u yo‘talib o‘ziga kelgandi.

— Hechqisi yo‘q, tuzalib ketasiz, — dedi vrach.

— Menga nima bo‘lgan edi, o‘zi?

— Bu yerning havosi juda ham yomon. Ko‘plar bunga chiday olmayapti. Siz harholda yerga qaytmasangiz bo‘lmaydi.

— Yo‘q! — u o‘tirib oldi, biroq o‘sha zahoti ko‘z oldi qorong‘ilashib ketdi va nazarida, Mars kamida ikki marta aylangandek bo‘ldi. Burun kataklari kengaydi, u zo‘rlab havoni ichiga yutishga harakat qildi.

— Jinni bo‘lib qolaman. Men shu yerda qolaman.

Uni o‘z holiga qo‘yib qo‘yishdi; u xuddi qumdagi baliqdek yotar, og‘zini kappa-kappa ochib nafas olar va o‘ylardi: “Havo, havo. Ular bitta havo deb meni bu yerdan haydamoqchi bo‘layaptilar”.

Shunday deya u Mars qirlari va tekisliklarini ko‘rib olish uchun boshini burdi. Qarab turib u ko‘rgan birinchi narsa shu bo‘ldi: uzoqda ham, yaqinda ham hech bo‘lmasa bitta daraxt ko‘rinmaydi. Bu o‘lka bamisoli xudoning qarg‘ishini olgandek, chor atrofda qora chirindi yastangan, unda esa loaqal bir dona maysa ko‘zga tashlanmaydi. “Havo, — o‘ylardi u rangsiz nimanidir ichiga yutib pishillab nafas olgancha. — Havo, havo, havo…” Qirlarning uchlarida ham, soyador

yonbag‘irliklarda ham, hattoki daryo yoqasida ham na bir daraxt, na bir maysa ko‘rinardi.

Bo‘lmasam-chi! Javob uning miyasida emas, tomog‘ida, o‘pkasida tug‘ildi va bu sof kislorod qultumidek fikr birdan unga dalda bag‘ishladi. Daraxtlar va maysalar. U qo‘llariga qaradi va kaftining orqasini o‘girdi, u maysa va daraxt ekadi. Mana unga ish: uning bu yerda qolishiga xalaqit berayotgan narsaga qarshi kurashish. U Marsga qarshi urush e’lon qiladi — alohida, agrobiologik urush. Qadimiy Mars tuprog‘i… Uning o‘z ko‘katlari shuncha millionlab yillar o‘sib, nihoyat yoshini yashab, tugab-bitgan. Bordi-yu, yangi turlar ekilsa-chi? Qishki daraxtlar — shoxdor mimozalar, majnuntollar, magnoliyalar, ulug‘vor evkaliptlar. Unda-chi? Bu yerning tuproqlarida qanaqangi o‘g‘it boyliklari yashirinib yotganini tasavvur ham qilib bo‘lmaydi. Bularga odam qo‘li tegmasin, chunki qadimgi paporotniklar, gullar, butoqlar, daraxtlar suvsizlikdan qurib bitgan.

— Men turishim kerak! — qichqirdi u. — Men Koordinatorni ko‘rishim kerak!

Yarim kun u va Koordinator yashil libosdagi qanday o‘simliklar o‘sishi haqida gaplashishdi.

Bir tekisda ko‘chat ekishni boshlab yuborishdan oldin, yillar bo‘lmasa ham, oylar o‘tar. Ungacha oziq-ovqatni yerdan muzlatilgan holda uchar sumalaklarda yetkazib turishadi; faqat bir necha havaskorlargina gidropon usulida bog‘ barpo etishgan.

— Shunday qilib, hozircha, — dedi Koordinator, — o‘zingiz harakat qiling. Urug‘ni bir amallab toparmiz, asbob-uskunalarni ham, hozir raketada joy oz. Dastlabki ko‘chib keluvchilar kon bilan bog‘liq bo‘lgani uchun sizning yashil boylik o‘tqazish loyihangiz muvaffaqiyat qozonolmaydi, deb qo‘rqaman.

— Ammo siz menga ruxsat berasizmi?

Unga ruxsat berishdi. Mototsikl ajratishdi, u yukxonani urug‘ va ko‘chatlar bilan to‘ldirdi, cho‘l vohaga qarab yo‘l oldi, mashinani qoldirdi-da, ishlagan ko‘yi yayov olg‘a yurib ketdi.

Bu o‘ttiz kun oldin boshlangan edi, o‘sha paytdan buyon biron marta ham orqasiga o‘girilib qaramadi. O’girilib qaradimi, — demakki, hafsalasi pir bo‘libdi: havo haddan tashqari quruq edi.

Loaqal bitta urug‘ning unib chiqishiga-da kishi ko‘zi yetmasdi. Balki, jangda boy bergandirman? To‘rt haftalik mehnat havoga uchib ketdimi? U oldinga, faqat oldinga qarardi. Ikki ko‘zi quyoshli vodiyda, Birinchi Shahardan ham narida edi va yomg‘ir, faqat yomg‘ir yog‘ishini kutar edi.

… U adyolni yelkasiga tortdi; qovjiragan qirlar uzra bulut to‘dalari paydo bo‘ldi. Xuddi vaqt kabi Mars ham beqaror. Oftobda kuygan qirlar tungi qirovlarni tutib qolgan edi, u esa boy qora tuproq haqida — shunday qora va yaltiroqki, hovuchingga olsang, yog‘dek

oqadi, qudratli, bahaybat loviya poyalari unib chiqadigan va yerni titroqqa soluvchi aql bovar qilmas ulkan donalar poyalarni yergacha egadigan tuproq haqida o‘ylardi.

Mudroq gulxan birdan to‘zgandek bo‘ldi. Havo titrab ketdi: uzoqdan arava yelib kelardi.

Momaqaldiroq. Kutilmagan nam hidi. “Bugun tunda, — o‘yladi u va yomg‘ir yog‘ayotganligini tekshirib ko‘rish uchun qo‘lini cho‘zdi. — Bugun tunda”.

Uning qoshiga nimadir tegib o‘tdi va u uyg‘onib ketdi. Burnidan labiga tomchi dumalab tushardi.

Ikkinchi tomchi ko‘ziga kelib tushdi va bir lahza ko‘zini tuman qopladi. Uchinchisi yuziga kelib urildi.

Yomg‘ir.

Muzdek, yoqimli, mayin yomg‘ir baland osmonda shivalab yog‘ardi — muattar jozibalar, yulduzlar, havo bilan to‘liq sehrli suyuqlik; u o‘zi bilan garmdoridek qop-qora changni keltirar, tilda uzoq saqlangan eski sharob ta’mi qoldirar edi.

Yomg‘ir.

U o‘tirdi. Adyol yelkasidan tushib ketdi va moviy ko‘ylagida qop-qora dog‘lar paydo bo‘la boshladi; tomchilar tobora yiriklashib bormoqda edi. Gulxan xuddi ustidan olovni toptab, ko‘rinmas ayvon o‘ynayotganga o‘xshab ko‘rinar edi; nihoyat jahldor tutungina qoldi. Yomg‘ir yog‘a boshladi. Ulkan qora osmon gumbazi to‘satdan olti moviy bo‘lakka bo‘linib ketdi-da, pastga quladi. U o‘n milliardlab yomg‘ir tomchilarini ko‘rdi, tomchilar elektr fotograf chirq etib suratga olgulik vaqt davomida shu tushib kelishida qotib turdilar. So‘ng yana zulmat va suv, suv…

Uning a’zoi badani jiqqa ho‘l bo‘ldi, biroq o‘tirgan ko‘yi yuzini ko‘tarib kular va tomchilar qovoqlariga kelib urilar edi. U chapak chaldi-da, irg‘ib oyoqqa turdi va o‘zining mo‘‘jazgina qarorgohini bir aylanib chiqdi; tungi soat bir edi.

Yomg‘ir to‘xtovsiz ikki soat quydi, so‘ng tindi. Yomg‘irda yuvilgan yulduzlar shunday charaqlab nur socha boshladiki, hali hech qachon bunaqasi bo‘lmagan edi.

Benjamen Driskoll plastik sumkasidan quruq kiyimini oldi-da, kiyimlarini almashtirdi, o‘rniga cho‘zilib mamnun holda tinch uyquga ketdi.

Quyosh qirlar o‘rtasidan asta ko‘tarila boshladi. Uning nurlari devorlar osha yerdan ohista suzib ketdi va Driskollni uyg‘otib yubordi.

U o‘rnidan turishdan oldin xiyol taraddudlandi. Bir oy, uzoq davom etgan jazirama bir oy ishladi, ishladi va kutdi… Ammo bugun o‘rnidan turib, u birinchi marta kelgan tomoniga burilib qaradi.

Tong yam-yashil edi.

Daraxtlar ko‘z ilg‘amas darajada osmonga bo‘y cho‘zib turardi.

Bitta emas, ikkita emas, o‘nta emas, u qancha urug‘ va ko‘chatlar qadalgan bo‘lsa, o‘shancha — minglab daraxtlar qad rostlab turardi.

Buning ustiga, allaqanday butoq-mutoqlar emas, yo‘q, nozik daraxtchalar ham emas, balki baquvvat tanali, balandligi uydek keladigan shovullagan daraxtlar, barglari ko‘m-ko‘k, barchasining ulkan tanalari quyoshning zarrin nurlariga ko‘milib, shamolda qattiq shitirlar, qir yonbag‘irlarida uzun-uzun saflanib ko‘rinar edi, bular limon daraxtlari va lipalar, sakvoya va mimozalar, dublar va qayrag‘ochlar, teraklar, olchalar, klyonlar, olma daraxtlari, po‘rtahol daraxtlari, evkaliptlar — barcha-barchasi chelaklab quygan yomg‘irdan va begona sehrli tuproqdan birdaniga avj olib ketgan edi. Uning ko‘z o‘ngida yangi shoxlar tarvaqaylab o‘sib chiqmoqda, yangi kurtaklar nish urmoqda edi.

— Nahotki! — deb yubordi Benjamen Driskoll.

Ammo voha va tong yam-yashil edi.

Havo-chi!

Hamma tomondan xuddi jonli oqimdek, xuddi tog‘ daryosidek toza havo, kislorod oqib kelmoqda va daraxtlar yashil libosga burkanmoqda edi. Qarab turib uning osmonda billur mavjlar ila quyilib kelayotganidan dod deb yuborging keladi. Kislorod — yap-yangi, top-toza, yam-yashil, muzdek kislorod vohani daryo o‘zaniga aylantirgan edi. Yana bir lahzadan keyin shaharda eshiklar lang ochiladi, odamlar mo‘‘jizani qarshi olgani tashqariga yugurib chiqadilar, uni yuta boshlaydilar, ko‘kraklarini to‘ldirib ichlariga tortadilar, yonoqlari qip-qizil bo‘ladi, burunlari muzlaydi, o‘pkalari yangidan jonlanadi, yuraklari gurs-gurs tepa boshlaydi va charchoq tanalari raqsdan u yoqdan-bu yoqqa borib-kelib parvoz qila boshlaydi.

Benjamen Driskoll nam yashil havoni chuqur-chuqur ichiga tortdi va hushidan ketdi.

U o‘ziga kelguncha qarshisida sariq quyosh nurlari ostida yana besh ming daraxt unib chiqqan edi.

Fevral 2002
MO’R-MALAX

Raketalar quruq o‘tloqzorni kuydirar, toshni olovga, daraxtni ko‘mirga, suvni bug‘ga aylantirardi, qum va kvartsdan yashil shisha quyardi; go‘yo o‘zida raketa hujumini aks ettiruvchi oyna bo‘laklaridek, u hamma joyda yotar edi. Raketalar, raketalar, xuddi tunda chertilgan nog‘oradek.

Raketalar chigirtkadek chirillab, pushti tutun po‘rtanasiga kelib qo‘nar edilar. Raketalardan bolg‘a tutgan odamlar to‘kilib tushar edilar: o‘zga olamni o‘zlari xohlagandek shaklga keltirib, ko‘zlariga g‘alati ko‘ringan hamma narsani yo‘qotardilar, po‘lat tishli yirtqichday og‘izlariga tishlab olgan mixlarni bitta-bitta qo‘llariga olib, uylarning sinchiga qoqar, tom yopar edilar. Nima qilib bo‘lsa ham tezroq begona vahimali yulduzlardan yashirinish kerak-ku; tunda boshpana bo‘lish uchun yashil pardalarni osar edilar. Keyin duradgorlar navbatdagi ishga shoshilardilar va gulli tuvaklar, guldor chit ko‘ylakli, kastryul ko‘targan ayollar paydo bo‘lar edilar va eshiklar ortiga, parda tutilgan derazalar oralig‘iga yashiringan Mars sukunatini buzib, ayollar oshxonani boshlariga ko‘tarar edilar.

Olti oy ichida yaydoq sayyorada minglab chirsillovchi, zing‘illovchi neon naychalari va sariq elektr lampochkalari bo‘lgan o‘nlab shaharchalar qad ko‘targan edi. Marsga to‘qson mingdan ortiqroq odam kelib bo‘lgandi. Yerda esa boshqalar ham jomadonlarini hozirlay boshlashgan edi…

Avgust 2002
TUNGI UCHRASHUV

Moviy tog‘larga jo‘nash oldidan Tomas Gomes yolg‘iz benzokolonka yonida to‘xtadi.

— Yolg‘iz zerikmayapsizmi, dadajon? — so‘radi Tomas.

Chol latta bilan uncha katta bo‘lmagan yuk mashinasining oynasini artdi.

— Unchalik emas.

— Xo‘sh, Mars sizga yoqadimi, boboy?

— Zo‘r. Har doim bir yangi narsa bo‘lib turadi. Bultur bu yerga kelganimda dastavval senga aytgan edim: oldinga qarama, hech narsa talab qilma, hech narsaga hayron bo‘lma. Yerni unutish kerak, bo‘lgan hamma gaplarni unutish kerak. Endi ko‘zga qarab yurmasa, ko‘nikib bormasa va bu yerda hamma narsa unaqa emasligini, hamma narsa boshqacha ekanini tushunib bormasa bo‘lmaydi. Bu yerda ob-havo bir xil — bundan ortiq masxaravozlik bo‘ladimi, bu Mars iqlimi emish. Kunduzi do‘zaxi alim, tunda jahannam. Gullari ham g‘alati, yomg‘iri undan g‘alati — har qadamda ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan narsalar! Men bu yerga orom olgani kelgan edim, hamma narsa boshqacha bo‘lgan joyda qolgan umrimni o‘tkazaman, deb o‘ylagandim. Keksa odamga bu juda ham muhim — muhitni almashtirish. YOshlarga gapirishning hojati yo‘q, boshqa chollarni esa xudo urib qo‘ygan. Bitta men tavakkal qildim. Tomosha qilib to‘ymaydigan, chor atrofda o‘yin-kulgi avj olgan ko‘nglimdagidek shunday bir g‘alati joyni topishga jazm qildim. Mana, mana bu benzokolonkaga kelib joylashib oldim.

Agar g‘ala-g‘ovur jonimga tegsa, shartta qoramni o‘chiraman-da, bironta eski, tinchroq yo‘lga ko‘chib olaman; kundalik rizqimga pul topsam bo‘ldi-da, undan keyin u yerda hamma narsa Marsda nega bunchalik oyog‘i osmondan ekanini tushunib olishimga vaqtim bo‘ladi.

— Chakki o‘ylamagansiz, dadajon, — dedi Tomas; uning qoracha qo‘llari dam olgancha rul chambari ustida yotardi. Uning kayfiyati a’lo edi. Ketma-ket o‘n kun bir yangi qishloqda ishladi, endi ikki kun ta’til olib, bayramga ketmoqchi bo‘lib turibdi.

— Endi boshqa hech narsaga hayratlanmay ham qo‘yganman, — davom etdi chol, — tomosha qilaman, vassalom. Taassurot to‘playapman desam ham bo‘ladi. Agar senga mana shu Mars yoqmayotgan bo‘lsa, yaxshisi, Yerga qaytib keta qol. Bu yerda hammasi oyog‘i osmondan: tuproq, havo, kanallar, tub odamlar, (to‘g‘ri, men hali ulardan bittasini ham ko‘rganim yo‘q, lekin aytishlaricha, ular allaqaerlarda kezib yurar emishlar), soatlar; mening

soatim ham firib bera boshlagan. Bu yerda hatto vaqt ham oyog‘i osmondan. Goho turib-turib bu la’nati sayyorada mendan boshqa bitta ham tirik jon yo‘q, bitta o‘zimman, deb o‘ylab qolaman. Bo‘m-bo‘sh. Gohida esa go‘yo men sakkiz yashar bolakayman. Chillashirman, atrofdagilar esa barchasi otday sog‘lom! Xudo haqqi, bu yer keksa odam uchun bopta joy ekan. Bu yerda mudrash yo‘q ekan, qandaydir baxtli bo‘lib qoldim. Bilasanmi, Mars nima degani? U menga yetmish yil oldin rojdestvoda sovg‘a qilishgan narsani bir chaqaga olmaydi. Bilmadim, bunday narsani sen qo‘lingga olib ko‘rganmikansan: ularning kaleydoskopi emish, ichida billur parchalari, laxtaklar, munchoqlar, har turli mayda-chuyda taqinchoqlar… Ularning orasidan quyoshga qarasang — og‘zing lang ochilib qoladi! Boshdan-oyoq kashta! Ana shunaqa! Mars degani shu bo‘ladi. Agar uni o‘zingdan begona qilishni istamasang, tomosha qilib lazzatlan-u, biron narsa so‘rama. Ey, xudo, bilasanmi, yo‘qmi, mana bu ko‘rib turganing katta yo‘lni marsliklar o‘n olti asr muqaddam yotqizishgan, lekin haligacha shunday turibdi! Bir dollar va ellik tsentni cho‘zib qo‘y-da, oq yo‘l, marhamat, ketaver!

Tomas so‘zsiz jilmaygancha mashinasini eski shossedan uchirib ketdi.

Tog‘lar oralab uzoq yurishdi, qorong‘iliklardan o‘tishdi, u rulni ushlab ketar ekan, ora-sira bir qo‘lini savatga suqib, u yerdan dirildoq olar edi. To‘xtovsiz bir soatdan ko‘proq yelib kelishayotgan bo‘lsa-da, ro‘paradan bitta ham mashina, bitta ham chiroq uchramadi, faqat tasmadek cho‘zilgan yo‘l, motorning tarillashi-yu, g‘uvillashi va atrofni qamrab olgan sokin, unsiz Mars ko‘zga tashlanadi, xolos.

Mars — har doim tinch, bu tun esa har doimgidan ham tinchroq edi. Tomasning ko‘z oldidan cho‘llar, qurib qolgan dengizlar, yulduzlar oralig‘idagi cho‘qqilar lip-lip o‘tar edi.

Bugungi tunda havoda Vaqt hidi anqirdi. Miyasiga kelgan bu fikrdan u xayolan jilmayib qo‘ydi.

Yomon fikr emas. Aslida-chi? Vaqtning hidi qanaqa bo‘ladi? Changmi, soatmi, odammi? Bundoq o‘ylab ko‘rganda bu vaqt degani o‘zi qanaqa bo‘ladi? Eshitsa bo‘ladimi? U bir qarasang zim-ziyo mag‘orada shildirab tushayotgan suv, bir qarasang chorlayotgan tovush, bir qarasang bo‘sh quti qopqog‘iga to‘kilayotgan tuproqning shuvullashi, bir qarasang yomg‘ir. Qani, yuraveraylik-chi, vaqtning qanday ko‘rinishini so‘rab olarmiz. U qop-qorong‘i quduqqa tovushsiz uchib tushayotgan qorning o‘zginasi yoki xuddi pastga, hech narsaning ichiga tushayotgan, yangi yil sharlariga o‘xshagan yuz milliardlab chehralar suvratga olingan qadimiy tovushsiz film. Vaqtning hidi ana shunaqa bo‘ladi va uning ko‘rinishi hamda quloqqa eshitilishi ham xuddi shunaqa bo‘ladi. Bugungi tunda — Tomas bir qo‘lini yon darchadan chiqardi, — bugungi tunda uni hatto qo‘l bilan

paypaslab ko‘rsa ham bo‘ladigandek tuyulayapti.

U mashinani Vaqt tog‘lari ichidan haydab borardi. Nimadir bo‘yniga qadaldi va Tomas diqqat bilan oldinga qaragancha, gavdasini tikladi.

U bir mo‘‘jazgina o‘lik mars shaharchasiga kirib keldi, motorni o‘chirdi va uni qurshab turgan sukunat qo‘yniga ko‘zlarini tikdi. Nafasini ichiga yutgancha u kabina ichidan oy nuriga cho‘milgan, necha asrlarki, hech kim yashamayotgan oppoq binolarga razm soldi. Hashamatli, to‘kis binolar, vayron bo‘lgan esa-da, baribir muhtasham edi.

Motorni o‘t oldirib, Tomas yana bir-ikki mil yurdi, so‘ng yana to‘xtadi, mashinadan chiqdi, qo‘lida korzinkasi bilan chang bosgan shaharga nazar solish mumkin bo‘lgan tepalik ustiga ko‘tarildi.

Termosni ochdi va o‘ziga bir finjon qahva quydi. Shundoq yonginasidan tun qushi uchib o‘tdi. Uning yuragi hayratomuz darajada tinch, xotirjam edi.

Besh daqiqacha o‘tgach, Tomasning qulog‘iga qandaydir tovush chalindi. Qadimgi tosh yo‘l muyulishida ko‘zdan yo‘qolgan huv tepalikda u allaqanday harakatni payqadi, xiragina yog‘du ko‘rindi, so‘ng zaif tarillagan ovoz eshitildi. Tomas finjonni qo‘lida ushlagancha orqasiga o‘girildi. Tog‘dan g‘alati bir narsa tushib kelardi. Bu sarg‘ish-yashil hasharotga, xonqiziga o‘xshagan mashina edi, u sonsiz yashil billurdek jimirlagancha, yoqut ko‘zlarini chaqnatib muzdek havoda ravon yurib kelar edi.

Mashinaning oltita oyog‘i qadimgi tosh yo‘lda shivalayotgan yomg‘irdek mayin aylanardi. Mashina orqasidan esa Tomasga eritilgan oltin tusli ko‘zlari bilan bir marslik qarab turardi.

Tomas qo‘lini ko‘tardi va xayolan: “Salom!” deb qichqirdi, biroq lablari qimirlamadi. Chunki bu marslik edi. Biroq Tomas qirg‘oqlarida notanish odamlar yurgan moviy daryolarda, Yerda suzar, yot uylarda yot odamlar bilan ovqatlanar va har doim uning eng yaxshi ko‘rgan quroli tabassum bo‘lar edi. U yonida to‘pponcha olib yurmasdi. Hozir ham Tomas garchand yuragining bir chetida vahima yashirinib turgan bo‘lsa-da, bunga hojat sezmayotgan edi.

Marslikning ham qo‘lida hech narsa yo‘q edi. Muzdek havo orasidan ular bir-biriga bir soniyacha qarab turishdi.

Birinchi bo‘lib Tomas so‘z qotdi.

— Salom! — dedi u.

— Salom! — dedi marslik o‘zining tilida.

Ular bir-birini tushunishmadi.

— Siz “Salom” dedingizmi? — ikkalasi baravariga so‘radi.

— Nima dedingiz? — davom etishdi ular har qaysi o‘zining tilida.

Ikkalasi ham qovog‘ini uyib oldi.

— Siz kimsiz? — so‘radi Tomas inglizchalab.

— Siz bu yerda nima qilayapsiz? — anovining lablari marslikcha qimirlab dedi.

— Qayoqqa ketayapsiz? — so‘radi har ikkalasi jiddiy tarzda.

— Mening ismim Tomas Gomes.

— Mening ismim Myu Ka.

Ulardan birontasi ham narigisini tushungani yo‘q, biroq har biri barmog‘i bilan o‘zining ko‘ksiga nuqidi va ikkalasining ham gapi bir-biriga tushunarli bo‘ldi.

Birdan marslik kulib yubordi.

— Shoshmang!

Tomas, garchand unga hech kim tegmagan bo‘lsa-da, boshiga nimadir tekkandek bo‘ldi.

— Mana shunaqa! — dedi marslik inglizchalab. — Endi ishlar jo‘nashib ketadi.

— Siz mening tilimni shuncha tez o‘rganib oldingizmi?

— Sizni qarang-u!

Ikkalasi ham nima deyishini bilmay, Tomasning qo‘lidagi qaynoq qahvali finjonga qarashdi.

— Biron yangi gap bormi? — so‘radi marslik unga va finjonga qaragancha, aftidan, u uni ham, buni ham o‘zicha tasavvur qilib.

— Bir finjon qahva ichasizmi? — taklif qildi Tomas.

— Katta rahmat.

Marslik o‘z mashinasidan sirg‘alib chiqdi.

Ikkinchi finjonga to‘ldirib qaynoq qahva quyildi. Tomas uni marslikka uzatdi.

Ularning qo‘llari to‘qnashdi va xuddi tuman orasidan o‘tgandek birining qo‘li ikkinchisining ichiga kirdi.

— Yo Iso Masih! — deb yubordi Tomas va finjon qo‘lidan tushib ketdi.

— Osmon kuchlari! — dedi marslik o‘zining tilida.

— Nimalar bo‘lganini ko‘rgandirsiz? — shivirlab deyishdi ular.

Ikkalasining ham qo‘rquvdan badanidan muzdek ter chiqib ketdi.

Marslik finjonga egildi, biroq uni hech ololmasdi.

— Yo tavba! — oh tortib yubordi Tomas.

— Qani, qani! — marslik finjonni tutish uchun qayta-qayta urindi, biroq hech uddalay olmadi. U qaddini rostladi, birpas o‘ylab turdi, keyin kamaridan pichoqni sug‘urib oldi.

— Hoy! — qichqirdi Tomas.

— Siz tushunmadingiz, ushlab oling! — dedi marslik va pichog‘ini otdi.

Tomas bir-biriga juftlashgan kaftlarini tutib berdi. Pichoq qo‘llarining orasidan yerga tushdi. Tomas uni yerdan olmoqchi bo‘ldi,

biroq uni tuta olmadi va titrab-qaqshagancha orqaga tisarildi.

U gavdasini osmonga tutib turgan marslikka qaradi.

— Yulduzlar! — dedi Tomas.

— Yulduzlar! — takrorladi marslik Tomasga qarab.

Marslikning gavdasi orqasidan yorqin, oppoq yulduzlar charaqlab turardi, uning vujudi bamisoli uchqunlar sachrab turgan qirovli nafis meduza qobig‘idek yulduzlar bilan bezatilgandi. Marslikning ko‘kragi va qorni ustida siyohrang ko‘zlardek yulduzlar jimirlar, bilaklarida javohirot yalt-yalt qilardi.

— Men sizning gavdangizdan naryoqni ko‘rib turibman! — dedi Tomas.

— Men ham sizning gavdangizdan naryoqni ko‘rayapman! — javob berdi marslik bir qadam ortga chekinib.

Tomas o‘zini paypaslab ko‘rdi, o‘z tanasining haqiqiy issiqligini his qildi va ko‘ngli xotirjam bo‘ldi.

“Hammasi joyida, — o‘yladi u, — men yashayapman”.

Marslik qo‘li bilan o‘zining burni, labini turtib ko‘rdi.

— Men ham jismsiz emasman, — past ovozda dedi u. — Jonim bor!

Tomas unga ma’nodor qaradi.

— Ammo agar men yashayotgan bo‘lsam, demak siz — o‘liksiz.

— Yo‘q, siz o‘liksiz!

— Ro‘yo!

— Arvoh!

Ular barmoqlari bilan bir-birlarini ko‘rsatishar va yulduz nuri xuddi xanjar damidek, xuddi muz sumalakdek, xuddi tillaqo‘ng‘izdek ularning qo‘llari uchida chaqnar va to‘kilardi. Ular yana o‘z tuyg‘ularini tekshirib ko‘rishdi va har biri o‘zining to‘rt muchasi soppa-sog‘ligiga va hayajon, jo‘shqinlik, ehtiros, hayrat bilan chulg‘anganiga amin bo‘ldi, har biri narigisini olisdagi olamlar yog‘dusini tutib oluvchi va o‘zidan taratuvchi shaffof prizma, bor bo‘lmagan narsa deb bilar edi…

“Men mastman, — dedi o‘zicha Tomas. — Ertaga men bu haqda hech kimga churq etmayman!”

Ular qadimgi tosh yo‘l ustida turishardi va har ikkalasi ham joyidan jilmasdi.

— Qaerdan kelgansiz? — so‘radi nihoyat marslik.

— Yerdan.

— U nima degani?

— U yoqdan. — Tomas bosh irg‘ab osmonga ishora qildi.

— Qachondan beri?

— Biz bir yil avval uchib kelgan edik, nahotki esingizda bo‘lmasa?

— Yo‘q.

— Sizlar esa bu vaqtga kelib tugab-bitgandingiz. Qariyb bitta qolmay. Sizlardan juda kam qolgan — nahotki shuni ham bilmasangiz?

— Bu to‘g‘ri emas.

— Men sizga aytayapman-ku, tugab-bitgansizlar, deb. Jasadlarni o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim.

Xonalarda, barcha uylarda qoraygan jasadlar yotibdi va hammasi o‘lik. Minglab jasad.

— Nimalar deyapsiz, bizlar tirikmiz!

— Mister, barchangizni yuqumli kasallik qirib yuborgan. Qiziq, nahotki bundan bexabarsiz? Siz bir balo qilib jon saqlab qolgansiz.

— Men jon saqlab qolganim yo‘q, qanday qilib ham jon saqlab qolar edim? Nimalar deyayotganingizni bilasizmi o‘zi? Men Enial tog‘lari yonidagi kanal yoqalab bayramga ketayotgan edim, o‘tgan kungi tunda o‘sha yerda bo‘lgan edim. Siz shaharni ko‘rmayapsizmi? — Marslik qo‘lini cho‘zib ko‘rsatdi.

Tomas o‘sha yoqqa qaradi va xarobalarni ko‘rdi.

— Axir bu shahar ko‘p ming yillardan buyon o‘lik-ku!

Marslik qah-qah urib kulib yubordi.

— O’lik? Men u yerda kecha tunadim-ku!

— Men esa o‘tgan hafta o‘sha yerdan o‘tdim, undan oldingi haftada ham, ko‘rgan narsam esa xarobalardan boshqa narsa emas! Vayron bo‘lgan ustunlarni ko‘rayapsizmi?

— Vayron bo‘lgan? Men ularni oy nurida yaqqol ko‘rib turibman. To‘g‘ri, tippa-tik ustunlar.

— Ko‘chalarda changdan boshqa hech narsa yo‘q, — dedi Tomas.

— Ko‘chalar top-toza!

— Kanallar allaqachon qurib qolgan, ular bo‘m-bo‘sh.

— Musallasga limmo-lim kanallar!

— Shahar o‘lik.

— Shahar tirik! — e’tiroz bildirdi marslik yana ham qattiqroq kulib. — Siz qattiq yanglishayapsiz. U yerda qancha karnaval chiroqlari borligini ko‘rayapsizmi? U yerda ayollardek nafis, chiroyli qayiqchalar, qayiqchalardek chiroyli, nafis ayollar, badani qum rangiga o‘xshagan ayollar, qo‘llarida yal-yal gullar tutgan ayollar bor. Men ularni hov anavi yerda ko‘chalar bo‘ylab, bu yerdan ipdek ingichka bo‘lib ko‘rinuvchi ko‘chalar bo‘ylab chopishayotganini ko‘rib turibman, ha, ko‘rib turibman.

Men xuddi o‘sha yerga borayapman, bayramga, biz tun bo‘yi kanalda suzamiz, qo‘shiq aytamiz, ichamiz, sevishamiz. Nahotki siz hech narsani ko‘rmayapsiz?

— Mister, bu oftobda qoqlangan kaltakesakka o‘xshash o‘lik shahar. Odamlarimizning istagan biridan so‘rab ko‘ring. Menga kelsak, Grin-Sitiga — Illinoys tosh yo‘lidagi manzilgohga ketayapman, biz uni

yaqinginada barpo etdik. Siz nimadadir yanglishayapsiz. Biz bu yerga Origon o‘rmonlaridan eng a’lo sifatli taxtalardan million kvadrat fut, eng yaxshi po‘lat mixlardan bir necha o‘nlab tonna keltirdik va shunday ajoyib manzilgoh barpo etdikki, qarab to‘ymaysan, kishi. Ayni bugun shulardan birini yuvayapmiz. Yerdan xotinlarimiz va qayliqlarimizni olib, ikkita raketa uchib kelayapti. Xalq o‘yinlari o‘ynaladi, viskilar ichiladi…

Marslik hushyor tortdi.

— Anovi tomonda deyapsizmi?

— Ha, raketalar turgan joyda! — Tomas uni tepalik chekkasiga olib keldi-da, pastga ishora qildi; — Ko‘rayapsizmi?

— Yo‘q.

— Hov ana-ku, hov ana, jin ursin! Uzun-uzun, kumush rang narsalar.

— Ko‘rmayapman.

Endi Tomas kulib yubordi.

— Ko‘zingiz qamashayapti!

— Mening ko‘zim zo‘r ko‘radi. Siz ko‘rmayapsiz.

— Bo‘pti, bo‘pti, yangi manzilgohni-chi, ko‘rayapsizmi? Yoki buni ham ko‘rmayapsizmi?

— Okeandan boshqa hech narsani ko‘rmayapman — buni ustiga, hozir ayni suv qaytishi payti.

— Hurmatli janob, bu okean qirq asr muqaddam bug‘lanib ketgan.

— E, juda oshirib yubordingiz.

— Lekin bu haqiqat, xudo haqqi!

Marslikning yuzi juda ham jiddiy tus oldi.

— Shoshmang. Siz rostdan ham shaharni ko‘rmayapsizmi? Men aytgan shaharni-ya? Oppoq ustunlar, silliq qayiqlar, bayram chiroqlari — men ularni aniq ko‘rib turibman-ku! Quloq soling-a! Men hatto u yerda qanaqa qo‘shiqlar aytishayotganini ham eshitayapman. Axir oradagi masofa uzoq emas-ku!

Tomas quloq soldi-da, boshini chayqadi.

— Yo‘q!

— Men esa, — davom etdi marslik, — siz tasvirlayotgan narsani ko‘rmayapman. Nega bundoq ekan-a?..

Ular yana sovqotgandek asta junjikib qo‘yishdi, xuddi ularning badanlariga muzdek ninalar kelib sanchilgandek bo‘ldi.

— Balki?…

— Nima?

— Siz “osmondan” dedingizmi?

— Yerdan.

— Yer — nom, quruq tovush… — dedi marslik. — Ammo… bir

soat burun men dovondan o‘tib kelayotganimda… — U ensasiga qo‘lini tekkazdi. — Bir narsani sezdim.

— Sovuqnimi?

— Ha.

— Hozir hammi?

— Ha, yana sovuq. Chiroqqa, tog‘larga, yo‘lga bir narsa bo‘lgandek edi, qandaydir g‘alati narsa.

Chiroq ham, yo‘l ham go‘yo undek emasdek, shunda vujudimda bir lahza shunday tuyg‘u paydo bo‘ldiki, go‘yo men koinotdagi eng so‘nggi tirik jonman…

— Menda ham shunday bo‘lgan edi! — dedi Tomas hayajon ichida; u go‘yo yuragidagi sirni ishonib, qiyomatlik do‘sti bilan suhbatlashayotgandek edi.

Marslik ko‘zlarini yumdi va yana ochdi.

— Buni faqat bir narsa bilan izohlash mumkin. Hamma gap Vaqtda. Ha, ha. Siz O’tmishning xilqatisiz!

— Yo‘q, siz O’tmishning xilqatisiz, — dedi yerlik biroz o‘ylanib turib.

— Juda dangal gapirasiz-a! Hali kim O’tmishdan-u, kim Kelajakdan ekanligini isbotlab ham berarsiz? Hozir qaysi yil?

— Ikki ming ikkinchi yil!

— Buni qanday tushunsam bo‘ladi? — Tomas o‘ylanib turdi-da, yelka uchirib qo‘ydi.

— Hech qanday.

— Baribir, men sizga aytsam, bizning yilnomamizga ko‘ra hozir 4 462 853 yil. So‘zlar cho‘t emas, cho‘t emasga ham arzimaydigan darajada! Bizlar yulduzlar holatini aniqlaydigan soat qani?

— Xarobalarning o‘zi tayyor isbot-ku! Ular mening Kelajak ekanimni aytib turibdi. Men tirikman. Siz esa o‘liksiz!

— Mening butun borlig‘im bunday imkoniyatni rad etadi. Mening yuragim urib turibdi, oshqozonim ovqat ber deyapti, chanqoqdan tilim qaqrab ketayapti. Yo‘q, bizlardan hech birimiz na o‘likmiz, na tirik. Darvoqe, o‘likdan ko‘ra ko‘proq tirikmiz. Yana ham to‘g‘rirog‘i, biz o‘rtada qolgandekmiz. Mana: tunda yo‘lda bir-biriga duch kelib qolgan ikkita musofir, har biri o‘z yo‘lidan ketayotgan ikki notanish odam. Siz xarobalar dedingizmi?

— Ha. Qo‘rqib ketdingizmi? Mayli.

— Kelajakni kim ko‘rishni istaydi? Uni qachondir, kimdir ko‘radimi? Odam O’tmishni ko‘ra olishi mumkin, biroq agar… Siz ustunlar qulab tushdi dedingizmi? Dengiz qurib qolgan, kanallar bo‘m-bo‘sh, qizlar o‘lgan, gullar so‘lgan dedingizmi? — Marslik jim bo‘lib qoldi, biroq keyin yana shahar tomonga qaradi. — Lekin ana ular! Men ularni ko‘rayapman. Menga shuning o‘zi yetarli. Siz nima desangiz deng-u, ular meni kutishayapti.

Xuddi shundayin uzoqda Tomasni raketalar, manzilgohlar, Yerdan kelgan ayollar — barchalari kutar edilar.

— Biz ikkimizning hech qachon moshimiz ochilmaydi, — dedi u.

— Moshimiz ochilmasligiga kelishdik bo‘lmasa, — taklif qildi marslik. — O’tmish, Kelajak — baribir emasmi, faqat biz yashab qolsak bo‘ldi, bizdan keyin bo‘ladigan narsalar, baribir bo‘ladi. — Ertagami, yoki o‘n ming yil keyinmi. Mana bu ehromlar — yuz asrdan keyingi sizning tamadduningiz qoldiqlari emasligini siz qaerdan bilib o‘tiribsiz? Bilmaymiz. Shuning uchun surishtirmay qo‘ya qoling. Ammo tun qisqa. Ana, osmonda bayram mushaklari porladi, qushlar parvoz qildi.

Tomas qo‘lini cho‘zdi. Marslik ham shunday qildi.

Ularning qo‘llari bir-biriga to‘qnashmadi — qo‘llar bir-biriga singib ketdi.

— Biz hali uchrashamiz-a?

— Kim bilsin! Nasib qilsa uchrashib qolarmiz.

— Siz bilan bayramingizda birga bo‘lgim kelayapti.

— Men esa sizning manzilgohingizga borgim, siz aytgan kemani, odamlarni ko‘rgim, nimalar bo‘lganini bir boshdan eshitgim kelayapti.

— Xayr, — dedi Tomas.

— Xayrli tun.

Marslik o‘zining yashil temir ekipajida tog‘ tomon tovushsiz yelib ketdi, yerlik yuk mashinasini burdi-da, teskari tomonga indamay haydab ketdi.

— E xudo, bu qanaqa tush bo‘ldi, — uh tortdi Tomas qo‘lini rul ustiga qo‘ygancha, raketalar, ayollar, o‘tkir viski, Virjiniya raqslari, oldindagi xursandchilik haqida o‘ylarkan…

Tun zim-ziyo edi. Oylar botdi. Faqat bo‘m-bo‘sh tosh yo‘l uzra yulduzlar miltillar edi. Na tiq etgan tovush, na bir mashina, na bir tirik jon, hech nima yo‘q edi. Muzdek zim-ziyo tun bo‘yi shunday hol hukm surdi.

Oktabr 2002
SOHIL

Mars bamisoli okeanning uzoq qirg‘og‘i edi, odamlar to‘lqinlar kabi uning sathi bo‘ylab har tomonga yoyilib ketdi. Har bir to‘lqin undan oldingisiga o‘xshamas, biri ikkinchisidan kuchliroq edi. Birinchi to‘lqin kengliklarga, sovuqlarga, yolg‘izlikka o‘rgangan odamlarni, qurib qoqshol bo‘lgan chiranchoq cho‘ponlarni keltirdi, yillar va noqulay ob-havolar ularning yuzlarini quritib yuborgan, ko‘zlari xuddi mix qalpoqchasiga o‘xshar, eski qo‘lqopga o‘xshagan qavariqli toshdek qo‘llar to‘g‘ri kelgan narsani changallashga tayyor edi. Ular Marsni nazar-pisand qilmas, ular pasttekisliklarda va xuddi mana shu poyonsiz, Mars dalalaridek oxiri yo‘q dashtu biyobonlarda o‘sgan edilar. Ular kimsasiz joyni obod qilganlar, shu bois boshqalarga ancha oson bo‘lar edi. Ular oynasiz romlarga oyna solar, uylarda o‘tin qalab, o‘t yoqar edilar.

Ular Marsdagi dastlabki erkaklar edilar.

Birinchi ayollar qanaqa bo‘lishini hamma bilardi.

Ikkinchi to‘lqin bilan boshqa mamlakatlardan, o‘zlarining tili, o‘zlarining g‘oyalari bilan odamlarni olib kelish kerak bo‘lardi. Biroq, raketalar Amerikaniki bo‘lib, ularda faqat amerikaliklar uchib kelar edilar. Yevropa va Osiyo, Janubiy Amerika, Avstraliya va Okeaniyalar osmonga otilgan rim shamchalari qanday g‘oyib bo‘lishini tomosha qilar edilar, xolos. Dunyo urush yoki urush haqidagi fikrlar girdobida qolib ketgan edi.

Shunday qilib, ikkinchilari ham amerikaliklar bo‘ldi. Yerosti yo‘lidagi ko‘p qavatli vagonlar olamini tashlab kelib, ular jonu tanlari bilan sukunat qadrini biluvchi cho‘l shtatlardan kelgan to‘pori erkaklar so‘kishlariga to‘lib-toshgan xasislar jamiyatida dam olar edilar: bu sukunat Nyu-York kulbalaridagi, kapalaridagi, tunellaridagi uzoq yillar davom etgan urho-ur, surho-surlardan keyin ruhiy hordiq olishga yordam berar edi.

Ikkinchilar orasida ko‘zlariga qarab aytadigan bo‘lsak, bamisoli arshi a’loga noil bo‘lgan xudo yarlaqagan banda ekanliklari shundoq ko‘rinib turgan odamlar bor edi…

Fevral 2003
INTERMEDIYA

Ular o‘zlari bilan O’ninchi shahar qurilishi uchun o‘n besh ming futlik Oregon qarag‘ayidan va yetmish to‘qqiz ming futlik kaliforniya sakvoyasidan keltirdilar va tosh kanallar yonidan top-tozagina, shinamgina shaharcha barpo etdilar. Yakshanba oqshomlari cherkovning qizg‘ish-yashil-ko‘k-xira oynalari nur berib charaqlar va raqamlangan cherkov oyatlarini kuylayotgan tovushlar eshitilar edi.

“Endi esa 79 ni kuylaymiz. Endi 94 ni kuylaymiz”. Ba’zi uylarda yozuv mashinkalari tinimsiz chiqillaydi — yozuvchilar ish ustida; yoki perolar qitirlaydi — u yerda shoirlar she’r ijod qilmoqdalar; yoki sukunat hukm surardi — u yerda sobiq daydilar yashar edilar. Ular barchasi va yana ko‘plab boshqalari go‘yo kuchli zilzila poydevorini va provintsial amerika shaharchasi tagxonalarini har tomonga qattiq chayqatib yuborgandek, so‘ngra ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan dovul butun shaharni zumda Marsga keltirib tashlagandek, uni shu yerga, hatto biron joyiga shikast yetkazmasdan avaylab qo‘yib ketgandek tuyular edi…

Aprel 2003
MASHSHOQLAR

Bolakaylar Marsning qaysi puchmoqlariga yetib kelishmagan edi, deysiz. Ular uydan o‘zlari bilan xushbo‘y hidli paketchalarni olib olgan edilar va yo‘lda dam-badam unga burunlarini tiqar edilar — cho‘chqa go‘shtining va mayonezli pishiriqlarning yoqimli hididan to‘yib-to‘yib hidlar, iliq shishalardagi po‘rtahol sharbatining yoqimli qulqullashlariga quloq solar edilar. Yam-yashil barra piyozli, xushbo‘y hidli jigar solingan qizil ketchup va oq noni bor sumkalarini har tomonga silkitgancha ular bir-birilarini turtib-surtib, qattiqqo‘l onalarining ta’qibidan uzoqroq qochishga harakat qilar edilar. Ular kimo‘zarga chopib borishar ekan, qichqirishardi:

— Kim birinchi yetib borsa, boshqalarga bir chertkidan chertib chiqadi!

Ular yozda, kuzda, qishda uzoq-uzoq sayllarga chiqishardi. Kuzda — hammadan zo‘ri bo‘lardi: shunday tasavvur qilasanki, go‘yo Yerda to‘kilgan barglar ustidan chopib ketayotgandeksan.

Bolakaylar bir bog‘ quruq qamishdek shovullab marmar qirg‘oqli kanal bo‘yiga yopirilib tushishdi — ularning yuzlari cho‘g‘dek qizargan, ko‘zlari munchoq donalaridek yiltillar va hansiragancha bir-birlariga qichqirar edilar, kirish taqiqlangan o‘lik shahar devorlari yonida endi hech kim: “Oxirgisi qizaloq bo‘ladi!” yoki “Birinchisi mashshoq bo‘ladi!” deb chuvvos solmas edi. Mana u, hayotsiz shahar, ammo barcha eshiklar ochiq… Go‘yo uylarda bamisoli kuzgi yaproqlar kabi nimadir shitirlayotgandek edi. Ular hammalari bir bo‘lib yelkama-elka huv to‘rga yashirinib olishadi, qo‘llarida esa tayoq tutamlab olishgan, miyalarida ota-onalarining qattiq tayinlagan so‘zlari aylangani-aylangan; “U yoqqa izingni bosma! Eski shaharlarga qadam izini qilma! Agar gapga kirmasang, otang shunaqangi adabingni beradiki, umr bo‘yi esingdan chiqmaydi!.. Bizlar botinkalaringdan bilamiz!” Nihoyat ular, bir gala bolakaylar, o‘lik shaharda, yo‘lga olgan oziqlarining yarmini allaqachon tushirib bo‘lishgan va ular bir-birlariga hushtakli shivirlash bilan qutqu soladi:

— Qani, bo‘l!

To‘satdan bittasi joyidan irg‘ib turadi, eng yaqindagi uyga yugurib boradi, oshxona orqali yotoqxonaga uchib kiradi. Orqasiga qaramay, o‘ynab sakraydi va havoga yupqa, nozik, xuddi yarim tungi osmon jismidek tim-qora yaproqlar havoda charx urib ucha boshlaydi. Birinchisidan keyin yana ikkitasi, uchtasi, barcha oltovloni yugurib ketadi. Mashshoq birinchi bo‘ladi, faqat ugina qora mato tortilgan suyak ksilofonini chaladi. Kattakon kalla suyagi yumaloqlangan

qordek otiladi, bolakaylar chuvvos solib qichqirishadi! Qobirg‘alari o‘rgimchak oyog‘idek ingichka arfaning ting‘irlovchi torlari, qora yaproqlari jazavaga tushib charx uradi, bolakaylar esa yangi tomosha boshlaydilar, ular sakrar, bir-birini turtar, mana shu yaproqlar uzra gursillab yiqilar edilar. Yiqilganda hozirgina yutib olgan po‘rtahol sharbati ovoz berib qulqillar edi.

Bu yerdan navbatdagi uyga o‘tishadi va keyin yana o‘n yettita uyga kirib chiqishadi; shoshmasa bo‘lmasdi — zero, shahardan-shaharga barcha dahshatlarni kuydirib kul qilgancha O’t o‘chiruvchilar, belkurak va savat ko‘targan dezinfektorlar keladilar, ular qo‘rqinchli narsani odatdagi narsalardan obdon ajratgancha qattiq daraxt po‘stloqlari va shoxlarini qirib-qirtishlab, yulib-yulqab bir joyga to‘playdilar… O’ynanglar, bolakaylar, parvo qilmanglar, hali zamon O’t o‘chiruvchilar kelib qolishadi!

Mana, nihoyat reza-reza terga botgancha ular so‘nggi buterbrodni og‘izlariga soladilar. So‘ng ketar jafosiga yana bitta tepki, yana bitta shapaloq tortishadi-da, kuz yaproqlari orasiga sho‘ng‘ishadi — ana endi uyga yo‘l olsa ham bo‘laveradi.

Onalar qora dog‘lar bor-yo‘qligini bilish uchun botinkalarini ko‘zdan kechiradilar. Bitta-yarimta dog’ topilsa bormi, undan keyin ko‘ring: otasining kamari ishga tushib, boshidan vannaning qaynoq suvi quyiladi.

Yilning oxiriga kelib, O’t o‘chiruvchilar kuzgi yaproqlarni va oq ksilofonlarni bitta qo‘ymay terib olishadi va shu bilan ermak ham tugaydi.

Iyun 2003
… OSMONI FALAK SARI

Daryo tinchgina qoq tush oftobi ostida oqib borardi.

— Xo‘sh, Sem! — miyig‘ida kuldi Kvortermeyn bobo, — endi qora ishni o‘zing qilishingga to‘g‘ri keladiganga o‘xshaydi.

— Oqi ham o‘zimdan ortmaydi. — Tis bobosiga qaramasdan dedi.

Bobosi o‘girildi-da, jim bo‘ldi.

— Hoy, menga qara, shoshma! — Semyuel Tis ayvondan sakrab tushdi-da, oldinga intilib barvasta negr o‘tirgan otning yuganidan tutdi. — Bo‘ldi, Belter, tush, yetib keldik!

— Yetib keldik, ha, ser, — Belter sirg‘alib yerga tushdi.

Tis uni nigohi bilan kuzatdi.

— Xo‘sh, bu nima deb ataladi?

— Bilasizmi, mister Tis…

— Yo‘lga otlandingmi-a? Haligi qo‘shiq bor-ku… Hozir eslayman… “Osmoni falak sari” — shunaqaroqmidi-ey?

— Ha, ser.

Keyin nima bo‘lishini kutib negr sukut saqladi.

— Mendan ellik dollar qarz ekanliging esingdan chiqmadimi?

— Yo‘q, ser.

— To‘lamay quyonni surib qolmoqchimiding? Yelka-pelkang qichimayaptimi, mabodo?

— Ser, bu yerda shunday to‘s-to‘polonki, miyam ham achib ketdi.

— Miyasi achiganmish… — Tis ayvondagi o‘z tomoshabinlariga g‘azab bilan im qoqib qo‘ydi. — Jin ursin, mister, nima qilishingni o‘zing bilasanmi?

— Yo‘q, ser.

— Sen shu yerda qolasan-da, menga o‘sha elliktalik ko‘kni ishlab berasan, bo‘lmasa Semyuel degan otimni boshqa qo‘yaman.

U orqasiga qayrildi-da, bostirma tagidagi erkaklarga tantanavor jilmayib qo‘ydi.

Belter ko‘chani limmo-lim to‘ldirgan oqimga, do‘konlar oralig‘ida tinimsiz oqayotgan qora oqimga, aravalarda, otlarda, changli boshmoqlarda ketayotgan qora oqimga, uni to‘satdan sug‘urib olgan qora oqimga qarab turardi. U titrab ketdi.

— Meni qo‘yib yuboring, mister Tis. Men u yoqdan pulingizni yuboraman, chin vijdon so‘zim.

— Menga qara, Belter. — Tis negrning shim tasmalaridan ushlab oldi, arfa torlari kabi goh unisini, goh bunisini tortar ekan, osmonga qaradi va ijirg‘anib pishqirdi-da, qoq suyak barmog‘i bilan falakdagi xudoga ishora qildi. — U yoqda seni nima kutayotganini bilasanmi,

Belter?

— Menga nimalar aytishgan bo‘lsa, shuni bilaman.

— Unga aytishganmish! Iso Masih haqida! Yo‘q, eshitdilaringmi, unga aytishganmish! — U xuddi qo‘g‘irchoq o‘ynagandek Belterning shim tasmasidan tutgancha naridan-beri chayqar va barmog‘ini uning yuziga nuqir edi. — Gaplarim esingda bo‘lsin, Belter. To‘rtinchi iyuldagi masxarabozlikka o‘xshab tepaga chiqdilaringmi — tamom! Sizlardan bir hovuch kul qoladi. U ham butun koinotga sochilib ketadi. Bu mahmadona olimlar baloni ham bilishmaydi, ular hammangizni asfalasofilinga jo‘natadi.

— Menga baribir.

— Yana yaxshi! Chunki u yerda, sizning o‘sha Marsingizda, bilasanmi, sizlarni nima kutayapti?

Qonxo‘r darranda, ko‘zlari — mana bunaqa! Kosasidan chiqqan! Bir gal jurnallarda kelajak haqidagi bir suratni ko‘rib qoluvdim, tamaddixonamizda donasini o‘n tsentdan sotishardi, xuddi o‘shanga o‘xshab, shartta sizlarga tashlanadi-da, bor iligingizni so‘rib olishadi!

— Menga baribir, baribir, baribir. — Belter o‘rmalab borayotgan oqimdan ko‘z uzmagan holda dedi.

Qop-qora manglayda ter paydo bo‘ldi. U hozir hushdan ketadigandek ko‘rinardi.

— U yerdagi sovuqni aytmaysanmi? Havo ham yo‘q, gupp etib yiqilasan-da, baliqdek tipirchilaysan.

Og‘zingni kappa-kappa ochasan-da, jon berasan! G’ujanak bo‘lasan, bo‘g‘ilasan va o‘lasan! Qalay, shu senga yoqadimi?

— Menga yoqadimi, yoqmaydimi, baribir… Iltimos, ser, meni qo‘yib yuboring. Kechikayapman.

— Qachon xohlasam shunda qo‘yib yuboraman. To sen shu yerda ekansan, ikkalamiz miriqib gaplashib olamiz, buni o‘zing ham juda yaxshi bilasan. Shunday qilib, safarga ketayapman, de? Xo‘sh, gap bunday; mister “Osmoni falak sari”, uyga qaytgin-da, tinchgina anovi elliktalik ko‘kni to‘lashni o‘yla! Senga muddat — ikki oy.

— Axir, ser, qarz to‘lagani qolsam, raketaga kech qolaman-ku!

— Obbo, baloi azim-ey! — Tis o‘zini bechorahol qilib ko‘rsatishga harakat qildi.

— Mening otimni olaqoling, ser.

— Ot qonuniy to‘lov vositasi deb e’tirof etila olmaydi. Sendan pul undirmagunimcha hech qayoqqa ketmaysan.

Tis xursand edi. Kayfiyati a’lo darajada edi.

Do‘kon oldida bir to‘p qora tanli odamlar to‘planishgandi. Ular nimagadir quloq solib turardilar.

Belter boshini egib turar, butun vujudi dag‘-dag‘ titrardi. Bir vaqt xaloyiq ichidan bir chol chiqib keldi.

— Mister!

Tis unga qaradi.

— Xo‘sh?

— Bu odam sizdan qancha qarzdor?

— Burningni suqma, itvachcha!

Chol Belterga o‘girildi.

— Qancha, o‘g‘lim?

— Ellik dollar.

Chol uni qurshab turgan odamlarga qop-qora qo‘lini cho‘zdi.

— Bizlar 25 nafarmiz. Har birimiz ikki dollardan beraylik, tezroq bo‘linglar, hozir pachakilashib o‘tiradigan vaqt emas.

— Bu tag‘in nimasi? — qichqirdi Tis gavdasini g‘oz tutib. Hammaning qo‘lida pul paydo bo‘ldi. CHol pullarni shlyapasiga to‘pladi-da, uni Belterga topshirdi.

— O’g‘lim, — dedi u, — sen raketaga kechikmaysan.

Belter shlyapaga qaradi-da, jilmaydi.

— Kechikmayman, ser, endi kechikmayman!

Tis o‘kirdi:

— Hoziroq pullarni egalariga qaytar!

Belter tavoze bilan egildi-da, unga pulni uzatdi, biroq Tis pulni olmadi; shunda negr pullarni uning oyog‘i tagiga — qoq yerga qo‘ydi.

— Mana sizning pulingiz, ser, — dedi u, — katta rahmat.

Belter jilmaygancha egarga sakrab o‘tirdi-da, otga qamchi bosdi. U cholga tashakkur bildirdi: ular yonma-yon ketib borar edilar va ko‘p o‘tmay ko‘zdan g‘oyib bo‘lishdi.

— Itdan tarqagan! — dedi ko‘zlarini qisib quyoshga qaragancha shivirlab Tis, — itdan tarqagan…

— Pulni yerdan ol, Semyuel — dedi kimdir ayvondan.

Butun yo‘l bo‘ylab shu narsa sodir bo‘lmoqda edi. Oyoqyalang bolakaylar yugurib kelishardi-da quloqni qomatga keltirib qichqirar edilar:

— Bisotida borlar yo‘qlarga yordam beradilar! Hamma ozod bo‘ladi! Bir boyvachcha qarzidan qutulsin, deb bir kambag‘alga ikki yuztalik “ko‘k”idan berdi! Yana bittasi boshqa kambag‘alga o‘ntalik, beshtalik, o‘n oltitalik “ko‘k”idan berdi — hamma joyda shunday qilishayapti, hamma shunday qilayapti!

Oq tanlilar aftlarini bujmaytirib o‘tirishardi. Ular ko‘zlarini qisib olgan, xuddi o‘tdek kuydiruvchi shamol va chang yuzlariga savalayotgandek aftlarini burishtirib olishgandi.

Semyuel Tis g‘azabdan bo‘g‘ilardi. Ayvonga yugurib chiqdi-da, o‘tib ketayotgan olomonga yeb qo‘ygudek tikildi. U to‘pponchasini havoda o‘ynatardi. Azbaroyi nafratdan o‘zini qo‘ygani joy topolmas edi va hammaga, unga ko‘z tashlagan har bir negrga yuzlangancha ovozining boricha bo‘kira boshladi:

— Gum! Yana raketa uchdi! — Og‘zini to‘ldirib vahima bilan dedi. — Gum! Yopiray!

Qop-qora boshlar oldinga qaragan, hech kim o‘zini eshitayotgandek qilib ko‘rsatmayotgandi, faqat ko‘zlarining oqi birrov ko‘rinardi-da, suzilgancha g‘oyib bo‘lardi.

— Ta-ta-tax! Hamma raketalar tariqday sochilib ketdi! Qichqiriqlar, dahshat, o‘lim! Gumm! Ey xudovandi karim! Menga nima, men shu yerda qolaman, ona-Yerimda! Kampirsho uyaltirib qo‘ymaydi! Ha, ha!

Changni to‘zitgancha tuyoqlar taq-tuq qiladi. Siniq ressorli furgonlar titraydi.

— Gumm! — Tisning ovozi qo‘rquvni chang va charaqlagan osmon sari quvishga harakat qilib, issiq havoda tanho jaranglardi. — Qars! Qorayaloqlarni butun koinot bo‘ylab tirqiratib yuborishdi! Iloyo meteoritlar balosiga uchrab, raketalaring chil-chil bo‘lsin! Koinotda nima ko‘p, meteorit ko‘p! Sizlar bilmas edilaringmi? Shunday! Mo‘r-malaxday bosib yotibdi koinotni, hatto undan ham ko‘p!

Raketalaringiz esa yuzdagi xoldek, sopol naychaday har tomonga sochilib ketadi! Qora treska to‘ldirilgan zang bankadan nima farqi bor! Paqildoqdek paq-paq-paq yoriladi, tamom. O’n mingta nobud bo‘lgan, yana o‘ng mingta. Yer atrofida abadiy aylanib uchib yuraveradi, muzdekkina, qoqsholgina, baland-balandlarda, arshi a’lolarda! Eshitayapsizmi, hoy, odamlar! Eshitayapsizmi?!

Jimlik. Daryo keng o‘zan bilan tinimsiz oqadi. Barcha kulbalarni obdon yalab o‘tadi. Undagi bor bud-shudni yuvib ketadi, u soatlarni, kir yuvish taxtalarini, shoyi qiyqimlarini va parda karnizlarini olib ketadi, allaqaerlardagi uzoq qora dengizga oqizib ketadi.

Kunduz soat ikki. Toshqin sal o‘ziga keladi, oqim sayozlashadi. Keyin daryo butunlay qurib qoladi.

Shaharda sukunat hukmronlik qiladi. Uylarga, o‘tirib olgan erkaklarga, baland, issiqdan mung‘aygan daraxtlarga yengil gilamdek qo‘nadi.

Jimlik.

Ayvondagi erkaklar quloq soladilar.

Hechqisi yo‘q. Shunda ularning tasavvuri, ularning fikrlari oldinga, shahar chekkasidagi o‘tloqzorga uchadi. Kallai sahardan butun atrofni tovushlarning odatdagi uyg‘un sadosi qoplaydi. Joriy qilingan tartibga sodiqlar unda-bunda qo‘shiq xirgoyi qilishadi; butalar tagida oshiq-ma’shuqlar qiqirlashadi; allaqaerda daryoda suvni chapillatib cho‘milayotgan negr bolalarining kulgilari quloqqa chalinadi.

Dalalarda yelka va qo‘llar ko‘zga tashlanadi; ko‘m-ko‘k maysalardan to‘qilgan kulbalar ichidan hazil-mutoyibalar va quvnoq suhbatlar eshitiladi.

Hozir o‘lka uzra go‘yo bo‘ron bo‘lib o‘tgandek va hamma tovushlarni uchirib ketgandek edi, hechqisi yo‘q. Go‘riston sukunati. Charm ilmoqlarda beso‘naqay eshiklar osilib qolgan. Jimjit havoda eski pokrishkalardan qilingan tashlandiq arg‘imchoqlar qotib qolgan. Kirchilarning yaxshi ko‘rgan joyi — sohildagi yassi toshlar huvillab qolgan. Tashlandiq polizlarda yakkam-dukkam tarvuzlar qalin po‘stlog‘i tagida muzdek sharbatni yashirgancha dumalab yotibdi. O’rgimchaklar tashlandiq chaylalarda yangi inlarini to‘qiydilar; ilma-teshik tomdan quyoshning zarrin nurlari o‘rniga chang sizib kiradi. Allaqaerda shoshma-shosharlikda esdan chiqqan gulxan hali ham o‘chib ulgurmagan va birdan avj olgan alanga poxol chaylaning quruq sinchini yamlashga tushadi. Shunda ochofat olovning mamnun gurillashi sukunatni buzadi.

Tosh qotgan erkaklar do‘kon ayvonchasida o‘tirishibdi.

Sira aqlim yetmaydi, kelib-kelib ular to‘satdan nega hozir ketgilari kelib qoldi! Bir qarashda hammasi joyidagidek edi. Kunda-kunda yangi imtiyozlar olishardi. Ularga tag‘in nima kerak ekan-a?!

Saylov solig‘ini bekor qildik, dangasalik bo‘lmasligi uchun qonunlar qabul qilinyapti, qayoqqa qaramang — tenglik! Shuyam kammi ularga? Har qanday oqtanlidan yomon topishmaydi — he yo‘q, be yo‘q koinotga jo‘nab yuborishdi-ya!

Bo‘m-bo‘sh ko‘chaning narigi uchida bir velosipedchi ko‘rindi.

— O’lay agar, Tis, bu kelayotgan sening Silliying bo‘ladi.

Velosiped ayvon yoniga kelib to‘xtadi, unda qizg‘ish tanli 17 yoshlardagi, suyagi buzuqqina bir o‘smir o‘tirardi. Oyoq-qo‘llari uzun-uzun, boshi tarvuzdek yumaloq. U Semyuel Tisga qarab qo‘ydi-da, jilmaydi.

— Ha, vijdoning yo‘l qo‘ymay qaytib kelibsan-da? — dedi Tis.

— Yo‘q, xo‘jayin, velosipedni olib keldim, xolos.

— Nega? Raketaga sig‘madimi?

— Yo‘q, xo‘jayin, gap unda emas.

— Nima gapligini aytmasang ham bo‘laveradi! Tush, mulkimni senga o‘g‘irlatib qo‘ymayman! — U o‘smirni turtib yubordi. Velosiped ag‘darildi. — Bor, do‘konga kirib idishlarni yuv.

— Nima dedingiz, xo‘jayin? — O’smirning ko‘zlari katta-katta ochildi.

— Nima eshitgan bo‘lsang shuni dedim! Miltiqlarni idishdan olish va qutini ochish kerak — Natchezdan mixlar kelgan…

— Mister Tis…

— Do‘konni bolg‘alarga tayyorlab qo‘yish kerak.

— Mister Tis, xo‘jayin!

— Hali ham shu yerdamisan?! — Tisning ko‘zlari shiddatkor chaqnab ketdi.

— Mister Tis, bugun dam olsam bo‘ladimi? — so‘radi o‘smir uzrli

ohangda.

— Ertaga ham, indinga ham, undan keyingi kun hammi? — dedi Tis.

— Shunaqamikan deyman-da, xo‘jayin.

— Sendan qo‘rqish kerak, bu aniq. Beri kel-chi. — U o‘smirni do‘konga yetaklab ketdi va stoldan qog‘oz oldi.

— Mana bu narsani bilasanmi?

— Bu nima, xo‘jayin?

— Sening mehnat shartnomang. Sen unga imzo chekkansan, mana sening yulduzchang, ko‘rdingmi? Javob ber.

— Men imzo chekmaganman, mister Tis. — O’smirning vujudi titrab ketdi. — Yulduzchani har qanday odam ham qo‘yaveradi.

— Menga qara, Silli. Shartnomang: “Men mister Semyuel Tisga 2001 yil 15 iyuldan boshlab ikki yil ishlab berish majburiyatini olaman, bordi-yu, ishdan bo‘shamoqchi bo‘lsam, bu haqda to‘rt hafta oldin ma’lum qilaman va o‘rnimga odam topilmaguncha ishlayveraman”. Mana, — Tis kafti bilan qog‘ozga urib qo‘ydi, uning ko‘zlari chaqnardi. — Tonadigan bo‘lsang, sudga beramiz.

— Ilojim yo‘q! — qichqirdi o‘smir. Uning yuzlaridan yosh donalari dumalay ketdi. — Agar bugun ketmasam, hech qachon ketolmayman.

— Men seni yaxshi tushunaman, ha, ha, senga rahmim keladi. Lekin hechqisi yo‘q, biz senga yaxshi muomala qilamiz, yigitcha, yaxshi ovqatlantiramiz. Endi esa, bor, ishga tush, miyangdagi mana bu bo‘lmag‘ur fikrlarni chiqarib tashla, tushundingmi? Shunaqa, Silli. — Tis g‘amgin jilmaydi va o‘smirning yelkasidan qoqib qo‘ydi.

O’smir ayvonda o‘tirgan chollarga o‘girildi. Uning ko‘zlarida yosh qotib qolgan edi.

— Balki… balki… mana bu jentlmenlardan birontasi…

Bostirma tagidagi issiqdan sillasi qurigan erkaklar boshlarini ko‘tarishdi, Silliga qarashdi, so‘ng Tisga qarashdi.

— Buni qanday tushunish kerak: o‘rningga oq tanlini olib kelishsinmi? — sovuqqina so‘radi Tis.

Kvortermeyn bobo tizzalaridan qizil qo‘llarini ko‘tardi. U uzoqlarga o‘ychan qaragancha dedi:

— Menga qara, Tis. Menga nima bo‘ladi?

— Nima?

— Men Silli bilan birga ishlamoqchiman.

Boshqalar jim bo‘lib qoldi.

Tis oyoq uchida chayqalardi.

— Bobo… — dedi u ogohlantiruvchi ohangda.

— Bolakayni qo‘yib yubor, nimani kerak bo‘lsa o‘zim tozalayman.

— Siz…

— Siz rostdan aytayapsizmi, to‘g‘risimi? — Silli boboning oldiga

yugurib keldi. U ham kular, ham yig‘lar, quloqlariga ishonmasdi.

— Albatta.

— Bobo, — dedi Tis. — O’sha mishiqi burningizni bu ishga suqmang.

— Bolakayni ushlab turma, Tis.

Tis Sillining oldiga keldi-da, uning qo‘lidan tutdi.

— U meniki. Men uni tungacha orqa xonaga qamab qo‘yaman.

— Kerak emas, mister Tis!

O’smir yig‘ladi. Uning yig‘lagan ovozi bostirma ostida jaranglab eshitilardi. Sillining qop-qora qovoqlari shishib ketdi. Yo‘lda uzoqdan eski, shalog‘i chiqqan ford ko‘rindi, u so‘nggi qora tanlilarni olib ketgan edi.

— Bular meniki, mister Tis. O, iltimos, xudo haqqi, sizdan iltimos qilaman!

— Tis, — dedi erkaklardan biri o‘rnidan turarkan, — qo‘ying, ketaversin.

Ikkinchi erkak o‘rnidan turdi.

— Men ham shunday o‘ylayman.

— Men ham, — dedi uchinchi erkak.

— Rost-da, — endi barchalari baravar gapirishdi. — Bas qil, Tis.

— Bolakayni qo‘yib yubor.

Tis cho‘ntagidagi to‘pponchani paypasladi. Uning ko‘zi erkaklarning yuziga tushdi. U qo‘lini cho‘ntagidan oldi-da, dedi:

— Hali shunaqami?

— Ha, shunaqa, — javob berdi kimdir.

Tis bolani qo‘yib yubordi.

— Bo‘pti, bora qol. — U qo‘li bilan do‘kon tomonni ko‘rsatdi. — Sen o‘zingning iflos ashqol-dashqolingni qoldirib ketmassan, harholda?

— Yo‘q, xo‘jayin!

— Tuguningdagi eng so‘nggi lattani ham yig‘ishtirib ol-da, yoqib yubor.

Silli boshini chayqadi.

— O’zim bilib olib olaman.

— Ular sening raketaga allaqanday lash-lushlaringni olaveradi deb o‘ylaysanmi?

— Men o‘zim bilan olib olaman, — muloyim ohangda takrorladi o‘smir.

U do‘kondan uycha tomonga chopib ketdi. Uning supurayotgani va sarishta qilayotgani eshitilib turardi. Hayal o‘tmay Silli yana paydo bo‘ldi. Pirildoqlar, zo‘ldirlar, eski varraklar va bir necha yil davomida to‘planib qolgan turli ashqol-dashqollarni ko‘tarib olgan. Shu zahoti ford yetib keldi. Silli mashinaga o‘tirib eshikni yopdi.

Tis ayvonda zaharxanda jilmaygancha tik turardi.

— Xo‘sh, u yerda nima qilmoqchisan?

— Do‘konimni ochmoqchiman, — javob berdi Silli. — Shunaqa do‘kon qurmoqchiman.

— Obbo muttaham-ey, shuning uchun menga yollangan ekansan-da, ishni o‘rganib olib, keyin bu hunardan foydalanish uchun juftakni rostlab qolmoqchi bo‘lgan ekansan-da!

— Yo‘q, xo‘jayin, men hech ham unday o‘ylaganim yo‘q, bunday bo‘lishini bilganim ham yo‘q, lekin shunday bo‘lib qoldi. Hunar o‘rganib gunoh ish qilibmanmi, mister Tis?

— Hali raketalaringga nom ham qo‘yib olgandirsan?

Qoratanlilar o‘zlarining yagona soatlari — fordning uskunalar taxtasidagi soatiga qarashdi.

— Ha, xo‘jayin?

— Hoynahoy, “Ilya”, “Jang aravasi”, “Katta g‘ildirak” yoki “Kichik g‘ildirak”, “Sadoqat”, “Umid”,

“Muruvvat” bo‘lsa kerakdir?

— Biz kemalarga nomlar o‘ylab topganmiz, mister Tis.

— “Farzand-Xudo” va “Avliyo-arvoh”mi? Ayt-chi, bolakay, bitta raketani Baptistlar cherkovi sharafiga nomlasalaring nima qilibdi?

— Endi boraylik, mister Tis.

Tis qah-qah urib kuldi.

— Nahotki birontasini “Pastroq uch”, yoki “Sharofatli arafa” deb nomlamagansizlar?

Mashina o‘rnidan jildi.

— Xayr, missis Tis.

— Sizlarda “Sochilinglar, mening suyakchalarim” degan raketa bormi?

— Xayr, mister!

— “Iordan orqali” degani-chi? Vah! Bo‘pti, yigitcha, jo‘na, raketangda gumdon bo‘l, parvoz qil, portlasa ham bir tomchi ko‘z yosh to‘kmayman!

Mashina chang buluti ichida yelib ketdi. Silli xiyol o‘rnidan turdi-da, kaftini og‘ziga karnay qilib, so‘nggi bor Tisga qichqirdi:

— Mister Tis, mister Tis, endi tunlari nima ish qilasiz? Tunlari nima ish qilasiz?

Sukunat. Mashina uzoqlarda ko‘zdan g‘oyib bo‘ladi. Yo‘l huvillab qoldi.

— U nima demoqchi bo‘ldi, shaytondan tarqagan? — dedi hayron bo‘lib Tis. — Tunlari nima qilar ekanman?

U changning o‘tirishiga qarab turdi va birdan gap nimadaligini anglab qoldi.

U tunlari uyi yonida avtomashinalar kelib to‘xtaganini, ularda esa qop-qora qiyofalar bo‘lishini, tizzalar osilib turishini, undan

yuqoriroqda miltiq millari koʻrinib turishini goʻyo mudroq daraxtlarning qop-qora shoxlari ostida bir mashina toʻla turnalar turgandek boʻlishini eslab qoldi. Yana dargʻazab koʻzlar… Gudok, yana gudok, miltiqni qoʻlida siqib ushlagan, oʻzicha hiringlab kulgancha eshiklarni qarsillatib yopadi, yuragi boladek oʻynab ketadi. Yoz tuni qoʻynida yoʻldagi ola-tasir poyga boshlanadi, mashina poli ustida yoʻgʻon arqon oʻrami koʻrinadi, yangi patronlar qutichalaridan paltoning choʻntaklari qappayib turadi. Oʻtgan yillar ichida bunday kunlardan nechtasi oʻtgan ekan — qahrli koʻzlar ustiga tushib turgan soch tutamlarini silab oʻynayotgan qarshi shamol, yaxshi, baquvvat, mahkam daraxtni koʻrgandagi tantanavor hayqiriqlar va kulba eshigini chertish!

— Shunga shama qilgan ekan-da, itdan tarqagan! — Tis qorongʻidan yoʻl ustiga sakrab chiqdi. —

Qayt, itvachcha! Tunlari nima qilar ekanman?! Obbo gazanda-ey, pastkash…

Sillining savoli ayni nishonga urgan edi. Tis oʻzini bemor, yuragini boʻm-boʻsh his etdi. “Darvoqe, tunlari biz nima qilamiz-a? — oʻyladi u. — Endi hamma ketib boʻlganda-chi?” Uning yuragi gʻash, miyasi karaxt boʻlib qolgan edi.

U choʻntagidan toʻpponchani oldi-da, patronlarni qayta sanab chiqdi.

— Nima qilmoqchisan, Sem? — soʻradi kimdir.

— Bu padar laʼnatini otaman!

— Sal oʻzingni bossang-chi, — dedi bobo.

Ammo Semyuel Tis doʻkon ortida gʻoyib boʻlgan edi. Bir zumdan soʻng u oʻzining usti ochiq mashinasida paydo boʻldi.

— Kim boradi men bilan?

— Ha, bir aylanib kela qolay, — dedi bobo oʻrnidan turar ekan.

— Yana kim?

Jimlik.

Bobo mashinaga oʻtirdi-da, eshikni yopdi. Changni toʻzitgancha Semyuel Tis mashinani yoʻlga olib chiqdi va ular charaqlagan osmon ostida shamoldek yelib ketishdi. Ikkalasi ham jim edi. Bulutsiz osmon uzra quyosh oʻzining olovini ayamay purkaydi.

Yoʻl ikkiga ayrilgan joy. Ular toʻxtaydilar.

— Ular qaerga ketishdi, boboy?

Kvortermeyn bobo qoshini chimirdi.

— Menimcha, toʻgʻriga qarab ketishgan.

Ular yoʻlda davom etdilar. Daraxtlar ostida yolgʻiz motor ovozi gurillaydi. Yoʻlda zogʻ uchmas edi, biroq toʻsatdan ular gʻalati bir narsani payqab qolishdi. Nihoyat Tis yurishni tezlatdi-da, sariq koʻzlarini gʻazab bilan charaqlatgancha eshikdan gavdasini chiqarib egildi.

— Jin ursin, bobo! Bu itvachchalar nimani o‘ylab topishganini ko‘rdingizmi?

— Nimani? — so‘radi bobo tikilib qaragancha.

Yo‘l yoqalab tartib bilan terilgan eski rolikli konkilar, turli mayda-chuydalarga to‘la tugunchalar, yirtiq boshmoqlar, arava g‘ildiraklari, eski shim va paltolar, ilma-teshik shlyapalar, bir vaqtlar shamolda mayin jiringlagan billur idishchalar, qizil naqshli jez bankalar, mumdan yasalgan mevalar, konfederatsiya zamonidagi pullar solingan qutichalar, tog‘oralar, kir yuvish taxtachalari, kir dorlar, sovun, kimningdir uch oyoqli velosipedi, kimningdir tok qaychilari, qo‘g‘irchoq aravachasi, xunuk qo‘g‘irchoqli quticha, negrlar baptist cherkovining ola-bula oynasi, tormoz prokladkalari to‘plami, avtomobil kameralari, matraslar, kushetkalar, tebranma stullar, kremli bankachalar, ko‘zgular yotar edi. Ammo ular barchasi shoshma-shosharlikda apil-tapil tashlab ketilgan narsalar emas, balki avaylab, hafsala bilan, did bilan, go‘yo bu yerdan butun shahar ahli yurib o‘tgandek, changli yo‘l yoqasi bo‘ylab terib qo‘yilgan edi. To‘satdan ulug‘vor karnay ovozi yangradi, odamlar o‘z qo‘r-qutlarini shundoq tuproq ustiga qo‘ydilar-da, shartta moviy falak sari ko‘tarilib ketishdi.

— Nima bo‘lganda ham “Yoqishni istamaymiz” ekan-da! — Alam bilan qichqirdi Tis. — Men ularga yoqib yuboringlar degan edim, he yo‘q, be yo‘q shuncha masofadan ko‘tarib kelishibdi-da, shu yerga terib qo‘yishibdi — qaqir-ququrlarga oxirgi marta qarab to‘yib olishibdi, mana, mana ular, qarab tomosha qiling! Bu qorayaloqlar, xudo bilsin, o‘zlarini kim deb bilishadi.

U mashinani yeldirib ketdi. G’aramlarni ezib yanchgancha, quticha va oynalarni chil-chil qilgancha, stul-pstullarni majaqlagancha, qog‘ozlarni har tomonga to‘zitgancha kilometrma-kilometr olg‘a ketib borardi.

— Mana senga! Jin ursin… Yana! Mana senga!

Oldingi g‘ildiraklar ayanchli vishilladi, mashina qayrildi-da, yo‘l chetidagi ariqqa tushib ketdi. Tis peshonasini oynaga urib oldi.

— Obbo, itdan tarqaganlar-ey, — Semyuel Tis changlarini qoqa-qoqa g‘azabdan yig‘lab yuborgudek bo‘lib, mashinadan tushdi. U kimsasiz va unsiz yo‘lga qaradi.

— Endi biz ularni hech qachon quvib yetolmaymiz, hech qachon!

Ro‘parada yo‘l chekkasiga terib qo‘yilgan tugunlar va uyumlar qatorining oxiri ko‘rinmasdi, go‘yo, botib borayotgan quyoshning zarrin nurlari ostida, garmselda qolib ketgan qadimiy qadamjolardek.

Bir soatdan so‘ng holdan toygan Tis va bobo do‘konga qaytishdi. Erkaklar osmonga tikilgan va quloq solgancha hamon o‘sha yerda o‘tirishardi. Tis o‘tirib, oyog‘ini qisgan botinkalarini yecha boshlagan edi hamki, kimdir:

— Qaranglar! — deb yubordi.

— Padariga la’nat o‘shani! — bo‘kirdi Tis.

Ammo boshqalar o‘rinlaridan turib, o‘sha yoqqa qarashdi. Ular tubsiz osmon sari ko‘tarilib ketayotgan oltin urchiqlarni ko‘rishdi. Ortidan olov dumlar qoldirgancha urchiqlar ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Paxtazorlarda shamol oppoq chanoqlarini erinib silaydi. Bog‘chalarda oftobda isingancha targ‘il yo‘lbars bolasiga o‘xshagan tarvuzlar dumalab yotadi.

Ayvondagi erkaklar o‘tirishdi. Bir-biriga qarashdi. Tokchalarda tartib bilan terib qo‘yilgan sariq arqonlarga, qutilardagi yaltiroq patron-gilzalariga, kumushrang to‘pponchalarga va shift ostida soyada jimgina osilib turgan cho‘zinchoq miltiqlarga qaradilar. Kimdir og‘ziga maysa tiqdi. Kimdir changda odam suratini chizdi.

Semyuel Tis tantanavor botinkasini aylantirib ichiga qaradi-da, dedi:

— Payqadilaringmi? U oxirgi damgacha meni “xo‘jayin” dedi, xudo haqqi!

2004–2005
YANGI NOMLAR

Ular yetib keldilar-da, hayratomuz moviy yerlarni egalladilar va ularga o‘z nomlarini qo‘ydilar.

Xinkston-Krik daryosi va Lyustig-Korners dalasi, Blek-River daryosi va Driskoll-Forest o‘rmoni, Peregrin-Mauntin tog‘i va Uayldertaun shahri paydo bo‘ldi — hammasi odamlar sharafiga va odamlar sodir etgan voqealar sharafiga qo‘yilgan nomlar edi. Marsliklar dastlabki yerliklarni o‘ldirgan joyda Rettaun shahri paydo bo‘ldi — bu nom qon bilan bog‘liq. Mana bu yerda esa ikkinchi ekspeditsiya halok bo‘lgan — nomi ham shundan kelib chiqqan. Ikkinchi urinish; fazogirlar qo‘nayotganda olovli snaryadlari bilan yerni to‘zitgan hamma joyda bir g‘aram shag‘aldek otlar, nomlar qolgan; o‘z-o‘zidan ma’lumki, Spender-Xill tog‘i va uzun Nataniel-York shahri nomini tashlab o‘tishning iloji bo‘lmagan…

Ko‘hna Mars nomlari suv, havo, tog‘larning nomlari bo‘lgan. Janubda erigan qorlarning nomlari qurigan dengizga borib quyuluvchi kanallarning tosh o‘zanlariga qarab oqqan. Xoki dahmalarda yotgan ko‘zboyloqchilarning nomlari, minora va yodgorliklarning nomlari. Raketalar marmarlarni tariqday tirqiratgan, ko‘hna shaharlar nomlari yozilgan chinni idishlarni chil-chil qilgan ko‘yi xuddi bolg‘alarga o‘xshab mana shu nomlar ustiga yopirilib tushgan va singan buyumlar g‘arami uzra yangi nom ko‘rsatkich taxtachalari qad ko‘tardi: Ayron-Taun, Stiltaun, Alyuminium-Siti, Elektr-Rik-Villedj, Korntaun, Greyn-Villa, Detroyt II — Yerdan kelgan tanish mexanik, ma’dan nomlari.

Shaharlar qad ko‘targanda esa, qabristonlar paydo bo‘ldi. Ularga ham nomlar qo‘yildi: Yashil Burchak, Oq To‘slar, Tinch, Adr, Biroz Dam Ol — dastlabki marhumlar o‘z qabrlariga kelib yotdilar…

Hamma narsa ipga tizilgandek orasta bo‘lgach, hamma narsa risoladagidek o‘z joyiga tushgach, shaharlar mustahkam o‘rnashib oldi va xilvat joyni topishning endi iloji bo‘lmay qoldi — shundagina Yerdan tajribali va bilag‘on odamlar kela boshladilar. Ular mehmonga va ta’tilga kelar edilar, sovg‘alar sotib olgani va rasmga tushgani kelar edilar — “Mars havosidan nafas olgani”, — ular tadqiqot ishlari olib borgani va ijtimoiy qonunlarni hayotga tatbiq etgani kelar edilar; ular o‘zlari bilan yulduzlarini, unvonlarini, qoida va nizomlarini olib kelar edilar, Yerni chirindi axlatdek qoplab olgan to‘rachilik urug‘larini olib kelishni ham unutmagan edilar va ularni Marsda unishi mumkin bo‘lgan har qanday joyga eka boshladilar. Ular turmush va axloq qonunchilari bo‘ldilar; pand-nasihat va o‘gitlardan qulog‘i tinchishi uchun Marsga ko‘chib kelgan odamlarni iymon yo‘liga boshqarishga,

undashga va turtishga tirishdilar. Shunisi qiziqki, bu narsa ushbu odamlardan birontasiga zarracha malol kelmayotgandi.

Aprel 2005
ESHER II

“Bugungi xira, qorong‘i, sas-sadosiz kuz kunida men otda tanho o‘zim g‘alati cho‘l joyda ketar edim, osmonda bulutlar qo‘rg‘oshinday og‘ir osilib turar edi va nihoyat yerga oqshom qorong‘iligi cho‘kib kela boshlaganda Esherning mungli qo‘rg‘oni oldida paydo bo‘ldim…”

Mister Uilyam Stendal kitob o‘qishdan to‘xtadi, ana uning qarshisida, uncha baland bo‘lmagan qora qir ustida — Qo‘rg‘on va uchli toshga 2005 yil deb o‘yib yozilgan.

Me’mor mister Bigelou dedi:

— Uy tayyor. Kalitni qabul qiling, mister Stendal.

Jim-jit kuzgi quyosh ostida yonma-yon turgancha ular sukut saqlar edilar.

Qarg‘a qanotidek qop-qora maysa uzra ularning oyoqlari ostida chizmalar shitirlar edi.

— Esherlar uyi, — mamnun holda dedi mister Stendal. — Loyihalashtirilgan, qurilgan, sotib olingan, puli to‘langan. Menimcha, mister Po rosa quvongan bo‘lar edi.

Mister Bigelou qoshini chimirdi.

— Hamma narsa ko‘nglingizdagidekmi, ser?

— Ha!

— Naqshi o‘zidagidekmi? Ko‘rinishi zerikarli va dahshatlimi?

— Haddan tashqari dahshatli, haddan tashqari zerikarli!

— Devorlari tundmi?

— Ajoyib!

— Hovuz yetarli darajada “Qora va ma’yus”mi?

— Aql bovar qilmas darajada qora va ma’yus.

— Terak-chi? U o‘zingiz bilgandek, qurib-qaqshagan va barglari to‘kilgan qilib bo‘yalganmi?

— Nafrat qilar darajada!

Mister Bigelou me’moriy loyiha bilan solishtirib ko‘rdi. U navbatdagi topshiriqni birma-bir aytib chiqdi:

— Butun ansambl “yurakning muzlatuvchi, lo‘qillatuvchi, simillatuvchi og‘rig‘ini, fikrlardagi noxush bo‘shliqni” bera oladimi? Uy, hovuz, qo‘rg‘on?..

— Mehnatingizga gap yo‘q, mister Bigelou, qasam ichamanki, qoyil qilgansiz.

— Minnatdorman. Mendan nima talab etilishini mutlaqo bilmas edim. Xudoga shukurki, sizning o‘z raketalaringiz bor, aks holda zarur jihozlarni bu yerga eltib kelishga hech qachon yo‘l qo‘ymas edilar.

E’tibor qiling-a, bu yerda har doim nimqorong‘ulik, bu

puchmoqda har doim oktyabr, qachon qaramang dashtu biyobon, hayotdan nom-nishon yo‘q, o‘lik. Bu bizdan ozmuncha mehnat talab qilmadi. DDT dan o‘n ming tonna ketdi. Biz hamma narsani o‘ldirdik, na bir ilon, na bir baqa, na bir Mars pashshasi qoldi! Abadiy nimqorong‘ulik, mister Stendal, bu mening g‘ururimdir. Pinhoniy mashinalar quyosh nurini yutadi. Bu yerda har doim “noxushlik”.

Stendal ana shunday san’at bilan yaratilgan noxushlik, qo‘rg‘oshin og‘irligi, nafas bo‘g‘uvchi bug‘lanishlar, butun “muhit”dan bahra ola boshladi. Uyning o‘zini aytmaysizmi? Sharti ketib, parti qolgan maskan, dahshatli hovuz, mog‘or, qiyomat-qoyim alomatlari! Sintetik ashyolarmi, yoki shunga o‘xshagan yana allambalolarmi-ey. Bu yog‘ini o‘zingiz topib olaverasiz.

U kuz osmoniga qarab qo‘ydi. Allaqaerda baland-balandlarda, olis-olislarda quyosh turibdi.

Allaqaerda sayyorada Mars apreli, oltin aprel hukmron, ko‘m-ko‘k osmon. Allaqaerda yuksakliklarda hayotsiz ajoyib sayyoraga tamaddun keltirishi kerak bo‘lgan raketalar o‘zlariga yo‘l ochadilar. Ularning shiddatli parvozlaridan paydo bo‘lgan chiyillash va gurillash bu tussiz ovoz o‘tmas olamda, mudroq kuz olamida quloqni teshib yuborgudek edi.

— Endi, topshiriq bajarilgach, — iymanibgina gap qotdi mister Bigelou, — sizdan bir narsani so‘ramoqchiman, bularning hammasini siz nima qilmoqchisiz?

— Esher qo‘rg‘oninimi? Bilmadingizmi?

— Yo‘q.

— “Esher” nomidan hech narsani anglamadingizmi?

— Anglaganim yo‘q.

— Mana bu ism: Edgar Allan Podan-chi?

Mister Bigelou yo‘q degandek boshini chayqadi.

— Darvoqe, — Stendal xafa va nafratini ifoda qilgancha bosiqlik bilan “hm” deb qo‘ydi. — Mister Poning muborak xotirasini siz qayoqdan ham bilardingiz? U ancha ilgari, Linkolndan ham oldin o‘lib ketgan. Uning barcha kitoblari Buyuk Gulxanda yoqib yuborilgan edi. O’ttiz yil muqaddam, 1975 yilda.

— E-e, — bir narsani tushungandek bosh irg‘adi. — Shulardan biri deng!

— Xuddi shunday, Bigelou shulardan bittasi. Uning va Lau Kraftning, Xotorn va Ambroz Birskning kitoblarini yoqishdi, hammasi dahshat va qo‘rquvlar haqidagi qissalar edi. Barcha fantaziyalarni, xullas, kelajak haqidagi barcha qissalarni yoqib yuborishdi. Ayovsiz yoqishdi, qonun chiqarishdi.

Hammasi arzimagan narsadan, zarradagi narsadan, elliginchi va oltmishinchi yillardan boshlandi.

Avvaliga karikaturali kitobchalar chiqarishni cheklab qo‘yishdi,

so‘ng detektiv romanlar, filmlarni ham taqiqlashdi. Goh u tomonga, goh bu tomonga irg‘itishdi, turli guruhlar, turli laqablar, siyosiy e’tiqodlar, diniy xurofotlar avj olgandan-olib ketdi. Har doim ozchilik tomon qo‘rqib qolaverdi va ko‘pchilik tomon tushunib bo‘lmaydigan narsadan, kelajakdan, o‘tmishdan, hozirdan qo‘rqar edi, o‘zidan va o‘z soyasidan qo‘rqar edi.

— Tushunarli.

— “Siyosat” so‘zidan (oxir-oqibatda eng teskarichi doiralarda “kommunizm” so‘zining sinonimi bo‘lib qolgan, ha, ha, bu so‘zni tilga olishingiz bilanoq, kallangiz ketishi hech gap emas edi!) siyosat so‘zidan qo‘rqadigan, har tomondan turtki yeydigan — bir joyda gaykani burasalar, yana bir joyda boltni aylantiradilar, bir yoqdan tiqadilar, ikkinchi yoqdan sug‘urib oladilar, — san’at va adabiyot ko‘p o‘tmay shunday bir ulkan tortmachoqqa aylandiki, sho‘rlikni buradilar, chaqdilar, chaynadilar, tugun qilib tugdilar, to o‘zining qiyishqoqligi va har qanday ta’mini yo‘qotmaguncha u yoqdan-bu yoqqa koptokdek irg‘itaverdilar. So‘ng esa kinokameralar tinib qoldi, teatr zulmatiga g‘arq bo‘ldi va bosma nashrlarning qudratli Niagarasi “Sof” maqolasining zaif bir jilg‘achasiga aylanib qoldi. Ishoning menga, “voqelikdan uzoqlashish” tushunchasi ham shubhali so‘zlar sirasiga kirib qoldi!

— Nahotki?

— Ha, ha! Har bir odam, der edi ular, haqqoniylikning yuziga tik qarashi shart. Faqat hozirnigina ko‘rib turishlari kerak. Bu toifaga kirmagan hamma narsa — bir pul. Ajoyib adabiy to‘qimalar, xayolot osmonida parvoz qilishlar — gullab-yashnayversin. Bir kuni yakshanba tongida, o‘ttiz yil muqaddam, 1975 yilda ularni kutubxona devoriga tikka qilishdi: Santa Klaus va Boshsiz chavandoz, Qorqiz va uy Devi, Onag‘oz — barchalari ho‘ngrab yig‘lar edilar! — va ularni otib tashlashdi, so‘ng qog‘oz qal’a va malika qurbaqalarni, keksa qirollar va “o‘sha zamondan buyon baxtli yashab kelayotgan” hammani yoqib yuborishdi (aslida u o‘sha zamondan buyon baxtli yashayapti, deb kim haqida aytish mumkin edi!). Bir vaqtlar Hech qachonga aylandi-qo‘ydi! Ular O’z mamlakati bosh suyaklari bilan birgalikda Sehrlangan Riksh xokini shamolda sovurdilar, Glinda mehribon va O’zmani chopib tashladilar, To‘pgulni spektroskopda bitta-bitta yulib yoyishdi, Jek Qovoqboshni esa Biologlar Ziyofatida dasturxonga tortib yuborishdi! No‘xot qobiqchasi to‘rachilik chakalakzorida qurib-qovjirab bo‘ldi!

Uyqudagi Go‘zal ilmiy xodim bo‘sasidan uyg‘onib ketgan va u o‘zining tibbiy ninasini suqqanda joni hiq etib chiqib ketgan edi. Alisani ular shishadan shunday bir narsani ichishga majbur qilishdiki, natijada qizgina ortiq: “Oldinga borgan sari yana ham qiziqroq bo‘laveradi!” — deb qichqira olmaydigan darajada mitti bo‘lib qoldi.

Sehrli koʻzguni ular bolgʻa bilan bir urib, chil-chil qilishdi va barcha Qizil Qirollar va Ustritsalar gumdon boʻldi!

U mushtumini qisdi. Ey xudo, hammasi xuddi hozir sodir boʻlgandek yaqin tuyuladi-ya! Uning yuzi qizarib boʻgʻildi. Azbaroyi qattiq junbushga kelganidan mister Bigelou hang-mang boʻlib qoldi. U bir-ikki kiprik qoqdi-da, oxiri uyga kirib dedi:

— Kechirasiz. Nima deyayotganingizni tushunolmayapman. Bu ismlardan hech nima anglayolmadim. Siz aytgan gaplarga qaraganda Gulxan faqat foyda bergan.

— Yoʻqoling koʻzimdan! — qichqirib yubordi Stendal. — Ishingiz tugadi, endi qorangizni oʻchiring, toʻnka!

Mister Bigelou duradgorlarni chaqirdi-da, ketdi.

Mister Stendal Uy oldida bitta oʻzi qoldi.

— Quloq solinglar, hoy! — Murojaat qildi u koʻzga koʻrinmas raketalarga. — Sizlardan jon saqlayman deb,Sof Jonlar Marsga borib qolgan edi, sizlar boʻlsangiz xudoning bermish kuni bu yerda koʻpaygandan-koʻpayib ketayapsiz, xuddi axlatga intilgan pashshalardek uchib kelganingiz-uchib kelgan. Men sizlarga hozir bir narsa koʻrsataman. Yerda mister Poga qilgan qiliqlaringiz uchun ta’ziringizni beraman. Shu ondan ehtiyot boʻling! Esherning uyi oʻz ishini boshlaydi.

U osmonga qarab mushtumini doʻlaytirib qoʻydi.

Raketa qoʻndi. Undan devday bir odam chiqib keldi. U uyga qaradi va uning kulrang koʻzlarida norozilik va hayrat ifodasi koʻrindi. Narigi tomonda uni ozgʻingina bir odam kutib turgan xandaqdan sakrab oʻtdi.

— Ismi sharifingiz Stendalmi?

— Ha.

— Garret, Axloq Iqlimi boshqarmasi inspektori.

— E-ha, baribir Marsgacha yetib kelibsiz-da, Axloq Iqlimining nozirlari? Men boʻlsam sizlarni qachon kelar ekan, deb oʻzimcha tusmollab turgan edim…

— Biz oʻtgan haftada kelgan edik. Tezda bu yerda xuddi yerdagidek tartib oʻrnatiladi. — U asabiy ravishda guvohnomasini Uy tomonga siltab qoʻydi. — Qani, ayting-chi menga, mana bu nima, Stendal?

— Bu arvohli qal’a, xoʻp desangiz.

— Xoʻp demayman, Stendal, hech ham xoʻp demayman. “Arvohli” — yaramaydi.

— Juda joʻn. Bu yil, 2005 yilda Haq taolomizga men bir mexanik ziyoratgoh qurdim. Unda mis koʻrshapalaklar elektron nurlar boʻylab uchadilar, quyma kalamushlar plastmassa tagxonalarda izgʻiydilar, avtomat skeletlar raqs tushadilar, bu yerda avtomat qonsoʻrarlar, hazilkashlar, boʻrilar va oq arvohlar istiqomat qiladilar, kimyo va

kashfiyotchilik barq uradi.

— Men xuddi shu narsadan qo‘rqqan edim, — dedi Garret jilmayib. — Sizning uyingizni surib yuborishga to‘g‘ri kelmasa deb qo‘rqaman.

— Kelishingiz bilanoq yo‘qlashingizni bilardim.

— Men ilgariroq uchib kelgan bo‘lardim, lekin biz aralashishimizdan oldin sizning niyatlaringizni bilib olmoqchi edik. Buzuvchilar va o‘t ochuvchilar komandasi oqshomga yaqin yetib kelishlari mumkin.

Yarim tunga borib, hamma narsa tag-tugi bilan vayron qilinadi, mister Stendal. Mening aqli noqisimcha, ser, siz, aytishim mumkinki, aynib qolibsiz. Qattiq mehnat bilan ishlab topilgan pullarni shamolga sovurish, axir sizda naqd uch million bo‘lgan edi-ya…

— To‘rt million! Ammo shuni hisobga olingki, mister Garret, meros olganimda men yoshgina yigitcha edim — yigirma besh million. Istagancha shamolga sovurishim mumkin. Umuman olganda bu yaxshi ish emas: u yoqdan qurilish tugadi-yu, bu yoqdan siz o‘z Buzuvchilaringiz bilan yetib kelibsiz.

Balki, O’yinchog‘im bilan jinday ko‘ngil ochishimga izn berarsiz, aytaylik loaqal yigirma to‘rt soatga?!

— Siz qonunni bilasiz. Unda aytilgan: hech qanaqangi kitoblar, hech qanaqangi uylar, arvohlar bilan bog‘liq bo‘lgan hech qanaqangi qonso‘rarlar, farishtalar yoki xayolotning boshqa kashfiyotlari ketmaydi.

— Siz yaqinda mister Bebbitlarni yoqa boshlaysiz!

— Siz bizga ancha-muncha tashvish keltirdingiz, mister Stendal. Protokollar saqlanib qolgan. 20 yil avvalgi. Yerda. Siz va sizning kutubxonangiz.

— E-ha, men va mening kutubxonam. Menga o‘xshagan yana bir qanchalari. Albatta, Po o‘shanda allaqachon unutilib ketgandi. O’z va boshqa xilqatlar ham unut bo‘lib ketgandi, lekin men bir kichikkina yashirin joy qurib olgandim. O’zimizning kutubxonamiz bo‘lardi — menda va yana bir qancha xususiy shaxslarda, — siz mash’al va axlatyoqarlaringizni hali yubormagan paytingizda.

Mening 50 000 dona kitobimni parcha-burish qilib, yoqib yuborgandingiz. Siz barcha mo‘‘jizakorlarning ham onasini uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatgan edingiz; siz yana kinoprodyuserlaringizga, agar biron nima qilmoqchi bo‘lsangiz, Ernest Xemingueyni qayta-qayta suratga oling, deb buyruq bergan edingiz. Yo parvardigor, axir men “Qo‘ng‘iroq kimni chaqiradi” filmini necha marta ko‘rmadim!

30 ta turli sahna asari. Hammasi bor voqelik. Oh, realizm! Oh, bu realizm! Ey, o‘shani!..

— Tilingizga erk berishdan tiyilsangiz yaxshi bo‘larmidi!

— Mister Garret, axir siz to‘la hisobot berishga majbur edingiz-ku?

— Ha.

— Unday holda qiziq uchun ham bir kirib ko‘rsangiz, kirib u yoq-bu yoqqa qarasangiz yaxshi bo‘lardi. Bor-yo‘g‘i bir daqiqaga.

— Yaxshi. Ko‘rsating. Hech qanday nayrang bo‘lmasin. Menda to‘pponcha bor.

Esherlar Uyining eshigi g‘iyillab ochildi. Rutubat hidi dimoqqa urdi. Xuddi tashlandiq mag‘oralarda ko‘zga ko‘rinmas jonivorlar nafas olayotgandek guvillagan oh-vohlar quloqqa chalindi. Tosh yerdan kalamush yugurib o‘tdi. Garret “heh” dedi-da, oyog‘i bilan tepib yubordi. Kalamush o‘mbaloq oshib tushdi va uning neylon terisi ichidan son-sanoqsiz temir burgalar to‘kildi.

— Qoyil! — Garret yaxshiroq ko‘rish uchun egildi.

Qizg‘ish-moviy xarita uzra mum qo‘llarini silkitgancha tokchada qari jodugar o‘tirardi. U boshini silkitdi-da, tishsiz og‘zi bilan Garretga vishillab qo‘ydi va moy yuqi xaritaga barmoqlari bilan chertdi.

— O’lim! — qichqirdi kampir.

— Men xuddi mana shunday narsalarni o‘ylagan edim… — dedi Garret. — Xuddi o‘ylaganimdek bo‘lib chiqdi-ya!

— Men shaxsan sizning yoqib yuborishingizga ruxsat beraman.

— Rostdanmi? — Garretning yuzi yorishdi. Biroq shu zahoti yana lunjini osiltirdi. — Siz buni juda oson aytdingiz-qo‘ydingiz.

— Men mana shularni yuzaga keltirsam bo‘lgani. Maqsadimga erishdim, deb ayta olsam, bas.

Hozirgi shubhalar olamida o‘rta asr muhitini qayta yaratdim.

— Mening o‘zim ham, ser, aytish mumkinki, sizning dahoingizdan beixtiyor hayratga tushdim.

Garret qarab turardi — uning yonidan havoda shitirlagan va shivirlagancha go‘zal shaffof ayol qiyofasiga kirgan yengil bulut parchasi suzib o‘ta boshladi. Rutubatli yo‘lakning narigi uchida qandaydir mashina guvillardi. Xuddi tsentrifugadan chiqqan paxtaqandga o‘xshab u yerdan jim-jit zal bo‘ylab bosiriqli zulmat o‘rmalab va yoyilib kelar edi.

Allaqayoqdan maymun paydo bo‘lib qoldi.

— Pisht! — qichqirdi Garret.

— Qo‘rqmang. — Stendal jonivorning qornini silab qo‘ydi. — Bu robot. Xuddi jodugar singari bu ham boshdan-oyoq misdan yasalgan. Mana!

U maymunning yungini hurpaytirgan edi, tagidan temir yaraqlab ketdi.

— Ko‘rayapman. — Garret jur’atsizgina qo‘lini uzatdi, robotni silab qo‘ydi. — Ammo bu nimaga kerak, mister Stendal, bunda qanday ma’no bor?! Sizni nima majbur qildi?..

— To‘rachilik, mister Garret. Lekin mening tushuntirishga sira vaqtim yo‘q. Hukumat odamlari esa busiz ham tezda hamma narsani bilib olishadi. — U maymunga bosh irg‘ab qo‘ydi. — Bo‘ldi, qani.

— Maymun mister Garretni o‘ldirdi.

— Tayyordir, Payks?

Payks nigohini stoldan oldi.

— Ha, ser.

— A’lo ish.

— Tekin nonni yemaymiz, mister Stendal, — past ovozda javob berdi Payks; robotning qayishqoq qovog‘ini ko‘tardi-da, unga shisha ko‘z olmasini solib qo‘ydi va unga kauchuk mushaklarini chaqqonlik bilan yopishtirdi. — Shunday…

— Quyma, mister Garret.

— Qiziq, siz uni nima qilasiz, ser? — Payks boshini irg‘ab chinakam o‘lik Garret yotgan tosh plita tomonni ko‘rsatdi.

— Yaxshisi kuydirish-da, Payks. Bizga ikkita mister Garretning nima keragi bor.

Payks Garretni g‘ishtin axlat kuydirgich oldiga sudrab bordi.

— Yaxshi qoling.

U mister Garretni ichkariga itarib yubordi-da, eshikni yopdi.

Stendal robot Garretga yuzlandi.

— Vazifangiz sizga aniqmi, Garret?

— Ha, ser. — Robot gavdasini ko‘tarib o‘tirib qoldi, — men Axloq Iqlimi Boshqarmasiga qaytib borishim kerak. Qo‘shimcha ma’ruzani taqdim etishim kerak. Operatsiyani kam deganda 48 soatga cho‘zishim kerak. Men yanada batafsilroq tadqiq o‘tkazishim kerakligini aytishim kerak.

— To‘g‘ri, Garret. Muvaffaqiyat tilayman.

Robot shoshilib Garretning raketasi oldiga o‘tdi, unga chiqda-da, parvoz qilib ketdi.

Stendal burilib qaradi.

— Xo‘sh, Payks endi bugungi oqshomga qolgan taklifnomalarni tarqatamiz. O’ylaymanki, yaxshi bo‘ladi. Siz nima deysiz?

— Agar 20 yil kutganimizni hisobga olsak, hattoki juda yaxshi bo‘ladi.

Ular bir-biriga ko‘z qisib qo‘ydi.

Soat rosa 7. Stendal soatiga qaradi. Endi ko‘p qolgani yo‘q. U o‘rindiqda o‘tirgancha qo‘lidagi xeresli qadahni aylantirar edi. Ularning ustida, dub to‘sinlar oralig‘ida ko‘zlarini yiltillatib nozikkina mis suyakli rezina terili ko‘rshapalaklar chiyillardi. U ko‘rshapalaklarni olqishlagancha qadahni ko‘tardi.

— Muvaffaqiyatimiz uchun!

U o‘zini orqaga tashladi, ko‘zlarini yumdi va hammasini xayolan

bir boshdan tekshirib chiqdi.

Qariganida bir ko‘nglini bo‘shatib oladi… Adabiyotni qatag‘on qilgani uchun, gulxan uchun bu antiseptik hukumatdan qasos oladi. Yillar g‘azab to‘planib keldi, nafrat to‘planib keldi… va karaxt bo‘lgan qalbi tubida zimdan, asta-sekin fikr pishib yetila boshladi. U Payksni uchratgan o‘sha uch yil oldingi vaqtgacha shunday bo‘lgan edi.

Ha, aynan Payksni. Shafqatsiz yuragi achchiq ishqorga to‘ldirilgan qing‘ir qora quduqdek bo‘lib qolgan Payksni. Payks kim o‘zi? Ularning ichidan eng ulug‘i, tamom-vassalom! Payks — minglab murtaklar, tutun, moviy tuman, oq yomg‘ir, ko‘rshapalak, darrandani o‘zida mujassam qilgan odam, mana Payks kim! “Lon Chenidan yaxshiroq patriarxmi?” — o‘zidan so‘radi Stendal. Qadimgi filmlarda ko‘rgan Cheni, qatorasiga bir necha oqshom tomosha qilgan edi… Ha, Chenidan yaxshiroq. Boshqa keksa aktyordan ko‘ra yaxshiroq — anovi Karloff degani bor-u, o‘shandan ancha-muncha yaxshi!

Lyugosi-chi? Unga qiyoslab bo‘lmaydi! Payks — yagona, qiyosi yo‘q. Nima bo‘pti: uni talon-toroj qilishdi, to‘qimalar huquqini olib qo‘yishdi, hech yoqqa borolmaydi, birovga dardini aytib sololmaydi.

Hatto o‘zi uchun ko‘zgu oldida o‘ynashni ham taqiqlab qo‘yishdi!

Sho‘rlik Payks — aql bovar qilmas, qurolsizlantirilgan Payks! Sening filmlaringni musodara qilgan, xuddi kinokameradan tasma halqasini sug‘urgandek qorningdan ichak-chavoqlaringni sug‘urib olgan, g‘ijimlagan, pechkaga tashlagan, yoqib yuborgan o‘sha oqshomda sen nimalarni his qilgan eding! Ellik ming kitobni boy berib, evaziga hech narsa olmaganing senga og‘ir botgan edimi? Ha, ha. Stendal azbaroyi g‘azabdan qo‘llari muzlab ketayotganini his qildi. Bir kuni — bundan ham tabiiyroq bo‘lishi mumkinmi — ular to‘qnash kelib qolishdi va suhbatga berilib ketishdi. Ularning suhbati xuddi ichgan qahvalari kabi hisobsiz tunlarga cho‘zilib ketdi va so‘zlarning oqimi, achchiq ichimlik asnosida Esher Uyi dunyoga keldi.

Cherkov qo‘ng‘irog‘ining bo‘g‘iq sadosi eshitildi. Mehmonlar tashrif buyurmoqda edilar.

Jilmaygancha u mehmonlarni qarshi olgani tashqariga yo‘naldi.

Robotlar kutar edilar — bolalik xotiralarisiz katta yoshdagi odamlar. O’rmon ko‘llari rangidagi yashil shoyi libosdagi, baqa va paporotnik tusli shoyi libosdagi robotlar kutar edilar. Qum va quyosh rangli, sariq sochli robotlar kutar edilar. Ustidan jelatin quyilgan naychasimon bronza suyakli robotlar yotar edilar. Tirik bo‘lmagan va o‘lik bo‘lmaganlar tobutlarida, taxta qutilarda turtib yuborishlarini kutib mayatniklar yotar edilar. Surtma va quyma ma’dan hidi anqir edi. Go‘riston jimligi hukm surardi. Har ikki jinsdagi, ammo jinssiz robotlar. Yuzlari bor-u, ammo yuzsiz, odamzotdan odamlikdan boshqa hamma narsani yuqtirib olgan robotlar ustiga “Frankoborot” deb yozilgan qutilarning qator mixlar qoqilgan qopqog‘iga tik qarab

turgan robotlar, ular o‘lim deb atab bo‘lmaydigan yo‘qlikda turar edilar, chunki bu yo‘qlik ortidan hayot asari sezilmas edi… Birdan mixlar qattiq vizillaydi. Birin-ketin qopqoqlar ko‘tariladi. Qutilar uzra soyalar o‘ynaydi, qo‘lda siqilgan moy idish mashina moyini tizillatib otadi. Ishga tushirilgan bir murvat asta chiqillaydi. Yana bir murvat, yana bir, nihoyat xuddi ulkan soat do‘konidagidek, chor atrofni chaq-chuq ovozi bosib ketadi. Tosh ko‘zlari yog‘och qovoqlarini keng ochadilar. Burun kataklari pirpiraydi. Maymun yunglari va oq quyon terisi qoplangan robotlar oyoqqa turadilar. Egizaklar Tvidldam va Tvidldi, Buzoqboshi, Sonya, Oppoq cho‘kkanlar, — tana o‘rniga tuz va mayin suv yo‘sinlari, ustritsa rangidagi ko‘zlari irg‘ib chiqqan ko‘kishtob dorga osilganlar, muz xilqatlar va yaltiroq pistonchalar, sopol pakanalar va jigarrang elflar, CHiq-chiq, Olabo‘jilar, sun’iy bo‘ron buluti ichidagi Santa Klaus, Ko‘k Soqol — jag‘ soqollari xuddi atsitelen olovidek gurillab turibdi. Yashil tillarini o‘ynatib, kulrang pag‘a-pag‘a tutunlar suza boshladi. Go‘yo Olachipor chirmovuqdek bilanglayotgan ajdahoni esga soluvchi bu tutun qursog‘ida bozillagan laxcha cho‘g‘ bilan devorga taqalib kelar edi: guv-guv, taq-tuq, o‘kirik, sukunat, sapchish, burilish… Minglab qopqoqlar yana yopildi. Soat do‘koni Esher Uyi tomon yo‘l oldi. Afsungarlik tuni boshlandi.

Qo‘rg‘onda iliq shabada yeldi. Osmonni kuydirgan, kuzini bahorga aylantirgan ko‘yi mehmonlarning raketalari uchib kela boshladi. Raketalardan oqshom liboslarida erkaklar chiqib, ularning ortidan ko‘z ko‘rib, quloq eshitmagan turmakli ayollar ergashib kelardi.

— Bu Esher juda balo ekan-ku!

— Eshik qani?

Shu tob Stendal paydo bo‘ldi. Ayollar kular va gap sotar edilar. Mister Stendal jim bo‘linglar degandek qo‘lini ko‘tardi. So‘ng o‘girildi, nigohini qal’aning baland devoridagi derazaga oldi-da, qichqirdi:

Rapuntsel, Rapuntsel, ko‘z och uyqudan.

Sochlaringni parishon aylagil tuban.

Go‘zal qiz tungi shabadani qarshi olib, derazadan qaradi va oltin sochlarini pastga tushirdi. Undan mamnun mehmonlar Uyga ko‘tarilishlari uchun sochlar eshilib, buralib narvonga aylandi.

Eng ko‘zga ko‘ringan jamiyatshunoslar! Eng zukko ruhshunoslar! Dunyoda eng tengi yo‘q siyosatdonlar, bakteriologlar, psixonevrologlar! Ana, ularning hammasi kulrang devor oralig‘ida turibdi.

— Xush kelibsizlar!

Mister Trayon, mister Ouen, mister Dan, mister Leng, mister Steffens, mister Fletcher va yana yigirma-o‘ttiztacha mashhur shaxslar.

— Kiraveringlar! Kiraveringlar!

Miss Gibbs, miss Paup, miss Cherchill, miss Blant, miss Drammond va yana yigirmatacha ofatijon ayol. Barchalari hech bir istisnosiz koʻzga koʻringan, eng koʻzga koʻringan shaxslar, xayolotlar bilan Kurash Jamiyatining a'zolari, eski bayramlar — "barcha muqaddas bayramlar" va "Gay Foksni man qiluvchilar" bilan kurashuvchilar, koʻrshapalaklarning qotillari, kitoblarga qiron keltiruvchilar, mash'albozlar; barchalari hech bir istisnosiz odamlarga Marsga birinchi boʻlib oddiy, dagʻal yoʻllar bilan uchib kelish, marsliklarni goʻrga tiqish, manzilgohlarni ifloslardan tozalash, shaharlar qurish, yoʻllarni ta'mirlash va umuman turli-tuman tartibsizliklarni bartaraf etish imkonini taqdim etgan odobli va axloqli, vijdoni pok fuqarolar. Keyin esa, Xavfsizlik mustahkam qaror topgandan soʻng bu Quvonch G'oratgarlari, bu qon oʻrniga formalinli va yodli nastoyka rangli koʻzi bor nusxalar oʻzlarining Axloq Iqlimini koʻchat qilib oʻtqazish va barchaga muruvvat ila saxovat ulashish uchun paydo boʻldilar.

Ularning barchasi esa — uning doʻstlari! Ha, ha, oʻtgan yili Yerda u ehtiyotkorlik va oʻta tavoze bilan ularning har biri bilan tanishgan, har biriga oʻz mavqeini koʻz-koʻz qilgan edi.

— Bepoyon O'lim ma'vosiga xush kelibsizlar! — qichqirdi u.

— Menga qarang, Stendal! Bu nima degan gap?

— Hali koʻrasizlar, hammangiz yechiningiz! Anavi yerda hujralar bor. U yerda tayyorlab qoʻyilgan liboslarni kiyinglar, erkaklar bu tarafga, ayollar u tarafga.

Mehmonlar bir oz taraddudlangancha turib qoldilar.

— Bilmadim, bu yerda qolsak qalay boʻlarkin, — dedi miss Paup. — Bu yer menga yoqmayapti. Bu yerda kufrning hidi kelayapti.

— Hech narsa qilmaydi, bor-yoʻgʻi libos bayrami!

— Bular bari qonunga qarshi emasmikan deb qoʻrqaman. — Mister Steffens ehtiyotkorlik bilan burnini tortib qoʻydi.

— Bas! — kulib yubordi Stendal. — Bir gal quvnasangiz quvnabsiz-da. Ertaga hammasi ostin-ustin boʻladi. Hujralarga tarqalinglar!

Uyda hayot qaynab, borliq yashnab ketdi, burro-burro hazil soʻzlari yangradi, oq sichqonlar mittigina choʻplari bilan mittigina gʻijjaklarini ishqalayotgan pakanalarning navosi ostida mitti kadrilga raqs tushar, qurum bosgan toʻsinlar ostida bayroqchalar hilpirar va koʻrshapalak galalari muzdek, serkayf, koʻpikli Sharob purkayotgan jagʻlari keng ochiq oʻlaksaxoʻrlar yonida charx urib uchar edilar.

Libosli ayyomning barcha yetti zalidan oʻtib, ariqcha jildirardi. Mehmonlar oʻzlarini shunga tashlashdi va qarasalarki, bu Xeres arigʻi ekan! Maskarad dominosiga yashiringan yelkalaridan yillarni itqitib tashlab, mehmonlar kabinalardan otilib chiqdilar va ular kiyib olgan niqoblar ularning xayolot va dahshatlarni muhokama qilish huquqidan

mahrum etdi. Qip-qizil libosli ayollar charx urib aylanar va xandon tashlab kular edilar. Erkaklar ularning ortidan yaltoqlanib ergashardilar. Devorlarda allakimlarning soyalari suzardi, unda-bunda hech nimani aks ettirmaydigan koʻzgular osigʻliq edi.

— Bizlar barimiz qonxoʻrlarmiz! — kuldi mister Fletcher. — O'liklarmiz.

Har biri boshqa rangdagi yettita zal: biri moviy, biri qirmiziy, biri yashil, biri pushti, yana biri oq, oltinchisi binafsharang, yettinchisiga qora baxmal qoplangan. Qora zalda ebent qirgʻoqlari boʻgʻiq zang chaldi. Zaldan-zalga, xayoliy robotlar oʻrtasida, Sonyalar va tentak lyapniklar, Troyalyalar va Ulkanlar, Qora Mushuklar va Oq Qirolichalar oʻrtasida shirakayf mehmonlar gandiraklar edilar va ularning chalkash oyoqlari ostida pol ogʻir va boʻgʻiq gʻichirlar edi, goʻyo ular ostiga yashiringan yurak oʻz hayajonini tutib turolmayotgandek.

— Mister Stendal!

Shivirlab…

— Mister Stendal!

Ularning yonginasida O'lim niqobidagi dahshatli darranda turardi. Bu Payks edi.

— Biz xilvatda gaplashib olishimiz kerak.

— Nima gap?

— Mana. — Payks unga qoq suyak qoʻlini uzatdi. Uning qoʻlida bir hovuch eritilgan, qoraygan halqachalar, gaykalar, murvatlar, boltlar bor edi.

Stendal ularga uzoq qarab qoldi, soʻng Payksni yoʻlakka boshlab ketdi.

— Garretmi? — soʻradi u shivirlab.

Payks bosh irgʻadi.

— U oʻzining oʻrniga robotni yuboribdi. Men uni axlatkuydirgichni tozalayotganimda topib oldim.

Ikkalasi shubhali murvatlarga qaradi.

— Bu har daqiqada politsiya bostirib kelishi mumkin deganini bildiradimi? — dedi Payks. — Rejalarimiz barbod boʻldi.

— Bu ma'lum emas, — Stendal aylanib yurgan sariq, koʻk, qizgʻish odamlarga qaradi. Musiqa keng va gʻuborli zallardan uzoq-uzoqlarga taralardi. — Garret shaxsan oʻzi kelishiga ishonadigan darajada ahmoq boʻlmasam kerak, lekin shoshmang-chi!

— Nima boʻldi?

— Hech narsa, aytarli hech narsa yoʻq. Garret bizga robotni yuboribdi, ammo biz ham shunday qaytardikki, agar u juda ham sinchkovlik bilan qaramaydigan boʻlsa, bizning firibimizni payqamasligi hech gap emas.

— Bo‘lmasa-chi!

— Yanagi safar u o‘zi keladi. Endi u unga hech narsa xavf solmasligiga ishonadi. O’z odamingiz bilan uni har daqiqada kutib turing! Sharobdan yana oling, Payks!

Katta qo‘ng‘iroq bong urdi.

— O’lay agar, bu o‘sha. Boring, mister Garretni ichkariga olib kiring.

Rapuntsel oltin sochlarini pastga tushirdi.

— Mister Stendalmisiz?

— Mister Garret, haqiqiy Garretmisiz?

— O’ziman. — Garret namiqqan devorlar va chir aylanayotgan odamlarga sinchkovlik bilan nazar soldi; — o‘zim ko‘ray degan bo‘lsa kerak. Robotlarga ishonib bo‘lmaydi. Boz ustiga, begona robotlarga. Bir yo‘la men ehtiyotkorlik yuzasidan Buzuvchilarni chaqirdim. Bu maraz maskan devorlarini buzish uchun ular bir soatdan keyin yetib kelishadi.

Stendal ta’zim qildi.

— Ogohlantirganingiz uchun rahmat. — U qo‘li bilan ishora qilib qo‘ydi: — Hozircha sizni ko‘ngil ochishga taklif qilaman. Ozgina sharob ketadimi?

— Yo‘q, yo‘q, tashakkur. Nimalar bo‘layapti u yerda? Inson tanazzulining chegarasi qaerda?

— O’zingiz amin bo‘lasiz, mister Garret.

— Tubanlik, — dedi Garret.

— Eng jirkanch tubanlik, — tasdiqladi Stendal.

Qaerdadir ayol chiyilladi. Pishloqdek oppoq miss Paup yugurib kelardi.

— Shunday narsa yuz berdiki, aytishga tilim bormaydi! Ko‘z oldimda maymun miss Blantni bo‘g‘di va mo‘riga itarib yubordi.

Ular quvurga qarashdi va pastda osilib turgan uzun sariq sochlarni ko‘rishdi. Garret qichqirib yubordi.

— Dahshat! — cho‘qinib dedi miss Paup. U birdaniga tildan qoldi, ko‘zlarini pirpiratdi-da, o‘girildi:

— Miss Blant!

— Ha, — miss Blant uning yonida turardi.

— Axir men sizni hozirgina pechka quvuri ichida ko‘rgan edim-ku!

— Yo‘q, — kuldi miss Blant. — Bu robot edi, mening nusxam. Mohirona ko‘chirma!

— Lekin, lekin…

— Yoshlaringizni arting, jonginam. Men soppa-sog‘man. O’zimga qarashimga ruxsat bering. Mana, men qaerda ekanman! Ha, mo‘rida xuddi siz aytgandek. G’aroyib-a, to‘g‘rimi?

Miss Blant kulgancha u yerdan ketdi.

— Ichasizmi, Garret?

— Ichganim bo‘lsin. Sal asabiylashdim. Ey xudo, bu qanaqa joy bo‘ldi-a. Faqat buzib tashlashga yaraydi, xolos. Menga qolsa bir lahzada… — Garret Sharobni sipqordi.

Yangi qichqiriq. Mister Steffensning yelkasida zinadan pastga qarab to‘rtta oq quyonni olib kelar edilar, zina to‘satdan hayratomuz ravishda polda paydo bo‘lgan edi. Mister Steffensni xandaqqa sudrab ketishdi va oyoq-qo‘llari bog‘liq holda, uning shilingan badaniga tig‘dek o‘tkir bahaybat mayatnik chayqalgancha tobora yaqinlashib va pastga tushib kelayotganini ko‘rish uchun qoldirdilar.

— O’sha pastdagi menmi? — so‘radi mister Steffens Garretning yonida paydo bo‘lib. U quduq ustiga engashdi — o‘zingning o‘limingni tomosha qilish juda va juda qiziq bo‘lar ekan.

Mayatnik oxirgi marta chayqaldi.

— Xuddi o‘zidek-a, — dedi mister Steffens orqasiga burilarkan.

— Sharobdan yana quyaymi, mister Garret?

— Ha, malol kelmasa.

— Buyog‘i ko‘pi ketib, ozi qoldi. Hademay, Buzuvchilar kelishadi.

— Xudoga shukur!

Shu payt yana, uchinchi marta qichqiriq eshitildi.

— Tag‘in nima gap? — asabiy so‘radi Garret.

— Endi mening navbatim, — dedi mister Drammond. — Qarang.

Ming qichqirmasin, ikkinchi mister Drammondni tobutga dumalatib yotqizishdi va pol ostidagi nam yerga irg‘itishdi.

— To‘xtang, axir bu esimda! — Oh tortib dedi Axloq Iqlimining inspektori. — Axir bu ko‘hna, taqiqlangan kitoblardan-ku… “Barvaqt ko‘milgan odam”. Qolganlari ham: quduq, mayatnik, maymun, mo‘ri… “Morg ko‘chasidagi qotillik”. Bu kitobni men o‘zim yoqqan edim, bo‘lmasa-chi!

— Sharobdan quying, Garret. Bundoq, qadahni mahkamroq ushlang.

— Xudo haqqi, tasavvuringizga gap yo‘q!

Ularning ko‘z oldida yana besh odam o‘ldi: bittasi ajdahoning og‘zi ichida, qolganlari qora hovuzga tashlab yuborildi, suv tubiga tushib ketdi-da, o‘sha yoqda chiridi.

— Sizga nima tayyorlaganimizni ko‘rmoqchimisiz? — so‘radi Stendal.

— O’z-o‘zidan ma’lum, — javob berdi Garret. — Nima farqi bor? Baribir biz bu marazni portlatib yuboramiz. Siz jirkanchsiz.

— Unda ketdik. Bu yoqqa.

Shunday deya u Garretni pastga, ko‘plab eshiklardan o‘tib, maxfiy joyga olib ketdi, undan murvatli zinadan yurib, yer tagiga, mag‘oralarga tushishdi.

— Bu yerda siz menga nimani ko‘rsatmoqchisiz? — so‘radi Garret.

— Sizning o‘ligingizni.

— Mening nusxamnimi?

— Ha, yana bir narsani.

— Nima ekan?

— Amontilyadoni, — dedi Stendal qo‘lida fonarni ko‘tarib oldinda yurib borar ekan.

Chor atrofda tobutlar ichidan beligacha sug‘urilib chiqqan skeletlar harakatsiz osilib turar edi.

Garret kafti bilan burnini berkitdi, nafratdan yuzi bujmaydi.

— Nima, nima?

— Siz amontilyado haqida hech eshitganmisiz?

— Yo‘q!

— Mana buni ham bilmaysizmi? — Stendal tokchani ko‘rsatdi.

— Qayoqdan bilay?

— Buni hammi? — Stendal jilmaygancha chakmonining qatidan ustaning andavasini oldi.

— Bu nima?

— Ketdik, — dedi Stendal.

Ular mehrobga chiqishdi. Qorong‘ilikda Stendal shirakayf inspektorning qo‘llariga kishan soldi.

— Yo alhazar, bu nima qilganingiz? — qichqirib dedi Garret zanjirni shaqillatib.

— Men, ta’bir joiz bo‘lsa, temirni qizig‘ida bosayapman. Temirni qizig‘ida bosayotgan odamning ishiga xalaqit bermang, bu odobdan emas. Mana shunaqa!

— Siz meni zanjirband qilib qo‘ydingiz!

— Mutlaqo to‘g‘ri.

— Nima qilmoqchisiz o‘zi?

— Sizni shu yerda qoldirmoqchiman.

— Hazillashmang.

— G’oyat muvaffaqiyatli hazil.

— Mening ikkinchi qiyofam qani? Nahotki biz uning qanday o‘ldirilishini ko‘rmasak?

— Hech qanaqa ikkinchi qiyofa yo‘q.

— Axir qolganlar-chi?!

— Qolganlar o‘lgan. Tirik odamlarni qanday o‘ldirishganini ko‘rdingiz-ku. Ikkinchi qiyofa robotlar esa yoningizda turib tomosha qilgan edilar.

Garret indamadi.

— Endi siz: “Butun muqaddas narsalar uchun, Montrezor!” — deb gapirishga majbursiz, — dedi Stendal. — Men esa: “Ha, butun muqaddas narsa haqqi” deb javob beraman. Xo‘sh, chog‘ingiz qalay?

Bo‘ling. Gapiring.

— To‘nka!

— Nima, men sizga yalinishim kerakmi? Gapiring! Gapiring: “Butun muqaddas narsa haqqi, Montrezor!”

— Aytmayman, padariga la’nat. Meni bu yerdan chiqarib yuboring. — U endi hushyor tortgan edi.

— Mana. Kiyib oling. — Stendal qo‘ng‘iroqchalari jiringlab turgan nimanidir unga tutdi.

— Nima bu?

— Qo‘ng‘iroqchali qalpoq. Shuni kiyib oling, balki men sizni keyin qo‘yib yuborarman.

— Stendal!

— Kiyib oling, dedim sizga!

Garret itoat qildi. Qo‘ng‘iroqchalar jiringlab ketdi.

— Siz bular barchasi qachonlardir bo‘lib o‘tgandek his qilyapsizmi? — gapga tutindi Stendal belkurak, loy, g‘ishtlar bilan andarmon bo‘lar ekan.

— Nima qilayapsiz?

— Sizni mo‘miyolayapman. Bir qator to‘lib bo‘ldi. Mana bu ikkinchi qator.

— Aqlingizni yebsiz!

— Siz haqsiz.

— Buning uchun sizni javobgarlikka tortishadi!

— Qo‘yib yuboring, qo‘yib yuboring meni!

So‘nggi g‘ishtni qalash qolgan edi. Baqiriq-chaqiriq hamon davom etardi.

— Garret? — sekin chaqirdi Stendal.

Garret jimib qoldi.

— Garret, — davom etdi Stendal, — bilasizmi, sizni nima uchun bunday qilganimni? Chunki siz hatto tuzukli o‘qimasdan ham mister Poning kitoblarini yoqib yuborgansiz. Kitoblarni yoqib yuborish kerak degan odamlarning gapiga laqqa tushgansiz. Aks holda siz, biz bu yerga kelishimiz bilanoq, mening ko‘nglimdagini darrov bilib olgan bo‘lardingiz. Jaholat ham evi bilan-da, mister Garret.

Garret sukut saqlardi.

— Hamma narsa aniq bo‘lishi kerak, — dedi Stendal yorug‘ mehrobga o‘tib, egilgan qiyofaga tushishi uchun fonarni ko‘tarib; — Qo‘ng‘iroqchalarni sekin jiringlating-chi.

Qo‘ng‘iroqchalar jiringladi.

— Endi malol kelmasa; “Butun muqaddas narsa haqqi, Montrezor!” deb ayting, ehtimol men sizni ozod etarman.

Fonar yorug‘ida inspektorning chehrasi ko‘rindi. Bir oz taraddudlanib turdi-da, u poyintar-soyintar qilib, takrorladi:

— Butun muqaddas narsa haqqi, Montrezor.

Stendal mamnun holda xo‘rsinib qo‘ydi va ko‘zlarini yumdi. So‘nggi g‘ishtni qaladi-da, bosib, zichlab qo‘ydi.

— Reguiescat in pace, aziz do‘stim!

U tezgina mag‘oradan chiqib ketdi.

Yarim tunda soatlar dastlab bong urganda, uyning yettita zalida hamma narsa sukunat qo‘yniga g‘arq bo‘lgandi.

Qizil O’lim paydo bo‘ldi.

Stendal bir lahza eshik tagida to‘xtab qoldi, yana bir karra hamma narsaga ko‘z yugurtirib chiqdi.

Uydan yugurib chiqdi-da, handaq orqali vertolet kutib turgan joyga shoshildi.

— Tayyormi, Pays?

— Tayyor.

Ular jilmaygancha ulug‘vor binoga qarashdi. Xuddi zilzilada bo‘lganidek, uy o‘rtasidan eriy boshladi va bu ajoyib manzaradan zavqlangan Stendal orqa tomonda turgan Payksning past ovozda xirgoyi qilib aytgan so‘zlarini eshitdi:

— “… ko‘z oldimda qudratli devorlar nurab tushdi va ag‘anadi. Bamisoli minglab sharsharalar kabi anchagacha guvillagan ovoz chalinib turdi va chuqur qora qo‘ltiq Esherlar Uyi xarobalari uzra unsiz va tund bir holda ko‘zdan yo‘qoldi”.

Vertolet g‘arb tomonga yo‘l olgancha biqirlab qaynayotgan ko‘l uzra uchib borardi.

Avgust 2005
KEKSA ODAMLAR

Va nihoyat, — xuddi kutilganidek — Marsga keksa odamlar kelib qo‘na boshladi: ular hayqiroq kashshoflar, nozik didli shubhaparastlar, ustasi farang musofirlar, pok rizq qidirgan xayolparast voizlar solgan izdan yo‘lga tushgan edilar. Adoyi tamom bo‘lgan va ojiz odamlar, qiladigan bor-yo‘q ishlari o‘z yuraklariga quloq solishu, o‘z tomirlarini paypaslab bo‘lgan odamlar, tishsiz og‘izlari bilan suyuq dorini tinimsiz yutadigan odamlar, ilgari noyabrda umumiy vagonda Kaliforniyaga, aprelda esa uchinchi toifa paroxodda Italiyaga yo‘l oladigan bu jonli xilqatlar, bu mushtdek-mushtdek xilqatlar ham nihoyat Marsda paydo bo‘ldi.

Sentabr 2005
MARSLIK

Osmonga tik qadalgan moviy choʻqqilar yomgʻir pardasi orasiga kirib koʻzdan yoʻqolar edi, yomgʻir uzun kanallarga kelib quyilar edi, qariya Lafarj tomosha qilgani xotini bilan uyidan chiqib keldi.

— Mavsumdagi birinchi yomgʻir, — dedi Lafarj.

— Moʻʻjiza… — xoʻrsindi xotini.

— Rahmat yomgʻiri!

Ular eshikni yopishdi, xonaga qaytib kelib, kamindagi koʻmir choʻgʻda qoʻllarini isita boshladilar.

Ular sovqotib qaltirar edilar. Derazadan uzoq-uzoqlardagi odamlarni Yerdan bu yerga keltirib qoʻygan raketa korpusiga kelib urilayotgan yomgʻirning nam yiltillashini koʻrib turar edilar.

— Faqat mana shuning oʻzi… — dedi Lafarj oʻz qoʻllariga qaragancha.

— Nima demoqchi eding? — soʻradi xotini.

— Agar Tomni oʻzimiz bilan ola kelganimizda…

— Laf, yana oʻsha gapmi?

— Yoʻq, yoʻq, kechir, boshqa gapirmayman.

— Biz bu yerga Tom haqida oʻylagani emas, tinch, tashvishlarsiz qarilik gashtini surgani kelganmiz.

Uning oʻlganiga necha yillar boʻldi. Uni ham, yerdagi sodir boʻlgan hamma narsani ham unutishga harakat qilishimiz kerak.

— Toʻgʻri, toʻgʻri, — dedi eri va yana issiqqa intildi. Uning koʻzlari olovda edi. — Men bu haqda boshqa ogʻiz ochmayman. Shunchaki, haligi… Biz uning qabriga gul qoʻygan yakshanba kunlari Grin-Lon-Parkka qilgan safarlarimizni juda-juda qoʻmsab ketayapman…

Moviy yomgʻir mayin suvlari bilan uyni yuvar edi.

Soat toʻqqizda ular yotishdi; bir-birining qoʻlini ushlagancha ular jim yotar edilar, er 55 yoshda, xotin 60 yoshda, yomgʻir shovqiniga toʻla tubsiz zulmat qoʻynida.

— Enn, — asta chaqirdi er.

— Ha? — javob berdi xotin.

— Hech narsa eshitmadingmi?

Ular birgalikda shamol va yomgʻir shovqiniga quloq tutishdi.

— Hech narsa, — dedi xotin.

— Kimdir hushtak chaldi, — izoh berdi er.

— Yoʻq, men eshitmadim.

— Borib qaray-chi, har ehtimolga qarshi.

Er xalatini kiydi-da, butun uyni yurib oʻtib, tashqari eshikkacha

bordi. Jur’atsiz qadamlarini sekinlatib, asta eshikni itardi va yomg‘irning muzdek tomchilari yuziga urildi. Shamol esardi.

Eshik tagida mo‘‘jazgina qiyofa turardi.

Osmonni poralab chaqmoq chaqdi, uning bir zumlik yog‘dusida haligi qiyofaning chehrasi namoyon bo‘ldi. U Lafarjga qarab turardi.

— Kimsiz? — qichqirdi chol titragancha.

Jimlik.

— Kim bu? Nima kerak sizga?

Hamon churq etgan tovush yo‘q.

Chol o‘zini o‘lgudek charchoq, zaif, madorsiz his qildi.

— Kimsan deyapman? — qichqirdi Lafarj yana.

Xotini orqadan keldi-da, erining qo‘lidan tutdi.

— Nega bunaqa qichqirayapsan?

— Naryoqda bir bola turibdi, menga javob berishni istamayapti, — dedi chol qaltiragancha. — U Tomning o‘zginasi!

— Yur, uxlaylik, senga shunaqa tuyulgan.

— Ana u, hali ham turibdi, o‘zing qaragin.

Lafarj xotinim baralla ko‘rsin deb eshikni kengroq ochdi. Muzdek shamol, siyrak yomg‘ir orasidan ular tomon o‘ychan qaragancha bir qiyofa turardi. Keksa xotin eshik kesakisiga suyandi.

— Ket! — dedi u qo‘lini silkitib. — Ket!

— Tomga o‘xshamaydi, demoqchimisan? — so‘radi chol.

Qiyofa qilt etmas edi.

— Qo‘rqib ketayapman, — dedi xotin. — Eshikni yop-da, ketdik, borib uxlaylik. Kerak emas, kerak emas!…

Shunday deya u o‘zicha allaqanday duolarni o‘qigancha yotoqxona tomon ketdi.

Chol hamon shamolda turardi, qo‘llari muzdek nam havoda qotib qolgan edi.

— Tom, — asta dedi u. — Agar bu sen bo‘lsang, agar mo‘‘jiza ro‘y berib, bu yerga kelgan bo‘lsang, men eshikni yopmayman. Agar sovqotib isingani uyga kirmoqchi bo‘lsang, kir va borib kamin tagida cho‘zil, u yerda po‘stak yozig‘liq.

Shunday deya u asta eshikni yopdi, ammo qulflamadi.

Xotin erning kelib o‘ringa yotganini, g‘o‘janak bo‘lib qaltirayotganini eshitib yotardi.

— Dahshatli tun. Men o‘zimni juda qari his etib ketayapman. — Ayol piq-piq yig‘ladi.

— Bo‘pti, bo‘pti, — mehribonlik bilan uni tinchlantirdi er quchoqlagancha. — Uxla.

Oxiri xotin uxlab qoldi.

Shu zahoti cholning ziyrak qulog‘iga bir narsa chalindi: tashqi eshik asta-sekin ochildi, ichkariga yomg‘ir aralash shamol urildi, keyin

eshik yopildi. Lafarj yengil odimlarning kamin oldiga kelganini va zaif nafasini eshitdi. “Tom”, — deb qo‘ydi u o‘zicha.

Osmonda chaqmoq yaltirab, zulmatni parcha-burish qildi.

Ertalab quyosh charaqlab turar, borliqni kuydirar edi.

Lafarj mehmonxona eshigini lang ochdi-da, ichkariga tezlik bilan ko‘z yugurtirib chiqdi.

Gilamchada hech kim yo‘q edi.

Lafarj xo‘rsindi.

— Qaribman, — dedi u.

U yuvinish uchun anhordan tiniq suv keltirgani eshik tomon yo‘naldi.

Ostonada sal bo‘lmasa limmo-lim chelakni ko‘tarib kelayotgan yosh Tomga to‘qnashib, uni ag‘darib yuborayozdi.

— Salom, ota!

— Salom, Tom.

Chol o‘zini bir chetga oldi. O’smir oyoq yalang xonadan yugurib o‘tdi-da, chelakni yerga qo‘yib, jilmaygancha unga o‘girildi.

— Bugun kun juda zo‘r!

— Ha, yaxshi, — ehtiyotkorona javob berdi chol.

Bola bugun o‘zini juda boshqacha tutmoqda edi. U o‘zi olib kelgan suvda yuvina boshladi.

Chol oldinga bir qadam tashladi.

— Tom, bu yerga qanday kelib qolding? Sen tirikmisan?

— Nega tirik bo‘lmas ekanman? — Bola ko‘zlarini ko‘tarib otasiga qaradi.

— Ammo, Tom… Grin-Lon-Park, har yakshanba… Gullar… va… — Lafarj o‘tirishga majbur bo‘ldi.

O’g‘il uning oldiga keldi, to‘xtadi-da, otasining qo‘lidan ushladi. Chol uning barmoqlarini his etdi — qattiq, issiq.

— Sen rostdan ham shu yerdamisan? Bu tush emasmi?

— Nahotki mening bu yerda bo‘lishimni xohlamasangiz? — bola hayajonlandi.

— Seni qara-yu, Tom, nega xohlamas ekanman!

— Unda nega so‘rayapsiz? Keldim, tamom-vassalom.

— Lekin onang, bunday kutilmaganda…

— Tashvish qilmang, hammasi yaxshi bo‘ladi. Tunda men ikkalangizga ham qo‘shiq aytib bergan edim, bu sizlarning meni qabul qilishlaringizga, ayniqsa, oyimning qabul qilishlariga yordam beradi.

Kutilmagan hol qanday ta’sir qilishini bilaman. Shoshmang, o‘zi kirib keladi-da, amin bo‘lasiz.

Bola qalpog‘i bilan sarg‘ish jingalak sochlarini qoqib kulib yubordi. Uning ko‘zlari nihoyatda moviy va tiniq edi.

— Salom Laf va Tom! — Ona sochlarini turmaklagancha yotoqxonadan chiqib keldi. — Rostdan ham bugun kun juda ajoyib-a!

Tom jilmaygancha otasiga burilib qaradi:

— Men nima degan edim?

Uchalasi birgalikda uy ortidagi soyada rohatlanib nonushta qilishdi. Missis Lafarj har ehtimolga qarshi yashirib qo‘ygan bir shisha kungaboqar sharobini chiqarib qo‘ydi va barchalari qittak-qittak ichishdi. Lafarj hech qachon xotinini bu qadar quvnoq ko‘rmagan edi. Mabodo Tomga nisbatan onaning ko‘nglida biron-bir shubha bo‘lganda ham uni birovga aytib solmas edi. Uning uchun hamma narsa risoladagidek bo‘lar edi. Lafarjning o‘zi ham tobora mana shunday tuyg‘u asiriga aylanib bormoqda edi. Ona idishlarni yuvar ekan, Lafarj o‘g‘li tomon engashdi-da, asta so‘radi:

— Hozir yoshing nechada, o‘g‘lim?

— Nahotki bilmasangiz, dada? O’n to‘rtdaman-da, albatta.

— Xo‘sh, o‘zing aslida kimsan? Sen Tom bo‘lishing mumkin emas, ammo kimdir bo‘lishing shart!

Kimsan?

— Keragi yo‘q. — Bolakay kayfi uchgancha qo‘llari bilan yuzini yashirdi.

— Sen mendan yashirma, — nasihatomuz dedi chol. — Men buni tushunaman. Sen marsliksan, hoynahoy? Men bu yerda marsliklar haqida turli xil masallarni eshitganman, to‘g‘ri, gap nimada ekanini hech kim bilmaydi. Ulardan juda kam odam qolgan bo‘lsa kerak, lekin ular oramizda paydo bo‘lib qolsalar, yerliklar qiyofasida paydo bo‘ladilar. Mana sen, agar bundoq qarasa, go‘yo Tomsan, lekin Tom emassan ham…

— Bu nega kerak, axir?! Men sizlarga nima yomonlik qildim? — qichqirdi bolakay yuzini kaftlari bilan yashirgancha. — Iltimos, iltimos, mendan shubha qilmanglar!

U sakrab o‘rnidan turdi-da, stoldan uzoqlashdi.

— Tom, qayt!

Biroq bola kanal yoqalab shahar tomon chopib borardi.

— Qayoqqa ketdi u? — so‘radi Enn; u qolgan likopchalarni yig‘ishtirib olgani kelgan edi.

U erining yuziga qaradi.

— Bir narsa deb qo‘rqitib yubordingmi uni?

— Enn, — dedi chol xotinining qo‘lidan tutib, — Enn, Grin-Lon-Park esingdadir, yarmarkani va Tomning o‘pkasi shamollab og‘rib qolganini eslarsan?

— Nega bunday deyapsan? — ayol kuldi.

— Shundoq o‘zim, — sekin javob berdi chol.

Uzoqda kanal yoqalab chopib borayotgan Tomning oyoqlari ostidan ko‘tarilgan chang asta cho‘kmoqda edi.

Kechqurun soat beshda kun botishda Tom qaytib keldi. U xavotir bilan otasiga qarab qo‘ydi.

— Tag‘in meni so‘roq qila boshladingizmi?

— Hech qanday savol yo‘q, — dedi Lafarj.

Bola oppoq tishlarini charaqlatib iljaydi.

— Mana bu boshqa gap.

— Qaerda eding?

— Shahar yonida. Bir qolib ketmoqchi ham bo‘ldim. Sal bo‘lmasa meni… — u kerakli so‘zni topolmay chaynaldi. — Men sal bo‘lmasa tuzoqqa tushib qolayozdim.

— “Tuzoqqa” deganing nimasi?

— Anovi kanalning yoqasida kichikkina temir uy bor, shuning yonidan o‘tayotsam, meni sal bo‘lmasa tutib qolishayozdi… shundan keyin men bu yerga, sizlarning oldingizga umuman qaytolmasligim mumkin edi. Sizlarga qanday tushuntirishni ham bilmayman, so‘z topolmayapman, qanday aytib berishni ham bilmayapman, nima bo‘lganini o‘zim tushunmayman, bu shunday qiziqki, sizlarga gapirib bersam, deyman.

— Gapirib bermay qo‘yaqol. Yaxshisi, borib yuvin. Ovqat mahali bo‘ldi.

Bola yuvingani chopib ketdi.

O’n daqiqalardan keyin kanalning tinch sathida daroz va ozg‘in, sochlari qop-qora odam eshayotgan eshkak zarblaridan ravon suzib kelayotgan bir qayiq ko‘rindi.

— Salom, Lafarj og‘ayni, — dedi u qayiqni to‘xtata turib.

— Salom, Saul, nima gaplar?

— Gapdan ko‘pi yo‘q. Nomlendni bilarsan — kanaldagi Jez saroychada yashaydi-ku, o‘sha.

Lafarj tosh qotib qoldi.

— Bilaman, nima edi?

— Uning qanaqa yaramas ekanligini ham bilarsan?

— Aytishlaricha, u bir odamni o‘ldirib qo‘yib, shundan Yerni tashlab ketgan ekan.

Saul ho‘l eshkakka suyangancha Lafarjga diqqat bilan qaradi.

— U o‘ldirgan odamning ism-sharifi esingdami?

— Gillings edi-yov.

— Xuddi shunday, Gillings. Gap bunday! Ikki soatlarcha oldin mana shu Nomlend degani Gillingsni ko‘rdim, deb shaharga qichqirib kirib keldi. Shu yerda, Marsda yashayapmiz, dedi. Bugun eshitdim, hozir eshitib kelayapman! Gillingsdan qochib yashirinish uchun u yoqda uni turmaga tiqishlarini iltimos qilibdi. Lekin uni turmaga qo‘yishmabdi. Shunda Nomlend uyiga ketibdi va yigirma daqiqa oldin — odamlar menga aytishdi — o‘zini peshonasidan otib tashlabdi. Men hozir o‘sha yerdan kelayapman.

— Ana, xolos, — dedi Lafarj.

— Dunyoning ishlari shunaqa qiziq bo‘lar ekan-da! — quvvatladi uni Saul. — Bo‘pti, Lafarj, hozircha xayr.

— Xayr.

Qayiq yana kanalning tinch sathidan oldinga suzib ketdi.

— Ovqat tayyor, — qichqirdi missis Lafarj.

Mister Lafarj joyiga kelib o‘tirdi va pichoqni olib, stol osha Tomga qarab qo‘ydi.

— Tom, — dedi u, — bugun kechqurun nima qilding?

— Hech nima, — javob berdi Tom ovqat to‘la og‘zi bilan. — Nima edi?

— Ha, yo‘q, shunchaki so‘radim-da. — Chol salfetka burchagini ko‘ylagi yoqasi ichiga tiqdi.

Kechqurun soat yettida missis Lafarj shaharga otlandi.

— Necha oydan beri shaharda bo‘lganim yo‘q, — dedi u.

Tom borishdan bosh tortdi.

— Men shahardan qo‘rqaman, — dedi u. — Odamlardan qo‘rqaman. Oyog‘im tortmayapti.

— Katta yigit bo‘lib qolgansan. Shu ham gap bo‘ldi-yu! — yon bermay dedi Enn. — Gapirma bunaqa gaplarni. Biz bilan borasan. Buni men aytayapman.

— Axir, Enn, bola o‘zi xohlamasa… — oraga suquldi chol.

Biroq missis Lafarj aytganida turib oldi. U deyarlik kuch bilan ota-bolani qayiqqa sudrab tushirdi va barchalari birgalikda oqshom yulduzlari charaqlab turganda kanal bo‘ylab yo‘lga tushishdi. Tom ko‘zlarini yumib, chalqancha yotardi, uni uxlayaptimi yoki yo‘qligini hech kim aytolmasdi. Chol o‘zicha mulohaza qilgan ko‘yi unga tikilib qaradi. “Bu kim bo‘ldi, — o‘yladi u, — muhabbatga bizdan ham tashnaroq bo‘lgan bu qanday zot? Kim u? Va nima u? — Yolg‘izlikdan jon saqlagani unga yot bo‘lgan xilqatlar davrasiga keldi, odam qiyofasiga va ovoziga ega bo‘ldi, unday odamlar bizning oramizda qolgani va nihoyat o‘z baxtini bizning e’tirofimizda topgani faqat xotiramizdagina yashar edilar. U qay palladan buyon qaysi g‘ordan chiqib kelgani, u Yerdan raketalar uchib kelganda bu olamga kelib-o‘rnashgan qaysi xalqning zuryodi bo‘ldi?” Lafarj boshini chayqadi. Buni bilib bo‘lmaydi. Bundoq qarasang, qaysi tomonga nazar solmagin — u Tom, vassalom.

Chol nigohini yaqinlashib kelayotgan shaharga qaratdi va unga nisbatan ko‘nglida noxush tuyg‘uni his etdi. Biroq, keyin u yana Tom va Enn haqida o‘ylay boshladi va o‘ziga-o‘zi dedi: “Balki, agar baribir g‘am va qayg‘udan boshqa hech narsa chiqmaydigan bo‘lsa, oz muddatga bo‘lsa-da, Tomni yonida olib qolish noto‘g‘ridir… Biroq biz bu qadar orzu qilgan narsadan qanday voz kechish mumkin? Garchi bu bir kunlikkina narsa bo‘lsa-da, keyin u g‘oyib bo‘ladi, bo‘shliq yanada dahshatliroq tus oladi, qora tunlar — yana qoraroq, yomg‘irli

tunlar — yanada namroq bo‘lib ketadi… Bizni bundan mahrum etish — og‘zimizdagi bir bo‘lak luqmani sug‘urib olishga urinish bilan barobar.”

U yana qayiq tubida beg‘am mudrab yotgan yigitchaga qarab qo‘ydi. Tom uyqusida hiq etib qo‘ydi; tush ko‘rayotgan bo‘lsa kerak.

— Odamlar, — g‘udrandi Tom uyqusida. — O’zgarayapman, o‘zgarayapman… Qopqon…

— Bo‘ldi, bo‘ldi, yigitcha. — Lafarj uning yumshoq jingalak sochidan silab qo‘ydi va Tom tinchlandi.

Lafarj o‘g‘li va xotiniga qayiqdan qirg‘oqqa chiqib olgani yordamlashib yubordi.

— Mana, yetib keldik! — Enn charaqlagan chiroqlarga qaragan, tabernalar sadosiga quloq solgan, pianino va patefonlar ovozidan zavqlangan, gavjum ko‘chalardan bir-birini qo‘ltiqlab yurgan juftlarga havas bilan qaragancha jilmaydi:

— Men uyda qolsam yaxshi bo‘lardi, — dedi Tom.

— Ilgari bunaqa demasding, e’tiroz bildirdi ona. — Shanba kunlari kechqurun shaharga borishga doim intiq bo‘larding-ku.

— Menga yaqinroq turing, — shivirladi Tom. — Meni tutib olishlarini istamayman.

Enn uning gaplarini eshitib turardi.

— Nimalar deb valdirayapsan, ketdik!

Lafarj bolaning barmoqlari uning kaftiga yopishganini sezib, qattiq qisdi.

— Men sen bilanman, Tommi. — U yonlaridan suqulib kelayotgan olomonga qaradi-da, uning ham ko‘ngli g‘ash tortdi. — Biz bu yerda uzoq qolmaymiz.

— Bekorlarni aytibsiz, — gapga qo‘shildi Enn. — Biz butun oqshomni o‘tkazgani kelganmiz.

Ko‘chaning narigi tomoniga o‘tib, ular uch nafar mastga yo‘liqishdi. Ularni turtishdi, aylantirishdi, bir-biridan ajratishdi; atrofga alanglab, Lafarj tosh qotib qoldi.

Tom yo‘q edi.

— Qani u? — jahl bilan so‘radi Enn. — Bu qanaqa qiliq bo‘ldi — ko‘zingni shamg‘alat qiladi-da, ota-onasini tashlab qochadi! Tom!

Yo‘lovchilarni turtib-surtib mister Lafarj chor atrofga chopa boshladi. Biroq, Tomdan dom-darak yo‘q edi.

— Qaytib keladi, mana ko‘rasan, uyga ketayotganimizda qayiq oldida kutib turgan bo‘ladi, — ishonch bilan dedi Enn erini kinoteatr tomon yetaklagancha.

Birdan olomon orasida g‘ala-g‘ovur boshlandi va Lafarjning yonidan bir erkak va bir ayol chopib o‘tdi. U ularni tanidi: Jo Spolding xotini bilan. Lafarj og‘iz ochib, ularga gapirgunicha ham bo‘lmay,

ikkovi ham ko‘zdan yo‘qoldi.

Xavotir bilan atrofga alanglagancha u chiptalar sotib oldi va xotiniga itoatkorona ergashgancha qop-qora kinozalning ichiga kirib ketdi.

Soat o‘n birda qayiq yonida Tom yo‘q edi.

— Hechqisi yo‘q, onasi, — dedi Lafarj, — faqat hayajonlanma. Men uni topaman. Shu yerda kutib tur.

— Tezroq qaytgin-da.

Ayolning ovozi suvning shaloplashi tagida qolib ketdi.

Chol qo‘llarini cho‘ntaklariga tiqqancha tungi ko‘chalardan yurib borardi. Chiroqlar birma-bir o‘cha boshladi. Allaqaerda derazalardan odamlarning gavdalari ko‘rinardi. Garchi osmonda yulduzlar orasida yomg‘irli bulut parchalari hamon suzib yursa-da, tun iliq edi. Lafarj o‘g‘lining qandaydir tuzoq haqida qayta-qayta gapirganini, uning olomon va shaharlardan qo‘rqishini esladi. “Bu qanday noshudlik, — horg‘in o‘yladi chol. — Balki, bola butunlay qochib ketgandir. Balki, u umuman bo‘lmagandir…” Lafarj uylarning raqamlariga bir-bir ko‘z solgancha muyulishdan burildi.

— Senmisan, Lafarj?

Ostonada trubka chekib, bir erkak o‘tirardi.

— Salom, Mayk.

— Ha, xotining bilan g‘ijillashib qoldingmi? Asabni tinchitgani, shamollagani chiqdingmi?

— He-yo‘q, shunchaki aylanib yuribman.

— Turqingdan nimanidir qidirayotgandaysan. Ha, darvoqe, topildiqlar haqida. Bugun kechqurun kimdir torpilibdi. Jo Spoldingni bilasanmi? Qizi Laviniya esingdami?

— Esimda, — Lafarj muzdek bo‘ldi. Bu go‘yo ikkinchi marta ko‘rayotgan tushga o‘xshardi. Bundan keyin nima deyilishi kerakligini ham u aniq bilib turardi.

— Laviniya bugun kechqurun uyga qaytdi, — dedi Mayk tutunni puflab. — Uning bir oy burun O’lik dengiz tagida adashib qolgani esingdami? Keyin uning jasadini topishdi, harholda uniki bo‘lsa kerak, juda dabdala qilib tashlashgan ekan-da… Shundan beri Spoldinglar o‘zlariga kelganlaricha yo‘q. Jo qaerga borsa, yo‘q, qizim tirik, bu uning jasadi emas, deydi. Mana, u haq bo‘lib chiqdi. Bugun Laviniya paydo bo‘ldi.

— Qaerda? — Lafarj og‘ir-og‘ir nafas olar, yuragi duk-duk qilardi.

— Katta ko‘chada. Spoldinglar kinoga chipta olib turishgan ekan. Birdan olomon ichida Laviniyani ko‘rib qolishibdi. Qanaqa tomosha bo‘lganini o‘zing bilaver. Avvaliga qiz ularni tanimabdi. Uch mahallacha orqasidan yurib borishibdi, ular gapiraverishibdi-gapiraverishibdi, oxiri qiz eslabdi.

— Qizni o‘zing ko‘rdingmi?

— Yo‘q, ammo uning ovozini eshitdim. Esingdami, u “Lomond ko‘lining ajoyib sohili” qo‘shig‘ini aytishni yaxshi ko‘rardi? Shunday qilib desang, yaqinginada men uning shu qo‘shiqni otasiga aytib turganini eshitdim, hov, ana ularning uyi. Shunaqayam kuylaydiki, qoyil qolasan! Xudo bergan qiz.

Uning o‘lganini eshitganimdan beri bu qanday ko‘rgulik deb o‘zimga kelolmayman. Mana, qaytib kelib, biram yengil tortdimki. Ie, tobing yo‘qqa o‘xshayapti, bu yoqqa kel-chi, bir qultum viskidan otib ol!

— Rahmat, Mayk. Boshqa safar. — Chol u yerdan ketdi.

Orqadan Maykning xayrli tun tilab qolganini eshitsa-da, javob bermadi, balki nigohini baland billur tomiga Mars gullarining cho‘g‘dek qatlami yastlangan ikki qavatli uyga qadab olgan edi. Bog‘ uzra jingalak panjarali balkon osilib turar, ikkinchi qavat derazalarida chiroq yonib turardi. Vaqt allamahal bo‘lsa-da, baribir u ko‘nglidan o‘tkazdi: “Agar Tomni olib bormasam, Enning ahvoli nima kechadi?

Yangi zarba — yana o‘lim. Bunga bardosh bera olarmikan? Birinchi o‘limini eslarmikan?.. Mana bu o‘ngida bo‘layotgan bu tushni ham eslarmikan? Mana bu to‘satdan sodir bo‘lgan ayriliqni-chi? Ey xudo, Enn uchun Tomni topmasam bo‘lmaydi! Sho‘rlik Enn, u qayiq yonida kutib o‘tiribdi-ya…”

Chol boshini ko‘tardi. Allaqaerda balandlikda ovozlar quvnoq ohangda bir-biriga xayrli tun tilar, eshiklar yopilar, chiroqlar o‘char va past ovozda aytilayotgan qo‘shiq tinimsiz quloqqa chalinar edi. Bir lahza o‘tib, balkonga 18 yoshlardagi yoqimtoygina qizcha chiqdi.

Lafarj kuchli shamolga bas kelgancha, qizni chaqirdi.

Qiz burilib pastga qaradi.

— Kimsiz? — qichqirdi qiz.

— Bu men, — dedi chol unga. G’alati, o‘ylamay javob berganini anglab, u tutilib qoldi, faqat lablari unsiz pirpirardi.

“Tom o‘g‘lim, men otangman” deb qichqirsamikan? Qizga nima desa ekan? Tag‘in u biron telba-pelba deb o‘ylab ota-onasini chaqirib yurmasin.

Qiz muzdek g‘ira-shira yorug‘likda gavdasini panjara osha chiqarib egildi.

— Men sizni bilaman, — yumshoqqina javob berdi qiz. — Iltimos, keting. Siz bu yerda hech nima qilolmaysiz.

— Sen qaytishing kerak! — Lafarj shuncha urinsa ham o‘zini tutib turolmay, beixtiyor qichqirdi.

Oydindagi odam qiyofasi yuqorida qorong‘ilik ichiga chekindi-da, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi, faqat tovushi quloqqa chalinardi.

— Men endi sizning o‘g‘lingiz emasman, — dedi tovush. — Nima uchun shaharga ketdik biz?

— Oying seni sohilda kutib turibdi!

— Meni kechiring, — javob berdi ohista tovush. — Ammo nima ham qila olardim? Bu yerda men baxtliman, xuddi sizlardek meni sevishadi. Men o‘z holimcha menman, berganlarini olaman. Endi kech: ular meni asir olishdi.

— Ammo Enn haqida o‘ylasang-chi, bu unga qanday zarba bo‘lishini bilasanmi?..

— Bu uydagi fikrlar haddan tashqari kuchli, men xuddi qamoqda yotgandekman. Men o‘zim o‘zimcha o‘zgarolmayman.

— Ammo sen Tomsan-ku, hozir qiz bola bo‘lsang ham oldin Tom eding-ku, to‘g‘rimi?! Yoki sen cholni masxara qilayotibsanmi? — balki haqiqatan ham sen Laviniya Spoldingdirsan?

— Men unisi ham, bunisi ham emasman, men faqat menman. Ammo qaerga bormay, men yana qandaydir boshqacha hamman va hozir siz mana shu boshqachani o‘zgartirishga qodir emassiz.

— Sening shaharda qolishing xatarli. O’zimizning kanalda yaxshi, u yerda seni hech kim xafa qilmaydi, — yolvorardi chol.

— To‘g‘ri… — ovoz ikkilanib javob berdi. — Ammo men bu yerdagi odamlar bilan hisoblashishga majburman. Ertalab mening g‘oyib bo‘lganimni ko‘rishsa ularning holi nima kechishini bilasizmi?

Tag‘in hamishalikka-ya. To‘g‘ri, oyim mening kimligimni biladilar, — sizga o‘xshab aqllari yetadi.

Menga ular hamma narsani bilib olganga o‘xshab ko‘rinadilar, faqat so‘rashni istashmayapti. Arvohga savol bermaydilar. Agar bor narsaga ega bo‘lish qiyin ekan, bunda orzuning nima yomon joyi bor?

Men ular yo‘qotgan men bo‘lmay qo‘ya qolay, ular uchun men hatto ularning orzulari yaratgan eng go‘zal orzudan ham yaxshiroqdir. Oldimda ikki yo‘l turibdi: yo ularning dilini og‘ritishim kerak, yoki sizning xotiningizning dilini og‘ritishim kerak.

— Ularning oilasi katta, besh nafar. Ular bu yo‘qotishga bardosh bera oladilar!

— Iltimos, — ovoz titradi, — men charchadim.

Cholning ovozi qat’iylashdi.

— Sen biz bilan ketishing kerak. Men Enniga ortiq azob berishni istamayman. Sen bizning o‘g‘limizsan. Sen mening o‘g‘limsan, sen menikisan.

— Keragi yo‘q, iltimos! — balkondagi soya titrar edi.

— Seni bu uy va uning egalari bilan hech narsa bog‘lab turgani yo‘q.

— E-ha, siz meni nima qilayapsiz?

— Tom, Tom, o‘g‘lim, quloq sol. Tezroq uyga qaytib kel, ha, mana bu chirmovuqdan osilib tush.

Ketdik, Enn kutayapti, sening o‘z uying bo‘ladi, nima xohlasang hammasi muhayyo bo‘ladi.

Lafarj mo‘‘jiza ro‘y berishini jon-dili bilan istagancha va intiq

bo‘lgancha ko‘zlarini balkondan olmasdi…

Soyalar chayqalar, chirmovuqlar shitirlar edi.

Nihoyat past ovoz quloqqa chalindi:

— Yaxshi, ota.

— Tom!

Oy nurida chirmovuqlardan chaqqon o‘g‘il bola qiyofasi sirg‘alib tushdi. Lafarj quchoqlamoqchi bo‘lib qo‘llarini ko‘tardi.

Tepadagi derazalarda charaqlab chiroq yondi.

Naqshinkor panjara ortidan kimningdir ovozi chalindi.

— Kim u?

— Bo‘la qol, bolakay!

Yana chiroq yondi, yana tovushlar eshitildi.

— To‘xta, otaman! Vinni, sog‘misan?

Shoshib ketayotgan oyoq tovushlari.

Chol va bola bog‘ ichidan yugurib ketishdi.

O’q ovozi yangradi. O’q bog‘ eshigining yonginasidagi devorga kelib tegdi.

— Tom, sen bu tomonga qarab chop! Men bu tomonga qarab chopaman, ularni chalg‘itaman, to‘g‘ri kanal oldiga borgin, o‘n daqiqadan keyin o‘sha yerda uchrashamiz, bo‘la qol.

Ular har ikki tomonga qarab chopib ketishdi.

Oy bulutlar ortiga yashirindi. Chol zim-ziyo qorong‘ilik ichida chopib borardi.

— Enn, men shu yerdaman.

Ayol titrab-qaltiragancha cholning qayiqqa tushishiga yordamlashib yubordi.

— Qani Tom?

— Hozir keladi.

Ular tor yo‘lchalar va uxlayotgan shaharaga qaradi. Hamon kech qolgan yo‘lovchilar ko‘zga tashlanardi, politsiyachi, tungi qorovul, raketa uchuvchisi, tungi visoldan keyin uyiga qaytayotgan yolg‘izbosh erkaklar, kulgancha bardan chiqib kelgan ikki juft erkak va ayol… Allaqaerda musiqaning bo‘g‘iq ovozi chalinardi.

— Nega u shu paytgacha yo‘q? — so‘radi ona.

— Hozir, sabr qil.

Biroq Lafarj endi ishonmayotgan edi. Kim bilsin, balki yigitchani qaerdadir, qanday qilibdir bandargoh tomonga chopib kelayotgandami, chiroqsiz uylar oralig‘idagi zim-ziyo ko‘chalardan o‘tib ketayotgandami, tutib olishgandir-da? Albatta, oradagi yo‘l ancha olis edi, hatto chaqqon bola uchun ham olislik qilar edi. Ammo nima bo‘lganda ham Tom undan oldin yetib kelishi kerak edi…

Birdan uzoqdan oydin yoritib turgan ko‘chadan chopib kelayotgan odam qorasi ko‘rindi.

Lafarj qichqirib yubordi, biroq o‘sha zahoti o‘zini bosdi:

— O’sha yoqdan, uzoqdan uning qulog‘iga boshqa ovozlar, boshqa oyoqlar dupuri chalindi.

Derazalarda birin-ketin chiroqlar yondi. Yolg‘iz ko‘lanka bandargoh oldidagi keng maydonga otilib chiqdi. Bu Tom emas edi, balki sonsiz fonarlar yog‘dusida bir charaqlab, bir o‘chib turgan kumush rang yuzli oddiy xilqat edi. Ammo u yaqinlashib kelgani sayin tobora tanish tuyula boshladi va qiyofa bandargohga yetib kelganda Tomga aylanib bo‘lgan edi! Enn qo‘llari bilan suvni shaloplatdi, Lafarj shoshib qayiqni qirg‘oqdan itardi, ammo endi kech edi.

Chunki ko‘chadan kimsasiz maydonga bir erkak… yana bir erkak… bir ayol, yana ikki erkak, mister Spolding otilib chiqdi. Ular nima qilishlarini bilmay, to‘xtab qolishdi. Ular chor atrofga olazarak qarashar edi, ular uyga qaytishni istashardi: axir bu… bu borib turgan dahshat, telbalik edi, vassalom! Shunday bo‘lsa-da, ular ta’qib etishda davom etar, dam-badam ikkilanib to‘xtab olar va yana yugurib ketar edilar.

Ha, endi kech edi. Bu g‘ayrioddiy oqshom, g‘ayrioddiy voqea nihoyasiga yetgandi. Lafarj qo‘lida arqonni aylantirardi.

U qattiq sovqotgan va o‘zini yolg‘iz his qilardi. Oydinda odamlar ko‘zlari kosasidan chiqib chopayotganlari, shoshib ketayotganlari, oyoqlarini siltab, yugurayotganlari ko‘rinib turardi, mana, ular barchasi, o‘n nafar odam qirg‘oq bo‘yida turar edi. Ular qayiqqa yeb qo‘ygudek qarab turishardi.

Ular qichqirar edilar:

— Joyingdan qo‘zg‘alma, Lafarj!

Spolding qo‘lida to‘pponcha ushlab turardi.

— Nima bo‘lgani endi ravshan edi… Tom bir o‘zi yo‘lovchilarni ortda qoldirgancha oy yoritib turgan ko‘chalardan yurib borar edi. Politsiyachi miltillagan qiyofani sezib qoladi. Shartta orqasiga burilib, uning yuziga qaraydi, qanaqadir ismni aytib qichqiradi, orqasidan quvib, yuguradi. “Hoy, to‘xta!” U mashhur jinoyatchini ko‘rib qoldi. Yo‘ldan kim o‘tgan bo‘lsa hammasini ko‘rdi. Erkakmi, ayolmi, tungi qorovulmi yoki raketa uchuvchisimi — ularning har biri uchun chopib ketayotgan qiyofaning kim ekanligi baribir edi. Uning timsolida ular uchun tanish bo‘lgan har qanday odam, har qanday ramz, har qanday ism tajassum topgan edi… So‘nggi besh daqiqa ichida qanchalab turfa ismlar tilga olinmagan edi!.. Tom timsolida qanchalab shaxslar tusmol qilinmagandi — barchasi soxta!

Butun yo‘l bo‘ylab ta’qiblanuvchi va ta’qib qiluvchilar, orzu va orzu qiluvchilar, parrandalar va ko‘ppaklar to‘lib-toshib ketgan edi. Butun yo‘l bo‘ylab: kutilmagan kashfiyot, tanish ko‘zlar chaqnog‘i, chala esda qolgan ismni aytib qichqirish, qadim zamonlar haqidagi xotiralar — uning izidan chopib borayotgan olomon shu tariqa ko‘paygandan-ko‘payib, toshgandan-toshib borar edi. Har kim

o‘rnidan dik etib turar edi-da, orqasidan chopib ketar edi, bir karra lip etib ko‘zdan o‘tgan siymolar, o‘n minglab ko‘zgular o‘n minglab ko‘zlarda aks etadi, — chopib borayotgan sharpa, shaxs, biri oldinda ketayotganlar uchun, boshqasi orqada kelayotganlar uchun va yana biri, yangisi uning yo‘lida uchraydigan, hali uni ko‘rmagan odam uchun.

Mana, ular barchasi shu yerda, qayiq yonida har biri birgina orzuga yetishishni istaydi, — xuddi biz bu sharpa na Laviniya, na Rojer, na boshqa biron kishi emas, aynan Tom bo‘lishini qanchalik xohlar edik, o‘yladi Lafarj. Ammo endi bu amalga oshmaydi. G’isht qolipdan ko‘chgan edi.

— Qayiqdan chiqinglar, qani! — buyruq berdi Spolding.

Tom bandargohga ko‘tarildi. Spolding uning qo‘lidan tutdi.

— Sen biz bilan uyimizga borasan. Men hammasini bilaman.

— To‘xta, — oraga suqildi politsiyachi, — u hibsga olingan! Uning ism-sharifi Dekster, qotilligi uchun qidirilmoqda.

— Yo‘q, yo‘q! — piq-piq yig‘ladi ayol. — Bu mening erim! Nima, o‘z erimni tanimay o‘libmanmi?!

Boshqa ovozlar o‘z aytganida turib oldi. Olomon qaynar edi.

Missis Lafarj Tomni gavdasi bilan to‘sib oldi.

— Bu mening o‘g‘lim, sizlar uni hech qanaqangi ayb bilan ayblashga haqqingiz yo‘q! Biz uyga borishimiz kerak!

Tom esa to‘xtovsiz qaltirar edi. Uning avzoyidan qattiq kasalga o‘xshardi. Olomon hamon bostirib kelar, toqatsizlik bilan qo‘llarini cho‘zar, uni tutib olmoqchi bo‘lar edi.

Tom qichqirib yubordi.

U hammaning ko‘z o‘ngida o‘zgarmoqchi edi. Bu Tom edi, Jeyms ham, Svichmen ism-sharfli odam ham edi, Betterfild ism-sharifli boshqa odam ham edi, bu shahar meri edi va YUdif ismli qiz ham, eri Uilyam ham, xotini Klarissa ham edi. U bamisoli yumshoq, ularning tasavvuricha itoatgo‘y edi. Ular qichqirar, bostirib kelar, o‘zlari tomon chorlar edilar. U ham ularga qo‘llarini keng yoyib, siltagancha qichqirar va har bir qichqiriq uning yuzini o‘zgartirib yuborar edi.

— Tom! — chaqirdi Lafarj.

— Alisa! — yangradi yangi qichqiriq.

— Uilyam!

Ular yigitchani qo‘lidan ushlab oldilar, so‘nggi marta qichqirib, yerga yiqilmaguncha o‘zlari tomon tortaverdilar.

U toshlar ustida yotardi — erigan mum qotmoqda edi, uning basharasi barcha basharalar kabi edi, bir ko‘zi moviy, ikkinchi ko‘zi tillarang, sochi qip-qizil, malla, sarg‘ish, qora edi. Bir qoshi baroq, ikkinchisi ingichka, bir qo‘li katta, ikkinchisi kichkina edi.

Ular barmoqlarini lablariga qo‘ygancha uning boshi uzra turar

edilar. Ular egildilar.

— U o‘ldi, — dedi kimdir oxiri.

Yomg‘ir yog‘a boshladi.

Tomchilar odamlarga tusha boshladi va odamlar osmonga qarashdi.

Ular orqaga burilishdi-da, avval sekin, keyin tez-tez odimlar bilan uzoqlashishdi, keyin esa har tomonga qarab chopib ketishdi. Faqat dahshat ichida qolgan mister va missis Lafarj bir-birining qo‘lidan tutgancha, joylarida turar va unga qarar edilar.

Yomg‘ir osmonga yuzlangan, hech qanday tanish belgisi qolmagan basharani yuvar edi.

Enn unsiz yig‘lay boshladi.

— Ketdik uyga, Enn, endi qo‘limizdan hech narsa kelmaydi, — dedi chol.

Ular qayiqqa tushishdi va zulmat ichida kanaldan suzib ketishdi. Ular o‘z uylariga kirishdi va kaminga o‘t qalashdi, qo‘llarini o‘tga toblab isinishdi. Ular uxlagani ketishdi va holdan toygan, qaltiragan ko‘yi yomg‘irning yana tomni nog‘ora qilib chalayotganiga quloq solib birga yotishdi.

— Tishsh, — to‘satdan dedi Lafarj yarim tunda. — Hech narsa eshitmayapsanmi?

— Yo‘q, eshitmayapman…

— Baribir chiqib qaray-chi.

U zim-ziyo xonani paypaslanib yurib o‘tdi-da, ochishdan oldin katta eshik oldida uzoq turdi.

Nihoyat eshikni lang ochdi-da, tashqariga ko‘z soldi.

Yomg‘ir bo‘m-bo‘sh hovliga osmondan suv quyib anhorni, ko‘m-ko‘k tog‘ yonbag‘irlarini yuvar edi.

U besh daqiqacha kutib turdi, so‘ng ho‘l qo‘llari bilan asta eshikni yopdi-da, lo‘kidonini surib qo‘ydi.

Noyabr 2005
“YO‘L TOVARLARI”

Modullashtirilgan yorug‘lik nuri Yerdan so‘nggi xabarlarni keltirganda, yo‘l mollari do‘konining sohibiga kechqurun radiodan eshitgan bu yangilik juda ham uzoq tuyulib ketdi. Hech narsani tushunib bo‘lmasdi.

Yerda urush yetilib kelardi.

U tashqariga chiqdi va osmonga qaradi.

Ana u, Yer, kechqurungi ko‘k gumbazida tog‘ ortiga dumalab ketayotgan quyoshni quvib bormoqda. Mana shu yashil yulduz radio gapirgan narsaning aynan o‘zi bo‘ladi.

— Hech ishongim kelmaydi, — dedi baqqol.

Bu sizning u yerda emasligingizdan, — dedi ota Peregrin, u salomlashgani unga yaqinlashdi.

— Buni qanday tushunish kerak, avliyo ota?

— Mening bolaligimda ham xuddi shunday bo‘lgan edi, — dedi ota Peregrin. — Biz Xitoydagi urush haqida eshitar edik. Lekin biz bunga ishonmasdik. Bu juda qadimgi gap. Juda ko‘p odamlar qirilib ketgan u yerda. Buni tasavvur ham qilib bo‘lmaydi. Hatto o‘sha yoqdan olib kelingan filmlarni ko‘rganimizda ham bizlar ishonmaganmiz, hozir ham shunday bo‘layapti. Yer — o‘sha Xitoy. Haddan tashqari uzoq, shuning uchun odam ishongisi kelmaydi. Urush bu yerda emas, bizda bo‘lmayapti.

Ushlab ko‘rish u yoqda tursin, hatto ko‘z bilan ko‘rib bo‘lmaydi. Bor-yo‘q ko‘rib turgan narsamiz yashil chiroq, xolos. Mana shu yashil chiroqda ikki milliard odam yashaydimi? Aql bovar qilmaydi! Urush?

Lekin qulog‘imizga portlashlar chalinmayapti-ku?!

— Chalinib qolar, — dedi boqqol. — Men nuqul shu hafta ichi bu yerga uchib kelishi kerak bo‘lgan odamlar to‘g‘risida o‘ylayman. Ular haqida qanday gaplarni aytishgan? Yaqin oylar ichida Marsga yuz mingga yaqin odam keladi, deyilgan. Menimcha, shunday. Agar urush boshlanib qolsa, ularga nima bo‘ladi?

— Izlariga qaytib ketishsa kerak-da.

— Ha, ha, — dedi boqqol. — Bo‘pti, borib jomadonlarimning changlarini artay, hali-zamon xaridorlar bostirib kelib qolishadi.

— Agar bu biz ko‘p yillardan beri kutayotgan o‘sha Katta urush bo‘lsa, hamma Yerga qaytishni xohlab qoladi deb o‘ylaysizmi?

— Aynan shunday, avliyo ota: qanchalik g‘alati tuyulmasin, biz hammamiz shuni xohlab qolamiz deb o‘ylayman. Bo‘lmasa-chi, biz siyosatdan, atom bombasidan, urushdan, amaldorlar to‘dalaridan, xurofotlardan, qonunlardan bezib bu yerga uchib kelganmiz. Bular

barchasi menga kunday ravshan.

Ammo baribir vatan u yoqda-da. Mana koʻrasiz, Amerikaga birinchi bomba tushishi bilan bu yerdagi odamlar oʻyga choʻmib qolishadi. Ular bu yerda juda oz yashashgan. Nari borsa ikki yil. Qirq yil boʻlganda, boshqa gap edi, endi esa axir Yerda ularning qarindosh-urugʻlari, tugʻilib oʻsgan shaharlari bor. Men-ku, sirasini aytsam, Yerga hatto ishonmayman ham, men uchun u yoʻq hisobi. Ammo men cholman, mendan hech qanday foyda-ziyon yoʻq. Men shu yerda qolsam ham boʻlaveradi.

— Yana kim biladi.

— Bu gapingiz ham toʻgʻri.

Ular yulduzlarga qaragancha ayvonda turishardi. Soʻng ota Peregrin choʻntagidan pul oldi va uni doʻkon sohibiga uzatdi.

— Darvoqe, menga bitta jomadon tanlab bering. Anovi eski jomadonim titigʻi chiqib ketgan…

Noyabr 2005
O‘LIK MAVSUM

Sem Parkxill moviy Mars qumini supurar ekan, supurgini chaqqon-chaqqon siltar edi.

— Mana bo‘ldi, — dedi u. — Marhamat, ser, tomosha qiling! — U qo‘li bilan ko‘rsatdi. — Yozuvga qarang, yozuvga. “SEMNING ISSIQ SOSISKALARI”! Go‘zal-a, to‘g‘rimi, Elma?

— To‘g‘ri, Sem, — tasdiqladi uning xotini.

— Ko‘rdingmi, men qayoqqa surib yuborganman! Endi meni TO‘RTINCHI EKSPEDISIYA yigitlari bir ko‘rib qo‘yishsa yomon bo‘lmasdi. Xudoga shukur, ishim jo‘nashib ketdi, ular bo‘lsa, haligacha askarcha choriqlarni sudrab yurishibdi. Bizlar esa pulni pul bilan o‘ynaymiz, Elma, pul bilan! — Xotini indamay unga qarab turardi.

— Kapitan Uaylder qaerga gumdon bo‘ldi? — so‘radi xotini oxiri. — Anovini o‘ldirgan boshlig‘ing bor edi-ku, anovi-chi, hamma yerliklarni bitta qo‘ymay qirib tashlamoqchi bo‘lgan — hah, oti qurg‘ur nima edi-ya?..

— Anovi jinnini aytayapsanmi? Spender. Uchchiga chiqqan mal’un. Ha, kapitan Uaylderga kelsak…

Aytishlaricha, Yupiterga uchib ketganmish. Katta odam bo‘lib ketganmish. Yanglishmasam Mars ham uning abjag‘ini chiqardi. Naq onasini uchqo‘rg‘ondan ko‘rdi, xudo haqi. Agar omadi chopsa, Yupiter va Plutondan yigirma yildan keyin qaytib keladi. U yerda lom-mim deyishga ham tili aylanmay qoladi.

Tilni tiyish nimaligini o‘shanda biladi. Ana shunaqa. U yerda u sovuqdan qotib o‘ladi, men-chi, bu yerda, ko‘rdingmi, nimalar qilib oldim! Kiroyi joy degani bundoq bo‘libdi-da!

Ikki tashlandiq tosh yo‘l shu yerda tutashib, zulmat ichiga g‘oyib bo‘lgancha shu yerda ayrilar edi.

Nah chorrahaning o‘zida Sem Parkxill shishgan quroq-quroq alyuminiydan yasalgan inshoot qad ko‘tarib turardi. U oppoq nurga chulg‘anib, avtomat-radiola o‘kirigidan titrardi.

Singan shishadan yasalgan Yo‘lak chekkasidagi shisha parchalaridan yasalgan bordyurni to‘g‘rilash uchun u egildi. Shishani u tog‘lardagi qadimgi Mars binolaridan ushatib kelgandi.

— Ikki sayyoradagi eng yaxshi qaynoq sosiskalar! Marsdagi birinchi sosiskafurushlar! Piyoz, qalampir, xantal — hammasi oliy sifatli! Qani endi meni birov noshud deb aytib ko‘rsin-chi! Ana sizga ikkita shoh ko‘cha, ana o‘lik shahar, hov anavi yerda esa, konlar. 101 Settlment yuk mashinalari sutkasiga 24 soat yonimizdan o‘tib turadi.

Qani ayt-chi, yomon joy tanlabmanmi?

Xotini oyoqlariga qarar edi.

— Ishchilari bor bu o‘n ming yangi raketa Marsga uchib kelayapti deb o‘ylaysanmi? — dedi xotini nihoyat.

— Bir oyga qolmaydi, — ishonch bilan javob berdi u. — Nega labingni burasan?

— Men anovi Yerdagi odamlarga unchalik ishonmayman, — javob berdi ayol. — Qachon o‘n ming raketa va yuz ming meksikalik va xitoyliklarni o‘z ko‘zim bilan ko‘raman, o‘shanda ishonaman.

— Xaridorlar, — sem Parkxill bu so‘zni salmoqlab aytdi. — Yuz ming och mijoz!

— Ishqilib, atom urushi bo‘lmasin-da, — asta dedi ayol osmonga qarab. — Bu atom bombalar menga sira tinchlik bermayapti. Yerda shunchalik ko‘p to‘planib qolganki, har narsa bo‘lishi hech gap emas.

Sem hm deb qo‘ydi-da, supurishda davom etdi.

Ko‘zining qiri bilan u moviy miltillashini payqab qoldi. Uning orqasida havoda nimadir shovqinsiz parvoz qilmoqda edi. Xotinining ovozi qulog‘iga chalindi:

— Sem, seni oshnang so‘rab keldi.

Sem o‘girildi va havoda chayqalib turgan niqobni ko‘rdi.

— Yana kelibdi! — dedi Sem supurgini ko‘ndalang ushlagancha.

Niqob bosh irg‘adi. U zangori shishadan yasalgan bo‘lib, ingichka bo‘yin ustida turardi, pastda nafis sariq shoyi libos shamolda hilpirardi. Libos ichidan xuddi to‘rday shaffof ikkita kumush qo‘l chiqib turardi. Og‘iz o‘rnida niqobda ensiz o‘yiq bo‘lib, undan musiqa sado chiqardi, qo‘llar, niqob, libos esa goh tepaga, goh pastga mayin tushib-chiqib turardi.

— Mister Parkxill, men siz bilan gaplashgani keldim yana, — dedi niqob ostidan ovoz.

— Bu yerda qorangni ham ko‘rmay deb aytgan edim-ku! — o‘shqirdi Sem. — Yo‘qol, bo‘lmasa Kasalni qo‘yib yuboraman!

— Kasal menda allaqachon bo‘lgan, — javob berdi ovoz. — Tirik qolganlardan bittasi menman.

Men juda uzoq yotdim.

— O’zingning tog‘ingga daf bo‘l-da, ko‘rsatgan joydan qimir etmay o‘tir. Nega bu yerga kelib, menga yopishib olasan! He yo‘q-be yo‘q. Tag‘in kunda ikki marta-ya.

— Biz sizga yomonlik qilmaymiz.

— Lekin men sizlarga yomonlik qilaman! — dedi Sem depsinib.

— Men xorijliklarni yomon ko‘raman. Marsliklarni ham yomon ko‘raman. Shu paytgacha bittasini ham ko‘rganim yo‘q. Ko‘rib ham nima qilardim. Shuncha yil allaqaerga yashirinib o‘tirishsin-da, endi birdaniga men ularga kerak bo‘lib qolay, voy tovba! Meni tinch

qo‘ying!

— Sizda muhim ishimiz bor, — dedi moviy niqob.

— Agar Yerni aytayotgan bo‘lsangiz, u meniki. Men u yerda sosiskaxonani o‘z qo‘lim bilan qurganman.

— Yerga kelganda, gapingiz bir hisobdan to‘g‘ri.

— Gap bunday, og‘ayni, quloq sol, — javob berdi Sem. — Men o‘zim Nyu-Yorkdanman. Bu katta shahar; u yerda menga o‘xshaganlardan yana o‘n milliontasi bor. Sizlar marsliklar bor-yo‘g‘i yigirma yo o‘ttiz nafar qolgansizlar. Sizlarda shaharlar yo‘q, tog‘ma-tog‘ kezib yurasizlar, na hokimiyat, na qonun bor. Tag‘in sen menga Yerdan gap ochganingga o‘laymi? Shuni qulog‘ingga quyib ol: “Eski yangiga joyni bo‘shatib berishi kerak, yaxshilikcha o‘z yo‘limizdan ketaylik, yonimda to‘poncha bor, mana u. Bugun ertalab sen ketishing bilan men uni olib, o‘qlab qo‘yganman.

— Biz marsliklar — telepatlarmiz, — dedi sovuqqonlik bilan moviy niqob. — O’lik dengizning narigi tomonida shaharlaringizdan bittasi bilan biz aloqa o‘rnatganmiz. Siz bugun radioni eshitdingizmi?

— Mening piryomnigim zanglab qolgan.

— Demak, siz hech narsadan bexabarsiz. Juda muhim yangiliklar bor. Yerga daxldor.

Kumush qo‘l bir harakat qilgan edi, unda bronza go‘shak paydo bo‘ldi.

— Yo‘q demasangiz, men buni sizga ko‘rsataman.

— To‘pponcha! — asta qichqirib yubordi Sem Parkxill.

G’ilofdan to‘pponchasini oldi-da, u tumanli qiyofaga, libosga, moviy niqobga qarab o‘t ochdi.

Niqob bir lahza havoda qotib qoldi. So‘ng shoyi libos shitirladi-da, qatma-qat mayin taxlanib-taxlanib, xuddi mo‘‘jaz tsirk chodiriday yerga quladi, kumush qo‘llar tosh terilgan yo‘lakni tirnadi. Va niqob oppoq suyak va mato uyumi ustini unsiz qoplab oldi.

Semning nafasi ichiga tushib ketdi.

Xotini chayqalgancha marslikning jasadi ustida turardi.

— Bu qurol emas, — dedi ayol egilib bronza go‘shakni olar ekan. — Bu xat bo‘lsa kerak. U senga ko‘rsatmoqchi bo‘lgan. Xat qandaydir ilon alifbosida yozilgan, qara — hammasi bir xil moviy ilon. Men bu belgilarni o‘qiy olmayman. Sen-chi?

— Yo‘q.

— Bu marscha piktogrammalardan nima foyda, tashlab yubor! — U atrofga o‘g‘rilardek alanglab qaradi. — Tag‘in boshqalari ham bostirib kelib qolmasin! Uni tezroq ko‘zdan yo‘qotish kerak. Qani, belkurakni ber-chi!

— Nima qilmoqchisan?

— Ko‘maman, boshqa nima qilardim?

— Uni o‘ldirmaslik kerak edi.

— Nachora, xato qildim. Bo‘la qol!

Ayol unga indamay belkurakni olib kelib berdi.

Soat sakkizlarga yaqin Sem Parkxill qaytib keldi va sosiskaxona oldidagi maydonchani aybdorlarcha supurishga tutindi. Xotini qo‘llarini ko‘kragiga qo‘yib, nur tushib turgan eshik oldida turardi.

— Chakki bo‘ldi-da, — dedi er.

U xotiniga bir qarab qo‘yib, ko‘zini chetga oldi. — Ko‘rding-ku o‘zing, tasodifan shunday bo‘lib qoldi, vaziyat shunaqa bo‘lib qoldi.

— Ha, — dedi xotin.

— U qurolni olganida g‘azabdan o‘zimni tutolmadim.

— Qanaqa qurol?

— Shunchaki, menga qurol bo‘lib ko‘rindi-da! Afsus, afsus! Yana necha martalab takrorlashim kerak!

— Jim! — dedi Elma barmog‘ini labiga qo‘yib. — Jim!

— Menga baribir, — dedi Sem. — Men bir o‘zim emasman. Bir nima bo‘lgudek bo‘lsa, bugun “Settelmenlik yerliklar, inkorporeyted” men tomonda! — U nafrat bilan pishqirib qo‘ydi. — Marsliklar kulsa undan nari…

— Katta gapirma, — uning so‘zini bo‘ldi Elma.

Sem qurib qolgan dengiz tomonga qarab qo‘ydi. U supurgini qo‘lidan tashlab yubordi, so‘ng yana oldi; u angrayib turardi. Lablaridan moshdekkina so‘lak tomchisi uzilib tushdi-da, shamolda uchib ketdi. Birdan a’zoi badani titray boshladi.

— Elma! Elma! Elma! — deb yubordi u.

— Ana kelishdi, — dedi Elma. Ko‘hna dengiz tubidan xuddi moviy arvohlardek moviy tutunlar kelardi, moviy yelkanlar ostida o‘n-o‘n ikkitacha baland Mars qum kemalari sirpanib kelardi.

— Qum kemalar! Ammo ular qolmagan edi-ku, Elma! Ular yo‘q bo‘lib ketgan edi-ku!

— Nima bo‘lganda ham bu ularning kemalariga o‘xshayapti, — dedi ayol.

Qanaqasiga? Hukumat ularni musodara qilgan-ku! Hammasini majaqlab tashlashgan, faqat bir nechtasini kimoshdi savdosida sotishgan! Butun okrugimizda bir men shu kemani sotib olgan edim, uni qanday haydashni bilaman!

— Qolmaganmish… — takrorladi Elma dengiz tomonga bosh irg‘ab.

— Bo‘la qol, bu yerdan tezroq juftakni rostlamasak bo‘lmaydi!

— Nimaga? — Cho‘zib dedi ayol, Mars kemalariga sehrlangandek qarab.

— Ular meni o‘ldirishadi! Mashinaga chiq tezroq!

Elma joyidan qimir etmasdi.

Sem uni sosiskaxonaga zo‘rlab sudrab olib ketdi. Bu yerda ikkita

mashina turardi: bittasi yaqin-yaqingacha mudom aylanib yuradigan yuk mashinasi va ikkinchisi kimoshdi savdosida ermak uchun sotib olgan ko‘hna Mars qumkemasi edi. So‘nggi uch haftada u bu kemada dengizning narigi tomonidan silliq tub bo‘ylab har turli yuklar tashirdi. Yuk mashinasiga qaradi-yu, esiga tushdi. Motor yerda yotardi — uni ta’mirlash bilan u ikki kundan beri ovora edi.

— Yuk mashinasi yurishga yaramasa kerag-ov, — dedi Elma.

— Qumkema! O’tir tezroq!

— Meni shu kemada olib ketmoqchimisan? He yo‘q-be yo‘q.

— O’tir! Hayday olaman!

Sem xotinini ichkariga qarab turtdi, o‘zi izma-iz sakrab chiqdi-da, oqshomgi shamolga kobalt yelkanni ro‘para qilib, rulni qattiq turtdi.

Charaqlagan yulduzlar ostida moviy Mars kemalari shitirlagan qumlar bo‘ylab o‘qdek sirpanib kelardi. To langar esiga tushib, uni joyidan sug‘urib olmaguncha, Semning kemasi joyidan qimir etmay turdi.

— Ketdik!

Kuchli shamol qumkemani o‘lik dengiz tubi bo‘ylab surib ketdi, pastda esa billur qoyalar qum bosib yotar, ustunlar ag‘darilgan, marmar va misdan qilingan tashlandiq bandargohlar ko‘zga tashlanar, o‘lik shaharlarning oppoq shaxmat donalari ko‘rinar, qirmizi tog‘ yonbag‘irlari yastanib yotar edi…

Sem orqasidan yetib kelmaguncha Mars kemalari tobora siyraklashib boraverdi.

— Bopladim-a, burnini yerga ishqadim-a! — qichqirdi Sem. — Endi esa “Raketa kompaniyasi”ga xabar qilaman, ular menga qo‘riqchi berishadi. Ayt, qotmagan boshimni qotirmasin!

— Agar xohlashganida, seni tutib olib ketishlari ham mumkin edi, — horg‘in javob berdi Elma. — Faqat bu ularga unchalik kerak bo‘lmagan.

Sem kulib qo‘ydi.

— Qo‘yaver, meni qo‘yib yuborisharmidi? Yetisholmadi, vassalom!

— Yetisholmadi? — Elma boshini irg‘ab uning ortiga ishora qildi.

Sem orqasiga o‘girildi. Ustidan sovuq suv quygandek bo‘ldi. U qayrilib qarashga ham qo‘rqdi. U orqadagi o‘rindiqda, izg‘irinli tongdagi odam nafasidek muvaqqat va lang‘illab turgan g‘o‘lachalar uzra suzib yurgan moviy dudga o‘xshash, mo‘rt qamishdagi qirovni eslatuvchi eski zamon oq kashtalariga o‘xshash va charx urgan qor zarralariga o‘xshash allanarsa bordek his qildi.

Yupqa shisha singandek ovoz quloqqa chalindi: kulgi. So‘ng yana jimlik. U orqasiga o‘girildi. Kema tumshug‘ida, rul yonida bir yosh ayol xotirjam o‘tirardi. Barmoqlari sumalakdek ingichka, ko‘zlari

oyday yorqin va katta-katta, chaqnoq, xotirjam.

Shamol uni tebratar, u esa bamisoli suvdagi aksdek chayqalardi, shoyi libosining moviy yomg‘ir jilg‘alaridek burmalari uning nozik badani atrofida lip-lip qilar edi.

— Orqaga buriling, — dedi ayol.

— Yo‘q, — Semning badani jimirlab, xuddi havoda osig‘liq nafis matodek titrar edi, u qo‘rquv va g‘azab o‘rtasidagi sarhadda ikkilanib turardi. — Yo‘qol mening kemamdan!

— Bu sizning kemangiz emas, — javob berdi arvoh. — U bizning dunyomiz kabi qadimiy. U bundan o‘n ming yil muqaddam, dengiz qurib, bandargoh huvillab qolganda ham qumda yurar edi, sizlar esa, kelgandilar, uni o‘g‘irlab, o‘zlaringizniki qilib oldingiz. Qani, orqaga buring-da, uni chorrahaga olib borib qo‘ying. Biz siz bilan gaplashishimiz kerak. G’oyat muhim bir narsa sodir bo‘ldi.

— Yo‘qol kemamdan! — dedi Sem. U to‘pponchani chiqarganda charm g‘ilof g‘ichirlab ketdi. U obdon nishonga oldi. — Sakra, uchgacha sanayman…

— Kerak emas! — qichqirib yubordi qiz. — Men sizga hech qanday yomonlik qilmadim-ku, boshqalar ham. Biz yaxshilik bilan keldik.

— Bir, — dedi Sem.

— Sem, — dedi Elma.

— Gapimga quloq soling, — iltimos qildi qiz.

— Ikki, — shafaqatsizlarcha dedi Sem, tepkini ko‘tarib.

— Sem! — qichqirdi Elma.

— Uch, — dedi Sem.

— Biz faqat… — gap boshladi qiz.

To‘pponcha qars etdi.

Quyosh nurlarida qor eriydi, qor zarralari bug‘ga, hech narsaga aylanadi. O’choq alangasida dahshatli maxluqlar raqs tushib, qular edi. Barcha mo‘rt va zaif narsalar vulqon kraterida parchalanib ketadi va g‘oyib bo‘ladi. Otilgan o‘qdan, olovdan, zarbadan qiz bamisoli gaz sharfidek yengil qulab tushdi, muz haykalchadek erib ketdi. Undan qolgan u-bu narsalar — muz parchalari, qor uchqunlari, dud, — barini shamol uchirib ketdi. Kema tumshug‘idagi o‘rindiq bo‘m-bo‘sh bo‘lib qoldi.

— Sem xotiniga qaramaslikka harakat qilib, to‘pponchani g‘ilofiga soldi. Oy nuriga ko‘milgan qum dengizi bo‘ylab kemaning shitirlab yugurishi atigi bir daqiqagina quloqqa chalinib turdi.

— Sem, — dedi ayol oxiri, — kemani to‘xtat.

Bo‘zdek oqarib ketgan Sem xotiniga yuzlandi.

— Yo‘q, bunday qilolmaysan. Shuncha yillardan keyin sen meni tashlab ketolmaysan.

Ayol to‘pponcha dastasi ustida yotgan erining qo‘liga qaradi.

— Nimayam derdim. Sening qobiliyatingga ishonaman, — dedi ayol.

— Sendan bu narsani kutsa bo‘ladi.

U barmoqlari bilan rulni qisib, boshini chayqadi.

— Elma, jinni bo‘lma. Hozir shaharga kelamiz-da, xatardan qutulamiz!

— Ha, ha, — javob berdi xotini loqayd o‘zini orqaga tashlab.

— Elma, gapimga quloq sol.

— Senga aytadigan gapim yo‘q, Sem.

— Elma!

Ular oq shaxmat shaharchasi yonidan ketishdi va zaif g‘azab o‘tida yongan Sem birin-ketin billur minoralarga qarab olti marta o‘q uzdi. O’q gumburidan shahar mayda shisha bo‘laklariga bo‘linib, tutday to‘kildi-qo‘ydi. Go‘yo u sovundan qirqib yasalganday har tomonga sochilib, erib ketdi.

Shahardan nom-nishon qolmadi. Sem qah-qah urib kuldi-da, yana o‘q uzdi. So‘nggi minora, so‘nggi shaxmat donasi yonib ketdi, uchqunlanib chaqnadi-da, moviy payrahalarga aylanib, yulduzlar tomon uchib ketdi.

— Men ularga ko‘rsataman! Men hammasiga ko‘rsatib qo‘yaman!

— Bo‘pti, bo‘pti, Sem. Ko‘rsataver. — Xira soya uning yuzini to‘sib oldi. — Ie, yana bitta shahar bor ekan! — Sem yana to‘pponchani o‘qladi. — Hozir uni nima qilishimni bir ko‘rib qo‘y!

Orqadan esa moviy kema-arvohlarning ko‘lankalari shiddat bilan yaqinlashib, tobora kattalashib borardi. Avvaliga u hatto ularni ko‘rmadi ham, faqat go‘yo qum ustida po‘lat g‘ichirlagandek, hushtak va chiyildoq baland ohangni eshitdi: U qum kemalarning o‘tkir tig‘li burunlari bilan dengiz tubi yuzasini kesayotgandagi chiqqan ovoz edi. Qizil va moviy nishonlar ostidagi moviy kemalarda ko‘k qiyofalar, niqob kiygan odamlar, kumush yuzli odamlar, ko‘z o‘rnida moviy yulduzi bor odamlar, yopishtirma oltin quloqli odamlar, temir iyakli va yoqut labli odamlar turar edi. Ular qo‘llarini ko‘kraklariga qo‘ygancha turar edilar. Ular marsliklar bo‘lib, uni ta’qib qilmoqda edilar.

Bir, ikki, uch… Sem sanardi. Mars kemalari unga juda yaqin keldi.

— Elma, Elma, men hammasiga bas kelolmayman.

Elma javob bermadi, hatto qimir ham etmadi.

Sem sakkiz marta o‘q uzdi. Bir qum kema mayda-mayda bo‘laklarga bo‘linib ketdi, yelkanlar, zumrad kema tanasi, uning bronza qorni, oysimon oppoq ruli va boshqa qismlari to‘kilib tushdi.

Niqobdagi odamlar bitta qolmasdan kemadan yiqilib tushishdi, qumga ko‘milib ketishdi va ularning har biri ustidan olov yallig‘landi,

avval qizg‘ish tusda yallig‘landi, so‘ng qop-qora qurum bo‘lib, burqsab ketdi.

Biroq boshqa kemalar hamon yaqinlashib kelar edi.

— Ular juda ham ko‘p ekan, Elma! — qichqirdi Sem. — Ular meni o‘ldiradilar!

U langarni irg‘itdi. Foydasiz. Yelkan taxlam-taxlam bo‘lib, hansiragancha pastga uchib ketdi. Kema, shamol, harakat — hamma narsa to‘xtadi. Marsning ulug‘vor kemalari Semni qurshab olib, uning boshi uzra g‘oz turganda butun Mars qotib qolgandek bo‘ldi.

— Yerlik, — allaqayoqdan balanddan kelgan ovoz quloqqa chalindi.

Kumush niqoblardan biri qimirladi, yoqut lablar so‘zlarga monand tarzda yaltilladi.

— Men hech narsa qilganim yo‘q! — Sem o‘zini qurshab olgan basharalarga qaradi. — Ular yuztadan kam emas edi.

Marsda juda oz marslik qolgan edi — narisi bilan yuz-yuz ellikta. Ularning barchasi shu yerda, o‘lik dengiz tubida, o‘zlarining qayta tirilgan kemalarida, qirilib ketgan shaxmat shaharlari yonida edilar, shaharlardan bittasi hozirgina tosh tekkan nozik guldonga o‘xshab, mayda-mayda bo‘lib ketdi.

Kumush niqoblar yaraqlar edi.

— Bular barchasi anglashilmovchilik, — dedi u bort ustiga kelib turib; uning xotini hamon kema tubida muk tushib, chala o‘lik bo‘lib yotardi; men Marsga xususiy ishbilarmon, biznesmen sifatida uchib kelganman, bunaqalari bu yerda ko‘p.

Parchalangan raketa bo‘laklaridan o‘zimga do‘koncha qurib oldim, do‘koncha, o‘zingiz ko‘rganingizdek, binoyidek, chorrahaning shundoq o‘zida. Bu joyni siz bilasiz. Quling o‘rgilsin qilib ishlangan-a, to‘g‘rimi? — Sem nigohini bitta basharadan boshqasiga olgancha, hiringlab kuldi. — Bu yerda bo‘lsa, mana bu marslik paydo bo‘lib qoldi, bilaman — u sizning oshnangiz. Men uni bilmay o‘ldirdim, ishoning, bu baxtsiz hodisa. Menga hech narsa kerak emas, men faqat sosiskaxona ochmoqchi edim, bu Marsda yagona birinchi, markaziy sosiskaxona bo‘lardi, men sizga aytsam.

Tushunayapsizmi? Butun sayyorada eng yaxshi qaynoq sosiskalarni, padariga qusur, qalampirli va piyozli sosiskalarni ulashish, yana po‘rtahol sharbatini manzirat qilish qandoq zo‘r.

Kumush niqoblar oy nurida harakatsiz yaltirar edi. Semga tikilgan sariq ko‘zlar ham chaqnar edi.

Uning oshqozoni qorni ichida qisilib, bir dumaloq toshga aylanib qoldi. U to‘pponchasini qumga irg‘itdi.

— Taslim bo‘ldim.

— To‘pponchangizni oling, — bir ovozdan deyishdi marsliklar.

— Nima?

— To‘pponchangizni? — Moviy kema burni uzra jimjimador qo‘l uchib chiqdi. — Oling uni, yo‘qoting.

Hamon ishonmagancha u to‘pponchani oldi.

— Endi esa, — davom etdi ovoz, — kemani ag‘daring-da, do‘koningizga qarab tuyog‘ingizni shiqillating.

— Hoziroqmi?

— Hoziroq! — dedi ovoz. — Biz sizga hech qanday yomonlik qilmaymiz. Sizga tushuntiramiz deguncha siz qochib qoldingiz. Qani, orqamizdan yuring.

Ulkan kemalar oppoq momiqlardek yengil o‘nglanib olishdi. Qanotli yelkanlari asta havoda pirpiray boshladi, go‘yo birov kafti bilan turtgandek. O’nglanayotgan niqoblar charaqlardi, soyalar muzdek olov bo‘lib kuydirar edi.

— Elma! — Sem inqillab-sinqillab kemaga tirmashib chiqdi. — Chiq, Elma. Qaytamiz. — U nogahoniy xaloskorlikdan shu qadar o‘zini yo‘qotgan ediki, hatto uning og‘zidan chiqayotgan so‘zlarni ham anglab bo‘lmasdi. — Ular meni hech narsa qilmaydilar, meni o‘ldirmaydilar, Elma. Chiq, musichaginam, o‘rningdan tur.

— Nima… Nima? — Elma sarosimalanib atrofga jovdirardi va ularning kemalari shamolda o‘nglanguncha ayol xuddi tushdagidek asta o‘rnidan turdi va tosh to‘ldirilgan qopdek, boshqa bir og‘iz ham so‘z aytmay, o‘rindiqqa og‘ir cho‘kdi. Kema ostidagi qum orqaga qochardi. Yarim soatdan keyin ular yana chorrahada paydo bo‘lishdi, kemalar langar tashlab, hamma pastga tushdi.

Sem va Elma ro‘parasiga marsliklarning Boshlig‘i kelib to‘xtadi: Niqob jilvirlangan bronzadan yasalgan, ko‘zlari — tubsiz qop-qorong‘i jarlik, og‘iz — so‘zlar shamolday uchib chiqayotgan g‘or.

— Do‘koningizni shaylang, — dedi ovoz. Havoda olmos qo‘lqopli qo‘l yilt etdi. — Shirinliklar tayyorlang, ziyofat tayyorlang, o‘zga yurt sharobidan tayyorlang, zero bugungi tun — haqiqatdan ham buyuk tundir!

— Bundan chiqdi, — so‘z qotdi Sem, — siz bu yerda qolishimga izn berayapsizmi?

— Ha.

— Mendan jahlingiz chiqmayaptimi?

Niqob jiddiy va qahrli, sovuqqon va so‘qir edi.

— O’zingizning yemakxonangizni tayyorlang, — asta dedi ovoz. — Endi mana buni oling.

— Bu nima? — Sem sirtida ilonsimon ierogliflar chuvalangan yupqa kumush varaq naychaga tikilib qoldi.

— Bu kumush tog‘lardan moviy tepaliklargacha, o‘lik dengizdan oy toshi va zumradlari bo‘lgan olis vodiylargacha Yerdan yuborilgan tuhfa, — dedi Boshliq.

— Hammasi menikimi? — bidirladi Sem quloqlariga ishonmay.

— Sizniki.

— Yuz ming kvadrat mil-a?

— Sizniki.

— Eshitdingmi, Elma?

Elma yerda orqasi bilan sosiskaxonaning alyuminiy devoriga suyanib o‘tirardi; u ko‘zlarini yumib olgan edi.

— Axir nega, ne sababdan bularning hammasini menga in’om etayapsiz? — Temir o‘yiqli ko‘zga qarashga harakat qilib, so‘radi Sem.

— Bu hammasi emas. Mana.

Yana oltita naycha. Boshqa yerlarning belgilari, nomlari ovoz chiqarib bitta-bitta sanaladi.

— Axir bu Marsning teng yarmi-ku! Men Marsning yarmiga xo‘jayinman! — Sem naychalarni Elmaning yuzi oldida silkitgancha devonavor qah-qah urib kular edi. — Elma, eshitdinmi?

— Eshitdim, — javob berdi Elma osmonga qarab.

Aftidan u nimanidir qidirardi. U asta-sekin o‘ziga kelmoqda edi.

— Rahmat, katta rahmat, — dedi Sem bronza niqobga.

— Bu bugun tunda sodir bo‘ladi, — javob berdi niqob. — Shay bo‘lib turing.

— Bo‘pti, darvoqe, bugun nima bo‘ladi — biron bir kutilmagan narsami? Bu yerdan raketalar, e’lon qilingandan oldinroq, muddatidan bir oy avval uchib keladimi? Odamlari bilan, konchilari bilan, ishchilari va ularning xotinlari bilan barcha o‘n ming odam, yuz ming odam uchib keladi dedingizmi?

Juda zo‘r bo‘lar edi-ku, to‘g‘rimi, Elma? Ko‘rdingmi, axir aytgan edim-a, bu qishloqda mingta aholi bilan ish bitib qo‘ya qolmaydi devdim-a. Bu yerga yana ellik ming odam uchib keladi, bir oydan keyin — yuz ming odam, yil oxiriga borib hammasi bo‘lib — Yerdan besh million odam keladi! Eng serqatnov yo‘l ustida, konlarga boradigan yo‘lda mening yakkayu-yagona sosiskaxonam, mening sosiskaxonam qad ko‘tarib turadi!

Niqob shamolda parvoz qilardi.

— Biz endi ketamiz. Shaylaning. Butun mana shu o‘lka sizlarga qoladi.

Uchar oy nurida qadimgi kemalar — qazilma gullarning ma’dan yaproqlari, moviy sultonlar, ulkan va shovqinsiz ko‘m-ko‘k kapalaklar — orqaga burilishdi va silliq qumdan sirpanib ketishdi, niqoblar esa hamon nur taratib yaltirar edi, bu hol so‘nggi shu’la, so‘nggi moviy ziyo tepaliklar orasida ko‘zdan yo‘qolmaguncha davom etib turdi.

— Elma, ular nega bunday qilishdi? Nega meni o‘ldirishmadi? Nahotki ular hech narsani bilmasalar? Ularga nima bo‘ldi o‘zi? Elma? Hech narsani tushuna oldingmi? — U ayolning yelkasidan siltaladi. —

Marsning yarmi — meniki!

Ayol osmonga qaradi, u nimanidir kutmoqda edi.

— Ketdik, — dedi Sem. — Hamma narsani shaylash kerak. Sosiskani qaynatish, bulochkalarni isitish, qalampir sousini qaynatish, piyozni tozalab, to‘g‘rash, ziravorlarni joy-joyiga qo‘yish, salfetkalarni xaltachalarga solib qo‘yish kerak, hammayoq yog‘ tushsa yalagudek toza bo‘lib turishi kerak! Eh-he! — U tovonlarini baland irg‘ishlatgancha qandaydir usulsiz raqsda chaqqon harakatlar qildi. — Men baxtliman, yigitcha, baxtliman, ser, o‘zicha xirgoyi qildi u. — Bugun mening baxtli kunim!

U telbalardek ishlar edi: sosiskalarni qaynayotgan suvga irg‘itar, bulkalarni ko‘ndalangiga parraklar, piyozni qiymalardi.

— Anovi marslik nima deganini eshitdingmi — kutilmagan voqea emish! Bu yerda faqat bir narsa bo‘lishi mumkin, Elma. Mana bu yuz ming odam muddatidan ilgari uchib kelayapti bugun tunda, uchib kelayapti! Bu yerda qanaqangi jiz-biz bo‘lib ketishini o‘ylayapsanmi! Yarim tungacha ishlaymiz, har kuni, u yerda esa yana turistlar bostirib keladi, Elma. Bu pul degani yomg‘irdek yog‘iladi hali.

U tashqariga chiqdi va osmonga qaradi. Osmonda hech narsa ko‘rinmas edi.

— Har daqiqada, — dedi u muzdek havodan huzur qilib simirgancha; kerishib, ko‘kragiga urib qo‘ydi. — Oh-oh!

Elma sukut saqlardi. U qovurdoqqa kartoshka tozalab archir va bir ko‘zi osmonda edi.

Yarim soat o‘tdi.

— Sem, — dedi u. — Ana u. Qara.

Sem qaradi va ko‘rdi.

Yer.

Bamisoli did bilan ishlov berilgan yorqin, yam-yashil Yer tepaliklar ortidan ko‘tarilib kelardi.

— Momo Yer, — mehr bilan shivirladi Sem. — Jondan aziz Momo Yer. Och va yalang‘och odamlaringni bu yoqqa, mening oldimga yubor. E… Anovi she’rda nima der edi? Och odamlaringni oldimga yubor, Momo Yer. Sem Parkxill hoziru nozir, qaynoq sosiskalar sizga muntazir. Qaynamoqda sous, suvga to‘lar og‘iz. Bo‘la qol, Yerjon, yubor raketalaringni!

U kashfiyotidan zavqlangani bir chetga o‘tdi. Mana u, sosiskaxona, o‘lik dengizning tubida archilgan tuxumdek yaltillab turibdi, yuzlab millik biydek cho‘lda nur va issiqlikning yagona manbai. Bahaybat qora badanda yolg‘iz tepib turgan yurakning o‘zginasi.

U hatto hayajonlanib ketdi va ko‘zlari faxr yoshlaridan namlandi.

— Bunda xohlasang-xohlamasang yuvosh tortib qolasan, — dedi u qaynab turgan sosiskalar, issiq bulochkalar va sariyog‘ isini ichiga

tortarkan. — Kelib qoling, — yuzlandi u yulduzlarga, — olib qoling.

Qani, kim birinchi?

— Sem, — dedi Elma, tim qora osmondagi Yer birdan o‘zgara boshladi.

U alangalandi.

Yer barkashining bir qismi to‘satdan million zarralarga parchalanib ketdi — go‘yo ulkan quroqsurat to‘kilib tushgandek bo‘ldi. Bir daqiqa o‘tgach, Yerni uch o‘lchamga kattalashgan dahshatli alanga tillari chulg‘ab oldi, so‘ng qisqara boshladi.

— Nima bo‘lgan edi unga? — Sem osmondagi yashil olovga qarab turardi.

— Yer, — javob berdi Elma qo‘llarini ko‘kragiga bosib.

— Qanaqasiga bu Yer bo‘lar ekan, bu Yer bo‘lishi mumkin emas! Yo‘q, yo‘q, Yer emas! Bo‘lishi mumkin emas.

— Bo‘lishi mumkin emas, deysanmi? — dedi Elma unga qarab. — Endi bu Yer emas, ha, endi bu ortiq Yer emas, — sen shunday demoqchimiding?

— Yer emas, yo‘q, yo‘q, bu Yer emasdi, — ulib dedi xotini.

U qimir etmay turardi, qo‘llari soch o‘rimlaridek osilib turardi. Og‘zi ochiq, ma’nosiz ko‘zlarining paxtasi chiqqan.

— Sem, — chaqirdi ayol. Necha kunlardan beri birinchi marta uning ko‘zlari jonlandi. — Sem!

Sem yuqoriga, osmonga qaradi.

— Xo‘sh, — dedi ayol. Bir daqiqa jimlikdan so‘ng nigohini bir narsadan boshqasiga oldi, so‘ng ho‘l sochiqni shiddat bilan bilagidan oshirib tashladi. — Chiroqni yoq, ko‘proq yoq, radioni qo‘y, eshiklarni lang ochib qo‘y! Mehmonlarning yangi to‘dasini kut — taxminan million yilcha. Ha, ha, ser, hamma narsa tayyor bo‘lguncha.

Sem qimir etmasdi.

— Eh, sosiska uchun qanday bemisil joy! — ayol stakandan tish tozalagich — xilola oldi-da, kurak tishlari orasiga suqdi. — Men senga bir sirni aytaman, Ser, — shivirlab dedi u eri tomon egilib, — nazarimda, o‘lik mavsum boshlanayotganga o‘xshaydi…

Noyabr 2005
KUZATUVCHILAR

O’sha kuni oqshom hamma uyidan chiqdi-da, osmonga tikilib qoldi. Ovqat ovqat joyida, idish idish joyida, kino kino joyida qolaverdi, hamma o‘zlarining endilikda u qadar yangi bo‘lmay qolgan ayvonchasiga chiqdi-da, yam-yashil Yer sayyorasiga ikki ko‘zlarini qadab olishdi. Bu mutlaqo noixtiyoriy tarzda sodir bo‘ldi; ular hozirgina radio tarqatgan yangilikning ma’nosini chaqishga tirishayotgandek yo‘l tutdilar. Ana u — Yer, u yerda urush pishib kelayotibdi, u yerda yuz minglab onalar, buvilar, otalar, aka-ukalar, amma-xolalar, amaki-tog‘alar, egachi-singillar bor. Ular ayvonda turgancha o‘zlarini Yerning borligiga ishontirmoqchi bo‘lar edilar; Bu bir vaqtlar Marsning borligiga ishonishdek qiyin bir narsa edi: nuqulgina telba-teskari jumboq. Sirasini aytganda-ku, Yer ular uchun o‘likdek bir narsa, ular u bilan uch yoki to‘rt yil avval xayrlashishgan. Masofani o‘ylasa, yurak uvishib ketadi, yetmish million yil tuyg‘ularni bo‘g‘adi, xotirani tilka-pora qiladi, Yerni kimsasizga aylantiradi, o‘tmishni sidirib tashlaydi va bu odamlarga bu yerda hech narsani o‘ylamasdan mehnat qilish imkonini beradi. Lekin bugun oqshom o‘lganlar oyoqqa turdi, Yerda yana hayot boshlandi, xotira uyg‘ondi va ular ko‘plab nomlarni tilga oldilar. Anavi erkak nima qilayapti-yu, manavi ayol nima qilayapti? Falonchi nima bo‘ldi? Odamlar o‘z ayvonlarida turib, bir-birlariga qarar edilar.

Soat to‘qqizda Yer go‘yo portlab ketdi va gurillab yona boshladi.

Ayvondagi odamlar xuddi olovni o‘chirmoqchi bo‘lgandek qo‘llarini tepaga irg‘itdilar.

Ular kutar edilar.

Yarim tunga kelib yong‘in so‘ndi. Yer o‘z o‘rnida qoldi. Ayvonlar bo‘ylab yengil nafas kuz shabadasidek yelib o‘tdi.

— Garridan biz hech narsa eshitmaganimizga ancha bo‘ldi.

— Unga nima qilardi?

— Oyimga xabar yuborsakmikan?

— U soppa-sog‘.

— Ishonching komilmi?

— Bo‘pti, faqat o‘zingni bos.

— Oyimga hech narsa bo‘lmagan deb o‘ylaysanmi?

— Bo‘lmasa-chi, ketdik, uxlaymiz.

Biroq hech kim ketmadi. Tungi maysazorga sovub qolgan kechlik ovqatni chiqarishdi, dasturxon tuzashdi va odamlar tungi soat ikkigacha, Yerdan nur radiosi xabari kelmaguncha ovqatni sanchqilari bilan erinibgina kovlar edilar. Bamisoli uzoqdan uchib kelayotgan

tillaqo‘ng‘izlardek morze harflari yalt-yult qilib ko‘zga tashlanardi va ular o‘qir edilar:

KO’Z KO’RIB QULOQ ESHITMAGAN ATOM OMBORI PORTLASHIDAN AVSTRALIYA QIT’ASI KUYIB KULGA AYLANDI.
LOS-ANJELES, LONDON BOMBARDIMON QILINDI.
URUSH. UYGA QAYTING, UYGA, UYGA.

Ular stoldan oyoqqa qalqdilar.

UYGA QAYTING, UYGA, UYGA, UYGA.

— Sem, bu yil akang Taddan biror narsa oldingmi?

— Bilmagandek gapirasan-a: Yerga xat yuborish besh tanga turadi. Bunga nimani ham yoza olarding.

UYGA QAYTING.

— Men negadir Jeyndan xavotirdaman — Jeyn singilcham esingdami?

UYGA.

Salqin tong otganda, soat uchda “Yo‘l tovarlari” do‘konining egasi boshini chiqardi. Ko‘chadan odamlarning butun bir to‘dasi kelar edi.

— Men esa bilib turib yopmagan edim. Nima olasiz, mister?

Tongga yaqin do‘konning barcha tokchalari bo‘m-bo‘sh bo‘lib qolgandi.

Dekabr 2005
SOKIN SHAHARLAR

O'lik Mars dengizi chekkasida sokin oq shaharcha yastangan. U huvillab yotardi. Ko'chalarda zog' uchmasdi. Kunduzi va kechasi univermaglarda tanho chiroqlar yonib turardi. Do'konlarning eshiklari lang ochiq, go'yo odamlar yopishni unutib, juftakni rostlab qolgandek. Go'ristondek jim-jit tamaddixonalarga kiraverishdagi sim dorlarda o'qilmagan, quyoshda sarg'aygan jurnallar shitirlar edi, ular bir oy muqaddam kumushrang raketa yordamida Yerdan keltirilgan edi.

Shaharcha o'lik edi. Undagi to'shaklar huvillagan va muzdek. Yakkayu yagona ovoz — simlardagi va yaqin-yaqingacha o'zlari bilan o'zlari bo'lib yashab kelgan dinamo mashinalardagi tokning vizillashigina quloqqa chalinardi. Hammomdan toshib chiqqan suv turar-joy xonalariga, ayvonchalarga, mo''jaz bog'chalarga oqib kirib, tashlandiq gullarni sug'orar edi. Tim-qorong'i tomosha zallarida ko'plab o'rindiqlarga pastdan yopishtirib tashlangan, hali tish izlari ham ketmagan saqichlar qotib yotardi.

Shaharcha ortida kosmodrom bor edi. So'ng raketa Yerga tomon yo'l olgan joyda haligacha achchiq tutun taratib tarashalar burqsirdi. Agar tangani teleskopga tushirib, uni Yerga qarab burilsa, u yerda quturib turgan katta urushni tomosha qilish mumkin bo'lardi. Deylik Nyu-Yorkning qanday portlayotganini ham ko'rsa bo'lardi. Yangi xildagi tuman qoplagan Londonni tomosha qilsa bo'lardi.

Shundagina bu Mars shaharchasini nega tashlab ketishlarini tushunish mumkin bo'lardi. Odamlar juda tez ko'chib ketganmidi? Duch kelgan do'konga kiring, g'azna tugmachasini bosing. Tangalari charaqlab va jangirlab quticha irg'ib chiqadi. Ha, Yerda ishlar yomonga o'xshaydi… Shaharchaning huvillagan ko'chalari bo'ylab ohista hushtak chalgan va bir maromda oldidagi bo'sh qutini tepib quvlagancha bir baland bo'yli ozg'in odam borardi. Tund, xotirjam nigohi uning so'qqaboshligini yaqqol ko'rsatib turardi. U yap-yangi tangalar jangirlab turgan cho'ntagiga qoq suyak qo'llarini suqdi.

Bir tangani asfaltga tushirib yuborib, miyig'ida kulib qo'ydi va yaltiroq tangalarini ko'chaga sepib borgancha yo'lida davom etdi…

Uning ismi Uolter Gripp edi. Ko'm-ko'k Mars tog'larida uzoq-uzoqlarda uning oltin koni va tanho kapasi bor edi va u har ikki haftada o'ziga yuvosh, oqila ayolni xotinlikka olgani qidirib shaharga tushar edi. Bu hol bir necha yildan beri takrorlanib kelar edi va har gal u o'sha-o'sha hafsalasi pir bo'lgan, ikki qo'lini burniga tiqqan holda yolg'iz qaytib kelar edi. Bir hafta burun shaharga kelib, u

nimani koʻrdi deng!

Oʼsha kuni u shu qadar hang-mang boʻlib qolgan ediki, duch kelgan birinchi tamaddixonaga kirdi-da, birvarakay uchta goʻshtli sendvich buyurdi.

— Hammasi boʻladi! — qichqirdi u. U peshtaxtaga yemaklarni va sal avval pechdan olingan nonni terib qoʻydi-da, stoldan changlarni qoqdi, oʻziga-oʻzi oʻtirishga izn berib, biron-bir oʻtkir ichimlikka ehtiyoj sezmaguncha ovqatni paqqos tushirdi. Uolter Gripp degan doʻkon sohibi oʻtaketgan ziyrak odam chiqib qoldi va koʻz ochib yumguncha unga vishillaydigan ichimlik quyib berdi.

U jinsi shimi choʻntaklariga qoʻliga ilingan qogʻoz pullarini tiqib toʻldirdi. Aravasiga oʻn dollarlik qogʻoz pullardan yukladi va jazavaga tushgan koʻyi shahar boʻylab yugurib ketdi. Shahar chekkasidayoq birdan uning miyasiga, menga nima boʻldi oʻzi, bu ahmoqona qiliqlarim bilan sharmanda boʻlayapman-ku” degan fikr urdi. Pullarni u nima qiladi? U oʻn dollarlik qogʻoz pullarni olgan joyiga qaytarib olib bordi, oʻzining katmonidan bir dollarlik pulni sugʻurdi, uni sendvich uchun tamaddixona kassasiga tashladi va choyga yana choraktalik qoʻshib qoʻydi.

Kechqurun u issiq turk hammomida mazza qidib choʻmildi, suvli goʻsht va noyob qoʻziqorin qayla tamaddi qildi, chet el oq xeres va qulupnay sharobidan noʻsh qildi. Yangi koʻk flanel kostyumini va uning choʻzinchoq boshi ustida oʻynab qoladigan kulrang bayramlik shlyapasini tanladi. “Bizning keksa shaykamiz” kuyini chalayotgan avtomat radiolaga tanga suqdi. Butun shahar boʻyicha yigirmata shunaqa avtomatga beshtalikdan suqib chiqdi. “Bizning keksa shaykamiz”ning mungli ovozlari kimsasiz tun va huvillagan koʻchalarni toʻldirib yangradi, u esa daroz, ozgʻin, tanho bir ahvolda yangi botinkalarini avaylab bosgan, sovuqqotgan qoʻllarini choʻntaklari ichida isitgan koʻyi hamon ketib borar edi.

Shundan buyon bir hafta oʻtdi. U Mars-Avenyudagi quling oʻrgilsin uyda uyquni urdi. Ertalab soat 9da turdi, hammomda choʻmildi-da, choʻchqa goʻshtli tuxumlar bilan nonushta qilgani eringancha shahar tomon odimlab ketdi. Xudoning bermish kuni ertalab u navbatdagi muzxonaga tonnalab goʻsht, sabzavot, limu kremi surilgan pishiriqlarni tiqib tashlar, Yerdan raketalar qaytib kelmaguncha oʻziga oʻn yillik oziq-ovqatni gʻamlab olardi. Hali raketalar qaytib keladimi-yoʻqmi, xudo biladi.

Bugun kechqurun esa u pushti, chiroyli rang-barang peshtaxtalardagi mum ayollarni tomosha qilgancha oldinga-orqaga tinmay egilar edi. Birinchi marta shaharning qay darajada oʻlikligini his etdi.

Bir krujka pivoni simirdi-da, asta tirjaydi.

— Jin ursin, — dedi u. — Men butunlay yolg‘izman.

U “Elit” kinoteatriga kirdi, yolg‘izlik haqidagi fikrlardan chalg‘itish uchun u o‘ziga kino ko‘rsatmoqchi bo‘ldi. Zal ichi bo‘m-bo‘sh va dahmadagidek jim-jit edi, keng ekran bo‘ylab kulrang va qora sharpalar suza boshladi. Uning vujudi titrab ketdi va shaytonlar in qurgan bu maskandan qorasini o‘chirishga jazm etdi.

Uyga qaytishga ahd qilib, u tez-tez yurib borardi, telefon qo‘ng‘irog‘ini eshitib, jim-jit mahalla tosh ko‘chasidan qariyb yugurib ketdi.

U quloq soldi.

“Qaerdadir telefon jiringlayapti”.

U olg‘a yurishda davom etdi.

“Hozir kimdir go‘shakni oladi”, — erinchog‘lik bilan o‘yladi u.

U yo‘lka chekkasiga o‘tirdi va botinkasidan shoshmay toshchalarni qoqib tushira boshladi.

Birdan qattiq qichqirib oyoqqa turdi:

— Kimdir! Samoviy kuchlar, nahotki bu men bo‘lsam!

U talvasa ichida atrofga alangladi. Qaysi uyda? Hov anavunda! Maysazor ustidan uchib o‘tdi, zinapoyalardan yuqoriga otildi, uyga kirdi, qop-qorong‘i zalda turibdi.

Shiddat bilan go‘shakni oldi.

— Allo! — qichqirdi u.

— Zzzzzzzzzzzz.

— Allo, allo!

Qo‘yib qo‘yishibdi.

— Allo! — o‘kirdi u va go‘shakni siltadi. — Padaringga ming la’nat! — O’zini o‘zi so‘kdi u. — Yo‘lakda o‘tirib senga zarurmidi, galvars! Shaytonvachcha, to‘nka! — u qo‘llari bilan telefon apparatini qattiq siqdi. — Qani, yana bir qo‘ng‘iroq qil. Qani!

Shu paytgacha Marsda undan boshqa biron-bir odam qolishi mumkinligi uning miyasiga ham kelmagandi. O’tgan butun hafta davomida u bitta ham odamni ko‘rmadi. U boshqa barcha shaharlar ham mana shunday kimsasiz deb xayol qilgan edi.

Endi esa hayajondan titrab-qaqshagancha ikki ko‘zini qora qutichadan ololmasdi. Avtomat telefon tarmog‘i Marsning barcha shaharlarini bir-biri bilan ulab turardi. Ular o‘ttizta — qaysi biridan qo‘ng‘iroq qilishdi ekan?

U bilmasdi.

U kuta boshladi. Yot xonadon oshxonasiga o‘tdi, muzlagan qulupnay erib yotardi, uni g‘amgingina yedi.

— Bu yerda hech kim bo‘lmagan aslida, — g‘udrandi u. — Balki shamol qaerdadir simyog‘ochni ag‘darganda tasodifan simlar ulanib qolgandir.

Lekin u kimdir narigi tomonda go‘shakni ilgandagi shirq etgan

ovozni eshitdi-ku?

Butun tunni Uolter Gripp zalda o‘tkazdi.

— Bu yerda telefonning hech qanday aloqasi yo‘q, — o‘zini ishontirib dedi u. — SHunchaki mening boshqa qiladigan ishim yo‘q.

U soatining chiq-chiqiga quloq tutdi.

— Xotinim endi qo‘ng‘iroq qilmaydi, dedi u. — Javob bermagan odamga qaytadan raqamlarni terish unga zarur kelibdimi? Ehtimol, ayni daqiqalarda shahardagi boshqa uylarga qo‘ng‘iroq qilayotgan bo‘lsa kerak! Men bo‘lsam bu yerda o‘tiribman… Shoshma! — u miyig‘ida kuldi. — Nega men “xotinim” deyapman?

U sarosima ichida ko‘zlarini pirpiratdi.

— Axir erkak kishi ham mana shunday dadil ko‘ng‘iroq qilishi mumkin-ku, shunday emasmi?

Yurak urishi sezilmasdi. Muzdek va bo‘m-bo‘sh, g‘oyat bo‘m-bo‘sh.

U ayol kishi bo‘lishini juda-juda xohlardi.

U uydan chiqdi-da, erta tong g‘ira-shirasida arang ko‘zga chalingan ko‘cha o‘rtasida to‘xtadi.

Quloq soldi. Tiq etgan tovush yo‘q. Na bir qush, na bir mashina ovozi eshitiladi. Faqat yurak dukullaydi. Duk — jimlik — duk. Azbaroyi zo‘riqishdan yuzi burishib ketadi. Shamol esa shu qadar mayin, shu qadar nazokat bilan esardiki, epkinlari uning pidjagi etaklarini ohista siypab o‘tadi.

— Jim, — shivirladi u. — Quloq sol!

U nigohini bir jim-jit uydan boshqasiga olgancha asta joyida aylandi.

Ayol raqamlarni ketma-ket teradi, o‘yladi u. Bu ayol kishi bo‘lishi kerak. Nima uchun? Faqat ayol kishigina barcha raqamlarni qayta teradi. Erkak kishi unday qilmaydi. Erkak kishi o‘ziga ishonganroq bo‘ladi. Axir men kimgadir qo‘ng‘iroq qilganmanmi? Yo‘q! Bunday qilish hatto xayolimga ham kelmagan! Bu ayol kishi bo‘lishi kerak. Albatta, ayol kishi, xudo shohid!

Quloq sol.

Uzoq-uzoqlarda, huv yulduzlar ostida telefon jiringladi.

U yugurib ketdi. Quloq solgani to‘xtadi. Ohista jiring. Yana bir necha qadam yurdi. Qattiq jiring eshitildi. U burildi-da, xiyobon yoqalab olg‘a intildi. Jiring kuchayib borardi! Oltita uydan o‘tdi, yana oltita! Juda ham qattiq jiringladi! Mana bumi? Eshik yopiq edi.

Ichkarida telefon jiringlardi.

— Eh, la’nati! — U eshik dastagini silkitdi.

Telefon jon-jahdi bilan jiringlardi.

U ayvondagi o‘rindiqni ko‘tardi-da, aylantirib mehmonxona derazasiga soldi va singan derazadan ichkariga sakradi.

U go‘shakni olishga ham ulgurmay, telefon jimib qoldi.

U xonadan-xonaga o‘tar, oynalarni sindirar, pardalarni yular, oshxona plitasini tepar edi.

Nihoyat majolsizlanib, u Yerdan Marsdagi barcha abonentlar qayd etilgan telefon kitobchasini oldi.

Ellik ming ismi sharif.

Birinchi ismi sharifdan boshladi.

Ameliya Amz. Nyu-Chikago. O’lik dengizning narigi tomonidan yuz mil narida. U shuning raqamini terdi.

Javob yo‘q.

Ikkinchi abonent Nyu-Yorkda moviy tog‘lar ortida besh ming mil narida turardi.

Javob yo‘q.

Uchinchi, to‘rtinchi, beshinchi, oltinchi, yettinchi, sakkizinchi; titroq barmoqlar go‘shakni bazo‘r ushlab turardi.

Ayol ovozi javob berdi:

— Allo?

Uolter javoban qichqirdi:

— Allo, ey xudoyim, allo!

— Bu yozuv, — dona-dona qilib dedi ayol ovozi. — Miss Elen Arazumyan uyda yo‘q. Ayting, sizga nima kerak, ovozingiz simga yozib qolinadi, bu xonim qaytgandan keyin sizga telefon qilishi uchun kerak bo‘ladi. Allo? Bu yozuv. Miss Elen Arazumyan uyda yo‘q. Ayting, sizga nima kerak…

Sem go‘shakni ildi.

Uning lablari titrardi.

Bir oz o‘ylab turib, u qaytadan raqamlarni terdi.

— Miss Elen Arazumyan uyga qaytganida, — dedi u, ayting: telefoni bilan qo‘shmozor bo‘lsin.

U Marsning markaziy kommutatoriga, Nyu-Boston, Arkadiya va Ruzvelt-Siti telefon stantsiyalariga qo‘ng‘iroq qildi. U yerda biron-bir joyga qo‘ng‘iroq qilishga harakat qilgan odamlar topilib qolishiga ko‘proq umidvor edi, so‘ng har bir shahardagi ratushalar va boshqa davlat idoralariga qo‘ng‘iroq qilib chiqdi. Eng yaxshi mehmonxonalarga qo‘ng‘iroq qildi. Yegani oldida, yemagani ketida qabilida yashashni qaysi ayol xohlamaydi. Birdan u qattiq qarsak chaldi-da, qah-qah urib kulib yubordi. Ha, bo‘lmasa-chi! Telefon daftarchasini ochib ko‘rdi-da, xalqaro telefon tarmog‘i orqali Nyu-Teksas-Sitidagi eng yirik pardozxona raqamini terdi. Baxmal qoplamali, hashamdor pardozxonadan boshqa qaerdan ham qidirarding ayolni, bu yerda u goh u oyna, goh bu oyna o‘rtasida yugurib yurgan, yuziga har turli moyupalarni chaplayotgan, elektr quritgich ostida o‘tirgan bo‘lishi kerak!

Qo‘ng‘iroq uzoq jiringladi. Simning narigi uchida kimdir

go‘shakni oldi.

Ayol ovozi yangradi:

— Allo?

— Agar yozib olinayotgan bo‘lsa, — chertib-chertib dedi Uolter Gripp, — men boraman-da, la’nati pardozxonangizning kulini ko‘kka sovuraman.

— Hech kim yozib olayotgani yo‘q. — Javob berdi ayol ovozi. — Allo, allo, nahotki u yerda tirik odam bo‘lsa! Qaerdasiz?

Ayol shodon chiyilladi.

Uolter stuldan ag‘darilib tushayozdi.

— Allo… — U ko‘zlari yongancha sakrab oyoqqa turdi. — E, xudo, bu qanday baxt, ismingiz nima?

— Jeneveva Selzor! — ayol go‘shakka yig‘lab gapirdi. — Oh, xudo, kim bo‘lishingizdan qat’i nazar, ovozingizni eshitganimdan shunday xursandmanki!

— Men Uolter Grippman!

— Uolter, salom, Uolter!

— Salom, Jeneveva.

— Uolter. Qanday ajoyib ism. Uolter, Uolter, Uolter!

— Rahmat.

— Axir qaerdasiz, Uolter?

Qanchalik mehribon, quvnoq, nafis ovoz… U ayol erkalab shivirlab gaplashishi uchun go‘shakni qulog‘iga qattiqroq bosdi. Uning oyog‘i chalinib ketmoqda edi. Yuzi lov-lov yonardi.

— Men Merlin-Villijdaman, — dedi u. — Men…

Zzzz.

— Allo? — Shoshib qoldi Uolter.

Zzzz.

U dastakka urib ko‘rdi. Hech gap yo‘q.

Allaqaerda shamol simyog‘ochni ag‘dargan. Jeneveva Selzor ham qanday tez paydo bo‘lgan bo‘lsa, shunday tez g‘oyib bo‘ldi.

Uolter raqamni terdi, biroq apparat gung-lol edi.

— Hechqisi yo‘q, uning qaerdaligini endi bilib oldim-ku.

Uolter yugurib uydan chiqdi. Ertalabki quyosh nurlari ostida u begona garaj ichidan sport mashinasini orqa bilan haydab chiqdi, orqa o‘rindig‘iga uydan olgan oziq-ovqat mahsulotlarini tashlab qo‘ydi va soatiga sakson mill tezlik bilan Nyu-Teksa-Sitiga qarab uchib ketdi. Ming mil, o‘yladi u.

CHida, Jeneveva Selzor, men seni uzoq kuttirib qo‘ymayman!

Shahardan chiqar ekan, u har bir muyulishda chinqiratib signal berardi.

Kun botardi, ayovsiz poygali kundan keyin u mashinani yo‘l chekkasiga burib to‘xtatdi, oyog‘ini qisgan botinkalarini yechib tashladi, o‘rindiqqa cho‘zildi-da, hashamdor shlyapasini horg‘in

ko‘zlari ustiga tortib qo‘ydi. U sekin, bir tekisda nafas olar edi. Oqshom qorong‘iligida sarin shabada esar, yulduzlar quvnoq jimjima qilar edi. CHor atrofda qadimdan-qadim Mars tog‘lari savlat to‘kib turardi.

Yulduzlarning nurlari shaxmat donalari kabi moviy yonbag‘irlarga tutashib ketgan Mars shaharchasi minoralari ichida jimirlar edi.

U uyqu bilan bedorlik o‘rtasidagi allaqaerda ivirsigancha cho‘zilib yotardi. U shivirladi: Jeneveva.

So‘ng asta xirgoyi qila boshladi. “Eh, Jeneveva, azizim, o‘taversin yillar bir-birin quvlab. Lekin azizim Jeneveva…” Uning ko‘ngli xotirjam edi. Quloqlari ostida ayolning past, mayin, bir maromdagi ovozi jaranglardi: “Allo, hoy Uolter! Hech kim yozib olmayapti. Axir qaerdasan, Uolter?”

U oh tortdi, qo‘lini tekkizib olmoqchidek, oy nuriga qarab uzatdi. Shamol uning uzun qora sochlarini, ajoyib sochlarini to‘zitib yubordi. Lablari tandirdagi yallig‘langan cho‘g‘dek. Yanoqlari esa hozirgina uzib olingan bir juft atir guldek. Badani ham oppoq tumandek harir, mayin, ravon, nafis ovozi esa unga qadimgi mungli bir qo‘shiqni xirgoyi qilayotgandek:

“Eh, Jeneveva, azizim, o‘taversin yillar bir-birin quvlab…”

U uxlab qoldi.

U Nyu-Teksas-Sitiga yarim tunda yetib keldi. Mashinani “Dellyuks” pardozxonasi yonida to‘xtatdi-da, heh deb qo‘ydi.

Mana, hozir ayol xandon tashlab kulgancha atirlar tumani ichidan yugurib chiqib keladi.

Ammo bunday bo‘lmadi.

— Uxlab qolgan. — Uolter eshik oldiga keldi. — Men shu yerdaman! — Qichqirdi u. — Allo Jeneveva!

Sokin shahar ikki barobar yorilib turgan oy nuriga chulg‘angan, allaqaerda shamol brezent pardani shaloplatib o‘ynardi.

U oynavand eshikni keng ochib, ichkariga qadam qo‘ydi.

— Eh-he! — yigit xijolat ichida kulib yubordi. — Yashirinma! Qaerdaligingni bilib turibman.

U barcha xonachalarni qidirib chiqdi.

Yerda mo‘‘jazgina dastro‘molcha topib oldi. Undan shunday mo‘‘jizaviy hid kelardiki, boshi aylanib, chayqalib tushdi.

— Jeneveva, — ovoz chiqarib dedi u.

U mashinasini bo‘m-bo‘sh ko‘chadan haydab borardi, biroq odam qorasi ko‘rinay demasdi.

— Hazil ham shunaqa bo‘ladimi-a…

U tezligini oshirdi.

— Shoshma-shoshma, axir bizni ajratib qo‘yishgan. Balki u men

bu yoqqa ketayotganimda Merlin-Villijga jo‘navorgandir? — U qadimgi dengiz yo‘lidan ketib, kunduzi bir-birimizni ko‘rmay qolgandirmiz.

Bu yerga kelishimni u tush ko‘ribdimi? — Axir men kelishimni aytmagandim-da. Telefon jimib qolgach, u qo‘rqib ketganidan meni qidirib, Merlin-Villijga qarab uchgandir! Men bo‘lsam, bu yerda yuribman, jin ursin, men ham odam bo‘ldimmi!

U klaksonni bosdi-da, shahardan o‘qdek uchib chiqdi.

U tun bo‘yi mashinasini uchirib yurdi. Miyasida faqat bitta o‘y: “Agar uni Merlin-Villijda topmasam, nima bo‘ladi?”

Bunday xayolni miyadan chiqarib tashlash kerak. U o‘sha yerda bo‘lishi kerak. U yugurib keladi-da, uni quchoqlab oladi, ehtimol bir gal hatto labidan o‘pib ham olar.

“Jeneveva, azizim”, — pedalni soatiga yuz mill tezlikda bosgancha hushtak chalib xirgoyi qilardi u.

Merlin-Villijda ertalabki sukunat hukmron edi. Do‘konlarda hali sariq chiroqlar yonib turardi; yuz soat beto‘xtov ishlagan avtomat nihoyat elektr tutashuvdan shirq etdi-da, jimib qoldi; shu bilan to‘liq sukunat cho‘kdi. Quyosh ko‘chalarni va loqayd muzdek osmonni isita boshladi.

Uolter faralarini o‘chirmay klaksonni chinqirtirib bosgancha Meyn-stritga qarab burdi. Ko‘zlarini do‘kon lavhalaridan uzmasdi. Yuzi devordek oqarib ketgan, horg‘in, qo‘llari terdan ho‘llangan chambar ustida sirg‘alardi.

— Jeneveva! — bo‘m-bo‘sh ko‘chaga qarab qichqirdi.

Pardozxona eshigi ochildi.

— Jeneveva! — U mashinani to‘xtatdi-da, ko‘chani chopib kesib o‘tdi.

Jeneveva Selzor pardozxona eshigida turardi. Qo‘llarida ochilgan shokolad qutichasi. Do‘mboq, oppoq barmoqlar qutini mahkam ushlab turardi. Uolter yorug‘ joyga kirib kelganda, ko‘rdiki, qizning yuzi dum-dumaloq va do‘mboqqina, ko‘zlari bir dumaloq xamirga suqib qo‘yilgan bir juft yirik-yirik tuxumdek. Oyoqlari kundadek yo‘g‘on-yo‘g‘on, yurishlari g‘ozdek alpon-talpon. Sochlari — qush uyasi ko‘rinishida obdon turmaklangan bo‘lib, rangi qandaydir qo‘ng‘ir tusda. Lab degan narsaning o‘zi yo‘q.

Uning o‘rnida andoza bosib chizilgan yo‘g‘on qizil yo‘l turardi, u quvongandek bir ochilib, qo‘rqqandek yumilardi. Qoshlarini esa butunlay terib tashlagan, atigi ikkitagina ingichka tuk qoldirgan, xolos.

Uolter dong qotib qoldi. Yuzidagi tabassumdan asar ham qolmadi. U hayron bo‘lgancha bir joyda turib qoldi.

Qiz shokoladlarni yerga tushirib yubordi.

— Siz Jeneveva Selzormisiz? — o‘z ovozi begona ovozdek tuyulib so‘radi Uolter.

— Siz Uolter Griffmisiz? — so‘radi qiz.

— Gripp.

— Gripp, — to‘g‘riladi qiz.

— Salom, — bazo‘r dedi yigit.

— Salom. — Qiz uning qo‘lini siqdi.

Qizning barmoqlari shokoladdek yopishqoq bo‘lib qolgan edi.

— Xo‘sh, — dedi Uolter Gripp.

— Nima, — so‘radi Jeneveva Selzor.

— Men faqat “Xo‘sh” dedim, — izoh berdi Uolter.

— Ha.

Soat kechgi to‘qqiz. Kunduzi ular shahar tashqarisiga borishdi, kechlikka esa, yigit file-minon pishirdi, biroq Jeneveva uni yaxshi qovurilmagan deb ko‘ngli tortmadi, shunda Uolter uni yaxshilab qovurishga qaror qildi va yo ko‘p qovurib yubordi, yo kuydirib yubordi, xullas, shunga o‘xshash bir narsa bo‘ldi-da. U kuldi-da, dedi:

— Ketdik kinoga!

Qiz “mayli” dedi-da, shokolad yuqi qo‘li bilan uning qo‘ltig‘idan oldi. Biroq uning talabi ellik yil oldingi Klark Geybl qatnashgan film bilan cheklanib qo‘ya qoldi.

— Rosa kulgili narsa ekan-ku? — Qiqirlab kuldi qiz. — Ichagimni uzdi-ya!

Film tugadi.

— Yana bir qo‘yib ber, — buyurdi qiz.

— Yana? — takror so‘radi yigit.

— Yana, — javob berdi qiz.

Yigit o‘girilgan edi, qiz unga yaqinlashdi va quchoqlab oldi.

— Sen hech ham men o‘ylagandek emas ekansan, lekin mayli, bo‘laveradi, — tan oldi qiz.

— Rahmat, — dedi yigit nafasi bo‘g‘ilib.

— Eh-h Geybl tushmagur: — Qiz uning oyog‘idan chimchilab oldi.

— Voy, — dedi yigit asta.

Kinodan keyin ular “xarid qilgani” jimjit ko‘chalar bo‘ylab yurib ketishdi. Qiz oynavand peshtaxtani urib sindirdi va o‘zi tanlab-tanlab topib olgan eng ochiq rang ko‘ylakni kiyib oldi. So‘ng boshiga bir shisha atirni to‘nkarib qo‘ydi-da, suvda bo‘kkan iskovichga aylandi-qo‘ydi.

— Yoshing nechada? — qiziqsindi yigit.

— Topib ol. — Qiz uni ko‘chadan yetaklab ketdi, undan asfaltga tinimsiz atir tomchilar edi.

— O’ttizga borgandirsan? — dedi yigit.

— Ana, xolos, — quruqqina javob berdi qiz. — Endi yigirma

yettiga kirdim men senga aytsam! Voy, manavi yerda qandolatxona ham bor ekan! O'lay agar, mana shu mashmashalar boshlangandan beri men boyvuchchalardek yashayapman. Qarindosh-urug'larni hech qachon sevgan emasman. Esini yegan hammasi. Ikki oy burun Yerga uchib ketishdi. Men ham so'nggi raketada uchib ketishim kerak edi, biroq qoldim. Bilasanmi nega?

— Nega?

— Chunki menga ta'na qilishdi. Mana shu yerda qoldim. — Istagancha o'zingga atir quy, xurmachangga siqqanicha pivo ich, konfet ye, hech kim senga: "Kaloriyang ko'payib ketadi!" deb ta'na qilmaydi. O'zim xon, ko'lankam maydon!

— O'zing xon, ko'lankang maydon. — Uolter ko'zlarini qisdi.

— Endi kech, — dedi qiz unga qarab.

— Ha.

— Men charchadim, — dedi qiz.

— Qiziq, men sira charchaganim yo'q.

— Ho, — dedi qiz.

— Tun bo'yi yotmasligim mumkin, — davom etdi yigit. — Bilasanmi, Mayk barida yaxshi plastinka bor. Yur, men senga o'shani qo'yib beraman.

— Men charchadim. — Qiz ayyorona yiltillab turgan ko'zlari bilan unga qaradi.

— Men esa gijinglagan toydekman, — javob berdi yigit. — Juda g'alati-ya.

— Yur pardozxonaga, — dedi qiz. — Men senga bir narsa ko'rsataman.

Qiz uni oynavand eshikdan ichkariga olib kirdi va katta oq quti yoniga yetaklab keldi.

— Men Teksas-Sitidan jo'nayotganimda, — tushuntirdi qiz, — mana shuni o'zim bilan olgan edim.

— U qizil tasmani yechdi. — Ming qilsa ham men Marsdagi yagona xonim, u esa yagona erkak bo'ladi deb o'yladim. Shuning uchun…

U qopqoqni ko'tardi va shildiroq, qizg'ish, burma qog'ozni bir chetga itqitdi. Qiz quti ichidagi narsani silab qo'ydi.

— Mana.

Uolter Grippning ko'zi xonasidan chiqib ketdi.

— Nima bu? — so'radi o'zini bazo'r tutib.

— Hech narsa bilmagandek gapirasan-a, tentakcha? Qaragin-a, hammasi kashtadan qilingan, hammasi shunday oppoqki, asti qo'yaverasan, ko'zing qamashadi…

— O'lay agar buning nimaligini bilolmayapman.

— Nikoh ko'ylagi, ovsargina!

— Nikoh koʻylagi? — yigit xirillab qoldi.

Uolter koʻzini yumdi. Qizning ovozi xuddi boya telefondagidek mayin, xotirjam, nafis jaranglar edi.

Ammo koʻzini ochib qarasaki… yigit duduqlanib qoldi.

— Juda chiroyli, — dedi u bazoʻr.

— Rostdanmi?

— Jeneveva. — Yigit eshika tikildi.

— Ha?

— Jeneveva, men senga bir narsani aytib qoʻyishim kerak.

— A?

Qiz unga yaqinlashdi, uning oppoq yuzidan atir burqsib turar edi.

— Senga aytmoqchimanki…

— Xoʻsh?

— Xayr!

Qiz qichqirishga ulgurmayoq yigit pardozxonadan otilib chiqdi-da, mashinasiga borib oʻtirdi.

Qiz tashqariga yugurib chiqdi va yigitning mashinani burib ketayotganiga qaragancha yoʻlak chekkasida qotib qoldi.

— Uolter Griff, qayt! — Hoʻngrab yigʻlab dedi qiz qoʻlini uzatib.

— Gripp, — toʻgʻriladi yigit.

— Griff! — qichqirdi qiz.

Qizning qadamlari va ingrashlariga ham qaramay, mashina jim-jit koʻchadan oʻqdek uchib ketdi.

Qiz doʻmboq qoʻllari bilan gʻijimlayotgan oppoq koʻylak uzra mashinaning pagʻa-pagʻa tutunlari suzib yurardi, osmonda esa yulduzlar charaqlar edi. Mashina boʻshliq ichiga kirib, qorongʻilikda koʻzdan yoʻqoldi.

Yigit uch kechayu uch kunduz surunkasiga mashinani haydab bordi. Bir gal orqasidan mashina kelayotgandek tuyulib, vujudini titroq bosdi, qora terga tushdi va u bepoyon Mars choʻlini kesib oʻtuvchi boshqa koʻchaga chiqib oldi, yoʻl odamsiz shaharlar yonidan oʻtib borardi. U ketaverdi, ketaverdi — bir hafta yurdi, yana bir kun yurdi, oxiri Merlin-Villijdan oʻn ming mil nariga borib qoldi.

Shunda u mayda doʻkonchalari boʻlgan Xoltving-Springvins degan qishloqqa kirib keldi, bu yerdagi doʻkonchalarda u kechqurunlari peshtaxtalarda chiroq yoqa olar, restoranlarida taomlar buyurib, bemalol oʻtira olar edi. Shundan buyon u shunday yashab kelayapti; uning yuz yilga yetgulik oziq-ovqatlar bilan toʻlib-toshgan muzlatgich xonachalari bor. Sigaretalari zaxirasi oʻn ming kunga yetadi, yumshoq toʻshakli a’lo sifatli karavoti ham bor. Yillar oʻtaverdi, bordi-yu, qachonlardir unga bitta-yarimta odam telefon qilib qolsa, u javob bermasdi.

Aprel 2026
UZOQ YILLAR

Shunaqa bo‘lib qoldi: Osmonda shamol esa boshlaganda, u va uning uncha katta bo‘lmagan oilasi o‘zlarining tosh kulbalarida o‘tirib olar edilar va yonayotgan tarashalarda qo‘llarini isitardilar. Shamol kanallar yuzini mavjlantirar, sal bo‘lmasa, osmondagi yulduzlarni uchirib yuborardi, mister Xeteuey esa, bu shinamlikdan mazza qilib o‘tirardi va xotiniga nimalarnidir gapirardi, xotini ham unga javob berar va u ikkala qizi va o‘g‘liga Yerdagi o‘tgan-ketgan narsalari haqida hikoya qilar edi. Bolalar esa otalarining so‘zlarini o‘zlaricha tushunar edilar.

Katta urushdan keyin yigirma yil o‘tgandi. Mars ulkan qabristonga o‘xshardi. Yer-chi? Unga nima bo‘ldi? Uzoq Mars tunlarida Xeteuey va oilasi ko‘pincha shu haqda mulohaza yuritishardi. Bu tunda quturgan Mars chang-bo‘roni qadimgi shahar ko‘chalaridan uvillagancha va qumga botib ketayotgan yangi plastik devorlarni uchirgancha Mars qabristonlarining pastqam mozorlari ustidan esib o‘tdi.

Nihoyat, bo‘ron tinib, havo ochildi va Xeteuey shamolli osmondagi yashil olovcha — Yerni ko‘rish uchun tashqariga chiqdi. G’ira-shira xona shiftidagi yonib turgan lampochkani o‘ziga yaxshiroq burib olmoqchi bo‘lgandek, u qo‘llarini yuqoriga ko‘tardi. Uzoqlarga o‘lik dengiz tuzlari uzra nigoh soldi.

“Butun sayyorada zog‘ uchmaydi, — o‘yladi u. — Bitta menman. Va ular”. U tosh kulbasi eshigi tomon burildi.

Hozir Yerda nimalar bo‘layotganiykin-a? O’zining o‘ttiz dyumli teleskopidan shuncha qaramasin, shu paytgacha biron-bir o‘zgarish payqamadi. “Agar o‘zimni yaxshi saqlay olsam, — o‘yladi u, — yana yigirma yil yashayman”. Qarabsanki, birontasi paydo bo‘lib qolibdi. Yo o‘lik dengizlar ortidan, yo koinotdan qizil olov rishtasiga bog‘langan raketada kelib turibdi-da.

— Bir aylanib kelay, — qichqirdi u eshikka.

— Yaxshi, — javob berdi xotini.

U xarobalar oralab, shoshmay pastga tushib ketdi.

— “Nyu-Yorkda yasalgan”, — o‘qidi u bir parcha temirda. — Qadimgi Mars shaharlari Yerdan kelgan bunday narsalardan hali ko‘pini ko‘radi…

U moviy tog‘lar oralig‘ida yaqin ellik asrdan buyon turgan Mars qishlog‘i tomonga qaradi.

Uolter xilvat Mars qabristoniga keldi: cho‘l shamoli esib turgan tepalikda uncha katta bo‘lmagan olti qirrali toshlar saf tortgan edi.

Boshini egib, u to‘rtta mozorga, to‘rtta beso‘naqay yog‘och xochga qaradi, ularning har birida nom yozilgan edi. Uning ko‘zlarida yoshdan asar ham yo‘q. Yoshlari allaqachon qurib bitgandi.

— Qilmishim uchun meni kechirasanmi? — so‘radi u xochlarning biridan. — Men juda, juda yolg‘iz edim. O’zing tushunasan-ku, shundaymi?

U tosh kulbasiga qaytdi va ichkariga kirishdan oldin peshonasiga kaftini qo‘yib, yana diqqat bilan osmonni ko‘zdan kechirdi.

— Nuqul kutganing-kutgan, qarashdan boshqa ishing yo‘qdek, — g‘udrandi u. — Ehtimol, kunlarning birida — tunda…

Osmonda qizil olov yondi.

Eshikdan tushayotgan yorug‘lik xalaqit bermasligi uchun u bir tomonga odimladi.

— Yana bir qaraganingda… — shivirladi u.

Qizil olov o‘sha joyda yonib turardi.

— Kecha kechqurun u yo‘q edi, — dedi Xeteuey.

U qoqilib, yiqilib tushdi, so‘ng oyoqqa turdi-da, kulba ortiga yugurib o‘tdi, teleskopini ochib, uni osmonga to‘g‘riladi.

Uzoq vaqt osmonga ko‘zini qisib qarab turgandan keyin — bir daqiqa o‘tgach, u uyining pastak eshigi tagida paydo bo‘ldi. Xotini, ikkala qizi va o‘g‘li unga o‘girilishdi. Uning ha deganda tili kalimaga kelavermasdi.

— Xushxabar olib keldim, — dedi u. — Men osmonga qarab turgan edim. Bu yoqqa raketa uchib kelayapti, u bizlarning hammamizni uyga olib ketadi. Erta tongda shu yerda bo‘ladi.

U qo‘lini stolga qo‘ydi, boshini kaftlari orasiga olib, yig‘lab yubordi.

U Nyu-Nyu-Yorkdan nima qolgan bo‘lsa, hammasini yoqib yubordi.

Mash’alani oldi-da, plastikdan yasalgan shu shaharga qarab ketdi va alanga bilan o‘tgan joyidagi barcha devorlarni turtib-turtib keta boshladi. Shahar nur va jaziramaning qudratli quyunidan yashnab ketdi. U bir kvadrat mil kenglikdagi gulxanga aylandi.

— Bunaqasini koinotda ko‘rish mumkin, xolos. Bu mash’al raketani mister Xeteuey va oilasi huzuriga olib keladi.

U uyiga qaytib keldi; yuragi tez-tez va og‘riqli urar edi.

— Ko‘rayapsizmi? — u baland ko‘tarilgan qo‘lida chang bosgan shishani ushlab olgandi. — Men mana bu sharobni ataylab mana shu tun uchun asrab qo‘ygandim. Vaqt-soati bilan kimdir bizni topib olishini bilar edim! Shu quvonchli on uchun ko‘taraylik!

U beshta qadahni to‘ldirdi.

— Ha, ozmuncha vaqt o‘tmadi… — O’z qadahiga ko‘zlarini tikib qaragancha, yana gap qotdi u. — Urush boshlangan kun esingizdami?

Yigirma yil va yetti oy muqaddam. Barcha raketalarni Marsdan uyga chaqirib olingandi. Sem, men va bolalar esa barchamiz bu vaqtda tog‘da edik, qadimshunoslik bilan mashg‘ul edik, marsliklarning qadimgi jarrohligini o‘rganayotgan edik. Biz otlarni o‘lgudek qilib choptirganimiz esingdami? Baribir ham rosa bir haftaga kechikkan edik. Shahar huvillab qolgandi.

Amerika dabdala bo‘lgandi, qolganlarni kutib ham o‘tirmay, raketalar bitta qolmay ketib qolgani esingdami, a, esingdami? Keyin qarasakki, qolganlar faqat biz bo‘lgan ekanmiz, esingdami? Ey, xudoyim, qancha yillar o‘tibdi-ya! Sizlarsiz men chiday olmasdim. Sizlarsiz men o‘zimni o‘ldirib qo‘ygan bo‘lardim. Sizlar tufayli shuncha kutishga chidab keldim. Keling, sizlar uchun ichaylik. — U qadahni ko‘tardi. — Bizning uzoq muddatli kutganimiz uchun ichaylik.

U sharobni sipqordi, xotini, ikkala qizi va o‘g‘li qadahlarni lablariga olib borishdi. Sharob to‘rttalovining ham iyaklari tagidan jildirab oqib tusha boshladi.

Tongga yaqin shahardan qolgan hamma narsani shamol katta-katta yumshoq qora laxtaklarga aylantirib, dengiz tubi bo‘ylab sochib yubordi. Yong‘in o‘chdi, biroq maqsadga erishilgan edi.

Osmondagi qizil dog‘ kattalasha boshladi.

Tosh kulba ichida qovurilgan zanjabil kulchasining totli hidi tarala boshladi. Xeteuey kirib kelganida xotini stol ustiga yangi nonli qaynoq qolipni qo‘ymoqda edi. Qizlari qattiq supurgi bilan yalang‘och tosh-polni hafsala bilan supurar, o‘g‘li esa, kumush idishlarni yuvar edi.

— Biz ularga shohona nonushta tayyorlaymiz; — Xeteuey shodon kuldi. — Eng a’lo liboslaringizni kiyib olinglar! U shoshib tomorqasidan ulkan temir saroy tomon o‘tdi. Bu yerda muzlatgich va uncha katta bo‘lmagan elektrostantsiya bo‘lib, ularni shu yaqin yillarda ta’mirdan chiqargan va bo‘sh vaqtlarida soatlarni, telefonlarni, magnitofonlarni mohirona ta’mirlagan ingichka, qaltiroq barmoqlari bilan hammasini joy-joyiga qo‘yib chiqqan edi. Saroyda u yaratgan talay buyumlar qalashib yotardi, jumladan nima ish qilishini hatto o‘zi ham bilmaydigan, mutlaqo g‘alati uskunalar ham bor edi.

U muzlatgich ichidan dukkakli donlar va yigirma yil avvalgi qulupnay solingan qirov bosgan oppoq qutilarni oldi. “Bu yoqqa chiq, badbaxt”, — dedi-da, muzlagan jo‘jani sug‘urdi.

Raketa qo‘nganda havoni har xil pazandalik taomlar hidi tutib ketgandi.

Xuddi yosh boladek Xeteuey nishablikdan pastga qarab chopdi. Ko‘kragida qattiq og‘riq sezib, u taqqa to‘xtadi. Narigi toshga borib o‘tirdi va endi nafasini rostlashni xayoliga ham keltirmay, olg‘a chopib

ketdi.

U choʻqqa aylangan raketadan koʻtarilgan qaynoq hovur ichida toʻxtadi. Lyuk ochildi. U yerdan bir odam moʻraladi.

Xeteuey kaftini peshonasiga qoʻyib, uzoq qarab turdi va oxiri dedi:

— Kapitan Uaylder!

— Kim bu? — soʻradi Uaylder. U pastga sakrab tushdi va cholga qaragancha qotib qoldi. Soʻng qoʻlini uzatdi. — Yopiray, bu Xeteuey-ku.

— Mutlaqo toʻgʻri, bu menman.

— Xeteuey mening birinchi ekipajimdan, Toʻrtinchi ekspeditsiyamdan.

Ular bir-birlariga diqqat bilan razm sola boshlashdi.

— Koʻrishganimizga ham ancha boʻldi, kapitan.

— Juda koʻp boʻldi. Sizni koʻrganimdan xursandman.

— Men qarib qoldim, — dedi Xeteuey soddadillarcha.

— Men ham endi yosh emasman. Yigirma yil sargardon kezdim: Yupiter, Saturn, Neptun…

— Boʻlmasa-chi, sizning Marsni mustamlaka qilishingizga xalaqit bermasligingiz uchun unvoningizni koʻtarishgan deb eshitdim. — Chol atrofga alangladi. — Siz nuqul sayohatlarda boʻlib, ehtimol, hatto nimalar boʻlganidan ham bexabardirsiz…

— Aytmasangiz ham bilaman, — javob berdi Uaylder. — Biz Mars atrofini ikki marta aylanib oʻtdik.

Sizdan tashqari Uolder Gripp degan yana bir odamni topoldik, xolos, bu yerdan oʻn ming mil narida.

Uni oʻzimiz bilan olib kelmoqchi boʻlgan edik, biroq u koʻnmadi. Biz uchib ketganimizda, u yoʻl oʻrtasida argʻimchoqda trubka chekib oʻtirardi, orqamizdan qoʻl siltab qoldi. Mars oʻlgan, butunlay oʻlgan, hatto marsliklar ham qolmagan. Yer qalay?

— Sizdan ortiq hech narsa bilmayman. Goh-goh Yer radiosini tutib qolaman, elas-elas eshitiladi.

Lekin har gal qandaydir begona tilda. Men esa chet tillaridan, afsuski, bitta lotin tilini bilaman. Ba’zi soʻzlarni anglab yetaman. Nima boʻlganda ham Yerning katta qismida odam qirilib ketgan, urush esa hali ham davom etayapti. Siz oʻsha yoqqa uchib ketayapsizmi, komandir?

— Ha. O’zingizdan qolar gap yoʻq, oʻz koʻzim bilan koʻrib, ishonsam deyman. Oramizda radio aloqasi yoʻq-da, masofa haddan tashqari katta. U yoqda nima boʻlishidan qat’i nazar, biz Yerga uchib ketayapmiz.

— Meni ham olib olasizlarmi?

Kapitan bir lahza taraddudlandi.

— E-ha, boʻlmasa-chi, bu yerda xotiningiz ham bor-a, esimda,

esimda. Bizlar, yanglishmasam, yigirma besh yil burun koʻrishgan edik, toʻgʻrimi? Sizlar Birinchi SHaharni qurganlaringizda, siz xizmatni tashlab, uni oʻzingiz bilan yerdan olib olgan edingiz. Bolalaringiz ham bor edi…

— O’gʻil va ikki qiz…

— Ha, ha, eslayapman. Ular shu yerdami?

— Kulbamizda, hov anovi tepalik ustida. Biz sizlarga ajoyib nonushta tayyorlab qoʻyganmiz, kelasizlarmi?

— Mehmonni atoi xudo deydilar, mister Xeteuey. — Kapitan Uaylder raketa tomonga oʻgirildi. — Kemadan tushinglar!

Ular qiyalikdan tepaga qarab borishardi. — Xeteuey va kapitan Uaylder, ularning ortidan yana yigirmata odam, kema ekipaji, ertalabki salqin havodan chuqur-chuqur nafas olar edilar. Quyosh chiqdi, havo ochiq edi.

— Spender esingizdami, kapitan?

— Uni esdan chiqarib boʻlarkanmi?..

— Yilda bir marta uning qabri yonidan oʻtishimga toʻgʻri keladi. Oxiri goʻyo u xohlagandek boʻldi. U bizning bu yerga qoʻnishimizga qarshi edi. Endi hamma bu yerni tashlab ketganidan boshi osmonga yetgan boʻlsa, ajab emas.

— Anovi-chi… Oti nima edi? Parkxill, Sem Parkxill, unga nima boʻladi?

— Sosiskaxona ochib olgan.

— Anovinga oʻxshab-a…

— Bir haftadan keyin esa urush boshlanib qoldi va u Yerga qaytib ketdi. — Xeteuey birdan yuragini changallagancha toshga oʻtirib qoldi. — Kechirasiz. Hayajonlanib ketdim. Shuncha yillar oʻtib, birdan sizni uchratib qolganim. Biroz nafasimni rostlab olay.

Uning yuragi qinidan chiqib ketayotgandek his qilmoqda edi oʻzini. U tomirini ushlab koʻrdi.

Rasvo…

— Bizda vrach bor, — dedi Uaylder. — Xafa boʻlmang, Xeteuey, bilaman, siz oʻzingiz vrachsiz, lekin baribir bizning vrach bilan maslahatlashib koʻramiz…

Doktorni chaqirishdi.

— Hozir oʻtib ketadi. — Ishonch bilan dedi Xeteuey. — Bu bari kutishdan, hayajondan.

U boʻgʻilib, lablari koʻkardi.

— Bilasizmi, — dedi u vrach uning koʻkragiga stetoskop qoʻyganida. — Shuncha yillar mobaynida men goʻyo bugungi kun uchun yashagandekman. Endi esa, siz shu yerdaligingizda meni Yerga olib ketgani kelishdi, goʻyo menga shundan boshqa narsa kerak emasdek. Endi men yotib, omonatni topshirsam boʻlaveradi.

— Mang, — doktor unga sariq hapdori berdi. — Bu yerda siz koʻproq dam olsangiz yaxshi boʻlardi.

— Keragi yoʻq. Yana bir oz oʻtiraman-da, tamom. Sizlarni koʻrganimdan shunchalik xursandmanki!

Yangi ovozlarni eshitgandan oʻzimda yoʻqman.

— Dori foyda berayaptimi?

— Zoʻr. Ketdik!

Ular tepalikka koʻtarilishdi.

— Alisa, qara, kimni olib keldim! — Xeteuey xoʻmraydi va boshini eshikka suqdi. — Alisa, eshitayapsanmi?

Xotini paydo boʻldi. Izma-iz baland, xushqomat ikkala qizi chiqib keldi, ularning ortidan yanada novcharoq barvasta oʻgʻli koʻrindi.

— Alisa, kapitan Uaylder esingdami?

Ayol dudmallandi, xuddi koʻrsatma kutayotgandek Xeteueyga qaradi, soʻng jilmaydi.

— Ha, boʻlmasa-chi, kapitan Uaylder!

— Kechagidek esimizda, missis Xeteuey, biz siz bilan — mening Yupiterga uchib ketishim arafasida siz bilan birga tushlik qilgan edik.

Ayol uning qoʻlini qizgʻin qisib qoʻydi.

— Qizlarim Margaret va Syuzen. Oʼgʻlim Jon. Bolalarim, sizlar, albatta, kapitanni unutmagandirsiz?

Qoʻl berib koʻrishishlar, kulgi, jonli soʻzlashuvlar.

Kapitan Uaylder burnini choʻzdi.

— Nahotki zanjabil kulchalari pishayotgan boʻlsa?

— Yeysizmi?

Hamma harakatga tushdi. Koʻz ochib-yumguncha yigʻma stollar qoʻyildi. Pechlardan qaynoq taomlar olib chiqildi, likopchalar, kumush idishchalar, kimxob sochiqchalar paydo boʻldi. Kapitan Uaylder missis Xeteueyga uzoq qarab qoldi, soʻng nigohini uning oʻgʻliga va jimgina harakat qilayotgan boʻydor qizlariga oldi. Oldidan lip-lip oʻtayotgan kishilarning yuzlariga qarar, yoshlarning silliq qoʻllarining har bir harakatiga razm solar, bitta ham ajin tushmagan nafis chehralardagi bironta ifodani nazardan qochirmasdi. U missis Xeteueyning oʻgʻli olib kelgan stolga oʻtirdi.

— Nechchiga kirdingiz, Jon?

— Yigirma uchga, — javob berdi yigit.

Uaylder sarosimalangancha qoʻllaridagi sanchqi va pichoqni aylantirib, oʻynardi. U birdan boʻzdek oqarib ketdi. Yonida oʻtirgan fazogir unga shivirladi:

— Kapitan Uaylder, bu yerda nimadir boʻlayotganga oʻxshaydi.

Oʼgʻli stollar olib kelgani ketdi.

— Nima demoqchisiz oʻzi, Uilyamson?

— Men 43 ga kirdim, kapitan. Yigirma yil avval men yosh

Xeteuey bilan birga o‘qigan edim. Lekin u endigina yigirma uchga kirdim deb aytayapti, lekin bu tashdan qaragandagina shunday. Bular hammasi noto‘g‘ri. U kam deganda 42 ga kirgan. Buning tagida nima gap bor, ser?

— Bilmayman.

— Rangingiz o‘chinqiraganday, ser?

— Tobim yo‘q. Qizimning ham tobi yo‘q.

— Men ularni yigirma yil avval ko‘rganman, ular esa o‘zgarmagan, bitta ham ajin tushmagan.

Sizdan bir narsani minnat qilib so‘rasam bo‘ladimi, Uilyamson? Men sizga bir topshiriq bermoqchiman.

Qayoqqa borishni va nimalarni tekshirishni tushuntirib beraman. Nonushtadan keyin asta juftakni rostlab qolasiz. Sizga bor-yo‘g‘i o‘n daqiqa kerak bo‘ladi. Bu yerdan qo‘l uzatsa yetadi. Biz qo‘nayotganimizda raketadan turib ko‘rgan edik. Iltimos! Bunday jiddiy gapirayotganingizning ma’nosini bilsak bo‘ladimi? — Missis Xeteuey shosha-pisha ularning kosalariga sho‘rva quyib chiqdi. — Bundoq kulib o‘tirsalaring-chi! Yana birgamiz, sayohat tugagan, sizlar deyarlik uydasizlar!

— Ha, ha, bo‘lmasam-chi. — Kapitan Uaylder kuldi. — Siz shunday ajoyibsizki, o‘n gulingizdan bir gulingiz ochilmagandek, missis Xeteuey!

— Eh, bor bo‘ling siz erkaklar!

U ayolning tovusdek yurishlariga qarab turdi. Ayolning yuzlari yal-yal yonar edi, xuddi naqsh olmadek, silliq va qip-qizil. Ayol hazillarga qo‘ng‘iroqdek kulib javob qaytardi, likopchalarga did bilan salat solib chiqdi, harakatlarida zarracha xatolik ko‘zga chalinmasdi. Daroz o‘g‘li va sarvqomat qizlari o‘zlarining xilvatdagi hayoti haqidagi uzoq hikoyalari bilan otasini mot qoldirib, basma-basiga dov tashlashardi va man-man ota bolalarining gapini eshitib, nochor taslim bo‘lardi.

Uilyamson nishablikdan pastga qarab yugurib ketdi.

— U qaerga ketdi? — so‘radi Xeteuey.

— Raketalarni tekshirgani, — javob berdi Uaylder. — Shunaqa, Xeteuey Yupiterda hech balo yo‘q, insonning u yerda qiladigan ishi ham yo‘q. Saturn va Pluton ham shunaqa…

Uaylder o‘z ovozini eshitmay, beixtiyor gapirardi; u faqat bir narsa haqida o‘ylardi: hozir Uilyamson pastga yugurib boradi-da, ko‘p o‘tmay qaytib keladi, tepalikka chiqib, javob olib keladi…

— Rahmat.

Margaret Xeteuey unga bir stakan suv quydi. To‘satdan harakatga kelib, kapitan ayolning yelkasiga qo‘lini qo‘ydi. Ayol bunga hech qanday munosabat bildirmadi. Uning badani issiq va nozik edi.

Kapitan qarshisida o‘tirgan Xeteuey dam-badam jimib qolar va

aftini ayanchli bujmaytirgancha ko‘kragini changallar edi, so‘ng yana ma’yus suhbatga quloq solar, har daqiqada Uaylderga achinib qarab qo‘yar, u esa birovlarga bildirmasdan huzur qilib, kulchasini kavshar edi.

Uilyamson qaytib keldi. Kapitan uning yelkasi osha: “Xo‘sh?” deb shivirlamaguncha indamay, sanchqi bilan taomni kavlab o‘tiraverdi.

— Men bu joyni topdim, ser.

— Xo‘sh, xo‘sh?

Uilyamsonning ranggi bo‘zdek oqarib ketgan edi. U nigohini quvnoq ulfatlardan uzmasdi. Qizlari bosiq jilmayib turishar, o‘g‘li allaqanday latifani hikoya qilardi.

Uilyamson dedi:

— Men qabristonga o‘tdim.

— To‘rtta xochni ko‘rdingizmi?

— To‘rtta xochni ko‘rdim, ser. Ular bus-butun turibdi. Xato qilmaslik uchun men ularni yozib oldim.

— U oppoq qog‘ozdagi nomlarni bittama-bitta o‘qiy boshladi: — Alisa, Margaret, Syuzen va Jon Xeteuey. Noma’lum virusdan vafot topganlar. 2007, iyul.

— Rahmat, Uilyamson. — Uaylder ko‘zlarini yumdi.

— O’n to‘qqiz yil avval, ser. — Uilyamsonning qo‘li titrardi.

— Ha.

— Axir bular kimlar?

— Bilmayman.

— Siz o‘zi nima qilmoqchisiz?

— Buni ham bilmayman.

— Boshqalarga aytsak bo‘ladimi?

— Keyinroq. Hech narsa bo‘lmagandek ovqatingizni yeyavering.

— Ortiq bir luqma ham tomog‘imdan o‘tmayapti, ser.

Raketadan keltirilgan sharob bilan qilingan nonushta tugadi. Xeteuey o‘rnidan turdi.

— Sog‘ligingiz uchun. Do‘stlarim bilan yana birga bo‘lishdan xursandman. Xotinim va bolalarim bilan birga bo‘lishdan ham. — Ularsiz bu yerda men tanholikda o‘lib ketgan bo‘lar edim. Ularning astoydil qilgan g‘amxo‘rliklari tufayli men bu yerda jon saqlab qoldim va sizlarni kutib olishga muyassar bo‘ldim.

U qadahni qo‘lida tutgancha o‘z oila a’zolari tomonga o‘girildi. — Ular xijolat ichida unga qarab turar edilar, qadah ko‘tarilganda esa ular butunlay ko‘zlarini yerga tikib olishdi.

Xeteuey oxirigacha sipqordi. Hatto qichqirishga ham ulgurmay, u yuztuban stol ustiga yiqilib tushdi-da, yerga ag‘darildi. Bir qancha odam yugurib keldi, uni to‘g‘rilab yotqizib qo‘yishdi. Vrach egilib, yuragiga quloq soldi. Uaylder vrachning yelkasidan turtdi. U

Uaylderga qarab boshini chayqadi.

Uaylder choʻkkalab oʻtirdi-da, cholning qoʻlidan ushladi.

— Uaylder? — Xeteueyning ovozi bazoʻr eshitilardi. — Men nonushtangizni harom qildim-a?

— Qoʻyavering.

— Men uchun Alisa va bolalar bilan xayrlashib qoʻying.

— Hozir ularni chaqiray.

— Yoʻq, yoʻq, kerak emas! — Nafasi boʻgʻilib shivirladi Xeteuey. — Bular tushunmaydilar. Men ham ularni tushunishlarini istamayman! Kerak emas.

Uaylder itoat qildi.

Xeteuey jon berdi.

Uaylder anchagacha uning oldidan jilmadi. Nihoyat oʻrnidan turdi-da, Xeteueyni qurshab olgan hayajonli odamlar oldidan nari ketdi. U Alisaning oldiga bordi, uning yuziga qarab dedi:

— Nima boʻlganini bilasizmi?

— Erimga bir narsa boʻldimi?

— U hozir jon berdi: yurak. — Uaylder ayolning yuziga razm solib tikilib turardi.

— Juda chakki boʻlibdi, — dedi Alisa.

— Yuragingiz achimayaptimi? — soʻradi Uaylder.

— U bizning qaygʻuga botishimizni istamasdi. U qachondir shunday boʻlishini bizga oldindan aytib qoʻygandi va yigʻlamaslikni buyurgandi. Bilasizmi, u hatto bizni yigʻlashga ham oʻrgatmagandi, yigʻlay olishimizni istamasdi. Odam uchun eng yomon narsa yolgʻizlikni anglash, gʻam va koʻz yoshi qilishni bilish derdi. Shuning uchun biz koʻz yosh toʻkish va qaygʻu degan narsalarni bilmasligimiz kerak.

Uaylder uning yumshoq, issiq qoʻllariga, chiroyli pardozlangan tirnoqlariga, nozik panjasiga razm soldi. Ingichka, oppoq, uzun boʻyniga va dono koʻzlariga qaradi. Oxiri dedi:

— Mister Xeteuey siz va bolalarni ajoyib qilib dunyoga keltirgan.

— Bu soʻzlaringizdan u rosa suyungan boʻlardi. U bizdan faxrlanardi. Keyin esa hatto bizni dunyoga keltirganini ham unutib yuborgandi. Bizni sevib qolgan, haqiqiy xotini va bolalari deb bilardi. Ma’lum ma’noda oʻzi shunday ham.

— Siz bilan u oʻzini yengil his etardi.

— Ha, yildan-yilga biz birga oʻtirib, suhbatlashar edik. U suhbatlashishni yaxshi koʻrardi. Tosh kulbamizni va kaminimizni yaxshi koʻrardi. Shahardagi haqiqiy uyimizga borib joylashsak ham boʻlardi.

Biroq u bu yerni jonidan yaxshi koʻrardi, bu yerda u goh joʻn, goh zamonaviy tarzda hayot kechirishi mumkin boʻlardi. U menga oʻzining

laboratoriyasi va u yerda qilgan har xil narsalari to‘g‘risida so‘zlab berardi. Bu tashlandiq Amerika shahrini u boshdan-oyoq pastdan ovoz kuchaytirgich bilan ta’minlab chiqqandi. Tugmachani bosdi, tamom — hamma joyda chiroqlar yonadi va xuddi unda o‘n ming odam bordek shahar shovqinga to‘lib-toshadi. Samolyotlar, avtomashinalarning guvillashlari, odamlarning g‘ovur-g‘uvurlari eshitiladi. U bo‘lsa o‘tirib olardi-da, sigara tortardi va biz bilan gaplashaverardi, pastdan esa shahar shovqini eshitilib turardi. Goho telefon jiringlab qolardi va tasmaga yozib olingan ovoz mister Xeteueydan turli ilmiy va jarrohlik masalalari bo‘yicha maslahat so‘rardi, u javob qaytarardi. Telefon ovozlari ham, biz ham, shahar shovqini ham, sigara ham — mister Xeteuey ham g‘oyatda baxtli his qilardik o‘zimizni. Uning qo‘lidan faqat birgina narsa kelmasdi — bizni keksaytira ololmasdi. O’zi kun sayin qarib borardi, biz esa o‘sha-o‘sha yosh bo‘lib turaverardik. Ammo menga shunday tuyulardiki, bu uni unchalik bezovta qilmasdi. Hattoki o‘zi shuni xohlardi deb o‘ylardim men.

— Biz uni pastda to‘rtta xoch turgan joydagi qabrga dafn etamiz. Menimcha, bu uning xohishiga javob beradi.

Ayol asta uning panjasiga qo‘l tekkizib qo‘ydi.

— Mening bunga ishonchim komil.

Kapitan ishga kirishib ketdi. Kichkina marosim tepalik etagi tomon yurib ketdi; oila uning ortidan yo‘lga tushdi. Ikki odam Xeteueyni usti yopilgan zambilda ko‘tarib ketdi. Ular tosh kulba yonidan o‘tishdi, so‘ng Xeteuey ko‘p yillar muqaddam o‘z ishini boshlagan saroy yonidan yurib o‘tishdi. Uaylder shu ustaxona eshigi yonida bir oz taraddudlandi. Bu sayyorada xotini va uchala farzandi bilan yashasa-da, — birdaniga seni shamol va jimjitlik bilan tanho qoldirib, ular o‘lib ketishsa, shu ham ish bo‘ldimi? — deb so‘radi u o‘zidan, — bunday ahvolda inson nima qilishi kerak bo‘ladi? U o‘lganlarni qabrga joylashtiradi, xoch qo‘yadi, so‘ng aql va xotira kuchini, qo‘lining chaqqonligini va topqirlikni yordamga chaqirib, ustaxonaga keladi-da, keyinchalik uning xotini, o‘g‘li, qizlari bo‘lgan narsani zarrama-zarra to‘play boshlaydi. Tog‘ tagidan barcha zarur narsalarni topish mumkin bo‘lgan Amerika shahri bo‘lganda, aqli raso odam, har qalay, o‘zi xohlagan narsani yarata oladi-da.

Ularning qadam tovushlarini qum yutib yubormoqda edi. Ular kelganida qabristonda ikki odam allaqachon qabrni kavlab bo‘layozgan edi.

Ular oqshomga yaqin raketa oldiga qaytib kelishdi.

Uilyamson boshini irg‘ab tosh kulbaga ishora qildi.

— Ularni nima qilamiz?

— Bilmadim, — dedi kapitan.

— Balki, ularni o‘chirib qo‘yarsiz.

— O’chirib? — kapitan bir oz taajjublandi. — Bu mening

xayolimga ham kelmagan edi.

— Axir siz ularni o‘zingiz bilan olib ketolmaysiz-ku?

— Yo‘q, ularni boshimga uramanmi?

— Nahotki siz ularni shu yerda, qanday bo‘lsa shundayligicha qoldirmoqchi bo‘lsangiz?

Kapitan Uilyamson to‘pponchani uzatdi.

— Agar biror narsa qo‘lingizdan kelsa, siz mendan kuchliroqsiz.

Besh daqiqadan so‘ng Uilyamson boshdan-oyoq terga botgancha kulbadan qaytib keldi.

— Mang, oling to‘pponchangizni. Endi men sizni tushundim. Men ularning oldiga qo‘limda to‘pponcha bilan kirib bordim, qizlardan biri menga jilmaydi. Qolganlari ham. Xotini menga choy tutdi.

Ey xudo, bu borib turgan qotillik bo‘lar edi-ku!

Uaylder bosh irg‘adi.

— Inson bunday mukammal narsani boshqa hech qachon yarata olmaydi. Ular uzoq umr ko‘rish uchun yaratilgan. — O’n, ellik, ikki yuz yil. Ana shunaqa… Ularning yashashga… yashashga bizdan haqlari zig‘ircha kam emas. Mendan ham, har birimizdan ham. — U trubkasidan kulni qoqib tushirdi.

— Mayli, bortga chiqinglar. Parvozda davom etamiz. Bu shahar baribir halok bo‘lgan, u biz uchun yaroqsiz.

Quyosh botdi. Muzdek shamol esdi. Butun ekipaj bortga chiqib olgan edi. Kapitan imillardi.

Uilyamson so‘radi:

— Siz tushib ketishga… e-e, ular bilan xayrlashishga shoshilmayapsizmi? Kapitan Uilyamsonga sovuq qarab qo‘ydi.

— Bu mening ishim.

Uaylder oqshom shamoliga yuzma-yuz tog‘ tomon odimlab ketdi. Fazogirlar uning qorasi kulba devori ichida g‘oyib bo‘lganini ko‘rib turishardi. Ular ayol soyasini ham ko‘rishdi. Ular komandirning ayol qo‘lini siqib qo‘yganini ham ko‘rishdi.

Avgust 2026
YOQIMLI YOMG’IR YOG’ADI

Mehmonxona bo‘lmada go‘yo birov eshitmay qolishidan qo‘rqqanday gapiruvchi soatlar tinmay: “chiq-chiq, yetti bo‘ldi, tong otdi, turing o‘rningizdan!” — deb qo‘shiq aytar edi. Ertalabki sukunat chulg‘agan uy huvillab turardi. Soat esa hamon chiqillar va bo‘shliq tomon nuqul o‘zining sevgan qo‘shig‘ini taratar edi: “sakkizdan o‘n daqiqa o‘tdi, nonushta qilish vaqti yetti, sakkizdan o‘n daqiqa o‘tdi!”

Oshxonada pechka chiyillab uh tortdi va uning lang‘illagan qorni ichidan sakkizta obdon yetirilgan qadah, to‘rtta sarig‘i aralashtirilmagan tuxum, o‘n olti bo‘lak cho‘chqa yog‘i, ikki chashka qahva va ikki stakan muzdek sutni ufurib tashladi.

— Butun Kaliforniya shtatining Ellendayl shahrida ikki ming oltinchi yil, to‘rtinchi avgust, — dedi oshxona shiftidan boshqa bir ovoz. — Bugun mister Fezerctounning tug‘ilgan kuni. Tilita to‘yining bir yilligi. Sug‘urta badalini to‘lash vaqti yetti. Suv, gaz, chiroq pullarini ham to‘lab qo‘yish kerak.

Devorning allaqaeridadir bir rele shiqirladi, elektr ko‘zlar oldida xotira tasmalari sizib chiqa boshladi.

Sakkizu bir, chiq-chiq, sakkizu bir, ishga borish kerak, maktabga borish kerak, bo‘la qolinglar chaqqon-chaqqon, sakkizu bir! Biroq eshiklar ochilib-yopilmas, gilamlarda rezina poshnalarning yumshoq odimlagan tovushi quloqqa chalinmasdi.

Tashqarida yomg‘ir yog‘ardi. Tashqi eshikdagi meteoquticha ohista qo‘shiq kuylardi: “Yomg‘ir yog‘ar kun bo‘yi, Issiqroq kiyin endi…” Yomg‘ir tomchilari huvillagan uy tomini hamon nog‘ora qilib chertardi.

Hovlidagi garaj eshigi qattiq g‘iyqilladi, ko‘tarilib ochilgan eshik ortidan chiqishga hozir turgan avtomashina ko‘rindi… Ikki daqiqa o‘tar-o‘tmas eshik yana asil holatiga qaytdi.

Sakkizu o‘ttiz daqiqada tuxumlar bujmayib qoldi, qadahlar esa toshga aylandi. Alyumin belkurakcha ularni chanoqqa itqitdi, u yerdan tizillagan qaynoq suv ularni ma’dan bo‘g‘izga dumalatib keldi, bo‘g‘iz ularning hammasini eritib yuborar va kanalizatsiya orqali uzoq dengizga eltib tashlardi. Ovqat yuqi likopchalar qaynoq yuvindi idishga sho‘ng‘ir va yaltiragancha uning ichidan suzib, tashqariga chiqib kelar edi.

“To‘qqizu o‘n besh, — kuyladi soat, — supurib-sidirish vaqti yetdi”.

Devordagi uyachalardan mitti robot sichqonlar to‘kildi. Barcha xonalarda ma’dan va rezinadan yasalgan jonsarak farroshlar ivirsir

edi. Ular o‘zlarini oromkursilarga sharaqlab urib olar, tukdor g‘o‘lachalarini aylantirar, gilam patlarini hurpaytirar, ichidan changlarini ohista so‘rib olar edilar. So‘ng bamisoli noma’lum kelgindilar kabi bir-bir o‘z go‘shalariga kirib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldilar. Ularning qizil elektr ko‘zlari so‘ndi. Uy chinniday top-toza bo‘lib qolgandi.

Soat to‘qqiz. Yomg‘ir pardasini surib, quyosh mo‘raladi. Xarobazor va kultepalar orasida yolg‘iz uy qo‘qqayib turardi. Butun shaharda shu uygina omon qolgandi. Har kuni tunda vayron bo‘lgan shaharning o‘zidan chiqarayotgan radioaktiv nurlari bir necha mil uzoqdan ham ko‘zga tashlanib turardi.

O’nu o‘n besh daqiqa. Bog‘dagi changlatgichlar tillarang favvoralar otib, ertalabki yengil havoni jimjimador suv munchoqlari mavjlariga to‘ldirdi. Deraza oynalaridan suv jilg‘alari oqib tusha boshladi, so‘ng sirtidagi oq bo‘yoq paqqos kuyib ketgan egma g‘arbiy devor bo‘ylab jildiray ketdi. Besh joydagi ola-chalpoqni aytmasa, butun g‘arbiy devor qop-qora tusda edi. Ana, bo‘yoq maysa o‘rgich uskunani dumalatib ketayotgan erkak qiyofasiga kirdi. Ana, xuddi fotosuratdagidek, bir ayol gul uzgani engashib turibdi. Undan narida — birgina ulkan lahzada yog‘ochda kuyib qotib qolgan yana bir qancha qiyofalar… Bolakay qo‘llarini yuqoriga siltab ko‘tardi, undan yuqorida irg‘itilgan koptok shakli qotib qoldi; bolakayning ro‘parasida bir qiz koptokni tutmoqchi bo‘lib qo‘llarini baland ko‘targan, ammo koptok pastga tushmay, havoda muallaq qolib ketgan.

Faqat beshta bo‘yoq dog‘i bor — erkak, ayol, bolalar va koptok. Qolgan barchasi — yog‘och ko‘mirning yupqa qatlami, xolos.

Changlatgichdan yog‘ayotgan sokin yomg‘ir bog‘ni to‘kilib tushayotgan nur uchqunlari bilan to‘ldirdi…

Shu kungacha uy o‘z tinchligini qanchalik mustahkam saqlab kelgan-a! “Kim u? O’zingizni taniting!” deya u nechog‘lik hushyorlik bilan so‘rab-surishtirmagan! Yolg‘iz tulkilardan va shikoyatnamo miyovlagan mushuklardan tegishli javob ololmagach, qariqiz shiddati ila derazalarni qarsillatib yopmagan va pardalarni silkib tushirmagan. Jinnilik bilan chegaradosh bo‘lgan muhofazakorlik — goho mexanizmlarda ham paranoyya dardi uchrab turadi-da.

Bu uy har bir tovushdan titrab tushar edi. Chumchuq nogahon qanoti bilan derazaga tegib ketdimi, o‘sha zahoti parda qattiq shatirlab ketar va yuragi yorilgan qush orqa-oldiga qaramay qochar edi.

Hech kim — hatto chumchuq ham — uyga tegishga botinolmasdi!

Uy minglab katta va kichik rohiblaru yugurdaklari bo‘lgan ibodatxona edi, ular toat-ibodat qilar, jo‘rlikda diniy qo‘shiq aytar edilar. Biroq ma’budlar g‘oyib bo‘lgan, marosim esa mantiqsiz va

ma’nosiz bir holda davom etardi.

O’n ikki.

Katta eshik yonida cho‘chib tushgan ko‘ppak irillab qo‘ydi.

Eshik it tovushini darhol bildi va ochildi. Bir vaqtlar sog‘lom, to‘q yashagan, endi esa sharti ketib, parti qolgan, tullak ko‘ppak ortidan iflos izlar qoldirib ichkariga yugurib kirdi. Uning orqasidan bezovta qilishgani, uyni yana supurib-sidirishga majbur qilishganidan zardalari qaynab darg‘azab sichqonlar kuymanglashib qolishdi!

Eshik tagidagi tirqishdan ichkariga bir kichkinagina chang zarrasi kirdi demaguncha devor panellari asta ko‘tarilardi-da, ko‘z ochib yumguncha u yerdan ma’dan farroshlar sakrab-sakrab yetib kelar edilar. Mittigina po‘lat jag‘lar tutib olgan jur’atkor qog‘oz parchasi, chang zarrasi yoki bir tola tuk devorlarda ko‘zdan yo‘qolardi. U yerdan quvurlar orqali axlat tagxonaga, axlat kuydirish mashinasining guvillagan qorniga borib tushardi. Axlat kuydirish mashinasi bamisoli dahshatli darrandaday qorong‘i burchakda cho‘nqayib turardi.

Ko‘ppak yuqoriga qarab chopib borar ekan, bu yerda o‘lik sukunatdan boshqa hech zog‘ yo‘qligini anglamagan holda — uy esa buni allaqachon anglab yetgandi — har bir eshik ro‘parasida o‘chakishib akillardi.

U hidlandi-da, oshxona eshigini tirnadi, so‘ng hidlashini to‘xtatmay eshik yonida yotib oldi.

Eshikning narigi tomonidagi pechkada chalpak pishmoqda edi, undan butun uyga yoqimli, qarag‘ay qiyomining ishtahani qitiqlaydigan va to‘yimli hidi anqimoqda edi.

Ko‘ppakning og‘zi ko‘pikka to‘ldi, ko‘zlari o‘t bo‘lib chaqnadi. U sapchib oyoqqa turdi, dumini tishlab gir aylandi, jon talvasasida tipirchiladi-da, tarrakday qotdi-qoldi. Shu alpozda u mehmonxona bo‘lmasida bir soatcha yotdi.

Soat ikki, — kuyladi ovoz…

Nihoyat kuygan narsaning bilinar-bilinmas hidini olib, uyalardan xuddi elektr yelpig‘ichi uchirgan qovjiroq yaproqlardek sichqonlar galasi yengil va shiddat ila vizillab otilib chiqdi.

Ikkiyu o‘n besh daqiqa.

Ko‘ppak g‘oyib bo‘ldi.

Tagxonadagi axlat pechkasi bexos alanga yallig‘idan yorishib ketdi va mo‘ridan yuqoriga qarab uchqunlar shiddat bilan ko‘tarildi.

Ikkiyu o‘ttiz besh daqiqa.

Ichki sahn devorlaridan qartavozlar stollari sakrab chiqdi. Ko‘zoynaklari yilt-yilt qilib, qartalar joy-joyiga uchib ketdi. Dub peshtaxtada kokteyllar va tuxumli sendvichlar paydo bo‘ldi. Musiqa yangradi.

Biroq stollar sukut saqlardi va hech kim qartalarga qo‘l urmadi.

Roppa-rosa to‘rtda xuddi ulkan kapalaklardek stollar taxlandi-da, yana devorlar ichiga kirib ketdi.

Soat to‘rt yarim.

Bolalar xonasining devorlari yorishib ketdi.

Ularda hayvonlar paydo bo‘ldi: sariq jirafalar, zangori arslonlar, qizil g‘azollar, gulobiy qoplonlar — barchalari billur to‘shami uzra sakrar edilar. Devorlar shishadan bo‘lib, tasavvurdagi bo‘yoq va o‘yinlarni o‘zida yaxshi aks ettirardi. Pinhoniy kinotasmalar tishlar bo‘ylab g‘altakdan g‘altakka suzib o‘ta boshladi va devorlar jonlandi. Xona poli shamoldan to‘lqinlanayotgan ekin dalasi misol chayqalardi, undan alyumin suvaraklar va temir chirildoqlar yugura boshladi, jazirama tinch havoda, hayvon izlarining hidi ichida g‘oyatda nafis qizil matodan yasalgan kapalaklar uchar edi! Temirchi bosqonining sim-siyoh qa’rida g‘ivirlayotgan asalarilar galasi ovoziga o‘xshash g‘o‘ng‘illash eshitildi.

Ortidan o‘lja yeb to‘ygan arslonning erinchoqlik bilan irillashi keldi. Okapi1 tuyoqlarining tovushi va siyrak maysalarning nozik poyalariga kelib tushayotgan muzdek yomg‘ir shatiri quloqqa chalindi. Ana, devorlar eriy boshladi, quyoshning olov seliga ko‘milgan o‘tloqzorlar va tubsiz jazirama osmonning bepoyon kengliklariga singib ketdi. Hayvonlar tikonli to‘qaylar va suvloqlar bo‘ylab yoyildi.

Bolalar uchun eshittirish vaqti bo‘ldi.

Soat besh. hammom shaffof qaynoq suvga to‘ldi.

Soat olti, yetti, sakkiz bo‘ldi. Tushlik solingan idishlar g‘aroyib qiliqlar ko‘rsatdi, so‘ng xonada nimadir shirq etdi va jonga huzur beruvchi olov yonib turgan kamin oldidagi temir shtativda nogahon yumshoq kulrang kuldan qalpoq kiygan kashanda sigara paydo bo‘ldi.

Soat o‘n. Ko‘zga ko‘rinmas simlar choyshabni isitdi — bu yer tunlari sovuq bo‘lardi.

Soat to‘qqizdan besh daqqiqa o‘tdi. Xona shiftidan ovoz keldi:

— Missis Maklellan, bugun qaysi she’rni eshitgingiz kelayapti?

Uy sukutda.

Oxiri ovoz dedi:

— Hech bir xohish izhor qilmaganingiz uchun men o‘zim tavakkal qilaman.

Jo‘rlikda chalingan ohista musiqa yangraydi.

— Sara Tisdeyl. Agar yanglishmasam, siz sevgan she’r.

Yoqimli yomg‘ir yog‘ib, anqiydi tuproq hidi,
Tongdan tonggacha chaqqon chittak tinmay sayraydi.
Anhorlarda baqalar qurillaydi har kecha,
Sa’valar xonish qilar dam ham olmasdan picha.
Oq ko‘pikli bog‘larda olcha gullari lov-lov,
Devorlardan ko‘chaga go‘yo otilar olov.

Urushni ammo hech kim, hech kim eslamas bu on,
Yotgan ilonni qo‘zg‘ash keltirar faqat ziyon.
Yer yuzida odamzot nasli qurur bo‘lsa gar
Na qushcha, na majnuntol qatra ko‘z yoshi to‘kar.

Bahor… ha, Bahor fasli yangi tongni kutadi,
Bilmaydiki, bizlar yo‘q, umri zoe o‘tadi.

Kaminda so‘nib borayotgan olov lip-lip qilardi, sigara unsiz kulga aylanib to‘kilib tushardi. Gung devorlar oralig‘ida bir-biriga qarama-qarshi ikki oromkursi turibdi, musiqa hamon yangrardi.

Soat o‘nda talvasa boshlanadi.

Shamol esdi. Daraxtdan sinib tushgan quruq butoq oshxona derazasiga taqalib qoldi. Dog’ ketkazgich eritmali shisha plitaga urilib chil-chil bo‘ldi. Bir lahzada butun oshxona olov ichida qoldi!

— Yong‘in! — qichqiriq eshitildi. Chiroqlar lip-lip qilardi, nasoslardan, tarang tortilgan shiftlardan suvlar tizillab otildi. Biroq suyuq yonilg‘i linolium bo‘ylab yoyilib ketdi, u singdi-da, eshik tagiga sho‘ng‘idi va ortidan talay odamlar jo‘rlikda kuylab yubordi:

— Yong‘in! Yong‘in! Yong‘in!

Uy bardosh berishga urinardi. Eshiklar zich yopilib qoldi, biroq deraza oynalari issiqqa chidolmay otilib ketdi va shamol olovni gurillatib yubordi.

Olov tazyiqi ostida o‘n milliardlab darg‘azab uchqun surbetlarcha yovuzlik ila xonadan-xonaga uchib kirar va zinapoyadan yuqoriga ko‘tarilardi, uy chekina boshladi.

Hamon devorlardan yo‘rg‘alagancha sarosimali suv kalamushlari chiqib kelmoqda edi va yana suv olib kelgani izlariga qaytar edilar. Devor changlatgichlar ham mexanik yomg‘ir sinchlarini havoga ko‘tarishdi. Ammo kech edi. Allaqaerda og‘ir uh tortib, yelkalarini kergan ko‘yi nasos qotib qoldi. Olov bilan olishayotgan yomg‘ir tindi. Necha kunlardan beri hammomlar va idish yuvish xonalarni ta’minlab kelgan zaxira qozondagi suv tugab bo‘lgandi.

Zinalarni birin-ketin yamlagancha olov chars-churs qilardi. Yuqoridagi xonalarda u mechkay odamga o‘xshab Pikasso va Matissning suvratlarini mazza qilib tushirar, moyli qobig‘ini yalar va xolstlarni avaylabgina qora naycha qilib o‘rar edi.

Olov karavotlargacha yetib bordi, hali zamon deraza rahlariga sakrab chiqadi-da, darpardalarga qaytadan gul beradi!

Biroq shu zahoti ko‘mak yetib keladi.

Chordoq tuynuklaridan ko‘zga ko‘rinmas robotlar pastga tikilib turar va forsunka og‘izlaridan yashil dorilar ufurardi.

Olov birdan turtinib ketdi; hatto fil ham o‘lgan ilonni ko‘rganda

shoshib qoladi-ku. Hozir bo‘lsa poldan yigirmata ilon o‘rmalab kelardi, yashil ko‘pikli sovuq, toza zahri bilan olovni o‘ldirmoqda edi.

Ammo olov ham anoyi emasdi, u alangali tillarini devor tashqarisidan yuqoriga, chordoqqa yubordi — u yerda nasoslar bor edi. Gumbur-r-r! Nasoslari boshqarib turadigan elektr miya birinchi nayzasini to‘sinlarga sanchdi.

So‘ng olov orqaga qaytdi va kiyimlar osig‘liq barcha hujralarni aylanib chiqa boshladi.

Dub suyaklari qisirlab, uy titrab ketdi, uning yalang‘ochlanib qolgan skeleti issiqdan bukildi, uning tomirlari — simlar tarmog‘i shalvirab osilib qoldi, go‘yo qizil tomirlari va kapillyarlari jazirama havoda tez-tez urishi uchun qandaydir jarroh uning terisini shilib olayotganday. Qorovul! Korovul! Yong‘in!

Qochinglar, jonlaringni saqlab qolinglar! Olov ko‘zgularni qishdagi mo‘rt muzdek mayda-mayda qilib ushatardi. Ovozlar esa nola qilardi: “Yong‘in, yong‘in, qochinglar, jonlaringni saqlab qolinglar!” Go‘yo ovloq o‘rmonga olib borib tashlangan va o‘layotgan o‘n ikki bola biri past, biri baland ovozda mungli bolalar qo‘shig‘ini aytayotgandek. Biroq simlarning qobiqlari qovurilgan kashtanlar misol birin-ketin tinmoqda edi. Ikkita, uchta, to‘rtta, beshta ovoz gum bo‘ldi.

Bolalar xonasida olov junglini qamrab oldi. Zangori arslonlar o‘kirar, qirmizi jirafalar sakrar edilar.

Qoplonlar dam sayin ranglarini o‘zgartirib, u yoqdan-bu yoqqa o‘zlarini otar edilar; olovdan jon saqlash niyatida o‘n million hayvon uzoqdagi qaynoq daryo tomon chopib bormoqda edi…

Yana o‘n ovoz o‘ldi. So‘nggi lahzada olov seli gumburi orasidan boshqa, ma’nosini yo‘qotgan ovozlarni farqlash mumkin bo‘lardi, hali vaqt bor edi, musiqa yangrardi, maysazor bo‘ylab teleboshqaruvli mashina o‘roq kezinardi, telbalangan soyabon goh ochilib, goh yopilib yotgan, tashqari eshik ostonasidan orqaga va oldinga sakragani-sakragan edi, — ostonadan birvarakayiga mingta buyum o‘tardi, xuddi yuzlab soat birdaniga zang urgan soatsozlik ustaxonasimi deysiz: qandaydir yagonalikka payvandlangan telba to‘s-to‘polon hukmron edi bunda; qo‘shiqlar, qiyqiriqlar va so‘nggi axlatchi sichqonlar tozalash, bu dahshatli, isqirt kulni yo‘qotish uchun inlaridan sakrab-sakrab chiqib kela boshladilar! Bir ovoz esa sodir bo‘layotgan voqealardan azbaroyi nafratlanganidan tutab yotgan xonada she’r o‘qiy ketdi, to barcha plyonkalar yonib bitmaguncha, barcha simlar erib ketmaguncha, barcha kesmalar to‘kilib tushmaguncha she’r o‘qishdan to‘xtamadi.

Nihoyat, olov uyni portlatib yubordi va u har tomonga dud va uchqun sochgancha yerga yuz tuban ag‘darilib tushdi.

Chala yongan va yonayotgan to‘sinlar to‘kilib tushguniga qadar bir soniya qolganda oshxonada pechka aql bovar qilmas tezlikda

nonushtalar tayyorlardi: o‘nta tuxum, oltita baton, ikki yuz bo‘lak cho‘chqa yog‘i — shular barini olov bitta qo‘ymay yamlar, hansirayotgan pechkani yana va yana jazavaga tushib ovqat pishirishga majbur qilardi.

Gumbur. Chordoq oshxona va mehmonxona bo‘lmasiga qulab tushdi, mehmonxona bo‘lmasi birinchi qavatga, birinchi qavat tagxonasiga yastlandi-qo‘ydi. Muzlatkichlar, oromkursilar, filmli o‘ramalar, karavotlar, elektr asboblari — hammasi bukilib-egilib pastga qulab tushdi.

Dud va sukunat. Tutun buruqsib ko‘tarilardi.

Sharqdan asta tong otib kelardi. Xarobalar orasida bittayu bitta devor butun saqlanib qolgandi.

Shu devor ichidan so‘nggi tanho ovoz gapirar edi, quyosh tutab yotgan siniq va bo‘laklarni allaqachon yoritganiga qaramay u hamon takrorlar edi;

— Bugun 2026 yil 5 avgust, bugun 2026 yil 5 avgust, bugun…

Oktyabr 2026
MARSDAGI TA’TIL

Nimagadir bu fikrni onam aytdi — butun oila baliq oviga bormaymizmi? Sirasini aytganda, bu so‘zlar oyimniki emasdi, Timoti buni juda yaxshi bilardi. Bu gaplar dadamniki edi, ammo nimagadir ularni dadam emas, uning o‘rniga oyim aytdi.

Shaqirlagan mars shag‘ali ustida og‘irligini u oyog‘idan bu oyog‘iga solib turgan dadam rozi bo‘ldi.

Hammamiz qiyqirib yubordik, ko‘z ochib-yumguncha lager yig‘ishtirildi, hamma narsa kapsula va konteynerlarga joylandi, oyim safar kombinezonini va kurtkasini kiydi, uning bir ko‘zi mars osmonida edi, titroq qo‘llari bilan trubkani to‘ldirdi va uchala bola shodon qiyqirgancha motorli qayiq tomon otildik — uchala o‘g‘ildan faqat Timotigina tinmay dadam bilan oyimga qarar edi.

Oyim tugmachani bosdi. Osmonga guvillagan tovush o‘rladi. Tumshuq tomondagi suv orqaga otildi, qayiq esa do‘stona “ura!” qichqiriqlari ostida olg‘a intildi.

Timoti qayiq tumshug‘ida otam bilan birga o‘tirib olgan, ingichka barmoqlari otamning sertuk qo‘li ustida. Qazib tashlangan maydoncha kanal muyulishi ortida ko‘zdan yo‘qoldi, ular Yerdan qilgan uzoq parvozlaridan so‘ng o‘zlarining mo‘‘jazgina oilaviy raketalarida shu yerga kelib qo‘ngan edilar. Uchish arafasidagi tunni, shoshilinch va to‘s-to‘polonni, otasi qandaydir yo‘l bilan topib kelgan raketani, dam olgani Marsga uchishlari haqidagi suhbatlarini esladi u. Ta’til uchun xiyla olislik qilardi-yu, biroq Timoti churq etmadi, chunki u yerda ukachalari ham bor edi-da. Ular Marsga omon-eson yetib kelishdi va o‘sha joydan ular bugun baliq oviga yo‘l olishdi.

Qayiq kanalda uchib borardi… Bugun dadamning ko‘zlari bejoroq edi. Nima bo‘lganiga Timotining hech aqli yetmasdi. Uning ko‘zlari charaqlardi va ularda qandaydir yengillik borga o‘xsharmidi-ey.

Bundan esa chuqur ajinlar xo‘mrayib va g‘amga botib emas, aksincha, kulib turar edi.

Kanalda yangi muyulish — qotib turgan raketa ham ko‘zdan yo‘qoldi.

— Uzoqqa boramizmi?

Robert qo‘li bilan suvni shaloplatdi — go‘yo binafsharang sathda jajji krab sakraganday.

Otam xo‘rsindi:

— Million yil muqaddamga.

— Ana, xolos! — hayron bo‘ldi Robert.

— Qaranglar, bolalar! — Oyim uzun egiluvchan qo‘lini ko‘tardi. — O’lik shahar.

Ular sehrlangandek o‘lik shaharga tikilishdi, shahar esa ularning o‘zlarigina uchun tegishli qirg‘oqda hayotsiz yastlanib yotar, Mars esa meteorologlar san’ati bilan hadya etilgan jazirama sokin yoz qo‘ynida mudrar edi.

Dadamning yuzida shaharning o‘likligidan suyungandek xushnudlik ifodasi o‘ynardi.

Shahar: qumloq tog‘ yonbag‘rida uxlab yotgan qizil qoyalarning betartib uyumi, bir necha yiqitilgan ustun, tashlandiq ziyoratgoh, undan narida — yana qum, yana qum, milma-mil davom etib ketaveradi… Kanal atrofida oq cho‘l, uning ustida moviy cho‘l.

To‘satdan qirg‘oq tomondan qush uchib chiqdi. Xuddi birov otgan toshday moviy hovuz ustidan oshib o‘tdi-da, suvga tushib, ko‘zdan g‘oyib bo‘ldi.

Vahimadan hatto dadamning yuzi o‘zgarib ketdi.

— Menga bu raketaga o‘xshab ketdi.

Timoti Yerni, urushni, vayron bo‘lgan shaharni, bir-birini o‘ldirgan odamlarni (o‘zi hisob qilgancha) ko‘rishga harakat qilib, osmon qa’riga tikildi. Ammo hech narsa ko‘rmadi. Urush shu qadar olisda va mavhum ediki, go‘yo ulkan va huvillagan jome qubbasi ostida hayot-mamot jangi qilayotgan ikki pashshaga o‘xshardi. Bema’niligi esa bundan-da beshbattar edi.

— Uilyam Tomas peshonasidan terni sidirdi va qo‘lida o‘g‘lining o‘rgimchak panjasidek yengil barmog‘ini his qilib seskanib tushdi.

U o‘g‘liga qarab jilmaydi:

— Xo‘sh, anavi qanday ekan, Tommi?

— Zo‘r, dada.

Timoti yonida turgan ulkan, katta yoshdagi bu uskunada nimalar sodir bo‘layotganini yaxshi tushunolmadi. Oftob urganidan po‘st tashlab yuborgan katta qirg‘iy burunli, tosh zo‘ldirni esga soluvchi ko‘m-ko‘k ko‘zli (bu zo‘ldirlarni u Yerdaligida ermak uchun o‘ynar edi), keng brija ichiga yashiringan qudratli ustunsimon oyoqli bu odamda nimalar bo‘layotganidan u bexabar.

— Nimaga buncha tikilib qarab qoldingiz, dada?

— Men yer mantig‘ini, sog‘lom fikrni, oqilona hukmronlikni, tinchlik va mas’uliyatni qidirayotgan edim.

— Xo‘sh, topdingizmi?

— Yo‘q. Topmadim. Ular endi Yerda yo‘q. Bundan keyin ham hech qachon bo‘lmaydi. Biz o‘z-o‘zimizni aldab kelgan ekanmiz, chamamda, aslida biz o‘zi yo‘q narsani qidirar ekanmiz.

— Nega bunday deysiz?

— Qara, qara, hov ana baliq, — ko‘rsatdi otam.

Uchala bola qiyqirib yubordi va qayiq bir yonga qiyshaydi, ular

baliqni koʻrishga oshiqib, ingichka boʻyinlarini choʻzgancha pastga engashishdi. Voy-boʻy, anovini qaranglar! Kumushrang halqa baliq yonginalaridan biltanglagan va bir lahza ichiga yegulik xoʻrak tushib qolgan qorachiqday qisilgan holda suzib oʻtib ketdi.

— Xuddi urushning oʻzi-ya, — gʻudranib dedi otam. — Urush suzayapti, xoʻrakni koʻrayapti, qisilyapti. Qarabsanki, Yerdan nomnishon yoʻq.

— Uilyam, — dedi onam.

— Kechir.

Ular jim boʻlib qolishdi, qarshida esa kanalning muzday zilol suvi shiddat bilan oqardi. Chor-atrofda tiq etgan tovush yoʻq, faqat motorning guvillashi, suvning shaloplashi, quyoshdan bugʻlangan havo oqimigina bor, xolos.

— Qiziq, marsliklarni qachon koʻramiz? — soʻradi Maykl.

— Tez orada, — uni ishontirib dedi ota. — Balki, kechqurun koʻrarmiz.

— Marsliklar bitta qolmay qirilib ketgan-ku, — dedi oyim.

— Yoʻq, qirilib ketishmagan, — anchadan keyin javob berdi dadam. — Men sizlarga marsliklarni koʻrsataman, bu aniq.

Timoti lunjini osiltirdi, biroq hech nima demadi. Hammasi qandaydir gʻalati edi. Ta’til ham, baliq ovi ham, kattalarning bir-biriga qarab olishlari ham.

Uning ukalari esa marsliklarni tomosha qilmoqchi boʻlib kanalning ikki metrli tosh devoriga kaftlari tagidan koʻz uzmay tikilib turishardi.

— Ular qanaqa oʻzi? — surishtirardi Maykl.

— Koʻrganingda bilasan. — Otasi goʻyo kinoya qildi va Timoti uning yanoqlari uchayotganini payqadi.

Onasi gʻoyatda nozik va moʻrt edi, zarrin sochlarini boshiga fir’avnlar bosh kiyimi — tiaraday tashlab olgan, koʻzlari esa kanalning soyadagi chuqur muzdek suvi rangiga oʻxshab, yoqut xolchalari boʻlgan qariyb qirmizi tusda. Uning koʻzlarida baliqday goh yorqin, goh xira, birlari tez, yashinday, birlari sekin, imillab suzayotganini koʻrish mumkin edi, gohida esa — deylik, ayol osmonga, Yer boʻlmagan joyga qaraganida, koʻzlarida hech nima boʻlmasdi, faqat rang boʻlardi, xolos… Ona qayiq tumshugʻida oʻtirardi, bir qoʻlini bortga, ikkinchisini shimining dazmollangan joyiga qoʻyib olgan, oftobda kuygan yumshoq boʻyin chizigʻi oq gulga oʻxshagan yoqa ochilgan joyga borib uzilar edi.

Ona hammavaqt oldinga qarardi, nimanidir ilgʻamoqchi boʻlardi, ammo ilgʻayolmay eri tomonga oʻgirilardi; erining koʻzlarida u oldindagi narsaning aksini koʻrdi, eri esa bu aksga oʻzidan nimadir bir narsani, qat’iy ahdi qarorini qoʻshdi va uning yuzidagi keskinlik

kamaydi, ayol yana oldinga o‘girilib oldi, bu safar nimani izlash kerakligini bilib, xotirjam tikila boshladi.

Timoti ham tikilar edi. Biroq u keng tekis vodiyning o‘rtasidagi binafsharang kanalning o‘qday tik chizig‘ini ko‘rib turardi, vodiy suv yuvgan pastqam tepaliklar bilan qurshalgan edi. Chiziq osmon chekkasidan nariga chiqib ketardi va kanal tobora nariga, yana ham nariga, xuddi bir silkisang quruq bosh chanog‘idagi qo‘ng‘izchalar kabi jangirlab to‘kilib tushgudek shaharlardan ham nariga cho‘zilib ketgandi. Issiq kun va salqin tunlarda yoz tushlarini ko‘rayotgan yuzta, ikki yuzta shahar…

Mana shu sayrni deb, mana shu baliq ovini deb ular millionlab mil uzoqlikdan uchib keldilar.

Raketada esa qurol bor edi. Ta’tilga ketdik emish! Mana, bu oziq-ovqatlar nechun — kam deganda rosa bir yilga yetadi — ularni raketaning shundoq yonginasiga g‘amlab qo‘yishibdi-ku, ta’til emish!

Ammo bu ta’til ortida quvonchli tabassum emas, balki qandaydir shafqatsiz, qattiq, hatto qo‘rqinchli bir narsa yashiringan. Timoti hech bu yong‘oqni chaqolmadi-chaqolmadi-da, ukalarining esa bu bilan ishlari yo‘q — o‘n yoki sakkiz yoshdagi bolakaylarning xayolida nimalar bo‘lardi deysiz?

— E, qani marsliklar? Odamni jinni qilishadi! — Robert iyagi uchini kaftiga qo‘ygancha kanalga tikildi.

Dadamning qo‘lida eskicha yasalgan bir atom radiosi bor edi: uning boshini, qulog‘i yonini bossang bo‘ldi, radio biron narsani kuylagancha yoki gapirgancha aylana boshlaydi. Dadam ayni paytda radioni tinglab turardi va uning chehrasi mana shu o‘lgan mars shaharlaridan biriga o‘xshab ketardi — tund, ezilgan, hayotdan asar yo‘q.

So‘ng u radioni onaga uzatdi. Onaning lablari ochildi.

— Nima… — Timoti savol bermoqchi bo‘ldi-yu, gapini tugatolmadi.

Chunki shu lahzada birining ketidan ikkinchisi bo‘lib ikkita ulkan portlash ularni silkib tashladi va hang-mang qilib qo‘ydi, ketidan yana kuchsizroq bir nechta portlash sodir bo‘ldi.

Ota boshini orqaga tashladi-da, tezlikni oshirdi. Qayiq suvni qattiq shaloplatgan va sakragan ko‘yi olg‘a uchib ketdi. Robert darhol o‘zini o‘nglab oldi, Maykl esa qo‘rqqanidan yuragi yorilgudek bo‘lib chiyilladi va naq burni tagidan uchib o‘tayotgan oqimga qaragancha onasining oyoqlariga yopishdi.

Tezlikni oshirib, ota qayiqni shiddat bilan burdi va ular ensiz qo‘shimcha kanalga, krablar hidi anqib turgan eski yarimvayrona toshqirg‘oqqa suzib kelishdi. Qayiq tumshug‘ini tosh qirg‘oqqa shunaqangi qattiq kelib urdiki, hamma oldinga munkib ketdi, ammo hech kim lat yemadi, ota esa ularning kelib yashiringan joyini bildirib

qo‘yishi mumkin bo‘lgan qayiqning suvdagi izi qolmadimikan deb kanaldan ko‘zini uzmasdi. Kanal sathidan uzun to‘lqinchalar yoyilib ketdi; toshqirg‘oqdan bo‘sa olib, ular orqaga qaytishdi, qaytishda orqadan yugurib kelayotganlarni tutib olishdi-da, quyoshning jimjimador nurlari ostida bari aralash-quralash bo‘lib ketdi, so‘ng mavjlar g‘oyib bo‘ldi.

Dada quloq tutdi. Ular barchasi quloq tutishdi.

Otaning nafasi bostirma tagida bo‘g‘iq aks sado berardi, go‘yo muzdek, nam tosh qirg‘oqqa birov musht tushirayotgandek. Endi nima bo‘larkin deya oyi mushukday ko‘zlarini dadaga tikkan.

Ota chuqur, yengil xo‘rsinib qo‘ydi-da, o‘zining ustidan qah-qah urib kuldi.

— Axir bu bizning raketamiz-ku! Nimagadir vahmachi bo‘lib qolibman. Ha-da, bu raketa.

— Bu nima edi o‘zi, dadajon, — so‘radi Maykl, — nima edi o‘zi bu?

— Raketamizni portlatib yuboribmiz, bor-yo‘q gap shu. — Timoti ishchan ruhda gapirishga urindi.

— Raketalar qanday portlashini hech eshitmaganmisan? Biznikini ham portlatishdi…

— Nega biz raketamizni portlatamiz? — Tinib-tinchimasdi Maykl. — Nimaga, dadajon?

— O’yinda shunaqa bo‘ladi, kallavaram! — javob berdi Timoti.

— O’yinda?! — Maykl bilan Robert bu so‘zni jonlaridan yaxshi ko‘rishardi.

— U portlashi uchun dadam ataylab shunday qilganlar, qaerga kelib qo‘nganimizni va qayoqqa gumdon bo‘lganimizni hech kim bilmasligi uchun! Bordi-yu, birov bizni topib olmoqchi bo‘lsa, bildingmi?

— Voy-bo‘y, sir-ku!

— O’z raketamizdan qo‘rqib yuribmiz, — iqror bo‘ldi ota onaga. — Asablar! Bu yerda boshqa raketalar paydo bo‘lib qolishi mumkinligini o‘ylash ham kulgili. Yana bitta raketa uchib kelishi hech gap emas: agar Edvards xotini bilan yetib kelolsa.

— U yana mitti priyomnikni qulog‘iga tutdi. Ikki daqiqadan keyin uning qo‘llari lattaday osilib tushdi.

— Bo‘ldi, tamom, — dedi onaga. — Atom nuridagi stantsiya hozirgina ishini tugalladi. Yerning boshqa stantsiyalari allaqachondan beri miq etmaydi. So‘nggi yillarda ular bor-yo‘g‘i ikki-uchtagina edi. Endi efirda o‘lik sukunat. Bu uzoqqa cho‘zilishi aniq.

— Qanchaga? — so‘radi Robert.

— Ehtimol… sizning chevaralaringiz radio tinglashsa kerak, — javob berdi ota. U boshini quyi solib o‘tirar va bolalar uning ichidan nimalar o‘tayotganini bilib turishardi: taqdirga tan berish, afsus-

nadomat, itoatkorlik.

So‘ng u yana qayiqni katta kanalga olib chiqdi va ular yo‘llarida davom etishdi.

Kech kirib borardi. Quyosh ufqqa bosh qo‘ya boshlagan; oldinda birin-ketin o‘lik shaharlar yastlanib yotardi.

Ota o‘g‘illari bilan quvnoq, bir maromda gap sotar edi. Ilgarilari u ko‘pincha kamgap, kamsuqum, qo‘pol bo‘lardi, endi esa — bular buni his qilib turishardi — dada so‘zlar bilan bamisoli ularning boshidan silamoqda edi.

— Maykl, shahar tanla.

— Nima, dadajon?

— Shahar tanla, toychog‘im. Yo‘limizda duch kelgan har qanday shaharni tanla.

— Bo‘pti, — dedi Maykl. — Qanday tanlayman?

— O’zingga eng ko‘proq yoqqanini. Robert, sen ham, Tim, sen ham tanla. Ko‘nglingizga mosini tanlayveringlar.

— Men marsliklari bo‘lgan shaharni tanlayman, — dedi Maykl.

— Marsliklar bo‘ladi, — javob berdi ota. — Va’da beraman. — Uning lablari o‘g‘illariga murojaat qilsa-da, ko‘zlari onada edi.

— Yigirma daqiqa ichida ular olti shaharni yoqalab o‘tishdi. Ota endi portlashlar haqida gap ochmay qo‘ygandi; endi go‘yo o‘g‘illarining ko‘nglini ovlash, ularning dilini xushlash dunyodagi eng muhim ishlardan biri bo‘lib qolgandi.

Mayklga birinchi shaharoq yoqib qoldi, biroq “shoshgan qiz erga yolchimas” degan maqolni eslashib, uni bundan qaytarishdi. Ikkinchi shahar hech kimning didiga mos kelmadi. Uni yerliklar qurgandi, uylarning yog‘och devorlarini qurt yeb, po‘k qilib qo‘ygandi. Uchinchi shahar Timotining ko‘ngliga xush yoqib qoldi — katta ekan! To‘rtinchi va beshinchi shaharlar hammaga kichkina bo‘lib ko‘rindi, ammo oltinchisini ko‘rib hammaning, hatto onalarining ham og‘zi ochilib qoldi, “Voy-bo‘!”,

“Zo‘r!”, “Ana buni shahar deydi-da!” kabi xitoblar yangradi.

Shu yerda elliktacha muhtasham bino bus-butun saqlanib qolgandi, ko‘chalari changli bo‘lsa-da, tosh yotqizilgan edi. Maydonlardagi ikki-uchta ko‘hna favvoralardan hamon nam sizib turar, botayotgan quyosh nurlarida jimirlab ko‘ringan suv jilg‘alari butun shahardagi hayotning yagona zuhuri edi.

— Shu yer, — bir ovozdan dedi hamma.

Ota qayiqni bandargohga olib keldi-da, qirg‘oqqa sakrab chiqdi.

— Mana, keldik ham. Bular barchasi — bizniki. Endi shu yerda yashaymiz!

— Yashaymiz? — Maykl shoshib dedi. U shaharga qaragancha oyoqqa turdi, so‘ng ular raketani qoldirgan tomonga yuzini o‘girdi. —

Raketa nima bo‘ladi? Minnesota nima bo‘ladi?

— Mana, — dedi ota. U radiopriyomnikni Mayklning mallarang boshiga taqadi. — Tingla.

Maykl quloq sola boshladi.

— Hech narsa yo‘q, — dedi u.

— To‘g‘ri. Hech narsa yo‘q. Hech narsa qolmagan. Hech qanaqa Minneapolis, hech qanaqa raketa, hech qanaqa Yer qolmagan.

Maykl bu dahshatli kashfiyot xususida biroz xayol surib turdi-da, g‘inshib qo‘ydi.

— Shoshma, Maykl, — taraddud bilan dedi ota. — Buning evaziga men senga ko‘proq narsa beraman.

— Nima? — Qiziquvchanlik ko‘z yoshlarini to‘xtatib qoldi, biroq agar otaning bundan keyingi kashfiyotlari avvalgisiday qayg‘uli bo‘ladigan bo‘lsa, Maykl hoziroq ho‘ngrab yig‘lab yuborishga tayyor edi.

— Bu shaharni men senga in’om etaman, Maykl. U seniki.

— Meniki?

Timoti qayiqdan sakrab tushdi.

— Qaranglar, yigitlar, balandga! Ha, yana ham balandga!

U otasi bilan baravar o‘ynardi, o‘ynaganda ham qotirib o‘ynardi, jonini jabborga berib o‘ynardi.

Hamma narsa joyiga tushib, o‘rnashib olganlaridan keyin u ehtimol o‘n daqiqaga biron xilvatga boradi-da, yig‘lab ko‘nglini bo‘shatib oladi. Biroq hozir “oila ta’tilda” o‘yini ketayotir va ukalari o‘ynab olishlari kerak.

Maykl va Robert qirg‘oqqa sakrab chiqishdi. Ular onalarining ham bandargohga chiqib olishida yordamlashib yuborishdi.

— Opachangizni ehtiyot qiling, — dedi ota; faqat anchadan keyingina uning nimani ko‘zda tutib shunday deganini anglab yetishdi.

Shunday qilib, ular shosha-pisha ulkan qizil tosh shahar tomon yurib ketishdi, ular shivirlab gaplashar edilar, — o‘lik shaharlarda nimagadir shivirlab gapirging, quyosh botishini tomosha qilging keladi.

— Besh kundan keyin, — asta dedi ota, — men raketamiz turgan joyga qaytib boraman va xarobazorga berkitib qo‘ygan ozuqalarni olib olaman. Bir yo‘la xotini va qizlari bilan Berta Edvardsni ham qidirib ko‘raman.

— Qizlari bilan? — takror so‘radi Timoti. — Nechta ular?

— To‘rtta.

— Buning oxiri voy bo‘lmasa deb qo‘rqaman-da, — asta boshini chayqab dedi ona.

— Qizaloqlar. — Maykl marslik sanamlarning tosh haykallari yuzini ermak qilib, aftini burishtirdi. — Qizaloqlar.

— Ular ham raketada uchib kelishadimi?

— Ha. Agar ilojini topisholsa. Oilaviy raketalar Oyga uchishga mo‘ljallangan, Marsga emas. Bizning bir omadimiz keldi-da, bu yerga uchib kelishda.

— Siz raketani qaerdan olgan edingiz? — shivirlab so‘radi Timoti; qolgan ikki bolakay oldinga chopib ketishgandi.

— Men uni yashirib qo‘ygan edim. Yigirma yil yashirdim, Tim. Yashirdim-u, hech qachon asqotmasa kerak deb o‘yladim. Urush boshlanganda davlatga topshirib yuborishim kerak edi, lekin men ham doim Mars haqida o‘ylardim…

— Sayr haqida ham!…

— Ha-da! Lekin bu gap ikkalamizning oramizda qolsin. Yerning umri bitayotganini ko‘rdim-da, men so‘nggi daqiqani kuta boshladim! — yo‘lga hozirlik ko‘ra boshladim. Bert Edvards ham bir kemani yashirib qo‘ygandi, bordi-yu, kimdir bizni yo‘ldan urishga harakat qilgudek bo‘lsa, baravar uchishni mo‘ljallab qo‘ygandik.

— Siz nega uni portlatib yubordingiz, dada?

— Hech qachon qaytib ketmasligimiz uchun, hech qachon. Yomon odamlar bir kun kelib Marsda paydo bo‘lib qolsalar, bizning bu yerdaligimizni bilmasliklari uchun shunday qildim.

— Shuning uchun ham sira osmondan ko‘z olmas ekansiz-da?

— Albatta, bu ahmoqlik. Hech kim bizni ta’qib etolmaydi. Hech nimada uchib kelisha olmaydi ular.

Men haddan tashqari ehtiyotkorman, hamma gap shunda.

Maykl yugurib qaytib keldi.

— Dadajon, rostdanam bu shahar biznikimi?

— Butun sayyora bizga qarashli, bolalarim. Butunlay va butunisicha.

Ularning nomlari endi quyidagicha edi — Qirlar va do‘ngliklar Qiroli, Asosiylardan eng Birinchisi, Ko‘zga Tashlanib Turuvchi Barcha Kengliklar Hukmdori, Begunoh Monarxlar va Prezidentlar, — butun olam hukmdori degan gapning mag‘zini chaqishga harakat qilish, axir bu qanchalik ko‘p narsa — butun olam-a!

Havosi siyrak Mars atmosferasida tez qorong‘i cho‘kmoqda edi. Otilib turgan favvora yonidagi maydonda oilasini qoldirib, ota qayiqqa bordi va bahaybat qo‘llarida bir quchoq qog‘ozni ko‘tarib qaytib keldi.

Tashlandiq hovlida u kitoblarni bir joyga uydi-da, yoqib yubordi. Ular isingani gulxan atrofiga cho‘nqayib o‘tirgancha kular edilar, Timoti esa olov yamlay boshlaganda sahifalarning hurkkan hayvonlarday sakrashlarini tomosha qilardi. Qog‘ozlar qariya terisiday bujmayar, alanga har tomondan qurshab kelib, so‘zlar safini tobora qisib kelar edi.

“Davlat obligatsiyalari; 1999 yilgi Tijorat statistikasi; Diniy xurofotlar, esse; Harbiy ta’minot haqidagi fan; Panamerika birligi muammolari, 1998 yil 3 iyuldagi Birja axboroti; Harbiy to‘plam…”

Ota aynan mana shu maqsadda ataylab shu kitoblarni ko‘tarib kelgan edi. Mana, gulxan oldida o‘tirib, u huzur qilib birin-ketin kitoblarni olovga tashlar va gap nimadaligini bolalarga uqdirar edi.

— Endi u-bu haqda o‘ylaydigan vaqtingiz keldi. Ehtimol, men sizlarni bundan qaytarganimda nohaq bo‘lgandirman. Bilmadim, sizlar qancha narsani tushunasizlar, ammo men sizlarga hamma narsani ochiq aytishim kerak, shundan yuzdan birini anglab ololsangiz ham katta gap.

U bir varaq qog‘ozni olovga tashladi.

— Men hayot tarzini yoqayapman — bu hozir Yer yuzidan kuydirib yo‘qotishayotgan hayot tarzining o‘zidir. Siyosatchiga o‘xshab gapirayotgan bo‘lsam, meni ma’zur tutasizlar, axir men shtatning sobiq gubernatoriman-da. Men halol odam edim va shuning uchun meni yomon ko‘rishardi.

Biron-bir jo‘yali ish qilish uchun Yerdagi hayot sira to‘g‘ri kelmas edi. Fan haddan tashqari tez va haddan tashqari uzoq ilgarilab ketgandi va odamlar mashinalar o‘rmoni ichida adashib qolgan edilar, ular xuddi bolalarday ermakbop narsalar, boshqotirma mexanizmlar, vertolyotlar, raketalar bilan andarmon bo‘lib qolgandilar. Kerakli narsa bilan ishlari yo‘q edi, nuqul yangidan-yangi mashinalarni o‘ylab topar edilar, ularni qanday boshqarishni xayollariga ham keltirmasdilar. Urushlar tobora vayrongar bo‘lib ketaverdi va oxiri Yerning boshiga yetdi. Radioning jim bo‘lib qolgani shundan.

Bizning qochib kelganimiz shundan. Tag‘in ham omadimiz bor ekan. Boshqa bitta ham raketa qolmadi. Biz aslo baliq tutgani kelmaganimizni bilish vaqti keldi. Men galga solaverdim, aytmasdim…

Yer halok bo‘lgan. Sayyoralararo aloqalar yangilanishidan oldin — agar ular yangilana olsa — asrlar o‘tar. O’shandagi hayot tarzi o‘zining yaroqsizligini ko‘rsatdi va o‘zini o‘zi bo‘g‘ib o‘ldirdi. Sizlar endi-endi yashay boshlayapsizlar. To o‘zlashtirib olmaguningizcha men bular barchasini sizlarga kunda takrorlayveraman…

Gulxanga yana qog‘ozlarni tashlash uchun u gapdan to‘xtadi.

— Endi bizlar yolg‘izmiz. Bizlar va yana ikki-uch kundan keyin uchib keladigan bir hovuch odamlar.

Hammasini boshidan boshlashga shu kifoya. Yerdagi hamma narsa ustiga xoch qo‘yish va yangi yo‘ldan borish uchun shu yetarli…

Otaning gapini tasdiqlagandek olov yorqinroq alangalandi. Hamma qog‘ozlar yonib bo‘lgandi, faqat bitta qog‘oz qolgandi. Yerning barcha qonun va dinlari halizamon shamol uchirib ketadigan mayda issiq kulga aylangandi.

Timoti dadasi gulxanga tashlagan so‘nggi varaqqa qaradi. Jahon xaritasi… U buraldi, olovdan jingirtob bo‘ldi, kulga aylandi va tungi qora kapalakday uchib ketdi. Timoti yuzini o‘girdi.

— Endi men sizlarga marsliklarni ko‘rsataman, — dedi ota. — Qani, turinglar. Sen ham, Alisa.

Ota uning qo‘lidan tutdi.

Maykl yig‘lab yubordi, dadasi uni bag‘riga oldi-da, olib ketdi. Xarobazorlar yonidan o‘tib, ular pastga, kanal tomonga yo‘l olishdi.

Kanal. Bu yerga ertaga yo birisi kuni qayiqda ularning bo‘lajak xotinlari — dada va oyilari bilan quvnoq qizchalari kelishadi.

Tun bostirib keldi, ko‘kka yulduzlar sochildi. Ammo Timoti Yerni topa olmadi. U botib ketgandi.

Buni o‘ylamasdan bo‘larmidi…

Xarobazorlar orasida haqqush qichqirardi. Ota yana tilga kirdi:

— Onangiz bilan men ustozlaringiz bo‘lishga urinib ko‘ramiz. Bu qo‘limizdan kelishiga ishonaman…

Bizlar ancha narsani ko‘rishga va boshdan kechirishga ulgurdik. Bu sayohatni biz ancha oldin, sizlar hali dunyoga kelmagan paytlarda o‘ylab qo‘ygandik. Urushlar bo‘lmaganida ham biz, ehtimol, baribir Marsga uchib kelar, shu yerda o‘zimizcha yashab, o‘z hayot tarzimizni yaratgan bo‘lardik. Marsni ham zaharlash uchun Yer tamadduniga yuz yil kerak bo‘lardi. Endi-ku, albatta…

Ular kanalga yetib kelishdi. U uzun, to‘g‘ri, sovuq bo‘lib, uning muzdek oynasida tun aks etib turardi.

— Men har doim marslikni juda-juda ko‘rishni xohlab kelardim, — dedi Maykl. — Qani ular, dada?

Siz va’da bergandingiz-ku.

— Ana ular, qara, — javob berdi ota. U Mayklni yelkasiga o‘tqazdi-da, pastni ko‘rsatdi.

Marsliklar! Timotining vujudi titrab ketdi.

Marsliklar. Kanal ichida. Suv yuzida Timoti, Maykl, Robert, ona va otaning akslari ko‘rinib turardi.

Shovullayotgan suv ichidan marsliklar ularga unsiz uzoq, uzoq qarab qolishdi…

Tamom.

Ruschadan Amir Fayzulla tarjimasi.
www.ziyouz.com
2008